

N.Z. ABIDOVA

MAXSUS PSIXOLOGIYA (TIFLOPSIXOLOGIYA)



CH0000033617


TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

N.Z.Abidova

Maxsus psixologiya
(Tiflopsixologiya)

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan*



TOSHKENT - 2017

UO‘K: 159.922-056.262(075.8)

KBK: 88.4ya73

A 17

N.Z.Abidova. Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya).

(Darslik). -T.: «Barkamol fayz media», 2017, 192 bet.

ISBN 978-9943-5010-7-2

Mazkur darslik “5111900 – Defektologiya” ta’lim yo‘nalishi uchun tuzilgan bo‘lib, tuzilishi va mazmuni, nazariy va amaliy yo‘naltirilganligi, qo‘llaniladigan bo‘limlarining maqsadga yo‘naltirilgan ravishda ketma-ketligi hamda mavzularining aniqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Maxsus psixologiya fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanadi. “Maxsus psixologiya” darsligida materiallar o‘quv rejada amalga oshirish rejalashtirilgan umumiy pedagogika, umumiy psixologiya, defektologiyaning klinik asoslari, maxsus pedagogika kabi fanlar bilan uzviy aloqadorlikda bayon etilgan. Darslik defektologiya yo‘nalishi talabalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari, amaliyotchi defektologlar, o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, umuman shu sohaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

М.Ф. Хакимова – pedagogika fanlari doktori;

Ш.М.Амурсаидова – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-5010-7-2

© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.

SO‘Z BOSHI

Bugungi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol inson shaxsini shakllantirish davrimizning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Chunki, Ona-Vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning ilmiy, salohiyati, iste’dodi, mustaqil fikrlashiga bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham bilimdon, keng dunyoqarashga ega, barkamol va ma’naviy yetuk shaxslarni tarbiyalab yetishtirish vazifasi davlatimiz siyosatining ustuvor darajasiga ko‘tarildi. Ko‘rish nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarni o‘rganish va ularni tarbiyalash, o‘qitish bo‘yicha to‘plangan tajribalar ular bilan korreksiyalash ishlarining muvaffaqiyatli bo‘lish imkoniyati hamda zarur bo‘lganda ularni keyinchalik ham o‘rganish, maxsus metodikalarni takomillashtirish sohasida hozirgacha bir qator hal etilmagan muammolar mavjud.

Mazkur darslik “5111900 – Defektologiya” ta’lim yo‘nalishi uchun tuzilgan bo‘lib, tuzilishi va mazmuni, nazariy va amaliy yo‘naltirilganligi, qo‘llaniladigan bo‘limlarining maqsadga yo‘naltirilgan ravishda ketma-ketligi hamda mavzularining aniqligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Maxsus psixologiya darsligi ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning inson shaxsidagi psixologik holatlar, xususiyatlar, jarayonlar haqidagi dastlabki bilimlar majmuasini berishga qaratilgan. Darslikda fanining umumiy masalalari, tiflopsixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, tamoyil va metodlari berilgan. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar psixologik-pedagogik tavsifnomasi, bilish faoliyatining rivojlanish xususiyatlari, nutq va muloqotining nutqiy bo‘lmagan vositalarini rivojlanishi, jamiyatga integratsiyalash muammolari, shaxs va shaxslararo munosabat, faoliyat, korreksiya va kompensatsiya xususiyatlari yoritib berilgan.

Mazkur darslikda bayon etilgan materiallar respublikamiz, Rossiya hamda xorij olimlarining maxsus psixologiyaga oid tadqiqotlari tahliliga asoslangan. Darslik defektologiya yo‘nalishi talabalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari, amaliyotchi defektologlar, o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, umuman shu sohaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

I BOB. TIFLOPSIXOLOGIYA FANINING UMUMIY MASALALARI

1. 1. Tiflopsixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Bola psixikasi va u yashayotgan olamni, uning ko'p qirrali va rang-barang bog'liqliklari va ta'sirlari bilan tushunish, tanib olish va to'la baholash juda qiyin. Pedagogning kasbi aynan shundan iboratki, u rivojlanishning har bir aylanasi tarbiyalanuvchini o'zi uchun yangidan kashf qiladi, unga ijobiy ta'sir muammolariga, ayniqsa, muvaffaqiyatsizlik vaziyatiga, duch keladi. O'qituvchi hamma vaqt goyo uning bola xulqining asoslari haqidagi ratsional va faqat qisman to'g'ri bo'lgan tasavvurlari asosiga qurilgan sa'y-harakatlari va ta'sir metodlari bir vaziyatda muvaffaqiyat keltirmaydigan va boshqasida bola bilan kontakt (aloqa) ni topishga yordam beradigan chegarada turadi.

Maxsus psixologiya bo'limi bo'lgan shaxslarning psixik rivojlanishini o'rganadigan bo'limi «tiflopsixologiya» nomi grekcha «tiphlos»-ko'zi ojiz so'zidan olingan va mazmuni dastlab faqat ko'zi ojizlar psixologiyasidan iborat bo'lgan. Hozirgi kunda tiflopsixologiya bo'limi o'rganish obyekti nafaqat ko'zi ojizlar, balki ko'rishda chuqur nuqsonlari bo'lgan shaxslar hamdir.

Tiflopsixologiya bo'limi bo'lgan shaxslar rivojlanishining qonuniyat va xususiyatlarini, ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, bu nuqsonning psixik rivojlanishga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan axborot kamomadini to'ldirishni kompensator jarayonlarning shakllanishi; ko'rishda nuqsonlari bo'lgan bolalar rivojlanishining yoshga oid jihatlarini o'rganadi.

Tiflopsixologiya tarixi qadimga borib taqaladi, ya'ni renessans davri faylasuflaridan biri Dioptriki Dekarta 1635-yilda barmoq uchi sezgilari asosida dunyoni bilish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. Ko'rishda nuqsonlari bo'lgan shaxslarning izolyatsiyalangan faoliyat sohalari tobora qisqarib borayotgani va zamonaviy jamiyatda faoliyatning turli shakllari o'rtasida aloqalarning kengayishi, ularning dunyo hamjamiyati

faollik tizimiga kiritilishi tiflopsixologiya predmetini kengaytirishni, alohida shaxs va uning xususiyatlarini o'rganish bilan cheklanmasdan, uning oiladagi aloqalari va o'zaro munosabatlari, jamiyat, muayyan shaxslar va tashkilotlar tomonidan ko'zi ojizlarga munosabatni ham kiritishni talab etmoqda. Tiflopsixologiya fan sifatida ajralishi va rivojlanishi ko'zi ojizlarni maxsus maktablarda o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq. Birinchi maktab Parijda Valentin Gayui tomonidan 1784-yilda ochilgan. Ko'zi ojizlar psixologiyasi tahlili esa birinchi marta fransuz psixologiyasida moddiyunchilik (materialistik) oqimining asoschisi Deni Didroning «Ko'radiganlarga nasihat tarzidagi ko'zi ojizlar haqida xat» asarida amalga oshirilgan.

Xorijiy psixologiya maktabi doirasida Luriya A. R., Leontev A. N., Kravkov S. V., Rubinshteyn S. L., Uznadze D. N., Stolin V. V., Myuller, Marr D., Gregori Richard Lenggong, Gibson Dj., Vilyam Djems, Heather Mason kabi psixologlarning ishlari ko'rish idrokini o'rganishga bag'ishlangan.

Biroq qator mualliflar, ayniqsa, ko'zi ojizlar (P. Villey, F.I. Shoev), ham ko'radiganlar uchun xos bo'lgan umumiy psixologik qonuniyatlarga asoslangan holda, tiflopsixologiya mavjudligini inkor etib keladi. Keyingi vaqtda pedagogika va psixologiya, sotsiologiya va ko'zi ojizlar hayoti, faoliyatini o'rganishni maqsad qilgan boshqa fanlarni birlashtirgan yangi «tiflogiya» tushunchasi iste'molga kiritildi.

Bir qator adabiyotlarda hanuzgacha ko'zi ojizlar psixologiyasi mayda ko'radiganlar rivojlanishiga qanchalik yaqinligi, yoki qanchalik o'ziga xosligiga nisbatan ikki xil nuqtai nazar mavjud, bu esa psixik rivojlanishning o'z standartini yaratishni talab etadiki, har bir ko'zi ojizning rivojlanishi unga tenglashtirilgan. Bu ikki nuqtai nazar butunlay ko'zi ojiz yoki zaif ko'ruvchi bolaga yondashuv bilan farq qiladi. Oxirgisi psixik rivojlanishda boshlang'ich deb ko'rish nuqsonini, uning funksional ahamiyati va rivojlanishning borishiga ta'sirini tan oladi, bu muqarrar ravishda bolalarda polisensorik qayta qurish imkoniyatlarini kamsitishga olib keladi. Bu olimlar ongli yoki anglashilmagan holda rivojlanishning o'ziga xos, odatda, ko'radiganlarning rivojlanish darajasidan past darajasi psixologik standarti nuqtai nazarini yoqlaydi (Xeyes, Tillmen, Uilz, , Daniel H.Ashmed va b.).

A. N. Leontev tadqiqotlari natijasida tashqi olamning ichki obrazi yaratiladigan idrokni faol psixik faoliyat sifatida tasavvur qilishga asos soldi. Heather Masonning nuqtai nazariga ko'ra, sezgi sof passiv ko'rishning natijasi emas, predmetni idrok etish uni nafaqat shakl, rang va shu kabilarga egaligini aks ettirish, balki shu bilan birga obyektiv va barqaror ahamiyatga egaligini aks ettirishdir. Daniel H. Ashmedning fikricha, ko'rish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar eshituv jarayonini takomillashtirish maqsadida "pseudophone" nomli moslamadan foydalanish yaxshi samara beradi. Moslama ikkita mikrofondan iborat bo'lib, ovozli qo'zg'atuvchi ikki quloqdan biriga ta'sir etadi. Fridman "pseudophon"ni murakkab shaklini yaratdi va uning imkoniyatlari kengli bilan ajralib turardi.¹

Idrokni psixik faoliyat sifatida tadqiq qilishda Fridman uning miya ta'minotiga katta e'tibor qaratadi. Psixofiziologik tadqiqotlarning ahamiyati yana shundan iboratki, ular faoliyatning amalga oshishi uchun psixofiziologik funksiyalarning yangi ansambllari, yangi funksional miya tizimlarining qayta qurilishi yoki tashkil topishini talab qiladigan jarayonlari shakllanish sharoitlari va ketma-ketligini aniqlash imkonini beradi.

Psixolog va defektologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolada ilk yoshda ko'rish idrokining buzilishi uning sensor tajribani mustaqil tarzda to'plashida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu esa nutqning psixik bazasi shakllanishini kechiktiradi. Sensor jarayonlarning past darajasi, o'z navbatida, saqlangan psixik funksiyalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (Fridman, W. Belmer, H. Fekden, H. Suhrweir, C. Urwin, L. Zeuthen, Heather Mason va b.) Shu sababli ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi ko'radigan bolalarnikidan murakkabroq sharoitlarda kechadi. Bolalarda nutqning va ko'rishning buzilishi murakkab nuqson bo'lib, ularda nutqiy va ko'rish nuqsonlarining ma'lum aloqa va o'zaro ta'siri kuzatiladi.

K. Becker ta'kidlaydiki, bu bolalar kichik maktabgacha yosh davrida ham rasm (manzara) ning lisoniy mazmunini, ro'y berayotgan hodisalar dinamikasini berishda qiynaladi; old planda joylashgan alohida detal-

¹ John n J. Rieser, Daniel H. Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception Taylor & Francis Group, LLC 2008 18 peje. Mazmun mohiyati olingan.

larni atash bilan cheklanadi, alohida qismlar va elementlar o'rtasidagi makon va mazmun munosabatlarini o'rnatmaydi. Hozirda u ko'zi oqizlar uchun kompyuter texnikasi va kalkulyatorlar uchun asosiy kod hisoblanadi. Ko'pchilik xorijiy davlatlarda uning zaminida tez o'quv ishlarini olib berish tashkillashtirilmoqda, chunki L. Brayl shrifti bo'yicha yozish va o'qish sog'lom insonlarning o'qish va yozishdan bir muncha sekinroqdir.

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, qarashni muvofiqlashtirilgan binokulyar fiksatsiyalash (qayd etish) va harakatlantayotgan obyektни kuzatish bola hayotining 2-oyidan boshlab ko'zga tashlanadi, bu mazkur yosh davrida, ehtimol, asab tolalarining tuzilishi faoliyati (to'rttepalik qabariqlari) va katta yarim sharlar ishtirokisiz amalga oshiriladigan ko'rish-motor muvofiqlashtirishning rivojlanishidan dalolat beradi.

Postnatal hayotning dastlabki ikki-uch oyi mobaynida ko'rish sensor tizimning intensiv yetilishi ro'y beradi: ko'rish yo'llarining mielinizatsiyasi signalning o'tish tezligi ortishini ta'minlaydi, ko'rish proeksion zonada sinaptogeneznining sezilarli kuchayishi, lokal neyron tarmoqlarning faoliyati imkoniyatini ta'minlaydigan yulduzsimon interneuronlarning intensiv shakllanishi kuzatiladi, bu stimulning sensor parametrlarini differentsiatsiyalangan tahlil qilishni ta'minlaydi.

John n J. Rieser, Daniel H. Ashmed harakatlar korreksiya-sida sensor korreksiyaning roli to'g'risidagi tasavvurlariga tayanib yozadiki, retseptorning hech bir sensor impuls, hech bir ta'sirini idrokning adekvat obrazi yuzaga kelishi sifatida bir ma'noli ta'riflay olmaymiz, buning uchun muqarrar xatolarni to'g'rilaydigan va obrazni obyekt bilan muvofiqlashtiradigan korreksiya zarur; ...xuddi subyektning harakat xulqi. Bernshteynning fikricha, faqat sensor korreksiya tufayli masala sharti bilan muvofiqlashgani kabi idrokning adekvatligi oxir oqibat samarli korreksiya hisobiga ta'minlanadi. Predmetni bir paytning o'zida ko'rish va paypaslash imkoniyati ko'rish obrazini taktil kanal bo'yicha kelib tushadigan axborot bilan korreksiyalashning muhim omili sanaladi.

Tadqiqotchilar (David M. Buss, Suhrveir N., Belmer W., John n J. Rieser, Daniel H. Ashmed, Zeuthen L., Solnseva L.I. va b.) tadqiqot-

larida aniqlanishicha, ko'rish nuqsoni tufayli tarbiyalanuvchilarning 30% dan ortig'ida ikkilamchi yetishmovchilik kuzatiladi. Becker K., Suhrveir N. va b. ishlarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nafaqat nutqning yaxlit funksional tizim sifatidagi buzilishi bilan kechadigan tizimli buzilishlar (nutqning to'liq rivojlanmaganligi, fonetik-fonematik nutq kamchiligi), balki idrok, xotira, diqqat, tasavvur va mantiqiy fikrlash jarayonlari rivojlanishida og'ishlar ham kuzatilishi o'z tasdig'ini topgan. Shu sababli bunday bolalar syujetni mustaqil rejalashtirish, leksik-grammatik kategoriyalar bilan mustaqil operatsiyalash, nutqiy materialni grammatik rasmiylashtirishda jiddiy qiyinchiliklarni his qiladi (David M. Buss)².

Xorijiy olimlarning fikricha, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bosh miya funksiyalari ko'rishni meyordagi shaxslarnikidan farq qiladi, deb e'tirof etadilar (John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed). Ko'ruv nuqsonini yo'qolishi bosh miyada o'zgartirishlar qilib, afferent kirishlarni bosh miyaning efferent talablariga mos o'zgartirib, axborotni qayta ishlash jarayonida o'z aksini topadi. Mualliflarning fikricha, ko'rish nuqsoni, ayniqsa, ko'zi ojizlik bosh miyada yangi bog'lanishlarni hosil qiladi va bu axborot olish asosini tashkil etadi. Aynan shu o'zgarishlar ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni adaptatsiya jarayonini yengillashtiradi, hulq-atvoriga ta'sir etishi reabilitatsiya jarayonini chegaralashi mumkin.³

Xorijiy psixologiya maktabi doirasida John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed, Marr D., David M. Buss, Gibson Dj., Vilyam Djems kabi psixologlarning ishlari ko'rish idrokini o'rganishga bag'ishlangan. Ko'zi ojiz bolalarning psixik rivojlanish dinamikasini kuzatgan olimlarning birinchi guruhi (T. Katsfors, Gomulitskiy, Maksfild, V. Uilyams, M. Tobin, V.M. Kogan, A.G. Litvak, Amanda Hall Lueck, L.I. Solntseva) ishonch hosil qildiki, ko'zi ojiz va ko'radigan bolalarning ilk yoshdagi umumiy psixik maqomi o'rtasidagi sezilarli tafovutlar

² John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception Taylor & Francis Group, LLC 2008. Mazmun mohiyati olingan.

³ John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception Taylor & Francis Group, LLC 2008. 23 peje. Mazmun mohiyati olingan.

ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi yaxshilanishi natijasida asta-sekin barham topadi. M. Tobin masalan, har bir yosh guruhida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eng yaxshisi o'zining psixik rivojlanishida ko'radigan bolalardan o'zib ketishi mumkinligini ko'rsatib o'tgan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan va ko'radigan bolalarning rivojlanishini yaqinlashtirish pozitsiyasi bugungi kunga kelib mustahkamlandi, bunga ko'rish nuqsonini kompensatsiyalash va korreksiyalash nazariyasi va amaliyoti ko'maklashdi.

A.I. Skrebitskiy, A.M. Shcherbina ko'zi o'jizlarning bilish faoliyatida o'ziga xosliklar mavjudligini ta'kidlagan. Ko'zi o'jizlar psixikasida o'ziga xosliklarni ortiqcha baholagash oqibatida F.TSex alohida, ko'radiganlarnikidan farq qiladigan «ko'zi o'jizlar tili»ni yaratish zarurligi haqidagi fikrga keldi. K. Byurklen esa ko'zi o'jizlarning izolyatsiyalangan hayoti natijasida odamlarning alohida tipi yuzaga kelishi haqida xulosa chiqargan. I.M. Solovev, John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed va boshqalarning ishlarida rivojlantirildi.⁴ Bu ko'p jihatdan keyingi yillarda butun dunyoda kuzatilayotgan ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq.

Mamlakatimiz va xorijda maktablarda o'qiydigan ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar tahlil ko'rsatadiki, ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar tarkibining o'zgarishi bir necha tendensiya va yo'nalishga ega.

Ilk bolalikda miya faoliyati patologiyasi yuzaga kelish vaqti turlichaligi bilan bog'liq, bolaning hali rivojlanishda bo'lgan miyasi bilan aloqaga kirishgani sababli, odatda, bola rivojlanishiga tormozlovchi ta'sir etadigan etiologik va ekologik sabablarga ega bo'lishi mumkin. A.V. Xvattsovaning so'nggi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Rossiyada bu toifadagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar soni keyingi yillarda sezilarli darajada ortgan. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, 88% ko'zi o'jiz va 92% zaif ko'ruvchi tug'ma ko'rish patologiyasiga ega.

Vatanimiz va xorij amaliyotida ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning katta miqdordagi definititsiyalari mavjud. Ular maqsadlar, shu ta'rif xizmat qiladigan narsalar -- ko'rish boyicha nogironlarga zarur ijtimoiy

⁴ John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008. Mazmun mohiyati olingan.

yordamni aniqlash, ta'lim, o'qitish, kasbiy tayyorgarlik maqsadlari bilan bog'liq. Bu hollarda guruhlash mezonlari turlichadir.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishini ijtimoiylik va biologiklik belgilaydi. Emmy Csocsan, Solveig Sjostedtlar biologik (tipologik, yoshga oid va b.) hamda ijtimoiy omillar bilan bir qatorda anomal patologik, biologik omillar namoyon bo'lishini niqoblovchi, qator hollarda esa buzib ko'rsatuvchi omillarni ajratdi.

A.G. Litvak ta'kidlaydiki, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarning psixik rivojlanishi murakkab o'zaro munosabatlarda bo'lgan biologik, anomal va ijtimoiy omillar yig'indisi bilan belgilanadi. Bunda olim aniqlashtiradiki, biologik deganda tug'ilishdagi, irsiy, tabiiy nuqsonlar tushuniladi hamda nafaqat orttirilgan, balki tug'ma nuqsonlarni biologik deb bo'lmaydi.⁵

Ko'zi ojizlik va zaif ko'ruvchilik sabablari tahlili bu qarashning u qadar mustahkam emasligini ko'rsatadi. Avval aytilganidek, 92% zaif ko'ruvchilik va 88% ko'zi ojizlik tug'ma xarakterda, ularning 30% dan ortig'i irsiy shakllarga ega. Bunda bolalar ko'zi ojizligi sabablari orasida ko'rish a'zosi rivojlanishining tug'ma anomaliyalari chastotasi ortib borishi kuzatiladi. Tug'ma ko'rish patologiyasi M.I. Zemtsova va L.I. Solntseva ishlarida 60,9%, A.I. Kaplan tadqiqotlarida 75%, L.I. Kirillova ishlarida 91,3% va A.V. Xvatova ishlarida - 92% zaif ko'ruvchi va 88% ko'zi ojizlarda kuzatiladi. I.L. Ferilfaynda esa - 84,2% bo'lgan bolalar va kattalarning psixik rivojlanishida o'ziga xos omil sanaladi.

Ko'zi ojiz va qisman ko'ruvchi bolalarda homilaning embrional rivojlanish davrida ta'sir etadigan tashqi va ichki salbiy omillar natijasida ko'rish a'zosining rivojlanish anomaliyalari mavjud. Bu - homiladorlikning patologik kechishi, ona boshidan kechirgan virusli kasalliklar, toksoplazmoz, qizilcha va b.

Shunday qilib, amalda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishini belgilaydigan anomal omillar biologik omillar tushunchasiga kiradi va ijtimoiylari bilan birga zaif ko'ruvchi va ko'zi ojiz bolalar rivojlanishining borishini belgilaydi.

⁵ 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan, Solveig Sjostedt. 2008, Hungary Finland. Mazmun mohiyati olingan.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq o'tgan asrning 80-90-yillaridagi tadqiqotlar rus defeknologiyasi asoschilari L.S. Vigotskiy, A.R. Luriya, M.M. Zemtsova, A.G. Litvak, A.I. Zotov nazariyasiga tayanadi va korreksion ta'lim va tarbiya jarayonida bu toifadagi bolalarni kompensator rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bugungi kun tiflopsixologiyasining asosiy muammosi (H.Mason, A.G. Litvak, I.S. Morgulis)⁶ rivojlanayotgan, psixik jarayonlar va shaxsning qirralari shakllanishida ko'rishning chuqur buzilishi natijasida yuzaga keladigan og'ishlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan insonning potensial imkoniyatlarini o'rganish sanaladi.

Tiflopsixologiyaning maqsadi – ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar ruhiyatining rivojlanishi, kechish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

Tiflopsixologiya fanining vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi va sog'lom bolalar psixik rivojlanishini taqqoslab o'rganish.

2. Har xil darajadagi ko'ruv nuqsonida psixik rivojlanishning bosqichlarini o'rganish.

3. Ko'zi ojiz va zaif quruvchi shaxslardagi psixik jarayonlar, individual xususiyatlarning o'ziga xos tomonlarini o'rganish.

4. Ko'rish nuqsoni mavjud bolalarning psixologik, ijtimoiy, pedagogik korreksiyasini aniqlash.

5. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning har xil muhitga moslashishi, ular bilan olib boriladigan abilitatsion va rehabilitatsion ishlar yo'nalishi aniqlanadi.

Tiflopsixologiyasining obyekti ko'r, zaif ko'ruvchi, hamda ambliopiya va g'ilyalikka ega shaxslar sanaladi.

Zamonaviy inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, shuningdek, tibbiyot ilmining rivojlanishi tiflopsixologiya obyektiga ta'sir o'tkazdi. Ko'zi ojiz tushunchasi bugungi kunda uning asosida pedagogik jarayon olib boriladigan analizatorlarning yetakchi tizimini aniqlash nuqtai nazaridan olib qaraladi. Ko'zi ojiz tushunchasi shu sababli bolalarning ikki toifasini zaruratga ko'ra o'z ichiga oladi: «0» vizusli va yorug'likni his qiladigan bolalar, shuningdek, yaxshi ko'radigan ko'zi

⁶ David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers. Mazmun mohiyati olingan

bilan korreksiya yordamida 0.04 gacha qoldiqli ko'rish o'tkirligiga ega bolalar, ularni o'qitish Brayl tizimi asosida paypaslash vositasida idrok etishga mo'ljallangan darsliklar boyicha olib boriladi.

Zamonaviy tiflopsixologlar nuqtai nazarining o'ziga xosligi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishini anomal organizm (inson ayiruv ko'rish, ya'ni zarar, zararli, pasaygan) emas, balki faol rivojlanayotgan, sensorikaning bevosita nuqsonlarini kompleks vositalangan bilish faoliyati bilan to'ldiradigan shaxsning rivojlanishi sifatida tushuniladi. Ko'rishda chuqur nuqsoni bo'lgan bolalarning kompensator rivojlanishining o'ziga xosligi psixik jarayonlar va sifatlar ansamblida ko'zi ojizlik va zaif ko'ruvchilikni kompensatsiyalashni ta'minlaydigan yangi aloqalarning hosil bo'lishida o'z ifodasini topadi.

Ko'rish analizatori faoliyatining zararlanishi chuqurligi va xarakteri sensor tizim rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi, atrof olamni bilishning yetakchi tipini, tashqi olam obrazlarining modelligi, aniqligi va to'liqligini belgilaydi. Tashqi olamni aks ettirishning psixologik tizimi shu sababdan ko'rish analizatori turlicha zararlanganda turlichadir. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar atrof olam bilan tanishish, faoliyatni amalga oshirish usullari kabi uni bajarishni nazorat qilish usullariga ko'ra ham farq qiladi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalarning psixik maqomida nuqsonni aniqlash vaqti katta rol oynaydi. Bu ayniqsa, umuman ko'rmaydiganlarga taalluqli.

Adabiyotlar va amaliyotda ikki toifa: tug'ma ko'zi ojizlar va keyin ko'r bo'lib qolganlar farqlanadi. Tug'ma butunlay ko'rmaydigan va uch yoshgacha ko'zi ojiz bo'lgan bolalar, odatda, ko'rish tasavvuriga ega emas, zero erta ko'zi ojiz bo'lib qolgan bolalarda ko'rish obrazlari saqlanib qolmaydi va psixik rivojlanish jarayoni cheklangan sensor tizim asosida kechadi. Ko'rish nuqsonining erta yuzaga kelishi psixikaning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi..

Ko'rish qobiliyatining nisbatan keyin buzilishi ko'r bo'lib qolganlarga ko'rish asosida shakllanib ulgurgan aloqalarni bilish faoliyatida qo'llash imkonini beradi va nuqsonni kompensatsiyalashda o'zga tizimlarni hosil qiladi.

Tiflopsixologik tadqiqotlarning metodologik asosini determinizm, ong va faoliyatning birligi, ruhiyatning faoliyatda rivojlanishi tashkil etadi. Determinizm tamoyiliga ko'ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va sharoit o'zgarishi bilan o'zgaradi. Hayvonlar psixikasining taraqqiyoti tabiiy saralanish bilan, odam psixikasi taraqqiyoti esa ijtimoiy taraqqiyot qonunlari bilan belgilanadi.

Ong va faoliyat birligi tamoyiliga ko'ra, ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi ham, aynan bir narsa ham emas. Ular bir butunlikni tashkil etadi. Ong faoliyatni ichki rejasini, dasturini tashkil etadi. Bu tamoyil psixologlarga inson xulq-atvori, hatti-harakatlari va faoliyatlarini o'rganish orqali hatti-harakatlardan ko'zlangan maqsadlarga, muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlovchi ichki psixologik mexanizm, ya'ni psixikani obyektiv qonuniyatlarini ochishga imkon beradi.

Psixika va ongning faoliyatda taraqqiy etish tamoyiliga ko'ra, psixikaga taraqqiyot mahsuloti va faoliyat natijasi deb qaralsa, uni to'g'ri tushunish hamda tushuntirib berish mumkin. Bu tamoyil L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, V.M.Teplov kabi psixologlar ishlarida o'z aksini topgan. L.S.Vigotskiy ta'lim psixikani rivojlantirishga yo'naltirishini, P.P.Blonskiy esa tafakkurning kichik maktab yoshida o'yinlar bilan o'spirinlik yoshida o'qish bilan bog'liq tarzda rivojlanishini tahlil qildi. S.L. Rubinshteyn "Ong faoliyatda paydo bo'lib, faoliyatda shakllanadi" degan edi.

Metodlar – psixologiyani o'rganish usullari va yo'llari yig'indisi, "Metod" bu bilish, anglash yo'li bo'lib, bu usul orqali fanning predmeti aniqlanadi (S.L.Rubinshteyn).

Tiflopsixologiya fani umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya va boshqa fanlarning metodlaridan foydalanish bilan birga, maxsus psixologiyada va tiflopsixologiya fanida yaratilgan maxsus tadqiqot uslub va usullaridan ham foydalaniladi. Ilm, fan-texnikaning yutuqlari Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarning sezgi, idrok, tasavvur va boshqa ruhiy jarayonlarini tekshirish sohasida yangi, maxsus metodikalar, texnik vositalar yaratishga imkon bermoqda. Ilmiy tadqiqot metodlari tadqiqotchining o'z oldiga qoygan maqsad va vazifalariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Noeksperimental metodlarga kuzatuv, so'rov (anketa) suhbat, o'quvchining faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish kiradi.

Kuzatish metodi – ikki xil bo'lib, obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) kuzatish turlari mavjud. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiyatidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- a) kuzatishning maqsad, vazifasni belgilanash;
- b) kuzatilayotgan obyektни tanlash;
- v) tadqiqot o'tkazish vaqtini rejalashtirish;
- g) kuzatish vaqti va davomiyligini belgilash;
- d) kuzatish bolaning qaysi faoliyatida (o'qish, o'yin, mehnat, sport) amalga oshirilishini aniqlash;

e) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tanlanadi;

j) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalarini (kundalik suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon) tayyorlash. Kuzatish orqali turli yoshdagi ko'rishda nuqsoni yuo'lgan insonlarning diqqati, his-tuyg'ulari, asab tizimining tashqi ifodalari, imo-ishoralari, sezgirliги, xulq-atvori, nutq faoliyati kabilar o'rganiladi.

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish mumkin. Faoliyat jarayonidagi kayfiyatni, mimika, patomimika, kuza-tuvchanlik kabi ruhiy holatlarni kuzatib, tafakkurdagi o'zgarishni aniqlash mumkin.

Suhbat davomida nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bavosiga ma'lumot olinadi. Uning maqsadi va vazifasi belgilanadi. Suhbatning obyekti va subyekti tanlanadi, mavzu o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi ma'lum bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir.

Suhbat metodidan to'g'ri foydalanish va undan kutiladigan nati-jaga erishish suhbat o'tkazish uchun tayyorlanishga bog'liqdir. Suhbat metodi quyidagi shartlarga rioya qilishni talab etadi. O'tkazilgan suhbatning mavzusi va mazmuni ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaning rivoj-lanish darajasi hamda yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Suhbat

davomida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga berilgan savollar mazmunan yaxshilab o'ylab olinishi lozim.

Suhbat paytida berilgan savollarga qisqa tarzda emas, balki batafsil javob olishga erishish kerak. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar zerikib yoki toliqib qolmasliklari uchun suhbat qaddan tashqari cho'zilib ketmasligi lozim.

So'rovnoma metodi – psixologiyada keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi. So'rovnoma odatda 3 xil tuzilishda bo'ladi. Ularning birinchisi anglangan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi turida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. So'rovnomadani turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlashda foydalaniladi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi – inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida faoliyat psixologiyasida keng qo'llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarini tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallarni qo'llash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Obyekt bilan subyekt o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirtidan ma'lum hukm, xulosa chiqariladi. Ijodiy faoliyat mahsulatlarini tahlil qilish orqali bolalar, o'quvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar psixik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin. Lekin insondagi psixik o'zgarishlar kamol topish va ularning kechishini ifodalovchi materiallar yig'ish uchun bu metodning o'zi yetmaydi. Shuning uchun inson psixikasini o'rganish maqsadida boshqa metodlardan ham foydalanish ma'qul.

Noeksperimental metodlar bilan Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar orasida ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish qulaydir.

2. Eksperimental metodlar. Eksperimental metodlar yordamida turli ruhiy jarayon, hodisalarning rivojlanishini o'zimiz istagan vaqtimizda takrorlashimiz, unga faol ravishda aralashishimiz, o'zgartirishimiz mumkin. Ilmiy adabiyotlarda tabiiy va laboratoriya eksperimental xillari-ga ta'rif berilgan. Keyingi vaqtlarda eksperimentni modellashdan keng foydalanilmoqda. Eksperiment u yoki bu psixologik hodisani, vaziyatni sun'iy yuzaga keltiriladi va shu vaziyatda o'quvchi (o'quvchilarning) o'zini tutishi, munosabatlari, javob reaksiyasi kuzatiladi.

Shuningdek, pedagogika va psixologiya fanida shakllantiruvchi metodlardan ham keng foydalaniladi. Shakllantiruvchi metallarning samaradorligi shundaki, bola ruhiyatining rivojlanishini, ruhiy hodi-salarning mohiyatini o'rganish bilan shug'ullanmasdan, balki eksperi-ment natijasida ta'lim-tarbiya berish ko'zda tutiladi. Tajriba yoki eksperiment metodi – o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishdan ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jara-yonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kundalik mehnat doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsu-lot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Tabiiy eksperiment metodi kuzatish metodidan keskin farq qiladi. Kuzatish metodida biror psixik jarayon kuzatilayotgan kishi o'sha jarayon qan-day yuz bersa, shu holicha tekshiriladi, lekin bu jarayonning namoyon bo'lishiga aralashmaydi, ya'ni psixik jarayonni yuzaga keltiruvchi sha-roitni o'zgartirmaydi. Tabiiy eksperiment metodidan foydalanganda esa tekshiruvchi o'rganilayotgan biror psixik jarayonni o'zi vujudga keltiradi, lekin uni tekshirilayotgan odam uchun tabiiy bir sharoitda va unga sezdirmasdan o'tkazadi.

Laboratoriya eksperimenti metodining asosiy xususiyati, shundan iboratki bunda o'rganilishi lozim bo'lgan psixik jarayonlarning qan-day sharoitda qachon yuz berishini kutib o'tirmasdan tekshiruvchi kishi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolada shu jarayonlarni maxsus tarzda ishga soladi. Bundan tashqari laboratoriya eksperimenti sharoitida eksperi-mentator o'rganayotgan har bir psixik jarayonni xohlagan marta, ya'ni

takror-takror yaxshilab sinab ko'rishi mumkin. Bu murakkab psixik jarayonlarning tabiatini o'rganishda katta qulaylik tug'diradi. Birinchidan, istalgan psixik jarayonni xohlagan paytda yuzaga keltirish vaqtni tejash imkonini bersa, ikkinchidan, har bir psixik jarayonni takror-takror yuzaga keltirib, sinchiklab o'rganish bu jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola ayrim psixik jarayonlarning yuz berish tezligini, diqqatning barqarorligi va kengligini, xotiraning xususiyatlarini uquv hamda malakalarning qonuniyatlarini aniq va puxta tekshira oladigan ko'plab maxsus asboblardan mavjuddir. Masalan, elektron xronoskop orqali ayrim psixik (aks ettirish, ko'rish, eshitish, hid bilish, teri sezgilari kabi) jarayonlarning yuzaga kelish tezligini aniq o'lchash mumkin.

Psixik jarayonlarning moddiy, ya'ni nerv-fiziologik asoslarini ham laboratoriya eksperimenti yordami bilan tekshiriladi. Psixik jarayonlarning nerv fiziologik asoslarini aniqlashda akademik I.P.Pavlovning shartli reflekslar metodi juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bu metod bolalarning o'sishini tekshirishda hamda birinchi va ikkinchi signallar tizimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tekshirishda keng qo'llanilmoqda. Laboratoriya eksperimenti metodi eng aniq metod sifatida psixologiya fanining taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega.

3. Diagnostik metodlar shaxs yoki jamoaning ruhiy va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashda miqdoriy va sifat jihatdan aniq tasniflashga imkoniyat yaratganligi uchun psixologiya fanining hamma sohasida keng qo'llanilmoqda. Asosan bular testlardir. «Test» ingliz tilidan olingan bo'lib, sinov, tajriba degan ma'noni bildiradi. Hozirgi amaliyotda bir necha mingdan oshiq testlar mavjud bo'lib, afsuski, ularning ko'p qismi milliy xususiyatlar e'tiborga olinib o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Chet el, asosan g'arb psixologiyasida testlar bilan ishlash keng ommalashgandir. Testlar yordamida bolalarning aqliy rivojlanish darajasi (intellektual koeffitsiyenti), iqtidorlik darajasi, ruhiy holati, shaxs xususiyatlari, o'ziga va boshqalarga bahosi, kasb qiziqishlari va kasbga yaroqliligi aniqlanadi.

Biografiya (tarjimai hol) metodi – inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayot faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

4-8240/4¹⁷

ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaning tarjimai holi, xotiralari, esdaliklari, o'zgalar ijodiga bergan baholari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar, esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar o'rganilayotgan shaxsni to'liqroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuza-tishda uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishga yordam beradi.

Sosiometrik metod. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Bunga amerikalik sotsiolog Dj.Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruh a'zolarining bir-bir-lari bilan munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matrisa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatkichlar guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlari to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma'lumotlar guruhiiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi.

Shuning uchun hozirgi kunda Ya.L.Kolominskiy tomonidan soti-siometriyaning yosh davri psixologiyasiga moslab o'zgartirilgan yangi turlari ishlab chiqarilgan. Bular shaxsning bir-birini tanlash motivlarini keng ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, sotsiometriya-niing Ya.M.Kolominskiy ishlab chiqqan o'zgartirilgan turi bolalar ja-moasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to'laroq axborot beradi.

Yuqorida keltirilgan ko'pgina metodikalarni tiflopsixologiyada, Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarni psixologik tekshirishda qo'llashning murakkab tomoni shundaki, o'quvchilar anketa va test savollarini o'zlari o'qishlari shart. Savollarni o'qib berish test natijalariga salbiy ta'sir etmaydimi degan fikr mavjud. Tiflopsixologiyada ilmiy-tadqiqot o'tkazish uchun yangi metodlar yaratish, mavjud metodlarni moslashti-rish, takomillashtirish shu kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Ta'kidlab o'tish joizki, tiflopsixologiya fani fan sifatida shakllani-shida turli qarashlar, fikrlar, g'oyalar mavjud bo'lgan. I.P.Pavlov bir

necha bor ta'kidlagan «Ko'zi ojizligi va boshqa nuqsonlarni o'rganish asosida nafaqat nuqsonli ruhiyatga chuqurroq kirib borishga, balki me-yoriy ruhiyat holatlarini ham chuqurroq tushunishimizga imkon beradi». Tiflopsixologiyaning taraqqiyotida L.S.Vigotskiyning nuqsonli bola rivojida «Madaniy va biologik» omillarining buzilishi, chetga chiqishi haqidagi fikrlari muhim o'rin egallaydi. Shu bois, qator metodlar umu-miy psixologiyadan olinadi. Meyoridan nuqsonga qarab va nuqsondan me-yorga qarab tadqiqot ishlarini olib borish ishlarini V.M. Bexterev samarali usul sifatida tan olgan edi.

Tiflopsixolojiya umumiy psixologiya, yosh va pedagogik-psixologiya, tiflotexnika va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ti-flopsixolog o'zining amaliy va nazariy ish jarayonida yuqoridagi fan-larga tayanishi bilan birga yangi yuzaga kelayotgan soha-amaliy psixologiyaning yutuqlaridan ham foydalanadi. Tiflopsixolojiya falsafa fani bilan chambarchas bog'langan. Bu bog'liqlik ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va rivojlantirish an'alarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurini rivojlanishiga oid bo'lgan umuniy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlar bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Sotsiologiya fani ham yangicha munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga erishar ekan, tiflopsixologiya ushbu fan tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlardan foydalanadi hamda ularning qo'llanilishiga, ommalashishiga xizmat qiladi.

Pedagogika, maxsus pedagogika (Tiflopedagogika) bilan tiflo-psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi yosh avlod tarbiyasi-niing zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuziga xosdir. U fanlar o'zaro hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish an'alaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy qo-biliyatlariga nechog'li ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish, shu asosda ishni tashkil etish, psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Tiflopsixologiya tibbiyot fanining yutuqlarini kasalliklarning oldini olish bilan bog'liq masalalarni o'rganishda qo'llab keladi. Ma'lumki, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning birlamchi nuqsonlari ko'rish analizatorining markaziy va pereferik kamchiliklari natijasida kelib chiqadi. Bolardagi birlamchi kamchiliklar, ko'z kasalliklarini kelib chiqish sabablari, kasallikni davomiyligi va davolash natijalari ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sir etadi. Birlamchi kamchiliklar haqidagi ma'lumotlar asosida ikkilamchi kamchiliklarni muvafaqqiyatli bartaraf etish mumkin. Miya qobig'ining ba'zi bir joylari lat yeganda psixikaning buzilishini klinik-psixologik tadqiq qilish natijasida idrok va xotiraning qonuniyatlarini tushunish imkonini beradigan yangi ma'lumotlar olingdi. Psixolog-klinisist bemorning og'zaki yoki yozma nutqi psixologik jihatdan buzilishi xususiyatlarini aniqlab, dardning manbai kishi bosh miyasi katta yarim sharlarining muayyan bo'lmasida ekanligini qayd qiladi va bu bilan neyroxirurgiyaga yordam beradi.

Kasallikning zo'rayishi bir tomondan, psixik omillarga (tushkunlikka berilish vasvasaga tushush, hadiksirash va shu kabilarga) bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, dardning o'zi ham, jumladan, terapevtik muolajaning samaradorligini pasaytirib yuborishi mumkin bo'lgan alohida psixik holatlarni keltirib chiqaradiki, bu hol shifokor va psixologning faoliyatini birlashtirilishini zarurat qilib qo'yadi.

Tayanch iboralar

1. Tiflopsixologiya – maxsus psixologiyaning bir yo'nalishi bo'lib, ko'rish nuqsoni bo'lgan shaxslar psixologiyasi bilan shug'ullanadi.

2. Kuzatish – psixologik metodlaridan biri bo'lib, odamning hatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan turli hodisalarni hisobga olish va subyektiv psixik hodisalar to'g'risida fikr olishdan iborat.

3. Laboratoriya tajribasi (lot . laborate - ishlamoq) – psixologiya metodlaridan biri tekshiriluvchiga ta'sir etuvchi barcha omillarni nazorat qilgan holda sun'iy sharoitda olib boriladigan tadqiqot usuli.

2. Diagnostik metodlar – ruhiyatning ma'lum tomonlarini aniqlashga qaratilgan usullar.

3. Tamoyil (yunon. principium boshlanqich asos) – biror bir narsa-

ning ta'lim nazariyasi yoki fan, dunyoqarashning kelib chiqish asoslari, u odamning ichki e'tiqodi bo'lib, o'ziga, borliqda. boshqalarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

4. Suhbat – psixologiya metodlaridan biri, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma'lumot olinadi.

5. Tabiiy eksperiment (lotin. experimenum - sinov, tajriba) – tekshiriluvchini o'ziga bildirmagan holda uni o'yin, o'qish yoki mehnat faoliyatida o'rganishdan iborat psixologik tajriba.

6. Test (ing. test - tekshirmoq) standartlashtirilgan psixologik sinov. Buning natijasida u yoki bu holdagi psixik jarayon baholanadi, shaxs bir butunligicha yoki uning ayrim xususiyatlari o'rganiladi.

Nazorat savollari

1. Tiflopsixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini ko'rsatib o'ting.

2. Tiflopsixologiya fanining shakllanish bosqichlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

3. Tiflopsixologiya fanining tamoyillarini sanang.

4. Determinizm tamoyilining mohiyatini izohlang.

5. Tiflopsixologiya fanining tadqiqot metodlarini ko'rsating.

6. Tiflopsixologiya fanining fanlar tizimida tutgan o'rni qanday izohlaysiz?

1.2. Ko'rish nuqsoniga ega bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomasi

Ko'ruv jarayonining buzilishi tug'ma va keyinchalik paydo bo'lishi mumkin. Tug'ma ko'zi ojizlik homilaning ona qornidagi vaqtida bo'lgan kasalliklar va shikastlanish oqibatida paydo bo'lishi mumkin yoki ba'zi bir ko'ruv nuqsonining nasldan-naslga irsiy o'tishi natijasida bo'lishi mumkin. Odatda qiyinchilik paydo bo'lgan ko'zi ojizligi ko'ruv organlarining kasallanishi oqibatida – to'r parda, shox parda markaziy nerv sistemasining kasalliklari (meningit, miyadagi shish, meningoensefalit) organizmning umumiy kasallanishi oqibatida (qizamiq, gripp) miya-

ning travmatik shikastlanishi oqibatida paydo bo'lishi mumkin. Ko'ruv analizatorining buzilishlari rivojlanuvchi va turg'un turlari mavjud. Rivojlanadigan ko'ruv nuqsonida patologik jarayonlarning ta'sirida ko'ruv jarayonining doimiy ravishda yomonlashuvi ro'y beradi.

David G. Myersning fikricha, ijtimoiy psixologik topilmalar va usullari evolyutsion munosabati uchun qimmatli vositalari bilan ta'minlash mumkin. Birinchidan, ijtimoiy psixologlar insonlar muayyan ijtimoiy sharoitda muomala haqida ko'p bilim yig'di qilgan. Bu adabiyot bilan tanishish o'ziga xos evolyutsion faraz tushuntirmoq yordam va ijtimoiy nuqtai nazardan, inson tabiatning yanada kengroq tushunish uchun, qurilish bloklari beradi (Buss va Kenrick, 1998; Krebs & Denton, 1997). Ijtimoiy psixologlar ham davom etayotgan asoslash va kognitiv jarayonlari, shuningdek, haqida o'ylab va organizm-muhit o'zaro ta'sirlar o'rganish foydali yo'llarini tushunish uchun foydali usullarini ishlab chiqilgan⁷.

John n J. Rieser, Daniel H.Ashmedning fikricha, shaxs faolligining dastlabki ko'rinishlari ontogenetik taraqqiyotida yuz berib qator shartsiz reflekslar tarzida namoyon bo'ladi. Bularga misol qilib surish reflekslarini ko'rsatish mumkin. Ko'rish nuqsoni ayniqsa, mo'ljallash qidirish faoliyatlariga kuchli salbiy ta'sir etadi: Bolalardagi «bu nima ekan» refleksi shaxs rivojida alohida ahamiyatga ega. Shaxs faolligining rivojida nafaqat hohishlarni qondirishga bo'lgan ehtiyojlar, balki individni o'rab turgan muhit, ular ta'siri ham alohida ahamiyatga ega. Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalarning atrof-muhitda kam harakat qilishi, siljishining chegaralanganligi ham ular ruhiyatining rivojiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi⁸.

Ko'zi ojiz bolalar faolligining sustligi, kamligi ayniqsa, ilk rivojlanish va maktabgacha ta'lim davrlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. L.I.Soltsevaning ta'kidlashicha, me'yori bolaga nisbatan ko'r bola rivoji umumiy orqada qolish bilan farqlanadi. Sekinlashgan umumiy rivojlanish dastlab ulardagi ko'rish tasavvurlarining kamligi va zaifligi bilan bog'liqdir. Ayniqsa, atrof-muhitni bilishga bo'lgan faollikning

⁷ David G. Myers. Psychology. © 2010 by Worth Publishers. 109-112 pages/ Mazmun mohiyati olingan.

⁸ John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008. 56-78 pages. Mazmun mohiyati olingan.

kamligidir. Boshlang'ich sinfdagi bolalarda ham faollikning pasayganligini ko'rish mumkin. Ko'zi ojiz bolalar faoliyatini ta'kidlar ekan B.I.Kovalenko va N.B. Kovalenkolar ko'zi ojizligi va uning asoratlari faollikni pasaytiradi, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olishga to'sqinlik qiladi. Bu kamchiliklar ayniqsa, tug'ma ko'zi ojizlarda, ilk yoshda ko'r bo'lganlarda, hamda qisman ko'rmaydigan bolalarda uchraydi deb ko'rsatadilar. Ushbu ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarga qaramasdan muntazam olib borilgan ta'lim-tarbiya natijasida bu bolalarda sezilarli rivojlanishni ta'minlash mumkin. Ko'zi ojiz bolalarda faollikning sustligini ular xulqida ko'rish mumkin. Yuqoridagi mualliflarning ta'kidlashlaricha, «Ko'zi ojiz bolalar sezgilar va idrok qilishda haddan tashqari chegaralangandir. Ular juda faol emas va kam harakatdir. Ko'rish sezgilarining kamligi natijasida ushlar harakatlari juda kamdir. Bola intilmaydi, qo'l uzatmaydi, sudralmaydi, tik turmaydi, qo'llari bilan biror narsani ushmalaydilar. Bog'chagacha va bog'cha yosblarida sudralib yurishlari bir necha yilga orqaga suriladi. Ba'zan boshlarini ehtiyot qilish uchun oyoqlari bilan oldinga sudraladilar. Tik turish va yurishlari 2-3 yilga orqaga suriladi. Muloqotga bo'lgan ehtiyojining yetarli emasligi oqibatida ular nutqining rivojlanishi 3-4 yilga kechikadi».

Shu kabi kamchiliklar rivojlanish nuqsonlari. zaif ko'ruvchi bolalarda ham uchraydi. Mo'ljal oia bilish refleksining salbiy natijalari o'z navbatida atrofni sezishga bo'lgan intilishning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. «Idrok qilishga xohish» pasayadi. Buning oqibatida tabiiy ravishda atrofni bilish ham pasayadi.

Shunday qilib, faollikning pasayishi, bilishga bo'lgan intilishlarning rivojlanmasligi natijasida bilish faoliyati ham bir butunligicha, to'laqonli rivojlanmaydi. Bularga qaramasdan qator ilmiy-tadqiqotlarning ko'rsatishicha yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan kamchiliklarning ko'pchiligini ta'lim-tarbiya natijasida bartaraf etish mumkin ekan. Saqlangan, zararianmagan analizatorlar ishini faollashtirish evaziga qator yutuqlarga erishish mumkinligini ko'rish mumkin. Ammo, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola aqliy rivoji o'ziga xos xususiyatlar bilan amalga oshadi. Shuni ta'kidlab o'tmoq lozimki, qator ruhiy jarayonlar, holatlar (sezgilar, idrok, tasavvur) nuqson chuqurligi bilan bevosita bog'liq


bo'lsa, ayrim ruhiy jarayonlar (yorug'likni sezish, idrok tezligi) nuqson mazmuniga, mohiyatiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga ayrim ruhiy jarayonlar (tafakkur) boshqa ruhiy jarayonlar holati bilan bevosita bog'liq holda rivojlanadi. Bularga qaramasdan ruhiyatning shunday tarkibiy qismlari borki, (dunyoqarash, ishonch, temperament, xarakter) ular na nuqson chuqurligi bilan, na nuqson mazmuni bilan bog'liq bo'lmaydi. Shular bilan yana shuni ta'kidlab o'tmoq joizki, bola ruhiyatining rivoji nafaqat qurish sezgilarining nuqsonlaridan balki uning kechish, dinamikasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Boshqacha aytadigan bo'lsak, ko'rish nuqsonlari aqliy taraqqiyotni sekinlashtiradi. Ammo, o'z vaqtidagi adekvat, o'ziga mos ta'lim-tarbiya, korrektsiyalash ishlar orqali ruhiy rivojlanishni boshqarib borish mumkin. Hatto total ko'zi ojizlar ham atrof-muhit haqida adekvat tasavvurlar, tushunchalar shakllantirish mumkin. Turli ko'nikmalar, odatlar, irodaviy sifatlar tarbiyalash mumkinligini tajribalar ko'rsatdi. Shu kabi natijalarga erishish uchun uzoq yillar talab etiladi. «Atrof-muhitni idrok qilish odamning yerdagi hayotga moslashishining natijasidir. L.Feyerbax ta'kidlashicha, inson atrof-muhitni butunligicha idrok qilish uchun unda shuncha sezgilar mavjuddir». Demak, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola mavjud sezgilarining kamayishi atrof-muhitni to'la idrok qilishga qarshilik qila boshlar ekan. Hatto aralash nuqson, ko'r-karlarda ham atrof-muhitni adekvat, mos qabul qilish saqlanar ekan. Lekin, gnostik bilishning 3 ta turi; ko'rish, eshitish va sezish sezgilari birgalikda kelgandagina bilish jarayoni birmuncha izdan chiqar ekan. I.M.Sechenov davridan buyon psixologik adabiyotlarda bayon etilishicha, ko'rish va sezish tasavvurlari o'xshash bo'lib, ko'z va qo'l predmetlarning bir xil xususiyatlarini ochib berar ekan. Buning isboti sifatida mashhur fiziolog P.K.Anoxin fikrlarini keltirish mumkin. Uning ta'kidlashicha, atrof-muhit turli o'lchovlarda, shakllarda, obrazlar tarzida miyada va ongda aks etar ekan. Bunga misol qilib ko'r, kar, soqov odamlarning xulqini ko'rsatish mumkin. Ko'rish nuqsoniga ega kishilarning atrof-muhitni idrok qilishlaridagi, tasavvurlaridagi farqlarga qaramasdan, meyorda idrok etilayotgan narsalarga mos kelar ekan. Me'yori ko'ruvchi bolalar bilan zaif ko'rmaydigan bolalar tasavvurlarida qat'iy farqlar deyarli yo'q.

Sogʻlom koʻzning koʻruv oʻtkirlik birligi tibbiyotda 1,0 deb qabul qilingan. Ammo, koʻruv oʻtkirligi 1,5: 2,0 birlikdagi kishilar ham uchraydi.

Koʻzi ojizlik va koʻrishning jiddiy buzilishining rivojlanish jarayoniga salbiy taʼsiri bilish faoliyatining barcha turlarida ogʻishlarning paydo boʻlishi bilan bogʻliq va koʻrish nuqsoni bolaning rivojlanishiga taʼsir etmaydigandek koʻrinadigan oʻrinlarda ham namoyon boʻladi. Bu olinadigan axborot miqdorining kamayishi va uning sifati oʻzgarishida namoyon boʻladi. Miqdor oʻzgarishlari hissiy bilish sohasida, koʻrish hislari, idroki va tasavvurining jiddiy qisqarishi yoki mutlaqo yoʻqligida namoyon boʻladi, bu tasavvur va xotira obrazlari shakllanish imkoniyatlarini cheklaydi. Rivojlanishning oʻziga xos sifat xususiyatlari nuqtai nazaridan birinchi galda psixik tizimlar: ularning strukturalari, tizim ichida aloqalar funksiyalar va munosabatlarning shakllanish xususiyatlarini tilga olish joiz. Analizatorlar oʻzaro munosabatlar tizimida sifat oʻzgarishlari boʻladi, obrazlar, tushunchalar, nutqning shakllanish jarayonida, fikrlash faoliyatida obrazlilik va tushunchaviylik nisbatida, makonda orientirlanish va sh.k. larda oʻziga xos xususiyatlar yuzaga keladi. Jismoniy rivojlanishda – harakatlar aniqligi, intensivligida jiddiy oʻzgarishlar boʻladi, yurish va boshqa harakat aktlari oʻziga xos koʻrinish kasb etadi. Demak, bolada oʻzining, juda oʻziga xos, birlamchi nuqson tufayli rivojlanishning turli darajalarida boʻlgan jarayonlarni, shuningdek, rivojlanishning yangi kompensator yoʻllari asosida uni korreksiyalashni oʻz ichiga olgan boʻis normal rivojlanayotgan bolaning biror tizimiga struktura jihatidan oʻxshamaydigan oʻziga xos psixologik tizimi shakllanadi. Bundan koʻrinadiki, koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalarda funksiyalararo aloqalar ham boshqacha, oʻziga xos amalga oshadi. Shu sababli psixologik tizimning shakllanishi va rivojlanishi koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar va kompensator jarayonlar tizimini shakllantirish bilan bevosita bogʻliq.

S.L.Rubinshteynning taʼkidlashicha, «Koʻrish predmetlarni toʻla idrok etishga imkon beradi». Taʼkidlab oʻtish joizki, inson atrof-muhitni bilishda asosiy analizator ham koʻzdir.

Biz ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik jarayon uchun asos bo'ladigan analizatorlarning yetakchi tizimi nuqtai nazaridan guruhlanishini ko'rib chiqamiz. Oftalmologik nuqtai nazardan «0» vizusli va yorug'likni his qiladigan, shuningdek, korreksiya bilan yaxshi ko'radigan ko'zida 0.04 qoldiqli ko'rish o'tkirligiga ega bolalar Brayl tizimi boyicha paypraslash asosida idrok etishga mo'ljallangan darsliklar boyicha, 0.05 dan 0.4 gacha vizusli bolalar esa ko'rish idroki asosida o'qitiladi.




L.P.Grigoreva rahbarligidagi oxirgi tadqiqotlar bolalarni guruhlash mezonlariga tizimli ko'rish obrazlarining shakllanish jarayonlarini tavsiflaydigan psixologik xususiyatlarni kiritish zaruratini ko'rsatdi. Bu va boshqa tadqiqotlar ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda pedagogik amaliyotda ko'plab mamlakatlarda qabul qilingan, aynan esa - blind - ko'zi ojiz va - low vision - zaif ko'ruvchi shaxs tarzida guruhlash maqsadga muvofiq. Qolaversa, zaif ko'ruvchilarga ta'lim jarayoni va kundalik amaliyotda qoldiqli ko'rishdan u yoki bu darajada foydalanilgandan ham kiradi.

Shunday qilib, tiflopsixologiyada ikki turlicha yo'nalgan jarayon - ko'rishda nuqsoni bo'lganlarni nisbatan chuqur differensiatsiyalash: total ko'zi ojiz; yorug'likni his qiladigan ko'zi ojiz; qoldiqli ko'rishga ega ko'zi ojiz; chuqur zaif ko'ruvchi; zaif ko'ruvchi; boshqa tomondan esa - low vision zaif ko'ruvchilarni integratsiyalash ko'zga tashlanadi. Bu tendensiyalar ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik tavsifiga ta'sir o'tkazadi, ko'rish patologiyasi turli shakllarining

bolalarning psixik rivojlanishiga ta'sir darajasi va kuchini, shuningdek, yakka tartibda ishlaganda va maxsus korreksiyalash mashg'ulotlarida ularni kompensatsiyalash imkoniyatlarini belgilaydi.

Ko'ruv jarayoni buzilgan shaxslarning har xil faoliyat turlarini muvaffaqiyatli egallash (predmetli, o'yin, mehnat, o'qish) ko'rgazmali qurollar bilan yuqori darajada ta'minlanish va rivojlantirish, fazoviy fikrlash fazoviy mo'ljalga olishni egallash bilan bog'liq. Fazoviy orientirovka fazoda (maydonda) erkin harakatlanishning muhim qismidir.




Ko'zi ojizlik. Ko'zi ojiz yoki zaif ko'ruvchilarning 90% tug'ma yoki ilk yoshlarda orttirilgan bo'ladi. Ko'rish a'zosining chuqur zararlanishi natijasida insonning atrofni qabul qilish faoliyatida qator nuqsonlar, qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu nuqsonlar asosida inson faolligi keskin pasayadi. Ko'zi ojizlik bu total yoki ko'rish qobiliyatining og'ir darajadagi yo'qolishning bo'lishi mumijn. 18% ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar – total ko'zi ojizlar, 82% ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar oq va qoraning orasini ajrata oladi. Ko'zi ojizlar va ko'rish qobiliyati pasaygan odamlar uchun Brayl o'qish va yozishdagi asosiy aloqa vositasi Braylda matnni birdan 6ta gacha nuqtalar kombinatsiyasi orqali 6 nuqtali ramka joylashtirish mumkin. Brayl yeng ko'p Osiyo tillari uchun kodlashtirilgan bo'lib, lotin harflarida foydalanib bo'lmaydi, lekin Xitoy, Yaponiya, Koreys tillarida foydalansa bo'ladi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda mustaqil harakatlanishida noverbal nutqdan

foydalanishi va tushinishida (yuzdagi ifoda va tilning harakatlari), yozuv muloqotida (chunki ularning tengdoshlari siyoh shriftida o'qiydi va yozadi) qiyinchiliklar kuzatiladi.

Ko'zdagi zarar ta'siri darajasi bir qator omillarga bog'liq(zaif ko'rish, umuman ko'rmaslik), lekin bundan tashqari zararni yerta aniqlash(belgilangan zarar), yerta choralar (bolani qo'llab-quvvatlash) xizmatini boshlash, agar ko'zda zarar sodir bo'lsa, u oldin yoki asosiy aloqadan, tildan va tasvirdan qolgan bo'lsa ota-onalarni va o'qiyuvchilarni bunga jalb qilish kerak.

Kirillova L.I ko'zi ojizlik va zaif ko'rishning asosiy klinik shakllariga tug'ma yakindan ko'rish, asigmatizimli va ambliopiyali uzoqni ko'rmaslik, tug'ma katarakta - gavbar nuqsonlari, afakiya, ko'ruv nervining atrofiyasi, ko'z to'r pardasidagi patologik o'zgarishlar, tug'ma glaukoma va huqazolar kiradi, deb ta'kidlaydi.

Bolalarning ko'zi ojiz bo'lib tug'ilganligi yoki erta bolalik davrida ko'rish qobiliyatini qisman yoki butunlay yo'qolganligi muhim ahamiyatga ega. Ular biroz turli ehtiyojlarni sezadi, turli to'siqlarga duch keladi.⁹



Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Tug'ma nuqsonlar sabablari orasida irsiy kasal-

⁹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Paris, France.(ushbu kitobning 42-43-betlaridan olindi).


liklar (masalan, tug'ma kataraktaning ba'zi shakllari va boshqalar), homilador ayolning toksoplazmoz, qizilcha kasalliklari bilan og'rishi, homila ko'rish organlarining embrional rivojlanish paytda zararlanishi, miya o'smasi va shu kabi kasalliklar katta rol o'ynaydi.

Orttirilgan ko'rish alohida yordamga muhtojiyalari hozirgi kunda nisbatan kam uchraydi. Aholiga davolash-profilaktika, oftalmologiya yordamining yaxshilangani tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar qo'lga kiritilgani munosabati bilan zaif ko'ruvchi bolalar ancha kamaydi.


Yosh bolalar kasalliklari orasida ko'rish organining zararlanishi asosiy o'rinda turadi. Ko'zning har xil turdagi zararlanishi ko'pincha og'ir oqibatlariga bir ko'z, ba'zan esa ikkala ko'z ham ko'rmaydigan bo'lib qolishiga olib boradi. Bolalar ko'zi ko'pincha sanchiladigan va kesaladigan buyumlar (pichoq, qaychi, mix, shisha, pero, qalam, vilka va boshqalar)dan jarohatlanadi, bu buyumlardan asosan 7-10 yoshli bolalar shikastlanadi. Odatda bolalar ko'zi bahor va yoz mavsumlarida sho'xlikdan yoki noma'qul o'yinlarni o'ynaganida shikastlanadi. Buning sababi shundaki, bola bahor va ko'zda ko'p vaqtini ko'chada va hovlida o'tkazadi, kattalar nazaridan yiroqda bo'lib, o'z holicha o'ynab yuradi. 10 dan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning ko'zi o'k otadigan qurol va pirotexnik moddalardan, kapsulalar, zapallarning ichini ochib ko'rganda shikast yeydi. Buning natijasida ko'pincha bir ko'z ko'rmaydigan bo'lib qoladi yoki bola ikkala ko'zidan ajraydi, chunki portlash vaqtida ko'zga kirgan yot jismini magnit tortmaydi, ularni ko'zdan olib tashlash qiyin bo'ladi.¹⁰

Ko'zning o'tmas buyumlar-roqatgadan otilgan tosh, yumaloqlab otilgan qordan lat yeyishi shikastlanishning maxsus guruhini tashkil qiladi. Ko'z soqqasining yuzasi shikastlaganda (mayda yot jismlar tegib tilinganda, qonaganda) unga iflos narsa tushishi natijasida juda ko'p hollarda ko'zga oq (dog') tushadi, natijasida bola yomon ko'radigan, ba'zan butunlay ko'rmaydigan bo'lib qoladi.

¹⁰ 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan, Solveig Sjustedt. 2008, Hungary Finland. 22-26 pages. Mazmun mohiyati olingan.



Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarda birlamchi nuqsonlar patologiyasi yuzaga keladi: ko'rish o'tkirligi, rang ajratish, ko'rish maydoni, yorug'likni sezish va hokazo.



Ko'ruv o'tkirligi – ko'zni bir-biridan eng kam masofada turgan ikki nuqtani ayrim-ayrim ko'ra olish layoqatidir.

Ko'ruv maydoni – bu odam ko'zlari va boshni qimirlatmay turganida ko'rib idrok etadigan maydondir.

Yorug'lik sezish. Ko'zni qonunlikka qarab adaptometrlar maxsus asbobda yorug'likda tekshiriladi.

Maxsus va to'g'ri tanlangan o'qitish metodikasi qo'llanmasligi natijasida ikkilamchi nuqsonlar yuzaga keladi, bular quyidagilar bo'lishi mumkin.

- sensor apparatlarning to'liq shakllanmaganligi;
- tasavvur va tushunchalar borasidagi kamchiliklar;
- fikrlashdagi kamchiliklar;
- nutq rivojlanishidagi kamchiliklar;
- harakatdagi kamchiliklar;

Faqat maxsus ta'lim-tarbiya sharoitidagina ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalashga sharoit mavjuddir.

Ikkilamchi nuqsonlar namoyon bo'ladigan sohalar .

Ambliopiya bilan og'rigan bolalarda ko'rib idrok etish, harakat sohasida (harakatlar aniqligi, koordinatsiyasi buzilgan, mayda matorika makonda orientrlash, oynada aks etganda o'ng va chap tushunchalari rivojlanmagan) predmetli tasavvurlar sohasida hajm biroz kichikroq bo'ladi.

Ko'z kasalliklari ichida shunday kasalliklar uchraydiki bir necha daqiqalar inson hayotini, yashash tarzi va salomatligini tubdan o'zgartirib yuboradi. Ko'z to'r pardasidagi arterial qon aylanishining o'tkir buzilishi—shunday bir shoshilinch holatki, buning asosida ko'z to'r pardasini markaziy arteriyasi yoki uning biror bir tarmog'i asosan embol, tromb yoki spazm natijasida to'silib, berkilib qolishi vujudga keladi.

Ko'rish nuqsonlarining eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri – refraksiya alohida yordamga muhtojiyalaridir. Ularga yaqin ko'rish (miopiya)ning turli darajasi, gipermetropiya, uzoqni ko'rish yoki yaqin ko'rish astigmatizmi kiradi.

Refraksiya alohida yordamga muhtojiyalari, ya'ni nurlarni



sindirevchi fokus ko'z turi oldida bo'ladi. Yaqin ko'rishda(blizorukost) bola uzoqdagi buyumlarni noaniq ko'radi. Yaqin ko'rishda harita, jadvallar, sayr vaqtida uzoqdagi buyumlarni kuza-tish, o'qish, yozish, mehnat darslarida bajariladigan ish-

lar, rasmlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Yaqin ko'rish ko'zoynaklar yordamida to'g'rilanadi. Yaqin ko'ruvchi bollarga boshni uzoq egib turish, tez engashish, og'ir ko'tarish, tana silkinishlari, mayda obyektlar bilan uzoq ishlash taqiqlanadi. Uzluksiz ish 15 daqiqa. Xira yorug'lik man etiladi.

Uzoqdan ko'rishda – ko'zdan yiroqda ko'radi, ko'zga yaqin buyumlarni idrok etishda qiynaladi. Bunday bolalar mayda obektlarni ko'rib o'rganishga mo'ljallangan darslarda juda qiynaladilar va o'qish, yozish hamda tarqatma material bilan ishlashda qiyinchilikka uchraydilar. Uzoqdan ko'rish maxsus korreksiya ko'zoynaklari bilan to'g'rilanishi mumkin. Ularga jismoniy vazifalarni bajarish taqiqlanmaydi. Yaqin obyektlar bilan uzoq ishlash taqiqlanadi.

Astigmatizmda, ko'pincha uzoq va yaqindan ko'rishning buzilishi qo'shib keladi. Shox pardaning shakli buzilishi natijasida nurlar noto'g'ri sindiriladi.


Astigmatizmi bor bolalar setchatkasida vertikal, gorizontal va boshqa yo'nalishdagi qiyshik idrok kuzatiladi va natijada noto'g'ri tasvir paydo bo'ladi.

Ko'z to'r pardasidagi arterial qon aylanishining o'tkir buzilishi– ko'ruv a'zosini eng og'ir kasalliklaridan biri hisoblanib ko'pincha ko'rish qobiliyatini to'la yoki qisman yo'qolishiga olib keladi.


Ko'z to'r pardasidagi arterial qon aylanishining o'tkir buzilishi – qon tomir kasalliklari fonida yuzaga keladi. Ko'pincha qon aylanishining buzilishi bir tomonlama bo'lib, 60 foiz hollarda markaziy arteriyaning, 40% hollarda esa asosiy tomir tarmoqlarining berkilib qolishi bilan kechadi. Selioretinal okklyuziyalar 5% gacha kuzatilishi mumkin. Kasallanganlar asosan erkak jinsiga mansub bo'lib, 40 yoshdan 70 yoshgacha uchraydi.



Yaqinlashuvchi g'ilyalik



Yaqinlashuvchi g'ilyalik



Vertikal g'ilyalik

Ko'zning g'ilyaligi xastaligiga boshidan lat yeyish, bosh miya xastaliklari, og'ir kechgan homiladorlikdan keyingi holat, sochning ko'zga tushib turishi, noto'g'ri taqilgan ko'zoynak sabab bo'lishi mumkin. Homiladorlikning birinchi oylarida ko'z mushaklarining noto'g'ri rivojlanishi, psixologik kasalliklar yoki bosh jarohatlanishi bolalarda g'ilyalik kasalligini keltirib chiqarishi mumkin. Nimadandir qattiq qo'rqish sababli ushbu kasallikning kelib chiqish holatlari hayotda

ko'plab uchraydi. Ko'z qiri bilan qiya qarash, qizamiq, qizilcha, gripp, difteriya (bo'g'ma) kabi infeksiya kasalliklar yaxshi davolanmasa ham g'ilylikka sabab bo'lishi mumkin. Uzoqni yoki yaqinni ko'rolmaslik, astigmatizm, anizometriya kabi tug'ma ko'z kasalliklari sababli ham g'ilylik kelib chiqishi ehtimoli bor.

Glaukoma ko'z ichki bosimini oshishi – ko'z kasalliklari ichida eng og'ir kechadigan, ko'z ichki bosimini barqaror ko'tarilishi oqibatida qaytarib bo'lmay ko'zi ojizlikka olib keladigan og'ir oftalmologik xastalik bu glaukoma hisoblanadi. Tashvishlantiradigan tomoni shundaki, glaukoma kasalligi asosan mehnat qobiliyatiga ega yoshdagi insonlar orasida tarqalgan hisoblanadi.

Glaukomaning erta aniqlash juda muhim bo'lib, kasallikni erta bosqichlarida davolash yaxshi natija beradi. Bemor surunkali glaukoma bilan uzoq vaqt mobaynida hech narsa sezmaydi. Bemor birinchi marta ko'zini tekshirishga kelganda ko'ruv maydonining ancha qismi yo'qolganini oftalmolog tekshirish mobaynida aniqlaydi. Kamdan kam hollarda o'tkir glaukoma xurujida vaziyat boshqacha bo'ladi. Ko'z ichki bosimining birdan va keskin oshishi natijasida, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, qusish, ko'rishning buzilishi, ko'zning qizarishi yaqqol ko'rinadi. Oftalmologik tekshiruvlardan – ko'rish o'tkirligini aniqlash, tirqishli lampa (maxsus oftalmologik mikroskop) yordamida tekshiruv o'tkazish, ko'rish maydonini aniqlash (perimetriya), ko'z ichki bosimini o'lchash (tonometriya), oftalmoskopiya va optiko kogerent tomografiya kabi bir qator tekshiruvlar o'tkaziladi.

Nistagm ko'zning yuqori chastotada (1 daqiqadabir necha yuztagacha) ixtiyorsiz tebranma harakatlanishi. Nistagm so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib, mudroq, mudrash ma'nosini anglatadi. Nistagm ko'z olmasining ritmik harakatlarini aks ettiradi. Kelib chiqishiga ko'ra, fiziologik va patologik nistagmlar farqlanadi. Fiziologik nistagmga tremor yoki ko'zning "uchishi" (masalan, inson tez harakatlanayotgan narsalarni kuzatish jarayoni). Patologik nistagmning sabablari ko'p. Ularga: tug'ma yoki ortirilgan ko'rishning sustligi, bosh miyaning (miyacha, gipofiz, v.h) jarohatlar, dori yoki narkotik (medaferon) vositalar bilan zaharlanishi. Nistagmning gorizontal, vertikal, aylanma shakllari farqlanadi.

Patologik nistagm deyarli davolanmaydi. Asosiy kasallikning da'vosi sifatida vitaminoterapiya qo'llaniladi.

Odatda, alkohol yoki narkotik vositalarni iste'mol qilish bilan bog'liq nistagm, yuqoridagi holatlar bartaraf etilgach, hech qanday davolanishni talab qilmay o'tib ketadi. Zaif ko'ruvchi bolalarda gigiena muhim hisoblanasi qo'llarni toza qilib sovun bilan yuvishi ularni tozaligini tez-tez tekshirish tishlarni toza yuvishga ham o'rgatish. Nanesan (1988) bildirgan fikrlarga ko'ra, qanday odamar orasida qanday kiyinishni bilishi ranglarni mos tushushini bilish zarur deb aytadi, bunda albatta ularga yordam berishni ham aytadi.¹¹

Ko'z nervining atrofiyasi ushbu kasallik ko'z asab tolalaring sekin-asta biriktiruvchi to'qima bilan aralashib ketishini ifodalaydi. Bunga sabab: og'ir umumiy infeksiyalar (meningit, ensefolit), bosh miya jarohatlari, bosh miyadagi o'simtalar, metanol bilan zaharlanish. Ayrim hollarda bu kasallik genetik moyillik asosida kelib chiqishi mumkin (odatda, erkaklarda).

Belgilari: ko'ruv maydonining o'ziga xos o'zgarishi, ranglarni ajratishdagi o'ziga xosliklar (qizil va yashil spektrli ranglar). Genetik moyillik asosida kelib chiqqan ko'z nervining atrofiyasida ko'ruv o'tkirligining pasayishi (ko'ruv maydoni meyorda bo'aladi) bilan belgilanadi. Ko'z oftalmogik ko'rikdan o'tkazganda ko'z diskini chetlari aniq emasligi, qizg'ish randa bo'lishi kuzatiladi. Vaqt o'tgach qizg'ish rang sarg'aayadi, ko'rish o'tkirligi keskin pasayadi, ko'rish nervi o'z vazifasini bajarmaydi.

Traxoma yun. Trachus-gadirbudir – ko'z shilliq pardasining surunkali yallig'lanishi bilan kechadigan yuqumli kasallik. Traxomani chlamydia trachomatis qo'zg'atadi. Bemor kasallikning asosiy manbai hisoblanadi. Sog'lom ko'zga kir qo'l yoki uyro'zg'or buyumlaridan (ko'pchilik bitta yostiq, sochiq, adyol va boshqa dan foydalanganda) yuqadi. Bolalar bog'cha va yashilarda o'yinchoklar orqali zararlanishi mumkin. Traxoma sezalarsiz boshlanib, asta sekin zo'rayadi. Avvaliga ko'zga bir narsa qadalgandek, qovoqlar og'irlashgandek tuyula-

¹¹ 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan, Solveig Sjostedt. 2008, Hungary Finland. 75 pege Mazmun mohiyati olingan.

di. Yuqori qovoq shilliq pardasida shish va follikulalar — donachalar paydo bo'ladi, ko'z qizaradi va qovoklar toraya boradi. Bemor yaqinda uyqudan turgandek yoki chala uxlagandek bo'ladi. Kasallik avj olganda ko'z muguz pardasida ham donachalar paydo bo'la boshlaydi. Bunda ko'z yoshlanadi, bemor ko'zini ocholmay qoladi. Qovoq chetidagi yushriklar o'zagi chandiqlanib, ular noto'g'ri o'sib chiqadi va ko'z muguz pardasiga ta'sir etib, unga qadalaveradi. Qovoq shilliq pardasida chandiqlar paydo bo'lishi natijasida pastki qovoq cheti ichiga qayriladi. Kasallik yengil, o'rtacha va og'ir kechishi mumkin. U ko'p jihatdan bemor organizmi holatiga bog'liq bo'lib, organizmda moddalar almashinuvining buzilishi kasalliklari, vitaminlar yetishmasligi, mahalliy kasalliklarning qo'shilishi va boshqalarda birmuncha jiddiy kechadi.

Traxoma o'z vaqtida aniqlanib davolanmasa, 5—10 yillab davom etib, bemor butunlay ko'r bo'lib qolishi mumkin, chunki ko'z muguz pardasini namlab turadigan ko'z yoshi yo'llari chandiqlanib, bekilib qoladi, natijada muguz parda qahrab, oppoq oqarib, sadafga o'xshab ko'rinadi. Kasallikning oldini olishda shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, aholining madaniy turmush darajasini oshirib borish katta ahamiyatga ega. Traxomaga gumon qilinganda darhol vrachga ko'rinish lozim; bemor to'g'ri va muntazam davolansa, butunlay sog'ayib ketishi mumkin.

Miopiya kasallikning rivojlanish davri 9 yoshga to'g'ri keladi. Agar miopiyani vaqtida aniqlab, kerakli davo choralari ko'rilsa, nafaqat ko'rish qobiliyati pasayishining oldi olinadi, balki ushbu jarayonni orqaga qaytarish ham mumkin. Miopiya shunday xastalikka, bunda ko'zlar faoliyati buziladi, ya'ni uzoqda turgan obyektning tasviri to'r pardada emas, balki uning oldida paydo bo'ladi. Natijada, bola uzoqdagi narsalarni (masalan, sinf dokasidagi yozuvlarni) noaniq ko'radi. Yosh ulg'ayishi bilan miopiya darajasi oshib boradi va bola 20 yoshga to'lganda, ya'ni organizm shakllanib bo'lgach barqarorlashadi.

Miopiyada ko'z o'qining uzunligi meyordan yuqori, ya'ni ko'zning nur sindirish kuchi yorug'lik nurlari to'g'ri to'r pardada fokuslanishi uchun juda katta bo'lib, fokus to'r parda oldida joylashadi. Shuning uchun to'r pardadagi tasvir noaniq bo'ladi va uzoqdagi obyekt

xira ko'rinadi. Bolalarda miopiyaning paydo bo'lishi asosan genetik moyillik bilan bog'langan. Miopiya rivojlanishiga moyillik bolalarga ko'pincha ota-onasidan o'tadi. Genetik olimlardan tashqari, miopiya rivojlanishiga bolaning yaqin masofalarda (o'qish yoki kompyuterda ishlashda) ko'rish zo'riqishiga bog'liqdir. Agar yaqin masofalarda ko'rish qobiliyatini fokuslash uchun mas'ul bo'lgan ko'z mushaklari uzoq muddat zo'riqish bilan ishiosa, yaqin masofadagi ishni bajarish vaqtida ular uzoq masofaga nazar tashlanganda bo'shasha olmaydi. Buning natijasida ko'z doimo zo'riqish holatida bo'lib, miopiya rivojlanishiga olib keladi. Ko'pgina olimlar bolalarda miopiya rivojlanishini organizmning umumiy kasalliklari bilan bog'liqligini ta'kidlashadi. Shuning uchun miopiyaning oldini olish uchun bolalardagi skolioz, tonzillit, bolalar infeksiyalari, kariyes va boshqa surunkali kasalliklarni o'z vaqtida davolash o'ta muhimdir.

Katarakta yunoncha "katarhaktos" "sharshara" ko'z kasalliklaridan biri bo'lib, aslida tiniq ko'z gavharining xiralashuvidir. Kataraktaning rivojlanishi inson organizmidagi ba'zi kasalliklarning asorati, qolaversa, tashqi muhit omillari – ko'z shikastlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu xastalik tug'ma va hayot davomida orttirilgan bo'lishi mumkin. Qarilikda (odatda 50 yoshdan keyin) katarakta ko'p uchraydi (90 foiz). Buning sababi ko'z gavhari oziqlanishining buzilishi, uning tarkibiga kiruvchi oqsillarning o'zgarishi (denaturatsiya) va hokazo.

Kelib chiqishiga ko'ra kataraktalar bir necha xil bo'ladi:

- Qarilik kataraktasi;
- ko'z shikastlanishidan keyin rivojlanadigan katarakta;
- asortali kataraktalar(ko'z kasalliklari asorati – masalan, yuqori darajali miopiya va hokazo);
- radiatsion kataraktalar (ionlashtiruvchi nurlanish oqibatida kelib chiqadi);
- toksik kataraktalar (naftolon kislota va shunga o'xshagan zaharli moddalar ta'siri ostida rivojlanadi);
- organizmning umumiy kasalliklari oqibatida kelib chiqadigan katarakta (endokrin tizimidagi o'zgarishlar, umumiy moddalar almashinuvining buzilishi oqibatida);

Ushbu xastalik sababli vaqt o'tishi bilan ko'z gavhari butunlay xiralashib qoladi. Tashxis:

- Ko'rish o'tkirligini va ko'rish maydonini aniqlash;
- Ko'z ichki bosimini o'lchash – tonometriya;
- Ko'z gavharini biomikroskopiya (tirqishli lampa) yordamida tekshirish;
- Ko'z to'r pardasini elektrofiziologik usul bilan tekshirish;
- Ko'zni ultratovush yordamida tekshirish;
- Qo'shimcha tekshiruvlar.

Ko'zning xira tortishi uning boshqa kasalliklarida ham kuzatiladi. Shuning uchun albatta shifokor–oftalmologga murojaat etish va kasallikni o'z vaqtida aniqlash lozim. Tekshiruvlar natijasini tahlil qilib, shifokor dorilar vositasida yoki jarrohlik yo'li bilan davolashni tavsiya etadi. Dorilar bilan davolash ko'z gavharidagi xiralashishning so'rilishiga yordam bermaydi. Lekin dori-darmonlar kasallik rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin.

Kataraktaning davolashning yagona yo'li – jarrohlik operatsiyasi bo'lib, bunda xiralashgan ko'z gavhari intraokulyar linza – sun'iy gavhar bilan almashtiriladi. Hozirgi vaqtda butun dunyoda kataraktani ultratovushli fakoemulsifikatsiya yo'li bilan olib tashlash jarrohlik amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Jarrohlik amaliyotini amalga oshirish uchun kataraktani yetilishini kutish kerak emas. Hozirgi paytda ushbu ko'z xastaligini davolash qancha erta boshlansa, davo shuncha samarali bo'ladi.

Ko'zi ojiz bolalarda predmetli tasavvurlar zahirasi ancha kam, ular mavjud tasavvurlar obrazlar bilan ishlashda qiynaladilar. Maktabgacha yoshdagi ko'zi ojiz bolalarda harakatchanlik sustligi, harakat malakalarini aniq shakllanmasligi, makonda orientirlash ancha builganligi, makondagi yo'nalishlarni ajratishda nuqsonlar, makonda harakatlanish chog'ida orientrlashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Ko'zi ojiz bolalarda ikkilamchi nuqsonlar bilish faoliyatida ham namoyon bo'ladi, predmetlar haqida tasavvurlar ojizligi, predmetlar haqida tasavvurlar yo'qligi, tasavvurlar uzuq-yumuqligi va boshqasildir.

Zaif ko'ruvchi bolalar uchun maxsus maktab-internatlariga ko'rish nuri 0,05-4 gacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi, bunda kasallikning

huruj qilishi, shakli, turi ham inobatga olinadi. Koʻz nuri 0,2 dan yuqori boʻlgan bolalar umumtaʼlim maktablarida oʻqishlari lozim. Bogʻcha boʻlimiga 3-7 yoshgacha boʻlgan bolalar qabul qilinadi. Maktab-internatning 1-sinfiga bolalar 7 yoshdan qabul qilinadilar.

Aqli zaif boʻlgan koʻzi toʻliq ojiz va zaif koʻruvchi bolalar yordamchi dastur asosida taʼlim-tarbiya beriladigan maxsus sinflarda oʻqitiladi. Koʻzi ojiz, zaif koʻruvchi bolaning oʻzlashtirish meyorlarini aniqlash uchun aqli zaif deb topilgan bola kamida 1 yil maxsus maktab-internatning umumtaʼlim dasturi asosida oʻqitiladi. Oʻquv-tarbiyaviy jarayon kuzatib boriladi, faqat shundan keyingina tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga asosan bola yordamchi dastur asosida 8 yil oʻqitiladigan toʻliq koʻzi ojiz va zaif koʻruvchi oʻquvchilarga maxsus bilimga ega boʻlgan defektolog-oʻqituvchilar taʼlim-tarbiya beradilar.

Quyidagi koʻzi ojiz bolalar maxsus maktab-internatiga qabul qilinmaydilar:

- a) imbetsil, idiot darajasida boʻlgan aqli zaif bolalar;
- b) organik xususiyatlarga ega, xulqida chuqur buzilishlarga ega boʻlgan bolalar (his-tuygʻulari buzilgan).
- v) harakat-tayanch aʼzolarining chuqur buzilishi. Mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan, oʻz-oʻziga xizmat qila olmaydigan bolalar.
- g) koʻr va kar-soqov boʻlgan bolalar qabul qilinmaydilar.

Bunday kasailiklarga uchragan bolalar xalq taʼlimi boʻlimlari qoshlarida tashkil qilingan tashxis markazlarining hamda maxsus tibbiy-pedagog komissiyaga yuboriladilar. Ularning xulosasiga asosan sogʻliqni saqlash, xalq taʼlim va maishiy taʼminot vazirligi qoshidagi maxsus bolalar muassasalariga yuboriladilar.

Koʻzi ojizlar uchun maktablarda, maxsus maktab-internetlarida taʼlim maxsus nuqtalardan tashkil topgan Brayl tizimida olib boriladi.

Tayanch soʻzlar va tushunchalar

1. Koʻrish nuqsonini korreksiyalash – turli asbob-uskunalar yordamida qoldiq koʻrish imkonlarini koʻpaytirish, kuchaytirish.

2. Adaptatsiya – tashqi sharoitlarga moslashish boʻlib, buning oʻzi analizatorlarning oʻzgarishlarni sezish bilan bogʻliq fiziologik adap-

tatsiya va yangi guruhlardagi yangi faoliyat turiga moslashishdagi psi-xologik adaptatsiyalarga ajratiladi.

3. Kompensatsiya – zararlangan, ishdan chiqqan bir a'zo funksiyasini boshqa a'zoning qisman boshqarishi, to'ldirish tushuniladi.

Savol

1. Ko'ruv analizatorlarida nuqsonlarni vujudga kelish sabablarini siz qanday izohlaysiz?

2. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar qanday guruhlarga ajratiladi?

3. Birlamchi nuqsonni ta'rifini keltiring.

4. Ikkilamchi nuqson deganda qanday fikrni aytolasiz?

5. «Ko'rish faoliyatini yo'qolishi vaqti» tushunchasini izohlang, fikringizni tushuntiring.

Mavzu yuzasidan amaliy topshiriqlar

1. Inson shaxsining to'laqonli, atroflicha, mukammal bo'lib rivojlanishi, shakllanishi uchun barcha analizatorlar sog'lom bo'lishi lozim. Aks holda shaxs bir butun holda, me'yorda rivojlanmaydi, aniqrog'i rivojlana olmaydi. Analizatorlarning tuzilishi nafaqat atrofdan kelayotgan taassurotlarni qabul qilish, balki ularni tahlil qilish faoliyatni nazorat qilish ham izdan chiqadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ko'rish analizatorining zararlanishi inson psixikasining turli tomonlariga bir xilda ta'sir etmaydi.

Ma'lumki, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash vaqtida ularning ko'rish nuqsonlarini nima sababdan kelib chiqqanligi bilish lozim. Shu boisdan ham tiflopsixologiyada quyidagilarni bilish va o'zlashtirish lozim.

- ko'zi o'jiz maktab-internat o'quvchilar nuqsonlarini kelib chiqish sabablarini o'rganish;

- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'ruv nuqsoning bolaning rivojlanishiga qay tarzda ta'sir qilishini aniqlash;

- ko'ruv nuqsoni bolaga ta'siri aniqlangach, bola uchun korreksion ta'lim jarayonini to'g'ri belgilash;

- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaning ruhiy holatlarini barchasini inobatga olish.

2. Ushbu kasallikni tahlil qiling

A) Retinoblastoma vis-0


B) Afakiya tug'ma nistagi vis-0,05/01. R.R.S.

V) Gipermotrofiya vis-0,03 G'.83

II BOB. KO'RISH NUQSONIGA EGA BOLALARNING BILISH FAOLIYATI

2.1. Ko'rish nuqsoniga ega bolalarni sezgi va idrokining o'ziga xosligi

Har qanday bilish dastlab oddiy sezgilardan boshlanar ekan. Oddiy tilda gapiradigan bo'lsak, sezgilar bizni borlik bilan bog'lab turuvchi vosita, ko'prikdir. Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgilari... va boshqalar bizning sezgi bilimlarimizga asos bo'la oladi. Sezgi bilimlarimizning tarkibi, tuzilishi insonning sensor tizimini tashkil etadi. Insonning sensor tuzilishi uning tarixiy ijtimoiy taraqqiyoti davomida shakllanib, uning hayot va faoliyat mazmunini belgilaydi. Shu bois, ko'rish tizimi boshqa analizatorlardan ustun turadi. Inson mehnat faoliyati jarayonining asosida ko'rish-taktil-kinestetik bog'lanishlar va optik-vestibulyar yo'nalganlik yotadi. Ko'rish analizatorining to'la yoki qisman buzilishi zaif ko'rishga, ko'zi ojizlikka olib keladi. Buning natijasida analizatorlar orasidagi bog'liqlik buziladi. Mutanosiblik yo'qoladi. Buning oqibatida insonning sensor tuzilishida, birinchi navbatda mantiqiy bilish va tajribada meyordan chetga chiqqanligi kuzatila boshlaydi. Agar inson ruhiyati o'z dinamiklikka va egiluvchanlikka ega bo'lmaganda edi, ularning barchasi qaytarilmas, takrorlanmas, oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Sezish jarayoni quyidagicha ro'y beradi:



Shunday qilib, sezgi tevarak-atrofdagi moddiy dunyoni bilishning birinchi bosqichidir, sezgida hissiy ton ham, faol iroda momenti ham bor, sezgining murakkab nerv-fiziologik asosi ham bor.

Sezgilar xilma-xil bo'ladi. Turli-tuman sezgini qaysi sezgi organlari yordami bilan hosil qilsak, ularni o'sha organlarga qarab odatda, quyi-dagi turlarga, ya'ni ko'rish sezgilari, eshitish sezgilari, hid bilish sezgilari, ta'm (maza) bilish sezgilari, teri sezgilari, muskul-harakat sezgilari va organik sezgilarga ajratiladi.

Sezgi organlari qacda ekanligiga va qacdan qo'zg'alishiga qarab, ularni uch gruppaga ajratish mumkin: eksteroretseptorlar, proprioretseptorlar va interoretseptorlar.

Eksteroretseptorlar organizmning sirtida bo'ladi – ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm (maza) bilish, teri sezgisi, muskul harakat sezgisi va organik sezgi organlari shu jumladandir.

Sezgilar biror-bir sezgi organining qo'zg'alishi natijasida hosil bo'ladi. Ammo qo'zg'ovchi retseptorga ta'sir eta boshlashi bilanoq, darrov sezgi tug'ilavermas ekan: qo'zg'ovchi ta'sir eta boshlagandan bir necha vaqt keyingina sezgi hosil bo'ladi. Turli sezgilarda bu vaqt 0,02 sekunddan 0,1 sekundgacha boradi. Shunday qisqa vaziyatni biz, odatda, payqamaymiz.

Sezgi hosil bo'lgach, ma'lum muddat davom etadi. Sezgilari davom etish muddatiga qarab, qisqa va uzoq muddatli sezgilarga bo'linadi. Masalan, yalt etib chaqnagan bir uchqun yorug'ligini sezish yoki yerga tushib ketgai qalam tovushini sezish qisqa muddatli sezgilardan hisoblanadi. Kunduzgi yorug'likni sezish, zavodning yangrayotgan gudok ovozini eshitish uzoq muddatli sezgilardandir. Sezgilarning qancha muddat davom etishi tashqaridagi narsalarning sezgi organlariga nechog'li uzoq, ta'sir etishiga bog'liq. Narsa ta'sir etib turar ekan, tegishli sezgi ham bo'ladi. Ammo narsaning ta'sir eta boshiashi va sezgining hosil bo'lishi bir vaqtga to'g'ri kelma-gani singari, narsa ta'sirining to'xtashi va sezgining yo'qolishi ham mutlaqo bir vaqtga to'g'ri kelmaydi. Narsa ta'sir etmay qo'ygani holda sezgi yana bir necha vaqt davom etaveradi. Torning ovoz chiqarishi to'xtatilganiga qaramay, tovushnn se-zish yana bir necha vaqt davom etadi. Bunday xa-

yollab qolgan sezgilar tutilib qolgan yoki izma-iz obrazlar deb ataladi. Tutilib qolgan obrazlar 0,05 sekunddan 1 sekundgacha (ba'zan bundan ham ortiq) davom etadi.

Yuqorida aytilgan ko'rish sezgilaridagi kontrast va izma-iz obrazlarning paydo bo'lishi sezgilarning hosil bo'lish tezligiga va davom etish muddatiga taalluqli qonuniyatlar bilan izohlanadi. Odamning mehnat faoliyati sezgilarning o'sishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, biron mahsulotni tayyorlaganda, shuningdek, nazoratdan o'tkazganda moddiy narsalarga bevosita tegish (ko'rish, eshitish, paypaslab sezish va hokazo) bilan birga, shu narsalarning sezib bilinadigan ayrim xossalari katta e'tibor berishga to'g'ri keladi, sezgi organlarining farq qilish qobiliyatiga ortiqroq talab qilishga to'g'ri keladi.

Modomiki shunday ekan, maktabda ishlab chiqarish – mehnat ta'limini amalga oshirish o'quvchilarda sensor sezgirlikning turli tomonlarini o'stirishga yordam berishi shubhasiz. Ko'ruv obyektining tanishning umumiy modeli Brayl belgilarning shaklini chiqarib olish (tanish) bir qancha cheklövlar orasidagi murosaga bogliq boladi:


- Belgilar barmoqning noaniq shaklini qamrab oladigan darajada katta bolishi lozim;
- Ular 1ta barmoq cheklangan o'Ichoviga mos tushish uchun yetarlicha kichkina bolish lozim;
- Ular **alfanumerik** xususiyatlar talab qilgan ma'lumotlarni yetkazib berish uchun yetarli darajada murakkab bolish darkor (Loomis 1990).

Albatta, kozi o'jiz odamlar brayl alifbosini o'qiy olishadi, ammo bu ravonlikka erishish uchun qiyinchilik tug'diradi. Ikkinchi namuna sifatida kotarilgan chiziq chizmalarni(raised-line) ko'rmasdan turib tanib olish ko'zi o'jizlar bilan bir qatorda ko'ra oladigan odamlar uchun ham qiyin. Asosiy muammo chiziqlarni Grammatik tahlil qilish va fondan ajratib olishga o'xshagan oraliq darajadagi jara-yonlar bilan bogliq.¹²

¹² John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception.Taylor & Francis Group, LLC 2008.186-189 peges. mazmun mohiyati olingan

Sezgilarning o'sishi uchun jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyati bor. Masalan, aniq harakatlar qilishga to'g'ri keladigan mashqlar muskul-harakat sezgilarini ustiradi. Mashq qilish jarayonida sezgilarining hamma xillari o'sadi.

Sezgilarning ochiq ravshan bo'lishida nutq katta rol o'ynaydi. Sezgilar so'z – ifodalar bilan bog'lansa, ochiq-ravshanroq bo'lib qoladi. Masalan, kuy tonlari tegishli terminlar bilan ifodalanmasa, ularni eshittishda kelib chiqadigan sezgilarni ta'riflab bo'lmaydi.



So'z bilan ifodalanmagan narsa umumiy kompleksdan yaqqol ajralib turmaydi. Odamning sezgisi – aniqligi, ravshanligi, differensiallanganligi (bir-biridan ajralganligi) nutqning taraqqiy etishi bilan o'sadi va ko'p jihatdan nutq tarbiyasiga bog'liq bo'ladi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni to'g'ri tarbiyalash sezgilarining o'sishida katta ahamiyatga egadir.

Yuqorida aytilganidek, **idrok** sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarning ongda bevosita aks etishidir. Biz narsa va hodisalarni yaxlit holicha idrok qilamiz, narsalarning ayrim xossalarini esa sezamiz. Masalan, quyoshni biz idrok qilamiz, uning yorug'ini esa sezamiz, og'zimizdagi chaqmoq qandni idrok qilamiz, uning shirinligini esa sezamiz. Ammo xossa va narsa bir-biridan ajralmasdir, shu sababli narsalarni idrok qilish ham sezgilardan ajralgan holda voqe bo'lishi mumkin emas.

Biz bir narsani idrok qilayotganimizda uning ayrim xossalarini ham sezamiz. Biror narsaning o'zini idrok qilmasdan hosil bo'ladigan sezgilar yangi tug'ilgan chaqaloq hayotining dastlabki kunlaridagina mavjud

bo'lsa kerak; chaqaloq narsaning o'zini idrok qila bilmasa ham undan hosil bo'ladigan sezgilarni ajratadi, masalan, yorug' va qorong'ini, shirin va nordonni sezadi. Odamning murakkab psixik hayotida ayrim sezgilar faqat idrok jarayonida fikrni analiz va abstraktlashtirish yo'li bilan ajratiladi.

Sezgilar, odatda sodda, elementar psixik jarayonlar deb hisoblanadi, idrok esa murakkab psixik protsessdir. Biz idrok qilayotgan narsalar g'oyatda xilma-xildir. Bular jumlasiga, avvalo, turli buyumlar, chunonchi-binolar, daraxtlar, jihozlar, texnika buyumlari va hokazolar kiradi. Biz muzika, surat, rasm va boshqa san'at asarlarini idrok qilamiz. Odamning hayotida nutqni - og'zaki va yozma nutqni idrok qilish eng katta va muhim o'rin tutadi. Yuqorida bayon qilinganlardan ma'lumki, odamning tajribasi, bilimi, xayol va tafakkurining faoliyati, hissiyot va diqqati, umuman odam psixikasining hamma mazmuni idrokida namoyon bo'ladi.

1880-yillardan boshlab tiflopsixologik tadqiqotlarda sezish chegaralarini o'rganish boshlangan edi. Qisman yoki zaif ko'ruvchilardagi sezgi chegaralari o'ziga xosligi bilan, nuqson chuqurligi bilan uzviy bog'liqligi bilan ajralib turadi. Qator tadqiqotlarda absolyut sezish chegarasiga oid turli qarashlar, ma'lumotlar bor. Me'yori bolalardagi sezish chegaralari bilan yaqinligi haqida ham ma'lumotlar yetarli. Kompensator o'zgarishlar ham o'ziga xos tarzda amalga oshar ekan. Turli sezgilarning o'zaro ta'siri oqibatida ayrim analizatorlar faoliyati tezlashadi, ayrimlarining faoliyati susayadi. Ayrim hollarda sezgilararo aralashuvlar ham yuz berar ekan.

Tiflopsixologiya fan bo'lib, shakllana boshlagandan buyon qaysi sezgilar yetakchi bo'lishi ustida tadqiqotlar olib boriladi. Keyingi yillardagi ilmiy tadqiqotlarning isbot etishicha, ko'rish nuqsoni oqibatida asosan taktil va kinestetik analizatorlar faoliyati faollashar ekan. Total ko'zi ojizlarda haqiqattan shunday holat kuzatiladi. Bu haqida ikkilanish kerak emas. Ammo, qisman ko'ruvchi (0,005 dan yuqori) shaxslarda esa bu holat o'ziga xos mazmun kasb etadi. Lekin, zaif ko'ruvchi bolalar, kattalarda esa asosiy sezgi sifatida ko'rish qolaveradi. Ko'rish sezgilari, ko'rish analizatori faoliyatining natijasi, mahsuli sifatida qoladi.

Bunda ko'rish retseptorlari, ko'rish asab tolalari ko'zg'alishlarni bosh miyaga uzatuvchi sifatida, bosh miya orqa qismida joylashgan ko'rish analizatori yadrolari ma'lum darajada ko'rish jarayonining vazifalarini bajaradi. Ko'rish analizatorlari ayrim qismlarining zararlanishi uning faoliyatini qisman buzsa, analizator to'la buzilsa ko'zi ojizligi yoki zaif ko'rishga olib kelishi mumkin. Ko'rishning chuqur buzilishi natijasida eshitish sezgilarida ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshlaydi. Bu holat ko'zi ojizligi oqibatida yuz bermaydi. Balki, eshitish analizatorining boshqa bir analizatorning zararlanishi oqibatida faollashishi yuz beradi. Ko'zi ojizlarda eshitish me'yorl taraqqiy etadi. Bu narsa ko'rish qobiliyati buzilgan shaxslarning to'laqonli bilim olishlari va olgan bilimlarini amalda qo'llay olish imkonini beradi. Me'yorda ko'ruvchi shaxslarda narsa va atrof-muhitidagi holatlar ko'rish orqali idrok etilsa, ko'zi ojizlarda esa, teri sezgilari asosiy rol oynaydi. Shuning oqibatida ko'rish nuqsoni bor shaxslarda tana a'zolarining, ayniqsa, inson bilish faoliyatida, xususan mehnat jarayonida tutgan, egallagan o'rni keskin oshadi. Buning oqibatida sensibilizatsiya - taktil sezgilarining ortishi kuzatiladi.

Psixologiya fanida uchta katta guruh (turkum)ga ajratilgan sezgilar (eksteroreseptiv, prioretseptiv, interoretseptiv) o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ko'rish sezgilari.
2. Eshitish sezgilari.
3. Shid bilish sezgilari. Eksterotseptiv.
4. Ta'm bilish sezgilari.
5. Teri sezgilari.
6. Muskul-sharakat (kinestetik).
7. Statik sezgilar. Proprioseptiv.
8. Organik sezgilar. Interotseptiv.¹³

Taktil sezgilar ko'zi ojizlarning barcha a'zo terilarida yuz bermasdan, balki ayrim qismlaridagina yuz beradi. Ayniqsa, qo'l, kaft qismida bu holat sezilarli darajada bo'ladi. Tadqiqotlarning isbotlashicha, ko'r barmoqlaridagi sezgilar me'yorl shaxslarnikidan ancha ustun ekan. Bunday o'sish ko'r shaxslarning o'qish tizimi – Brayl bilan uzviy bog'liqdir.

13 E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. II –kitob. T.: "Universitet", 2002.

Bunda asosiy rolni o'ng qo'ldagi ko'rsatkich barmoq egallaydi. Na-faqat teri sezgilar, tuyg'ulari balki, bu bolalarda harorat sezish qobili-yati ham, oqriq tuyish qobiliyati ham birmuncha ortar ekan. Bu sezgilar faoliyat jarayonida rivojlanadi va shakllanib boradi. Haroratni sezish sezgilari ham bu bolalarda ancha o'sishga moyil ekan. Teri sezgilari majmuasida (kompleksida) yorug'lik va rang ta'sirlariga javob berish ham o'ziga xos mazmunga ega ekan. «Teri orqali ko'rish» fenomeni – qobiliyati azaldan ma'lum. Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha, buning asosida tok, tok magnit tebranishlari yotar ekan. Harakat anali-zatori inson hayotining dastlabki kunlaridanoq yetakchi o'ringa chiqadi. Faoliyat jarayonida harakat analizatori differentsirlashib boradi. Bunda ko'rish nazorati talab ham etilmaydi. Ko'rish faoliyatining kamayi-shi, ba'zan yo'qolishi natijasida kishida tebranish sezgilar orta boradi. Ma'lumki, total ko'zi ojizlar ma'lum masofa uzoqlikda turgan qimirla-mas narsalar: daraxt, devor va boshqa narsalarni sezadilar. Bu sezgilar predmet mohiyatdan yiroq bo'lib, ko'zi ojizlar u narsa haqida ma'lumot berolmaydilar. Ko'rish a'zolari meyordagi kishilar uchun ta'm bilish va hid bilish unchalik rol oynamas, ammo ko'zi ojizlar uchun bu sezgilar nisbatan katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lum bo'lishicha, ko'zi ojiz-lar me'yor ko'ruvchilardan ko'ra bir qancha darajada hidni, uning yo'nalishlari yaxshi bilar ekanlar. Total ko'zi ojizlarda vestibulyar ap-paratning roli nisbatan ortadi. Tana muvozanati uchun bu apparatning vazifasi katta. Bu apparat vazifasining o'zgarishi uning sezgirligining ortishiga olib kelar ekan. Qator tadqiqotlarning ko'rsatishicha, total ko'zi ojizlarda vestibulyar apparat me'yorl ko'ruvchi shaxslarnikidan yaxshi rivojlanar ekan. Ko'rish nuqsoni bo'lgan shaxslardagi turli sezgilarning faollashishi, rivojlanishi ularning hayotda oson mosla-shishlariga yordam beradi.

Joyini topish va mo'ljalga olishda sezgi a'zolarining ahami-yati. Ko'rish sezgisi: Sog'lom kishilarning atrof-muhitdagi, fazodagi yo'nalishni aniqlashlarida, yo'l topishlarda ko'ruv a'zosi – ko'zning ahamiyati katta.

Ko'rish sezgilarining organi – ko'zdir. Bu organ ko'z soqqasi bilan undan chiqadigan ko'ruv nervidan iborat. Ko'z soqqasida uchta parda,

ya'ni: tashqi, tomirli va to'r parda bor. Tashqi pardaning tiniqmas (oq) qismi sklera (qotgan yoki qattiq parda) deb ataladi. Tashqi pardaning oldingi birmuncha qovariq qismi tiniq (muguz) parda deb ataladi.

Tashqi pardaning orqasida tomirli parda bor. Ko'zi ojizlar, hatto ko'ruv o'tkirligi juda past ko'zi ojizlar ham katta maydonlarda, yo'llarda harakatlanganda ozgina bo'lsa ham qoldiq-qo'rquvdan foydalanadilar.

Ko'zi ojizlar nurni, yorug'likni sezib, katta narsa va obyektlarning shaklini xira bo'lsa ham sezgan holda o'shani mo'ljal qilib joyda harakatlanadilar. Qora va oq nur, soyalarning almashinuvi bilan ular oldinda to'siq borligini sezadilar. V.S.Sverlov ko'zi ojiz kishining joyda, yo'lni va yo'nalishni qanday topib yurishi haqidagi gaplarini keltiradi: Atrofdagi hamma narsalar mening uchun kulrang tuyiladi. Lekin, bu rang ham tuslarga bo'linadi, ba'zi bir narsalar qora, boshqalari ovda o'xshaydi. Men yo'l, ko'cha yorur bo'lsa, o'zidan bir necha metr naridagi devorni kulrang to'siq sifatida sezaman. Shu devor boylab har kuni yurganim uchun, u yerda hamma narsalar menga tanish bo'lgani uchun ham tez yurib ketaman. Bu yo'lda har xil qora doklar ko'rinadi, bu daraxtlarning soyasi, ko'rib qolgan loy va boshqalar bo'lishi mumkin. Lekin, bu soyalar menga tanish bo'lgani uchun ham, ular menga yurishimda mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bordi-yu yo'l tanish bo'lsa-yu bu yo'lda soyalar ko'p bo'lsa juda ham qiynalaman. Agar yorug'lik va soyalar almashib turadigan joy bo'lsa ham menga qiyin».

Teri sezgisi: Teri sezgilariga tuyush va temperatura sezgilari kiradi, bu sezgilarning teri sezgilari deb atalishiga sabab shuki, bu sezgilarning chekka nerv apparatlari (retseptorlar) terida va organizmimizning tashqi shilliq pardalarida bo'ladi.

Tuyush sezgilari – tegish, tarqalishni tuyush sezgilari yoki tuyush tanachalari. Taktil sezgilar, shuningdek, silliq yoki g'adir-budurni tuyush sezgilaridir. Biror narsaning tegishini sezish tashqi ta'sir (qo'zg'alish) kuchayganda siqiq sezishga aylanadi. Qo'zg'allsh yanada kuchayganda siqiq og'riq sezgisiga aylanishi mumkin. Ammo terida seziladigan har qanday ortiq teriga ta'sir etadigan tashqi qo'zg'alishga bog'liq bo'lavermaydi, albatta.


Tuyush sezgilari organi – teridagi va tashqi shilliq pardalardagi tuyush tanachalari degan maxsus tanachalardir. O'sha tanachalarning ichida, qisman esa tashqarisida (bevosita epiteliyda) tuyush nervining chekka tarmoqlari bor. Ular terida va gavdamizning shilliq pardalarida bir tekisda taqsimlangan emas. Bu tanachalar barmoqlarning uchida, til uchida, labda zich joylashgandir. Shuning uchun ham gavdamizning ana shu qismlari tekkan narsani, silliq va g'adir-budurni boshqa qolganlaridan eng ko'p sezgiridir. Tuyush tanachalari orqa terisida juda siyrakdir. Tuyush tanachalari va sezuvchi nervning chekka tarmoqlari nechog'li zich taqsimlanganligi esteziometr nomli maxsus asbob yordami bilan aniqlanadi.

Ko'zi sog'lom kishi uzoqni ko'radi. Qo'l va oyoq bilan tevarak-atrofni tekshirish imkoniyati chegaralangan. Ammo, ko'zo ojizlarda teri-muskul – harakat analizatorlari yo'lni aniqlashda, fazoviy yo'nalishlarni tekshirishda asosiy rol oynaydi. Turmushda, o'quv va ishlab chiqarishda qo'l sezgisi predmetlarning faqat shaklini emas, balki ularning bir-birlariga nisbatan joylashuvini, yo'nalishning xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Qo'l va oyoqning imkoniyatlari chegaralangan joyda, ko'zi ojizlar atrofni tekshirish doirasini kengaytirish uchun hassadan foydalanadilar. Sinf xonasi, ish joyi, tanish yo'idagi narsalarning joylashuvi ko'zi ojizlarning xotirasida yaxshi saqlanadi.

John n J. Rieser va Daniel H. Ashmedlar ko'zi ojiz bolalar teri tuyish sezgisini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish asosida ta'lim jarayonida taktil sezgilardan foydalanish yaxshi samara beradi, deb xulosa qiladilar.

John n J. Rieser va Daniel H. Ashmed nafaqat odamlar buyumlarini organish uchun foydalaniladigan harakatlarni tasvirlovchi, balki qanday qilib har bir harakat bir yoki koproq buyum xossalarga bog'lanishi mumkinligini namoyon qiluvchi katalogni rivojlantirdilar. Buning uchun ular "Namunaga moslash" vazifasidan foydalandi. Qatnashuvchilarga avvalo, 1ta buyum berildi, so'ng 3ta taqqoslovchi buyum berildi. Ulardan obyekt eng ko'p mos keluvchi obyektни tanlash so'raladi: Qattqlik yoki gadir-budirllkka o'xshab.

Sezgilar



Sensor sezgilarning reseptori



Ularning tadqiqotdagi qo'l harakatlari video o'rganish protsedurasi sifatida tasvirga tushurildi va isho-narli tarzda tasdiqlandi. Misol uchun odamlar obyektning tekis yoki emasligi bilib olmoqchi bolsa ular biz aytgan yonlama harakat (lateral motion) ni ishlatishadi. Asosiy g'oya shundaki bu yerda obyekt yuzasiga urinma harakat bor. Yuqoridagi shaklda ko'rsatilganidek, obyektning qattiqligi uni bosib ko'rish, og'irligi qo'lda ushlab ko'rish, hajmini

atrofini o'rab olish orqali aniqlanadi. Chizmada ushbu tadqiqotning natijalari ko'rsatilgan. Bu figuralar qatori O'P (organish protsedurasi) 1-chi ustun obyektning xossalarini o'zida jamlangan. Bu odamlarning aniq bir o'rganish protsedurasi so'ralganda va aniq bir xossa testdan o'tkazilgan qanchalar yaxshi namoyish etganlarni ko'rsatadi. Bu bajarish tasodifan deb klassifikatsiya qilindi. (Odamlar taxmin qilishdan boshqa yaxshi narsa qilmadi) yuqoridagi imkoniyat, lekin berilgan xossa uchun katta bo'lmagan (m-n yetarlicha) berilgan xossa uchun katta

(eng mos), yoki –ba’zi bir hollarda – agarda o’rganish protsedurasi “Kerakli” bo’lsa shuni bildiradiki bu o’sha obyekt haqida imkoniyatdan tashqari ma’lumot beruvchi yagona o’rganish protsedurasidir.¹⁴

Ko’rishga oid tadqiqotlar jarayonida qo’zg’aluvchi (omil) va his qilish a’zosi osongina farqlanadi.

Faol ta’sir (ushlash, tegish) stimulyatsiyani ya’ni turkini har hil informatsiya orqali teri temperaturasi, bo’g’imlar, qo’l oyoqlar harakati, muskullar holati va hokazolarga o’tkazadi. Turki orasidagi farqlanish va javob noaniq. Tadqiqotchi qo’lini qimirlatib va bir vaqtning o’zida obyektни qabul qiladi (Neisser) u barmoqlar va obyektning sifatini bir vaqtning o’zida sezadi. Bizning taktil tasdiqlashimiz haqidagi fikrlar yetarlicha emas (Warren). Ko’p tadqiqotchilar passiv va faol ta’sir orasidagi farqni aniqlash bilan band bo’lganlar (Revesz 1938 va 1985, Jungnitsch 1984) ularning tadqiqoti shuni ko’rsatadiki, obyektни yoki fenomenни (hodisani) tasdiqlash mumkun, faqatgina tadqiqotchi taktil jarayonida faol bo’lsa.

Ko’rish va taktil tasdiqlash orasidagi holatni solishtirish qiyin. Taktil deb ataluvchi termini o’rnatish uchun nuqtai nazarlarimiz kam. Ko’zi ojiz bolalarning o’qituvchisi ularning orasidagi farqni ularning yutug’i deb bildi. Farqlar faqatgina tanib olishdagi farqlar deb tushuntirilmaydi.

David G. Myers Psixologiya kitobida “Teri orqali sezishda biz asosan bosim, issiq, sovuq va og’riqni sezamiz”, deb fikr bildiradi. David G. Myers taktil stimulyatsiya sensor idrokni o’rganish asosida “iliq+sovuq=issiq (qaynoq)” sezishimizni eksperimental isbotlab beradi. Yuqoridagi rasmda tasvirlangandek, agar bir shnur orqali sovuq suv yuborib va shu vaqtning o’zida ikkinchi shnurdan iliq suv yuborilsa huddi kuydirganga o’xshash kombinatsiya qilingan holatni sezamiz. Bu holat idrokning asosini illyuziyalar tashkil etadi degan taxminni ma’lum ma’noda isbotlaydi.¹⁵

¹⁴ John n J. Rieser, Daniel H. Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008. 190-191 pages. mazmun mohiyati olingan

¹⁵ David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers, 286 pege.

Ehtimol mayda (mozayik) rasmlarni taktil tasdiqlash samaralidir. Lekin bunda faoliyat, kuzatuv, sabr, qiziqish kabilar talab qilinadi va o'rganishda katta rol o'ynaydi, bu mozayik faoliyat Revesz ismi bilan bog'liq.


Ammo Palhgey, Reveszni ko'p joylarda tanqid qilgan. U (Palhgey) o'zining tajribasida quyidagi xulosalarni bergan. Taktil tajribalar bir xil emas, taktil sohaning o'lchami kichkina, va bu omadli jarayondir.

Palhgyini fikricha, taktil chizmalarining ko'zi ojizlar uchun hech qanday aloqasi yo'q. bu g'alati taktil tizimi ko'zi ojizlar uchun ko'p harakat talab etadigan, ularning hayotida hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan jarayondir deydi.

Eshiguv sezgisi: Eshitish sezgilari tovushlarni sezishdan iboratdir. Tovushlar muzikaviy tovushlarga (ashula tovushi, cholg'u asboblari-ning tovushi) va shovqinli tovushlarga (taraq-turuq, tars-turs, sharaq-shuruq, taqir-tuqur va boshqa shu kabi tovushlarga) bo'linadi. Tovushlar oddiy va murakkab tovushlarga ham bo'linadi.

Eshitish sezgilari organi quloq bo'lib, u uch qismdan: tashqi quloq, o'rta quloq va ichki quloqdan iboratdir.

Tashqi quloq – quloq suprasi bilan eshituv yo'lidan iborat. Tashqi quloq havo to'lqinlarini yig'uvchi kamay desa bo'ladi. Tashqi quloq bilan o'rta quloq o'rtasida bir parda bor, u nog'ora parda yoki o'rta quloq pardasi deb ataladi. O'rta quloq–nog'ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: bolg'acha sandon va uzangidan iborat. Nog'ora parda, shuningdek, unga yopishuvchi suyakchalar (bolg'acha, sandon va uzangi) havo tebranishlarini ichki quloqqa o'tkazadi. o'rta quloq maxsus kanal (Evstaxiy nayi) yordami bilan og'iz bo'shlig'iga va burun bo'shlig'iga tutashgan.




Ichki quloq yoki quloq labiranti o'zaro birlashgan uchta bo'lakdan iborat. Ichki quloqning yuqori qismi uchta yarim joyga kanal-dan, o'rta qismi kameradan (u ichki quloq daxlizi deb ataladi) va pastki qismi chig'anog'dan iborat, ichki quloqning uchala bo'limi endolimfa nomli maxsus

suyuqlik bilan to'la. Ichki quloqning asosiy qismi chig'anoq'idir. Chig'anoqning ichida Kortiy organi deb ataladigan bo'lakcha bor. Bu organ gumbaz shaklida bo'lib, uning negizida asosiy membrana bor. Membrana – uzunligi sekin-asta qisqarib boruvchi elastik tolalardan iborat. Bu tolalar arfa yoki fortepianoning tarang tortilgan torlariga o'xshaydi. Asosiy membranani yuqori tomondan maxsus tayoqchasimon hujayralar berkitib turadi, bu hujayralar Kortiy duralari deb ataladi. Asosiy membrananing tolalari endolimfaga eng ingichka qillari botib turadigan maxsus hujayralar yordami bilan Kortiy duralari orqali eshitish nerviga bog'lanadi. Eshitish markazlari bosh miya po'stining chakka bo'lagidadir.

Ko'zi ojizlar eshituv sezgisi va idroki yordamida o'z atrofidagi olamni, narsa va obyektlarni sezadi, idrok etadi. Ularning hajmi, joylashuvi, yo'nalishi (agar harakat qilayotgan bo'lsa) va boshqa sifatlari haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Narsalarga urilib qaytayotgan tovush aks-sadosi narsalarning shakli, kattaligi va boshqalar haqida aniq ma'lumot bermasa ham ko'zi ojizlar uni boshqa predmetlardan kelayotgan tovush bilan farqlab, shu narsaning uzoq-yaqinligi, katta-kichikligini va boshqa tomonlarini aniqlaydi. Masalan: Ko'zi ojizlar ko'chada yurganida tovushlarni tahlil etib, odamlar haqida (har bir kishi o'ziga xos qadam tashlaydi), narsalarning bir-birlariga joylashuvi, mashina va boshqa harakatlanayotgan narsalarning yo'nalishini, o'zlariga zarur joyning mo'ljalini oladilar. Narsa va obyektlarning joylashuvi haqidagi tasavvur ko'zi ojizlarning har kungi turnushida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ko'zi ojizlar katta joylarda harakatlanganda yo'nalishni aniqlash va oldindagi narsalar va to'siqlarni aniqlashda tovushning aks-sadosidan samarali foydalanadilar. Buning uchun ular qo'llarini bir-biriga urib qarsak chalish bilan, qo'lidagi hassasini biror narsaga urish bilan ulardan qaytgan aks-sadodan atrof-joy haqida ma'lumot to'playdilar. Bunday aks-sado o'sha narsaning mohiyati, mazmuni haqida ma'lumot beradi.



Hid bilish: Hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi. Hidlar nihoyatda ko'p va xilma-xil bo'ladi. Hidlarni klassifikatsiya qilish uchun umumiy bir mezon yo'q; hidlar odatda hidli narsalarning nomi bilan ataladi, masalan, rayon hidi, non hidi, olma hidi va hokazo. Hidlar odatda, xush va no-

xush deb ikkiga bo'linadi, lekin bu taqsimot hidlarning mohiyatini ko'rsatib bermaydi, balki o'sha hidlarga qanday qarashimizni ko'rsatadi.

Hid bilish sezgilarining organi burun kovagining yuqori tomoni bo'lib, bu yerda hid bilish hujayralari va sezuvchi nervning tarmoqlari bor, sezuvchi nervning tarmoqlari «hid bilish sohasining shilliq pardasiga botib turadi.

Hidli moddalar sezuvchi nervni qo'zg'aydi, bu qo'zg'alish bosh miyaga o'tadi, natijada biz turli hidlarni sezamiz. Hid bilish markazi bosh miya yarim sharlari orqa yuzasining pastki qismida deb faraz qilinadi.

Ko'zi ojizlarda bu sezgining ahamiyati katta. Ko'zi ojizlarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, ko'zi ojizlar kishilarni hidlar yordamida farqlashlari mumkin. Ular har xil buyumlarni, ba'zi meva va sabzavotlarni, oziq-ovqatlarni hid bilish yordamida farqlaydilar. Ayniqsa, buzilgan ovqatlarni aniqlash yordamida, ko'zi ojizlar hid bilish yordamida farqlanishdan saqlanadilar.

Ko'rish sezgisi: Rang va yorug'likni sezish ko'rish sezgilariga kiradi. Biz sezadigan ranglar xromatik va axromatik ranglarga bo'linadi.

Yorug'lik nurlari uchburchak shisha prizma orqali o'tib, singanda hosil bo'ladigan ranglar xromatik ranglar deb ataladi. Xromatik ranglar kamalak ranglari bo'lib, bunga qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havo rang, ko'k va binafsha ranglar kiradi. Bu ranglarning turlari nihoyatda xilma-xil bo'lib, juda ko'pdir.

Oq rang bilan qora rang, shuningdek, xilma-xil hamma kulranglar axromatik ranglar deb ataladi.

Ko'rish sezgilarining organi – ko'zdir. Bu organ ko'z soqqasi bilan undan chiqadigan ko'ruv nervidan iborat.

Ko'z soqqasida uchta parda, ya'ni: tashqi, tomirli va to'r parda bor. Uzoqdan yaxshi ko'ra olmaydigan odamlarning ko'z gavharida nurlarning sinishi kuchli bo'ladi; binobarin, bu sinayotgan nurlar ko'z to'r pardasiga borib yetmasdanoq bir nuqtaga yig'iladi. Buning natijasida narsaning surati ko'z to'r pardasida xira, mujmal aks etadi. Shuning uchun ham uzoqdan yaxshi ko'ra olmaydigan odamlar botik kuzoynak taqib yuradilar, chunki botiq ko'zoynak nurlarni tarqatadi va bu nurlarning sinish nuqtalarini ko'z to'r pardasigacha yetkazadi.

Yaqindan yaxshi ko'rmaydigan odamlarning ko'z gavharida nurlarning sinishi zaif bo'ladi, natijada nurlar ko'z to'r pardasining orqa yerida turadi. Ko'z to'r pardasining o'ziga esa hali bir nuqtada turmagan nurlar tushadi. Shu sababli, ko'z bu holda ham ravshan ko'ra olmaydi. Yaqindan yaxshi ko'ra olmaydigan odamlar bo'rtiq ko'zoynak taqadilar, chunki bo'rtiq oyna nurlarning sinishini kuchaytiradi va nurlarni xuddi ko'z to'r pardasiga to'playdi.

Uzoqdan yaxshi ko'rmaslik va yaqindan yaxshi ko'rmaslikning yana bir sababi shuki, ba'zi odamlarning ko'z soqqasi cho'zinchoqroq (uzoqdan yaxshi ko'ra olmaydiganlarda) yoki kalta (yaqindan yaxshi ko'ra olmaydiganlarda) bo'ladi. Shuning uchun ko'zning bu kabi xiraligi bolalik chog'idanoq ko'rinmog'i mumkin. Odatda biz narsalarni fazo munosabatlari formalari va katta-kichikligi bilan birlikda idrok qilganimizda ikkala ko'zimiz bilan, ya'ni binokulyar idrok qilamiz.

Shunisi qiziqki, bir narsaga qaraganimizda uning surati har qaysi ko'zimizning to'r pardasiga yakka-yakka tushsa ham, lekin bu narsa va nuqtalar ikkita bo'lib emas, balki bitta bo'lib ko'rinadi, buning sababi nima?

Bu hodisaning sababi shundaki, ko'rib turgan narsamizdan keladigan nurlar ikki ko'zimizda alohida simmetriya bo'lib barobar aks etadi. Bir narsani ikki ko'z bilan ko'rish shu narsadan keladigan nurlarning ko'z to'r pardasidagi alohida mos nuqtalarga tushishi yoki mos emas nuqtalarga to'g'ri kelishiga bog'liqdir. Ko'z soqqalarining to'r pardalarida sariq dog'dan teng-baravar uzoqlikdagi nuqtalarni mos (yoki identik) nuqtalar deyiladi. Idrok qilinayotgan narsadan aks etgan nurlar xuddi shu mos nuqtalarga to'g'ri kelsa, narsa bitta bo'lib ko'rinadi.

To'rt pardasining sariq dog'iga nisbatan har xil uzoqlikdagi nuqtalarini mos emas nuqtalar deb ataladi. Ma'lum bir narsaning surati shu mos emas nuqtalarga to'g'ri kelsa, bitta narsa ikkita bo'lib ko'rinadi. Agar biz ikkita narsa, masalan, qalam va ruchka olib, ularni bir-biridan 20–30 sm va ko'zimizdan ham 30 sm uzoqlikda ushlab turib, avvalo qalamga tikilsak, u bitta bo'lib ko'rinadi, uning orqasidagi ruchka esa ayni vaqtda ikkita bo'lib ko'rinadi, chunki ruchkaning surati xuddi ikki ko'zimizning to'rt pardasidagi mos emas nuqtalariga tushgan bo'ladi. Va, aksincha, orqasidagi ruchkaning o'ziga tikilib qarasak, ayni vaqtda qalam ikkita bo'lib ko'rinadi.¹⁶

Ko'zi ojiz yoki zaif ko'ruvchi bolalarni to'g'ri tarbiyalash sezgilarining o'sishida katta ahamiyatga egadir. Bolaning sog'ligi va jismoniy tarbiyasi haqida g'amho'rlik qilish, jumladan, sezgi organlarining va sensor sezgirlikning o'z vaqtida o'sishini ta'minlashdan ham iborat. Sezgilar idrok tarkibiga kiradi, shu sababli, ko'zi ojiz bolalarda idrokni o'stirish bilan ularning sezgilarini ham o'stirgan bo'lamiz. Mushohadani, kuzata bilishni tarbiyalash - sezgi organlarini ham tarbiyalash demakdir, farq qilish sezgirligini ham o'stirish demakdir.


Ko'rish analizatorlari yordamida kishi predmetlarning rangini, shaklini, hajmini, katta-kichikligini, harakat va harakat yo'nalishini aniqlaydi.

Ko'rish idroki funksiyalarining buzilishi atrof voqelikni bilishda katta qiyinchiliklar keltirib chiqaradi, bu predmetlar olami haqidagi hissiy ma'lumot va uning nutqiy talqini o'rtasidagi uzilishda namoyon bo'ladi.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarda ko'rish analizatorlari faoliyatining buzilishi analizatorlar ichida yoki analizatorlar orasida yangi bog'lanishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ko'ruvchi shaxslarga nisbatan bo'larda u yoki bu analizatorlar tizimi faollashadi, rivojlanadi. Ko'zi ojiz yoki zaif ko'ruvchi shaxslardagi ko'rish analizatorlaridagi bu nuqson oqibatida me'yori ko'ruvchi shaxslardagidan farqli ravishda, o'ziga xos analizatorlararo munosabatlar yuzaga keladi. Bu holat

¹⁶ 200 Years of Experience and Challenges of Today. Reader Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan. Solveig Sjostedt. 2008. Hungary Finland. 48-52 pages. mazmun mohiyati olingan

o'ziga xos bo'lgan, faqatgina shu toifa nuqsonlargagina tegishli bo'lgan xususiyatlardir. Ko'rishning zararlanish oqibatlari birinchi galda sezgilarda ta'sir etadi.



Idrok ruhiy va asab tizimida o'ta murakkab jarayon bo'lib, uning maxsus markazi bosh miyada joylashgan. Shaxsning hayot tarzi, ish faoliyatining harakatiga qarab biror analizator dominant-etakchi bo'ladi. Ushbu shaxsda o'sha idrok turi kuchli bo'ladi. Ko'pgina sog'lom kishilarda ko'ruv idroki yetakchidir. Ammo, ko'ruv o'tkirligi jiddiy pasayganda ($0,03-0,02$ gacha va undan past) va total ko'zi ojizlarda teri-mexanik, harakat analizatorlari yoki teri sezgi idroki yetakchilik qiladi.

Ammo, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'ruv o'tkirligining eng past darajasida ham, ko'zi ojizlar ko'p hollarda ko'ruv idrokidan faol foydalanadilar.

Total ko'zi ojizlarda atrof-olamni idrok etish asosan eshituv analizatorlari yordamida amalga oshadi.

Lekin, eshituv sezgisi va idroki tashqi olam va undan narsalar haqida bir tomonlama, ya'ni ularning fazodagi holati va fizikaviy mohiyati haqida juda tor tushuncha beradi. Insonning tashqi olamni sezishini – idrok etish jarayoni polisensor tarzda hamma mavjud sezgi analizatorlari va idrok turlari qatnashgan holda kechadi. Faqat, shunday holatda narsa va hodisalarni butunligicha, ongli – tushunib, umumlashgan holda, tanlab

idrok etish yuz beradi. Masalan: ko'zi ojizlarda tashqi olamdagi narsalar va obyektlarni tanlab idrok etishning chegaranlanganligi, yo'qligi, narsalarning go'zalligidan hissiy ta'sirlanishning kamligi natijasida his-tuyg'u va qiziqishlar doirasining torligi kelib chiqadi.

Ko'zi ojizlarda predmet va obyektlarni keng va chuqur idrok etish teri va harakat analizatorlari yordamida amalga oshadi. Bu esa idrok etilayotgan narsalarning mohiyati, tarkibi, hamma xossalari haqida yetarli, keng ma'lumot olishga kamlik qiladi. Natijada, ko'zi ojizlarda sensor tajriba kam bo'lib, predmet va hodisalarni ongli va butunligicha idrok etish buziladi.

David G. Myers fikricha, idrok jarayonida sensor adaptatsiya alohida o'riy egallaydi. Muallif sensor adaptatsiyani yuqoridagi rasmda tasvirlangan eksperiment natijalariga tayanib asoslab beradi. A varianda tekshiriluvchining ko'zga taqiladigan kontakt linzalariga kamera o'rnatilish jarayoni tasvirlangan. Kamera linzaga ulangani bois ko'z harakatiga ta'sir etmaydi va uni chegaralamaydi. Tekshiriluvchi A variantda tasvirlangandek, avval rasmni yaxlit to'la ko'radi, birozdan so'ng rasm fragmentlarini qotishi va lippilashinini (fragmentlar huddi o'chib yonvotgan kabi), yaxlit bo'lmagan tasvirni ko'radi.¹⁷ Bu holat ko'rishi meyorda bo'lgan insonlarda kuzatiladi.

Ko'zi ojizlarda ko'ruv idroki ko'rish a'zolari nuqsonining darajasiga va narsalarning katta-kichikligi, uzoq-yaqinligi, xonaning yorug'ligiga bog'liq sog'lom inson atrofidagi narsalarni ikkala ko'zi bilan ko'rganda (binokulyar ko'ruv) obrazlar – idroki to'liq bo'ladi, ammo ko'zi ojizlarda ko'zning ko'rish o'tkirligi past yoki bir ko'zi umuman ko'rmasligi mumkin. Bunday holatda narsa va obyektlarning fazoda tomonlarini aniq ko'rish buziladi.

Ko'zi ojizlar narsalarni, rasmlarni tanishga qiynaladilar. Ko'zi ojizlar rasmlarni, ayniqsa, marakkab rasmlarni butunligicha idrok eta olmaganlari uchun, rasmdagi narsalar, personajlar o'rtasidagi bog'liqlik buziladi. Rasmning muhim qismini ko'ra olmaganligidan tasvirning asosiy (asl) mazmuni haqida hato fikr paydo bo'lishi mumkin. Rasmni butunligicha (fazodagi narsa va obyektlarni ham) idrok etish uchun uni

¹⁷ David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers, 268 pege.

uzoqdan, yaqindan, keyin har tomondan turib tomosha qilinadi. Shunday tomosha qilinganda narsa va obyektlar (rasmlar) haqida, ularning muhim qismlari yetarli darajada aniq, idrok qilinadi. Ko'zi ojizlarda ko'ruv o'tkirligining pastligi, ko'ruv doirasining torligi uchun ham bu jarayon qiyin kechadi. Natijada ular harf va bo'g'inlarni, sonlarni, geometrik figuralarni idrok etish tezligi keskin kamayadi.

Ayniqsa, ko'r va ko'zi ojizlar uchun fazoda harakat qilayotgan narsalarni (qush, samolyot va boshqalar) idrok etish ancha qiyin. Bu kamchiliklar ularning o'qish, yozish malakalarini egallashlarini qiyinlashtiradi.

Ular ko'pincha daftardagi chiziqni yaxshi ko'rmaganliklari uchun qiyshiq yozadilar, harflarning elementlari tushib qoladi, baland-past yoziladi va hokazo nuqsonlarni ko'plab uchratish mumkin.

Narsalarning shaklini va hajmini idrok etish: Narsalarning asosiy belgisi – sensor mazmuni uning shaklidir. **Shakl** – narsa, uning mohiyati va mazmuni haqida ko'p ma'lumot beradi. (Er sharining kichik shakli-globusni eslang). Narsalarning katta-kichikligi, hajmini bir vaqtning o'zida ko'ra olish idrokning sifatiga - ta'sir etadi. Ko'zi ojiz bolalar va kattalar narsa va obyektlarni tekshirayotgan vaqtda uni hamma tomondan ko'ra olmasliklari, ko'z soqqasini predmetni tartib bilan - tizimli ko'rib chiqishga halaqit berishi, shuningdek ko'zning tez charchab qolishi natijasida olingan axborot kam, noaniq bo'lishi mumkin. Narsalarning shakli, hajmi, proportsiyasi haqidagi ma'lumotlar ham ko'zi ojiz bolalarda aniq bo'lmasdan qoladi.

Fazoni teri sezgilari va muskul harakat vositasi bilan idrok etganda ko'z bilan qarab ham, ko'z bilan qaramasdan ham idrok qilish mumkin.

Maydaroq narsalarning shaklini, ularning katta-kichikligini, holatini biz teri sezgilari vositasi bilan, ya'ni uni ko'rib, bevosita idrok qilamiz, masalan, qo'limizdagi tanga pulning shaklini, katta-kichikligini, holatini bevosita teri sezgilari vositasi bilan bilamiz.

Emmy Csocsan, Solveig Sjusted ko'rishga oid va sezuvchan (taktil) idrok orasidagi farqlar tadqiqot olib bordi va quyidagi xulosalarga keldilar. Teri sezgilari vositasi bilan biz, xususan ikki o'lchovni uzunlik (masofa) va sirt o'lchovlarini idrok qilishimiz mumkin lekin narsalarning (hatto mayda narsalarning ham) shaklini, katta-kichikligini va

fazodagi munosabatlarini yolg'iz teri sezgilari vositasi bilan idrok qilganda to'la aniqlikka erishib bo'lmaydi. Shu sababli ko'pincha fazoni teri sezgilari vositasi bilan idrok qilish muskullar harakat vositasi bilan idrok qilish ila birgalikda o'tadi. Muskel - harakat organlarimiz vositasi bilan biz yirik va mayda obyektlarning (masalan, stol, xona, hovli va shu kabilarning) shaklini, katta-kichikligini, fazodagi munosabatlarini hamma uch o'lchovda idrok qilishimiz mumkin.

Ko'zi ojiz odamlar (yoki ko'zi ojiz emaslar qorong'i tushganda) narsalarning shaklini, masofani va fazodagi munosabatlarni ana shu yo'l bilan idrok qiladilar. Mayda narsalarning shakli barmoq harakatlari (paypaslash) vositasi bilan idrok qilinadi. Yirik narsalarning shaklini va masofani ko'zimizni yumib yoki qorong'ida idrok qilganimizda biz qo'l harakatlarimizdan va qadamlab yurishdan foydalanamiz. Ana shu harakatlardan tug'iladigan muskul-harakat sezgilarimizga o'tmishda hosil bo'lgan tajribamiz qo'shiladi, natijada biz ko'zimiz ko'rmasa ham, turgan joyimizni, fazoga oid munosabatlarni chama bilan bilib olamiz.

Fazoni ko'z bilan ko'rib idrok qilishning o'sishida teri sezgilari va muskul-harakat organlari katta rol o'ynaydi. Ko'zi ojiz bo'lib tug'ilgan, ammo tegishli operatsiyadan keyin ko'zi ochilgan odamlarning fazoni qanday idrok qilishlarini tekshirish natijalari bunga dalil bo'la oladi.

Bir necha misol keltiraylik. Ko'zi ojiz bo'lib tug'ilgan bir odam muvaffaqiyatli operatsiyadan keyin ko'zi ochilgan bo'lsada, lekin dastlabki kunlarda u fazoni va narsalarning fazodagi holatini ko'zi ojiz emas (basir) odamlarga qaraganda boshqacha idrok qilgan, masalan, ko'ruv doirasiga kirgan hamma narsalarni juda yaqin va ko'ziga tegib turayotgandek his qilgan shuning uchun bu odam extiyot yuzasidan ko'zini qo'li bilan hadeb qoplayvergan. Narsalarning shaklini ham faqat ko'rish bilangina fahmlay olmagan, bu narsalarni qo'li bilan paypaslab ko'rganidagina, ya'ni o'tmishdagi muskul-harakat sezgisiga asoslangan tajribasiga suyanganidagina narsalarning shakllarini taniy olgan.

Operatsiyadan so'ng ko'zi ochilgan yana bir odamga yog'ochdan yasalgan, har ikkalasi ham bir xil bo'yalgan va diametri teng shar bilan kub ko'rsatganlar. U odam bu narsalarning turli buyumlar ekanini ko'rib tursa ham, lekin ularni bir-biridan aniq, farq qila olmagan: qay-

sisi dumaloq va qaysisi burchakli ekanini aniq aytilb bera olmagan. Yana shu odamga shar bilan bir xil kattalikdagi doiraning, kub bilan bir xil kattalikdagi to'rtburchakning yassi shaklini yonma-yon qo'yib ko'rsatganlarida, ularni bir-biridan farq qila olmagan, faqat paypaslab ko'rganidan keyin sharni doiradan va kubni to'rtburchakdan ajratgan. Bu odam qilingan operatsiyadan tamomila sog'aygandan keyin, ko'z bilan ko'rib idrok qilishni o'rganmoq uchun mahsus mashq qilgan. Masalan, oyog'idan etigini yechib irg'itib yuborar, so'ngra etikkacha bo'lgan masofani ko'zi bilan chamalashga urinar ekan. Chama bilan bir-ikki qadam yurgandan keyin, qo'lini uzatib etikni olmoqqa harakat qilar ekan, lekin ko'zi bilan masofani aniq, belgilay olmaganligidan yanglishar va paypaslab, qachon eshik qo'lga tegsa, uni shundagina ushlab olar ekan.

Yuqorida keltirilgan misollardan ma'lum bo'ldiki, ko'zi ojizlar ko'zlari ochilgandan keyin, ularda fazoni ko'z bilan ko'rib idrok qilish qobiliyati teri va muskul harakat organlarining ishtiroki bilan asta-sekin o'sib boradi.

Demak, fazoga oid shakl, katta-kichiklik va munosabatlarni ko'rish, teri sezgilari va muskul-harakat organlari bir-biri bilan mahkam bog'lanib ishlaganlaridagina eng to'g'ri va mukammal idrok qilish mumkin¹⁸.

Sezgi organlarimizning – *tuyush, muskul-harakat* va *ko'rish* organlarimizning o'ziga xos xususiyati, jumladan, obyektiv mavjud fazoni ham idrok qilish qobiliyatiga ega bo'lishdadir. Barmoqlar ham ma'lum ish bajarishga ixtisoslashgan. Masalan, o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'i bu toifa o'quvchilarda relefli nuqtalarni topish va farqlashga moslashgan bo'lsa, chap qo'lning ko'rsatkich barmog'i shu olingan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi.

Paypaslab idrok etish uch yo'l bilan amalga oshadi.

1. *Passiv shaklda paypaslash:* Bunday idrok teri yuzasidagi analizatorning nisbatan tinch vaqtida amalga oshadi. Narsalarning zamon va makondagi moddiy, fazoviy xususiyatlari, og'irligi, shakli, hajmi,

¹⁸ 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan, Solveig Sjøstedt. 2008, Hungary Finland. 52-54 pages. mazmun mohiyati olingan



uzun-kaltaligi, issiq-sovuqligi va ho-kazolar aniqlanadi. Ammo, passiv shaklda idrok etishda predmetlar-ming ko'pgina jihatlari: hajmi, shak-lini yetarli idrok etish yuz bermaydi va natijada predmetning mohiyati va mazmuni haqida yaxshi tushuncha shakllanmaydi.

2. Faol shaklda paypaslash-gaptika. Narsa va obyektlarni faol ravishda paypaslash-gaptika deyiladi. Bunday idrok etishning teri mexanik va harakat analizatorlarining o'zaro hamkorlikda, integrativ faoliyati yotadi. Faol paypaslash jarayonida predmet va obyektlarning fazodagi hajmi, belgi va munosabatlari, moddiy dunyosining jismiy mohiyati yetarli va faol tekshiriladi - aniqlanadi.

3. Har xil asboblار vositasida narsa va obyektlarni sezish-idrok etish.



Bunga ko'r va ko'zi, ojizlarning hassa yordamida joyni va yo'nalishni aniqlash yoki grifel yordamida relefli-nuqtali shrift-ni o'qishni misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. Ko'zi ojizlar va zaif ko'ruvchilar joyning past-balandligi, yumshoq-qattiqligini va boshqa xossalarini yerning relesini oyoq kiyimi yordamida sezadilar.

Inson faoliyatining asosiy turlari: o'yin, o'qish va mehnat jarayonida paypaslab sezishning o'rmini hech narsa bosa olmaydi (hatto ko'ruv sez-gisi ham). Shaxsning paypaslab sezish qobiliyati ko'zi ojizligini kompensatsiya qilishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Hatto, sog'lomlarda ham qo'l bilan ish bajarilganda, paypaslab sezish asosiy boshqaruv vazifalarini bajaradi. Ko'zi ojizlarda paypaslab sezish, bilish va nazorat qilish vazifasini bajaradi. Ammo, paypaslab sezish ko'rishning o'rmini bosa

olmaydi. Birinchidan, teri, muskul-bo'g'in sezgisi narsalarning hamma belgisini o'zida aks ettira olmaydi. Ikkinchidan, paypaslab sezishda tekshirish doirasi chegaralangandir.

Tayanch so'zlar va tushunchalar

1. Sezgi – psixik aks ettirish jarayoni.
2. Ichki sezgilar – tana ichidagi holatlarni sezishimiz tushuniladi.
3. Tashqi sezgilar – tanadan tashqaridagi barcha narsalarni sezishimiz.
4. Sezgi chegarasi – sezgi mutloq chegarasi.
5. Idrok – sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni bevosita, yaxlitligicha aks ettirish jarayonidir.
6. Illyuziya – borliqning noto'g'ri idrok etilishidir.
7. Idrokning konstantligi – idrok sharoiti o'zgarsada, idrok qilina-yotgan narsalarning nisbatan o'zgarmasligi tushuniladi.

Test topshiriqlari

1. Idrok bu ...

- A) yo'q narsani his qilish
- B) shaxs tevarak-atrofidagi voqealarni aks etishi
- G) sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning obrazlarining kishi ongida bir butun holda aks ettirilishidir
- D) sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalar ayrimlarini aks etishi

2. Sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turib, ongimizda bir butun holda aks etishiga ... deyiladi.

- A) sezgi
 - B) idrok
 - G) xayol
 - D) tafakkur
2. Tezligi, aniqligi, to'laligi - bu idrokning
- A) xususiyati
 - B) harakat sifatleri
 - G) idrokning sifatleri
 - D) idrokning strukturaviyligi

4. Yo‘q narsalarni idrok qilish bu ...

A) idrok

B) xayol

G) illyuziya

D) gallyusinasiya

5. Gallyusinasiya - bu ...

A) bor narsani noto‘g‘ri idrok qilish

B) yo‘q narsani idrok qilish

G) idrokning shaxs va uning tajribasiga bog‘liqligi

D) yo‘q narsani noto‘g‘ri anglash

6. Idrok konstantligi bu...

A) narsalar sharoiti o‘zgarsada obrazi o‘zgarmasligi

B) shaxsning idrok qilish qobiliyati

G) vaqtni idrok qilish

D) harakatni idrok qilish

7. Illyuziya bu...

A) bir nimani his qilib anglash

B) shaxsning idrok qilish qobiliyati

G) bor narsani noto‘g‘ri, yanglish idrok qilish

D) yo‘q narsani idrok qilish

8. Idrokning o‘ziga xos xususiyatlari qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

A) predmetligi, yaxlitligi

B) strukturaligi

V) konstantligi, mantiqiyligi

G) tanlanganligi

D) barcha javoblar to‘g‘ri

9. “Metod” so‘zining ma‘nosi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) uslub

B) qo‘llanilish uslubi

G) uslub biror narsaga borish yo‘li

D) barcha javoblar to‘g‘ri

10. Paypaslab idrok etish bosqichlari...

A) passiv shaklda paypaslash, faol shaklda paypaslash, har xil asboblarda vositasida narsa va obyektlarni sezish-idrok etish.

B) har xil asboblarning vositasida narsa va obyektlarni sezish-idrok etish, gap tika.

G) passiv shaklda paypaslash, har xil asboblarning vositasida narsa va obyektlarni sezish-idrok etish.

D) xotira, xayol, obyekt, fon.

2.2. Ko'rish nuqsoniga ega bolalar xotirasining o'ziga xosligi

Xotira nima eslanishiga ko'ra: *harakat, hissiy, obrazli va so'zli* turlarga bo'linadi. Qanday eslanishiga ko'ra, xohlabmi, tasodifdanmi, demak, irodlarning aralashuviga ko'ra *ixtiyoriy* va *ixtiyorsiz* turlarga ajratiladi. Materialning qancha muddatga eslanishiga ko'ra esa: *qisqa muddatli, uzoq muddatli* va *operativ xotira* turlariga bo'linadi.

Xotira jarayoni idrok jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Xotira jarayonining samarali kechishida analizatorlar faoliyati alohida o'rin tutadi. Agar xotira faqat tashqi belgilarga tayansa (tashqi ko'rinish) uning samarasi juda yuqori bo'lmaydi. Esda olib qolish jarayonida ko'ruv bilan birga eshitishga tayanilsa uning samaradorligi kuchayadi, ya'ni qanalik ko'p analizaorlari ishtirok etsa shuncha samarali bo'ladi.

Materialni tushunib esda olib qolish eng yuqori natijani ko'rsatadi.¹⁹ Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar predmet va hodisalarni tashqi belgilariga ko'ra yetarlicha farqlay olmasligi, bilimlarga ega emasligi, ular haqida tushunchalarni to'liq bo'lmasligiga olib keladi va bu xotira jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir etadi. Masalan, maktab bitiruvchilari 25 yildan so'ng barcha sinfdoshlarini qiyin eslashi tabiiy. Biroq agar bu jarayon fotoalbomdagi rasmlarini ko'rish orqali amalga oshirilsa natija yaxshi bo'ladi. Bunda hatto sinfdoshlarining ismlarni, ular bilan bog'liq voqealar, o'ziga xos xususiyatlarini eslash mumkin.

Xotira keng qamrovli muammolar, jarayonlar qatoriga kiritilar ekan, demak, uni o'rganish, talqin etish va u haqda ma'lum mushohada qilishning o'zi oson kechmaydi. Xotiraga turli tomonlardan yondoshib o'rganish maqsadga muvofiq deb bilamiz. Xotiraning turlari, jarayonlari mavjud. Shuni e'tirof etmoq, joizki, xotira ham turli manbalarda

¹⁹ David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers. 267 page.

turli ko‘rinishlarda, shakllarda, xususiyatlarda bayon etiladi. Xotirani turlarga bo‘lish masalasini osonlashtirish maqsadida «nimani eslash, qanday eslash va qancha muddatga eslashga» ko‘ra xotirani turlarga bo‘lsak, o‘quvchida, o‘rganuvchida yaxlit va bir butun tushuncha paydo bo‘ladi deb umid qilamiz.

Biz sezgan, idrok qilgan narsalar iz qoldirmasdan yo‘qolib ketmaydi, balki ma‘lum darajada esda olib qolinadi, ya‘ni esimizda saqlanib qoladi va qulay sharoitda yoki kerak bo‘lganda esimizga tushadi. Shuningdek, kechirilgan tuyg‘u, fikr va qilingan ish-harakatlarimiz ham esimizda saqlanib qoladi va keyinchalik esimizga tushadi. Buni har kim o‘z tajribasidan yaxshi biladi. Masalan, o‘quvchilar maktabda o‘qitilayotgan narsalarini esda olib qoladilar, esda saqlaydilar va esga tushiradilar.²⁰

Ta‘kidlanishicha, inson bilimlarning 80% qismini ko‘rish a‘zosi orqali olar ekan. Qolganlarini esa eshitish va boshqa sezgi a‘zolarimiz orqali qabul qilar ekanmiz. Ko‘zi ojizlik muammosining naqadar jiddiyligi shundan ko‘rinib turadi. Xotira: eslash, esda olib qolish, unutish, bilish, qayta esga tushirish jarayonlari kishining ijtimoiy mehnat faoliyatining asosini tashkil etadi. Psixologiya fanida esa olib qolishning quyidagi turlari farqlanadi:

- 1) ma‘lumot, xabar, taassurot, axborot va matiriallarni eshitish orqali idrok qilish hamda esa olib qolish;
- 2) egallash yoki o‘zlashtirish zarur bo‘lgan bo‘lgan matiriallarni ko‘rib idrok qilish yordamida esda olib qolish;
- 3) matiriallarni sharakat yordamida va eshitish orqali idrok qilish hamda esa olib qolish;
- 4) aralash sholatda esda olib qolish: ko‘rish, harakat, kabilar orqali idrok qilish va esda olib qolish, boshqacha aytganda, bir nechta ta‘sir etuvchilar yordamida aks ettirish.

Maxsus defektologiya fanida qilingan va qilinayotgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ko‘zi ojizlarda xotira me‘yorda ko‘ruvchi shaxslar xotirasidan nafaqat hajmi jihatidan, balki o‘ziga xos ko‘rinishlari, rivojlanish xususiyatlari bilan ham ajralib turar ekan. Ko‘rish analizatorining zararlanishi shartli bog‘lanishlarning yuzaga kelishiga, differ-

²⁰ David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers. 360-362 pages. mazmun mohiyati olingan

ensirla-shlshiga halaqit berar ekan. Buning uchun ko'p hajmli mustahkamlash ishlari, olib borish talab etiladi. Demak, ko'zi ojizligi nuqsoni qo'zg'alish va tormozlanish deb nomlangan asab jarayonlarining mutanosibligini ham buzar ekan. Buning oqibatida, xotira tezligi pasayadi. Olib borilgan tadqiqotlar bu toifa bolalarning materiallarni eslab qolishlari kam samaradorligi bilan izohlanar ekan. Bu bolalar xotirasi na faqat hajmi jihatidan, balki eslanayotgan materialni tushunib eslashlari ham buzilar ekan. Tushunib eslash yoki mantiqiy eslash ma'lumki, idrok jarayoni bilan uzviy bog'liq. Demak, eslab qoluvchi shaxs materialini ko'rmagach uni to'la, atroflicha idrok eta olmaydi. Bu yog'i esa barchaga ma'lum. To'la idrok etilmagach narsa va hodisalar tushunib qabul etilmagach, uzoq muddat eslab qolinmaydi. Buning oqibatida, «zanjir reaksiyasi» kabi bola tafakkurini tashkil etuvchi tahlil, tasnif, umumlashtirish, ... jarayonlar yuzaki, samarasiz amalga oshadi. Buning oqibatida esa yana yuqoridagi kamchilik fikrlash kamchiliklari yuz beradi. Me'yorl bolalarda ma'lumki, berilayotgan materiallarning bolalar tomonidan boshi va oxiri yaxshi o'zlashtiriladi. Ko'rish nuqsoni bor bolalarda bu holat boshqacha namoyon bo'lar ekan. Ya'ni, bu bolalar berilayotgan materiallarning boshlang'ich qismini yaxtam o'zlashtirib, tez charchashlari oqibatida oxirida berilayotgan materiallarni qiyin yoki kam o'zlashtirar ekanlar. Shu narsa diqqatga sazovorki, Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar xotira hajmida, eslab qolish tezligida, mexanik xotira va mantiqiy xotira jarayonlari boyicha bir-biridan keskin farq qilar ekanlar.

O'n yillar davomida, ijtimoiy psixologlar hamkorlik, tajovuz, chiqib-guruh mojarro, holati seking va urchitish xulq-tadrijiy modellari tegishli empirik topilmalar hosil qilgan. Bir necha evolyutsion teoriyalar erkak munosabatlar (masalan, Kenrick & Trost 1987) tashabbusida ehtimoli ko'proq bo'ladi, deb ko'rsatib, ko'plab hayvon turlari ota-ona investitsiya nazariyasi va tadqiqot bilan bunday topilmalarga ulangan. Ba'zi hollarda, ijtimoiy psixologik topilmalar tadrijiy modellari haqida kengaytmalari va o'zgarishlarni taklif qilgan. Masalan, erta tadrijiy o'yin kuramchilari ko'pincha, maxfiy tarzda organizmlar, genlar kabi, bir kamaymagan o'zini-o'zi xizmat yo'lida (cf. Dawkins, 1976) faoliyat, deb taxmin tuyulardi. Ijtimoiy psixologik tadqiqot

o'nlab biroq, odamlar ko'pincha musofirlarni yakunlash uchun vaqt va resurslarini hosil qilishgan.²¹

Xotira tasavvurlari esa ilgari sezilgan va idrok qilingan narsalar asosida, sezgi organlarimizning bevosita faoliyatisiz hosil bo'ladi. Biz ilgarilari ko'rgan (idrok qilgan) bir narsaning obrazini ko'zimizni yumib turib ko'z o'ngimizga keltira olamiz. Ilgarilari eshitgan bir kuyni, biror buyumining og'ir-yengiligini tasavvur qilmog'imiz mumkin.

Tasavvur qilishning fiziologik asosi shartli reflekslarning hosil bo'lishida bosh miya po'stida paydo bo'lgan «izlar»ning jonlanishidir. Tasavvur bironta turtki ta'siri bilan tug'iladi. Masalan, bironta odam haqidagi tasavvurning tug'ilishi uchun «birinchi turtki bo'lib,– deb yozadi I.M.Sechenov, - men shu odamni ilgari uchratganimda hosil bo'lgan juda ko'p taassurotlar o'rtasida shu paytda qo'zg'algan bironta tashqi ta'sirot xizmat qiladi; bu turtki ana shu odamni ko'rishdan hosil bo'lib, izlar shaklida saqlanib qolgan hamma sezgilarni uyg'otadi...».

Odamda tasavvur tug'diradigan spetsifik qo'zg'ovchi so'zdir. So'z bilan tasvirlash orqali turli tasavvurlar tug'iladi. Masalan, bizga shaxsan tanish bo'lgan bir kishining ismini eshitib qolganimizda uning obrazi (tasavvuri) darrov ko'z oldimizga keladi.

Tasavvurlar ravshanlik yoki boshqacha qilib aytganda, yaqqollik darajasi jihatidan idrok obrazlaridan farq qiladi, tasavvurlar idrok obrazlaridan ancha noravshan, xiraroq bo'ladi.²²

Individual farqlar turli xil sabablar oqibati bo'lishi mumkin. Bunga nuqson darajasi, yuz bergan vaqti, asab tizimi xususiyatlari, aqliy taraqqiyot darajasi, sezgilar, tajriba va boshqa sabablar kiradi. Bu kabi kamchiliklar bo'lishiga qaramasdan Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarda xotira jarayonlarining kechishi, taraqqiyoti me'yorl ko'ruvchi bolalar xotira qonuniyatlari boyicha amalga oshishi aniqlangan. Tadqiqotchilar ko'zi ojiz bolalar xotira jarayonlarining sekin rivojlanishini, bu bolalardagi ko'rgazma-harakat tajribalarining kamligini, ularning tez char-

²¹ David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers. 554- 557pages. mazmun mohiyati olingan

²² John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008. 44- 50 pages. mazmun mohiyati olingan

chashlari, hamda bu toifa bolalarni o'qitish ishlarining yuqori darajada takomillashmaganligi bilan bog'laydilar. Bu bolalarda xotira hajmining kamligi, sekin eslab qolish, tez esdan chiqarish holatlari bevosita ko'zi ojizligi oqibati bo'lmasdan, balki nuqson asosida bola ruhiyatida yuz beradigan chetga chiqishlar natijasidir. Ko'zi ojiz bolalar xotira jarayonlarini o'rganish asosan ular tasavvurini o'rganish orqali amalga oshirilgan. Qator tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar xotirasi ustida muntazam mashqlar olib borilmasa, ular xotirasi pasayib borishga moyil ekan. Hatto, 1-3 oylik vaqt oraliqlari ham salbiy ta'sir etar ekan. Egallangan materiallarni tez esdan chiqarishga sabab bo'luvchi omillardan yana biri bu takrorlashlarning yetarli emasligidan ham yuz berar ekan. Bu borada F.N.Shemyakin tadqiqotlari e'tiborlidir.

Ma'lumki, tasavvurlarning saqlanishi ko'rish o'tkirligiga ham bog'liq. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarni ko'rgazma-harakat tarzda o'qitish xotira jarayonlariga birmuncha ijobiy ta'sir etar ekan. Ko'zi ojizlar tomonidan narsalarni bilish me'yori bolalarga qaraganda birmuncha sekin, hamda to'la bo'lmaydi. Bu toifa bolalarga xos narsalardan yana bir tomoni, ular narsalarni o'ziga xos xususiyatlar bilan bilib olar ekanlar. Bu bolalar egallangan materiallarning bir qisminigina esga tushira olar ekanlar. Bu bolalar oliy asab tizimlarida tormozlanish jarayonlarining ustunligi oqibatida ham, egallangan bilimlarini qayta esga tushirishda ma'lum qiyinchilikl sezar ekanlar. Shu bois bo'lsa kerak, bu toifa bolalarda reminissensiya (oldin unutilgan deb hisoblangan materiallarning keyin esga tushishi) me'yori ko'ruvchi bolalardan ko'proq uchraydi. Ko'zi ojiz bolalar xotirasining holati berilayotgan materiallarning sifat va mazmuniga ham borliqdir. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarda xotiraning barcha turlari (so'z-mantiq obrazli, hissiy va harakatni maxsus ta'lim-tarbiya orqali shakllantirish, rivojlantirish mumkin.


Tasavvurlar sifat jihatdan bir-biridan farq qiladi, Tasavvurning sifati uning idrok obraziga naqadar aynan o'xshashlik darajasiga bog'liqdir. Tasavvur qancha to'liq, ravshan va aniq, bo'lsa, u idrok obraziga shunchalik yaqinlashadi.

Tasavvurning sifatlari deyilganda, ularning to'laligini, ravshanligini, aniqligini va yaqqolligini tushunamiz. Ba'zi bir narsa yoki o'tmishdagi

biron voqea haqida tasavvurlarimiz ayniqsa to'la va ravshan bo'ladi. Demak, bunday tasavvurlarning mazmuni tasavvur qilinayotgan narsaning eng ko'p sifat va alomatlarini qamrab olgan bo'ladi, Masalan, biron ta narsani xotiramizga tushirganimizda: «huddi hozirgina bo'lganday ko'z oldimda turibdi», «boyagi ashula hozir ham huddi qulog'imga eshitilayotgandek tuyuladi» deb gapiramiz.

Aksincha, noaniq, noravshan va xiraroq tasavvurlar ham bo'ladi.

A



B



Ma'lumki, ko'rish, eshitish, taktil analizatorlarning o'zaro hamkorligi esga olish, esda saqlash va qayta esga tushirish jarayonlarining samarali kechishini ta'minlaydi. Yuqorida A – rasmda me'yorda ko'ruvchi shaxslar bosh miyasiga eshituv, ko'ruv va taktil ko'zg'atuvchilarining ta'siri tasvirlangan. Me'yorda ko'ruvchilar axborot olishda asosan ko'rishga tayanadilar. Yuqoridagi B – rasmda ko'rishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning bosh miyasiga tashqi qo'zg'atuvchilar (eshitish va taktil) ta'siri tasvirlangan bo'lib, ular axborotni idrok etish va qayta ishlashda asosan ko'ruv idrokisiz, ya'ni eshitish va taktil idrokiga asoslangan holda amalga oshiradilar. Bu holat o'z navbatida xotira jarayonlariga ham ta'sir etadi.²³

Ko'zi ojizlar uchun maxsus chizmalar qanday bo'lishi kerak?

Belgili suratlarning, haritalarning shakli berilishi muhim ahamiyatga ega.

Rasm orqali tushunishning foydasi shundaki, ularning xotirasi, farqlash kabi qobiliyatlari shakllandi.

²³ John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008. 37-38 peges. mazmun mohiyati olingan

Ko'zi ojizlar uchun yaratilgan suratlar:

- rasmlarga o'xchagan murakkab bo'lishi kerak emas (Bentsen)
- taktil qoidalariga to'liq amal qilingan bo'lishi kerak
- qo'l ta'sirining anatomik va fiziologik sifatlariga moslashgan

bo'lishi kerak

- aniq tuzilgan bo'lishi kerak
- ko'p va to'la bo'lishi kerak emas
- obyektlarning bo'yi, ikki o'lchamli chizmasini ishlatish kerak emas²⁴

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda xotirani rivojlantirish uchun predmet tasavvurlarni shakllantirish lozim. Tasavvurning sifati turli sabablarga bog'liqdir.

Bu sifatlar, avvallo, nerv sistemasining ahvoliga bog'liq bo'ladi. Nerv sistemasi sog'lom va tetik bo'lsa, bunday holda tug'iladigan tasavvurlar juda to'liq, juda ravshan bo'ladi. Charchaganda yoki nerv sistemasi ba'zi kasalliklariga yo'liqqan hollarda, odatda, tasavvurlar xiralashadi. Ammo ba'zi bir kasalliklar orqasida (yoki nerv sistemasi zaharlanganda), aksincha, tasavvur nihoyat yaqqol bo'ladi, ya'ni Gollyutsinatsiyaga aylanadi.

Tasavvurning sifatlari yana idrokning puxtaligiga ham bog'liqdir: bironta narsani qanchalik puxta esga olib qolinsa, tegishli tasavvurlar ham shunchalik ravshanroq va aniqroq bo'ladi.

So'ngra, tasavvurning sifati tuyg'u-hislarga, emotsional holatga bog'liq bo'ladi: bu tuyg'u-hislar nechog'li kuchli va chuqur bo'lsa, tasavvurlar ham shunchalik to'la va yaqqolroq bo'ladi.²⁵

Tasavvurning sifatiga ixtiyoriy diqqat ham katta ta'sir ko'rsatadi: idrok qilinayotgan narsa ustida diqqat qanchalik yaxshi to'plangan bo'lsa, keyinchalik bu narsalar to'laroq, ravshanroq va raso tasavvur qilinadi. Diqqat tarqoq holda bo'lsa idrok qilingan narsa yarim-yorti, chala, xira, noaniq tasavvur qilinadi.

²⁴ 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan, Solveig Sjøstedt. 2008, Hungary Finland. 50- 53 pages. mazmun mohiyati olingan

²⁵ John n J. Rieser, Daniel H. Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008. 198-200 pages. mazmun mohiyati olingan

Tasavvur sifatlarida odamlarning individual xususiyatlari namoyon bo'ladi, qachondir idrok qilingan xuddi bir narsa yoki hodisani har kim o'ziyoq idrok qiladi.

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni ongimizda qayta gavdalanishiga tasavvur qilamiz. Xotira ilgari idrok qilingan, ammo hozir ko'z o'ngimizda mavjud bo'lmagan narsalarning obrazlarini ko'z o'ngimizda maqsad qilib qo'yamiz. Masalan: ertaklar, romanlar, umuman biror asarni o'qiyotganimizda undagi qahramonlarning ko'z o'ngimizda gavdalanish hayoliy tasavvuridir.

Xotiraning ahamiyati ta'lim ishlarida ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Maktabdagi ta'lim ishlarining eng birinchi va asosiy vazifasi o'quvchilarni fanlar asosi bilimi bilan qurollantirish, boyitishdir. Xotirada mukammal bilmay turib fan asoslarini o'qib olish mumkin emas. Maktablarda ta'lim ishlari shunday yo'lga qo'yilmog'i kerakki, o'quvchilarga o'qitilayotgan material ularning xotirasida mustahkam saqlanib qoladigan bo'lsin. Shu sababdan, o'qituvchi ta'lim protsessida o'z o'quvchilarini o'rganib, har bir o'quvchisini yaxshi bilishi, jumladan, har bir o'quvchisining xotirasi qanday ekanligini, bu xotiraning qanday o'sib borayotganligini, xotiraning o'sishiga nimalar sabab bo'layotganini va o'quvchilarning xotirasini maktab ta'limi kishilari jarayonida qanday yo'l va vositalar bilan o'stirish kerakligini bilmog'i lozim²⁶.

Ko'zi ojizbolalar ustida psixologik tadqiqotlar o'tkazish tajribasi shundan dalolat beradiki, qo'llanilayotgan psixodiagnostika metodikalarini shartli ravishda u yoki bu psixik jarayonlarni o'rganish metodikalariga ajratish mumkin.

Masalan, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola xotirasi haqida faqat bir metod asosida xulosa chiqarish mumkin emas, buning uchun metodikalar majmuini qo'llash kerak. Shu bilan bir vaqtda, har bir eksperimental metodikalar o'zining asosiy yo'nalishidan tashqari (ya'ni shaxsning ma'lum xususiyatini o'rganishdan tashqari) psixikaning boshqa xususiyatlarining holati haqida ba'zi ma'lumotlar beradi. Masalan: ko'rishda

²⁶ John J. Rieser, Daniel H. Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008. 36-38 pages. mazmun mohiyati olingan

nuqsoni bo'lgan bolaga berilgan 10 ta so'zni qanday yodlashiga qarab, faqat uning xotirasi haqidagina emas, balki ixtiyoriy diqqati, harakatlarining maqsadga yo'naltirilganligi, ularning sabablari haqida ham bilsa bo'ladi.

Barcha yoshdagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda xotira juda kuchli rivojlanadi va bu bolaning kompensator imkoniyatlari bilan bog'liq. Ta'lim-tarbiyaja rayonida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ham vaqt va fazoni yaxshi idrok etishs hakllanadi, so'z boyligi ortib boradi. Bularning barchasi bolaning kattalar bilan, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi natijasida sodir bo'ladi.

Xotiraning rivojlanishi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola bilan ishlashda ta'limning qaysi metodlari ustunligiga, uni o'rab turgan muhit idrok obrazlari bilan qanchalik "boyligiga" bog'liq.

Materialning sezgi organlariga ta'sir etishi, idrok xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rish, eshitish, ushlab ko'rib bilish, hid bilish, ta'm bilish xotiralar ajratiladi. Materialni esda olib qolish va uni qayta esga tushirishga bog'liq ravishda harakat, mexanik, obraz (assosiativ), mantiqiy, xissiy xotiralarga ajratiladi.

Ma'lumotni saqlashning uzoqligiga bog'liq ravishda qisqa muddatli (operativ) va uzoq muddatli xotiralar ajratiladi. Ma'lumotni esda olib qolish, inson tomonidan biror maqsad qo'yilmasdan ixtiyorsiz, o'rganilayotgan materialni esda saqlab qolish uchun maqsad quyilganda ixtiyoriy esda olib qolinadi. Umumiy xotira olingan materialni esda olib qolish, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat jarayon bo'lib, bu tarkibiy qismlarni doimo rivojlantirishni talab etadi.

Psixologiyada xotirani o'rganish uchun maxsus metodikalar mavjud. Quyida ulardan misollar keltiramiz.

"Qisqa muddatli ko'rish xotirasi hajmini aniqlash" **metodikasi**

Ushbu metodikani zaif ko'ruvchi bolalar bilan o'tkazish tavsiya etiladi. Bolaga galma-gal quyidagi A va B rasmlar ko'rsatiladi. Bolaga (zaif ko'ruvchi bola) rasmning A va B qismlari ko'rsatilgandan so'ng unga trafaret shakli taqdim etilib, boladan oldingi rasmdagi har

bir qismdagi barcha chiziqlarni ushbu trafaretida ifoda etishi talab etiladi. Didaktik materialardan foydalanish jarayonida bolalarning ko'ruv tasavvurlarini yaxshilashga yordam beruvchi *fonni*, ya'ni qizil, sariq, to'q sariq ranglarni qo'llash lozim, shuningdek, bolaga ko'rsatilayotgan rasmda tasvirlangan obyektlarning konturi aniq bo'lishi kerak.

Har ikkala tajriba natijalari xotira orqali to'g'ri qayta esga tushirilgan chiziq deb, namuna sifatida ko'rsatilgan chiziqlardan uzunligi va yo'nalishi jihatidan xech qanday farq qilmaydigan chiziqlar qabul qilinadi (chpziqlardan chetlanish, uning buklanishi, burchaklari saqlangan holda bitta katakdan oshmasligi lozim).

“Tezkor ko‘rish xotirasini baholash” metodikasi

Xotiraning ushbu turi masalani yechish jarayonida to'g'ri javobni aniqlash uchun kerakli axborotni shaxs qay darajada uzoq muddat xotirada saqlay olishi mumkinligi bilan belgilanadi. Axborotni saqlab turish vaqti, tezkor xotiraning qo'shimcha sifatlariga masalani yechish vaqtida bola tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarini ham kiritish mumkin (xato deganda masalani yechish uchun kerak bo'lgan axborotni saqlay olmaslik kabi xususiyatlar nazarda tutiladi). Bolaning (zaif ko'ruvchi bola) tezkor ko'rish xotirasini va uning ko'rsatkichlarini quyidagi tajriba bilan aniqlash mumkin. Bolaga tartib bilan 15 sekundga mo'ljallangan 6 tadan har xil shtrixlangan uchburchaklar ifodalangan kartochka taqdim etiladi. Bola shunday kartochkadan birini ko'rib bo'lgandan so'ng, bu kartochkani olib qo'yilib, o'rniga 24 ta uchburchakni o'z ichiga olgan katta kartochka ko'rsatiladi (paypaslabko'radi). Ushbu kartochkada albatta bola hozirgina ko'rgan 6 ta uchburchak ham tasvirlangan.

Vazifaning maqsadi, bola ushbu kartochkadagi 24 ta uchburchakdan avvalgi alohida berilgan kartochkadagi 6 ta uchburchakni qidirib topib, to'g'ri ko'rsatishidan iborat.

Bola tomonidan qaysi bir sababga ko'ra noto'g'ri ko'rsatilgan uchburchaklar xato deb qaraladi.

Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi: Har biri 6 ta uchburchakni o'z ichiga olgan 4 ta kartochkalardagi to'g'ri topilgan uchburchaklar yig'indisini topib, uni 4 ga bo'linadi, bu to'g'ri javoblarning o'rtacha miqdoridir.

Ushbu sonni 6 dan ayriladi va hosil bo'lgan natija xatolarning o'rtacha sonini ifodalaydi. Shundan so'ng bolaning vazifani yechish uchun sarflagan o'rtacha vaqti barcha vazifalarni yechish uchun sarflagan umumiy vaqtini 4 ga bo'lish orqali aniqlanadi. Bolaning 24 ta uchburchakni kartochkadan to'g'ri topishi uchun sarflayotgan vaqtining oxirini bilish uchun tekshiruvchi tomonidan: "Sen qo'lingdan kelgancha vazifani yechib bo'ldingmi" degan savolni berish orqali aniqlanadi. Bola berilgan savolga to'liq ishonch bilan javob berib, uchburchaklarni qidirishni to'xtatsagina u o'z ishini yakunladi, deb hisoblanadi.

Bolaning umumiy (24 talik) kartochkadagi 6 ta uchburchakni topish uchun sarflagan o'rtacha vaqtini u tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar soniga bo'linsa, qidirilayotgan ko'rsatkichni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Bolaning umumiy (24 uchburchakli) kartochkadan uchburchaklarni to'g'ri yoki noto'g'ri topganligi to'g'risidagi axborotni aniqlash jarayonining tezligini oshirish uchun 24 uchburchakni har birining chap burchagi ostiga birin-ketin raqamlab chiqish bilan erishiladi. Masalan, birinchi 6 ta uchburchakli kartochkaga (kartochka raqami rim raqami bilan 6 tadan belgilangan). Umumiy (24 uchburchakli) kartochkadagi

1,-3,-8,-12,-14,-16- uchburchaklar birinchisiga

2,-7,-15,-18,-19,-21- uchburchaklar ikkinchisiga

4,-6,-10,-11,-17,-24- uchburchaklar uchinchisiga

5,-9,13,) ko'rsatkichlarini 10 balli shkala orqali standart ko'rsatkichlarga o'tkazish uslubini taqdim etish mumkin.

Natijalarni baholash

10 ball 8 yoki undan yuqori birlikdan iborat qisqa muddatli xotira hajmiga ega bo'lsa, bu hol 10-12 yoshli bolalarga tegishlidir.

Shunday 10 ballni qisqa muddatli xotirasi 7-8 birlikni tashkil etgan 6-9 yoshli bolalar ham qo'lga kiritadilar.

8 ballni 6-9 yoshli bolalar 5-6 ta birlikni eslab qolsalar qo'lga kiritadilar.

10-12 yoshli o'quvchilar esa, qisqa muddatli xotira hajmida 6-7 birlikni esda qoldirishlari kerak.

4 ball 6-9 yosh bo'lgan, qisqa muddatli xotira hajmi, 3-4 birlikni tashkil etgan o'quvchilar oladilar. Shuncha ballni yoshi 10-12 da bo'lgan, qisqa muddatli xotira hajmi, 4-5 birlikni tashkil etgan o'quvchilar ham oladilar.

2 ball - 6-9 yoshli bolalarga, agarda ularning qisqa muddatli xotira-hajmi 1-2 birlikdan iborat bo'lsa beriladi. Shuncha ballga yoshlari 11-12 da bo'lgan bolalar qisqa muddatli xotira hajmi 2-3 birlikdan iborat bo'lsa, ega bo'ladilar.

0 ball bilan 6-9 yoshli, ko'rsatkichlari nolga teng bo'lgan bolalar baholanadilar. Shu ball 10-12 yoshli qisqa muddatli xotira hajmini 0-1 birligiga ega bo'lgan bolalarga beriladi.

Rivojlanish darajasi haqida xulosalar

6-7 yoshli bolalarni, ularning qisqa muddatli xotirasi hajmining baholari asosida maktabda o'qishi uchun tayyorligi haqida xulosalar quyidagicha chiqariladi:

Maktab ta'limi uchun to'liq tayyorlangan va qisqa muddatli xotirasi hajmi yaxshi rivojlangan deb, 10 ball to'plagan bolalar qabul qilinadi.

Maktab ta'limi uchun umumiy tayyorlangan va qisqa muddatli xotira hajmi o'rtacha rivojlangan deb 8 ball to'plagan bolalar tan olinadi.

O'qitish uchun to'liqsiz tayyorlangan deb qisqa muddatli xotira hajmi 4 balli bolalar hisoblanadilar. Qisqa muddatli xotira hajmi 2 balli bo'lgan bolalar maktab ta'limi uchun tayyor emas, deb xulosa chiqariladi. Va nixoyat, umuman maktabda o'qitishga tayyor emas deb, qisqa muddatli xotira hajmi 0 ga teng bo'lgan bolalar hisoblanadi.

“Eshitish xotirasini baholash” metodikasi

Bu xotira turini aniqlash uchun bolaga 1 sekund oralig'ida 4 ta so'zlar to'plami ketma-ket o'qib beriladi.

I. Oy, daraxt, sakramoq, sariq, qo'g'irchoq, sumka;

II. Gilam, stakan, suzmoq, og'ir, kitob, olma;

III. Divan, hazillashmoq, palto, telefon, sanchqi, dovyurak;

IV. Maktab, odam, uxlamoq, qizil, daftar, gul.

Shu soʻzlar toʻplamini eshitib boʻlgandan soʻng, koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolaga taxminan sekund oʻtgach, keyingi 36 ta soʻzlar toʻplami shoshilmay, har bir soʻz 1 sekunddan oraliq bilan oʻqib eshitiriladi.

Stakan, maktab, sanchqi, tugma, gilam, oy, stul, odam, divan, sigir, televizor, daraxt, qush, uxlamok, dovyurak, hazillashmok, qizil, oqqush, surat, oʻgʻri, suzmoq, toʻp, sariq, sakramok, daftar, palto, kitob, gul, telefon, olma, qoʻgʻirchoq, sumka, ot, yetmoq, fil, uy.

Bu 36 ta soʻzlar toʻplami tasodifiy ketma-ketlikda barcha qatordagi soʻzlardan iborat.

Har bir toʻplamdagi soʻzlarni farqlash uchun ularni turli chiziqlar bilan belgilanadi.

1-toʻplamdagi soʻzlar tagiga 1 ta toʻgʻri chiziq chizilgan; 2-soʻzlar toʻplamiga 2 ta toʻgʻri chiziq chizilgan; 3-soʻzlar toʻplamiga bitta uzun chiziq va oxirgi 4-soʻzlar toʻplamiga ikki qator uzun chiziq chizilgan.

Bola eshitgan 36 ta soʻzlar ichida qisqa toʻplamdagi soʻzlar bor yoki yuqligini topib, bor boʻlsa “ha”, boʻlmasa “yoʻq” deb javob berish kerak. Katta toʻplamdagi soʻzlardan kichik toʻplamdagi olishi uchun bolaga 5 sekund vaqt beriladi. Agar farqlay olmasa, tadqiqotchi keyingi soʻzga oʻtib ketadi.

Baholash natijalari

Tezkor eshitish xotirasi koʻrsatkichi katta toʻplamdan 6 ta soʻzni topishi uchun ketgan oʻrtacha vaqtga qarab aniqlanadi. Oʻrtacha vaqtni topish uchun bola topshiriqni bajarish uchun sarflagan umumiy vaqtni 4 ga boʻlinadi. Oʻrtacha vaqtni xatolar soniga boʻlib, 1 ni qoʻshilsa, operativ eshitish xotirasi hajmi aniqlanadi. Notoʻgʻri topilgan yoki topa olinmagan soʻzlar xato hisoblanadi.

“Esda qoldirish jarayonining dinamik xususiyatlari” metodikasi

Bolaga 10 ta soʻzlardan tarkib topgan qator bir necha marta qaytarish orqali eslab qolish uchun tavsiya etiladi.

Har bir takrorlashdan so'ng, bola tomonidan eslab qolingani so'zlar soni aniqlanadi. Quyidagi so'zlar qatorining birortasidan foydalaniladi.

1. *Uy, parta, oq, yaxshi, nok, bo'r, kuchli, piyola, sham, stol.*

2. *Mushuk, ruchka, qizil, yomon, olma, pol, kuchsiz, sanchqi, chiroq, qalam.*

3. *Qo'g'irchoq, qoshiq, qizil, mashina, baland, cho'tka, ona, kitob, tovuq, anor.*

4. *It, deraza, gul, gilam, konvert, osmon, harf, uyqu, quyi, pichoq.*

5. *Soat, shamol, baliq, yulduz, fil, qand, qog'oz, stul, arqon, shaftoli.*

Eslatma: Bolalarning esda qoldirish dinamikasini diagnostika qilishda, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun so'zlar qatorini shunday tuzish kerakki, birinchi so'z-ikkinchi so'zga, ikkinchi so'z-uchinchisiga aloqador, ma'nodosh bo'lmasligi lozim.

Bolaning eslab qolishi va qayta aytib berish uchun tadqiqotchi so'zlar qatorini 6 marta qaytarishi mumkin (undan ko'p emas).

Har bir qaytarishdan so'ng to'g'ri va xatosiz eslab qolingani so'zlarni belgilab borib, grafikda aks ettiriladi.

Grafik asosida:

1. Esab qolish dinamikasi;
2. Esab qolish mahsuldorligi aniqlanadi;

Grafikda har bir takrorlashdan so'ng eslab qolgan so'zlarni soni ortib borsa esab qolish dinamikasi yaxshiligini bildiradi.

- Agar ko'rsatkich o'zgarmasa, o'rtacha darajadagidan dalolat beradi.

- Agar har bir takrorlashdan so'ng ham eslab qolgan so'zlar soni kamayib borsa, esab qolish dinamikasining sustligini bildiradi.

Natijalar tahlili

Olingan natijalar bo'yicha bola esab qolish dinamikasi quyidagicha baholanadi: Yetarli darajadagi yaxshi dinamik esda qoldirish jarayoni - a'lo.

Esda qoldirish o'rtacha dinamik jarayoni - qoniqarli.

Esda qoldirish dinamik jarayon emas - qoniqarsiz. Shuningdek, bu jarayon quyidagi ballar mezoni bo'yicha hambaholanadi.

10 ball - bola 10 ta so'zni xatosiz to'g'ri eslab qolib, ayta olgan va bunga 6 marta takrorlash shart bo'lmagan. 8-9 ball - 6 marta takrorlashdan so'nggina 10 ta so'zni to'g'ri eslab qolsa.

6-7 ball - 6 marta takrorlashdan so'ng 7-9 ta so'zni esda qoldirsa.

4-5 ball - 6 marta takrorlashdan so'ng 4-6 tagacha so'zni eslab qolsa.

2-3 ball - 6 marta takrorlashdan so'ng faqat 2-3 ta so'zni eslab qolib aytsa.

0-1 ball - 6 marta takrorlashdan so'ng ham 1 ta so'zni yoki umuman esda qoldira olmasa.

Rivojlanish darajasi haqida xulosa

10-8 ball - bola maktab ta'limiga tayyor, uning esda qoldirishi yuqori va o'rtacha dinamiklikka ega.

4-7 ball - o'qishga yetarli darajada tayyor emas.

0-3 ball - umuman maktab ta'limiga tayyor emas.

“Meyli testi yordamida eshitish xotirasini o'rganish” metodikasi

R.Meili testi 1961-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, 7-14 yoshli bolalar va kattalarning ko'rish va eshitish xotirasini o'rganishda foydalaniladi. Tadqiqot ikki bosqichdan iborat.

Tadqiqotchi o'qib bergan so'zlarni - predmetlarning nomlarini eshitib, esda olib qolish qobiliyati o'rganiladi. Bu tadqiqotlar bir kunda o'tkazilmaydi, bu esa xotiraning o'rganilayotgan xususiyatlarini yaxshilab tahlil qilishga imkon beradi.

Eshitish xotirasini o'rganish bo'yicha tadqiqot ham shunday o'tkaziladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga quyidagi qo'llanma beriladi: “Men hozir sizga so'zlar qatorini o'qib beraman, siz bo'lsa eshitib bo'lganingizdan so'ng, ularni istalgan tartibda menga aytib berasiz”. Tadqiqotchi tadqiqot qaroriga ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola aytgan barcha so'zlarni takrorlaganlarni ham, yo'q so'zlarni qo'shib qo'yanlarini ham yozib boradi. Olingan natijalar foizlarda miqdoriy o'lchash orqali tahlil qilinishi mumkin.

Eslab qolish uchun sinov

10 ta soʻzni eslab qolish uchun diqqatni barqarorligini aniqlashda sinov oʻtkazish mumkin. Bu metodikadan katta bogʻcha yoshidagi bolalar va kichik maktab oʻquvchilari xotirasini aniqlashda foydalanish mumkin. Tajriba oʻtkazish uchun bir qatorga yozilgan 10 ta soʻz kerak boʻladi. Soʻzlar shunday tanlangan boʻlishi kerakki, ular orasida aloqa oʻrnatish qiyin boʻlsin.

Tajribani boshlashdan oldin koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolaga quyidagi koʻrsatma beriladi: “Hozir men sizni eslab qolish qobiliyatingizni tekshirmoqchiman. Buning uchun men sizga soʻzlarni oʻqib beraman. Keyin siz esda olib qolganlaringizni menga aytasiz”. Bunda oldindan tayyorlab qoʻyilgan tajriba qarorida koʻrishda nuqsoni boʻlgan bola aytgan soʻzlar yozib olinadi

Tajriba qarorida koʻrishda nuqsoni boʻlgan bola **“mustaqil”** aytgan soʻzlar ham qayd etiladi. Bir qayta esga tushirish bosqichi davomida **“ortiqcha”** soʻzlarni va takrorlashlarni hisobga olgan holda esga tushirilayotgan soʻzning tartib nomeri boʻyicha necha marta takrorlanganligini hisoblash mumkin. Navbatdagi koʻrsatishlarda koʻrishda nuqsoni boʻlgan boladan oldingi aytilgan soʻzlarni ham hozirgi aytilgan soʻzlarni ham qayta esga tushirish soʻraladi. Tajriba oʻtkazish uchun oʻrtacha **5-7 daqiqa** vaqt ketadi.

2.3. Koʻrish nuqsoniga ega shaxslar nutqi va muloqotining nutqiy boʻlmagan vositalarini rivojlanishi

Nutq – odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan shakli²⁷.

Bolaning hissiy bilish tajribasi shakllanishi murakkab tizimli koʻrish-eshitish, koʻrish-taktik, koʻrish-harakatli aloqalar asosiga quriladi, bular bilish faoliyati oliy shakllarining keyingi rivojlanishi uchun fiziologik asos sanaladi.

L.S.Vigotskiyning fikricha, koʻrish obrazlari, hissiy, keyinchalik esa nutqiy-mantiqiy tajribaning ortib borishi bilan turli psixik funksi-

²⁷ Psixologiya. Qisqacha izohli lugʻat. T, 1998. 25-bet.

yalar qorishmasiga aylana boradi, ular tashqi sharoitlar ta'sirida doimo o'zgarib turadi va qayta quriladi. Bu so'zlarning predmet ma'nolari va bolalar foydalanadigan leksik-grammatik kategoriyalarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqning muayyan mazmunini ko'rish obrazlari bilan boyitish me'yorda bolaning psixik rivojlanishi davomida bevosita hissiy va nutqiy - mantiqiy bilish o'rtasida to'g'ri nisbatning hosil bo'lishiga ko'maklashadi.

Defektologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolada ilk yoshda ko'rish idrokining buzilishi uning sensor tajribani mustaqil tarzda to'plashida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu esa nutqning psixik bazasi shakllanishini kechiktiradi. Sensor jarayonlarning past darajasi, o'z navbatida, saqlangan psixik funksiyalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (L.S.Volkova, L.S.Vigotskiy, T.P.Golovina, L.P.Grigoreva, M.I.Zemtsova, V.A.Kruchinin, A.G.Litvak, I.S.Morgulis, L.I.Plaksina, L.A.Rudakova, L.I.Solntseva, K.Becker, W.Belmer, H.Fekden, H.Suhrweir, C.Urwin, L.Zeuthen va b.). Shu sababli ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi ko'radigan bolalarnikidan murakkabroq sharoitlarda kechadi. Bolalarda nutqning va ko'rishning buzilishi murakkab nuqson bo'lib, ularda nutqiy va ko'rish nuqsonlarining ma'lum aloqa va o'zaro ta'siri kuzatiladi.

Nutqiy va psixik funksiyalarning shakllanmaganligi nafaqat bilish faoliyatining shakllanishiga ta'sir o'tkazadi, balki zaif ko'radigan bolalarning xususiyatlari: ehtiyojlar dinamikasida, ularni qondirishning qiyinligi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni (perseptiv qobiliyatlarining yetarlicha rivojlanmasligi); hissiy tassavurlar sohasidagi cheklanganlik bilan belgilangan qiziqishlar doirasining torligi; nazoratni talab qiladigan faoliyat turlariga qobiliyatlarning sustlanishi; ichki holatlarning tashqi namoyon bo'lishi cheklanganligi va boshqalarni keltirib chiqaradi.

Ko'rish nuqsonlarining mavjudligi xarakter qirralarining (ayniqsa, emotsional-irodaviy sohada) shakllanishiga salbiy ta'sir qiladigan sharoitlarning yuzaga kelishiga ko'maklashadi, natijada egotsentrizm, mustaqillikning yo'qligi, ishonuvchalik, negativizm, qiziquvchanlikning yo'qligi va b. shakllanadi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'pchiligida aloqalarning nutqiy tizimlari ko'rgazmali obrazlarga yetarlicha tayanchsiz shakllanadi, shu sababli so'zlarning muayyan ma'nolari qashshoqlashishi, zarur so'z zaxirasining yo'qligi, nutqning mazmun tomoni yetarlicha rivojlanmasligi kuzatiladi.

Hozirgi kunda nutqni rivojlantirish muammosining dolzarbligi mazkur psixik jarayon inson faoliyati istalgan shaklining ajralmas tarkibiy qismi ekani bilan belgilanadi. Keyingi vaqtda psixologik-pedagogik adabiyotlarda nutqning bilimlarni to'laqonli o'zlashtirish, mantiqiy tafakkur, ijodiy qobiliyatlar va psixik faoliyatning boshqa sohalarini rivojlantirishining asosi sifatida maktabga tayyorlash uchun alohida ahamiyati haqidagi masala tobora ko'p qo'yilmoqda.

Ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi ko'radigan boladagidan ko'ra murakkab sharoitlarda kechadi. Bolalarda nutqning buzilishi va ko'rishdagi buzilishlar murakkab nuqson bo'lib, bunda nutqiy va ko'rishdagi kamchiliklar o'rtasida ma'lum aloqadorlik va o'zaro ta'sir kuzatiladi.

Tiflopedagog va tiflodefektologlar tadqiqotlarida aniqlanishicha, ko'rish nuqsoni tufayli tarbiyalanuvchilarning 30% dan ortig'ida nutqiy yetishmovchilik kuzatiladi. Fisher ilyuziya noto'g'ri taassurot orqali kelib chiqadi degan ta'limotni ilgari surgan.


Solveig Sjostedt fikricha, ilyuziya ko'rish qobiliyatiga bog'liq, chunki tugma ko'zi ojizlar ham ilyuziya chiziqlarni anglay oladi deyishgan. Haptik ilyuziyada o'lcham muhim ahamiyatga ega, chunki obyektning tegib ko'rish sezgisini tanadan harakatlanishni talab etadi degan.²⁸

L.S.Volkova, A.L.Lukoshevichene, S.A.Pokupneva, I.V.Pokupneva, I.V.Novichkova, Ye.V.Shlay va b. ishlarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nafaqat nutqning yaxlit funksional tizim sifatidagi buzilishi bilan kechadigan tizimli buzilishlar (nutqning to'liq rivojlanmaganligi, fonetik-fonematik nutq kamchiligi), balki idrok, xotira, diqqat, tasavvur va mantiqiy fikrlash jarayonlari rivojlanishida og'ishlar ham

²⁸ 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan, Solveig Sjostedt. 2008, Hungary Finland. 267 page. mazmun mohiyati olingan

kuzatilishi o'z tasdig'ini topgan. Shu sababli bunday bolalar syujetni mustaqil rejalashtirish, leksik-grammatik kategoriyalar bilan mustaqil operatsiyalash, nutqiy materialni grammatik rasmiylashtirishda jiddiy qiyinchiliklarni his qiladi. Shu sababli ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bog'lanishli monologik nutqqa (ya'ni, o'z fikrini aniq va izchil, mantiqiy tizimli va tugal, leksikadan foydalanishda va mazmunan aniq, grammatik rasmiylashtirishga ko'ra to'g'ri, mustaqil va erkin bayon qilish, jummalarni qurishga) o'rgatish korreksion-pedagogik jarayonda alohida o'rin tutadi.

Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Odam nutq bo'lmasa, til vositalari bo'lmasa fikr qilolmaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, nutq fikrlash qurolidir. Tafakkur bo'lmasa nutq til bo'lishi ham mumkin emas.



Nutq, o'zining tashqi ifodalanish usuliga qarab og'zaki va yozma nutqqa ajralib qolmasdan shu bilan birga, qanday vazifani bajarishiga va sintaktik tuzilishining xususiyatlariga qarab ham bir-biridan farq qiladi.

Nutq o'zining bajaradigan vazifasiga qarab, ichki va tashqi nutqqa bo'linadi.

Ichki nutq shunday bir nutqdirki, uning yordami bilan fikrlar boshqa odamlarga ma'lum qilinmasdan oldin ichda ifodalanadi.

Ichki nutqning o'z xususiyatlari bor. Bu nutq, ko'pincha tovushlar ovoz chiqarib aytmaydigan, odam «o'z ichida gapiradigan» nutq-

dir. Baʼzan ichki nutq «tashqariga» chiqadi yaʼni tovushlar ovoz chiqarib aytiladi. Biror nimani fikr qilayotgan odam qandaydir qiyinchilikka uchrab qolganida, shuningdek, hissiyoti qattiq qoʻzgʻalish natijasida hayajonlanib ketganida yoki oʻzining oldida boshqa odamlar boʻlmagan vaziyatda u, oʻzi sezmaganda, «ovoz chiqarib oʻylaydi» – ovoz chiqarib oʻz-oʻzi bilan gaplasha boshlaydi. Odam yakka qolib, oʻz ichida oʻylab oʻtirganida koʻpincha imo-ishora va mimikadan ham foydalanadi. Kichkina bolalar koʻpincha «ovoz chiqarib oʻylaydilar», gaplashib va harakat qilib turib fikr qiladilar.

Ichki nutq, odatda, ixtiyorsiz ravishda oʻtadi. Bunda tafakkur jarayonlarining oʻzi ixtiyoriy ravishda, maʼlum kuch sarflash yoʻli bilan ham borishi mumkin. Lekin ixtiyoriy tafakkur jarayonining borishiga yordam bergan ichki nutq ixtiyorsiz ravishda oʻz-oʻzicha maydonga chiqadi deyish mumkin. Ichki nutq dialog shaklida sodir boʻlgan hollardagina ixtiyoriylik momentlari paydo boʻladi. Bunday hollarda ichki nutq oʻzining sintaksis tuzilishi jihatidan ham tashqi nutq tuzilishiga yaqinlashib qoladi. Tashqi nutq boshqa odamlar bilan aloqa qilishimizda foydalaniladigan nutqdır. Bu nutq biron kishiga qaratilgan, biron nimani habar qiladigan nutqdır. Ijtimoiy psixologik topilmalar va usullari evolyutsion munosabati uchun qimmatli vositalari bilan taʼminlash mumkin. Birinchidan, ijtimoiy psixologlar insonlar muayyan ijtimoiy sharoitda muomala haqida koʻp bilim yigʻdi qilgan. Bu adabiyot bilan tanishish oʻziga xos evolyutsion faraz tushuntirish yordam va ijtimoiy nuqtai nazardan, inson tabiatning yanada kengroq tushunish uchun, qurilish bloklari beradi (Buss va Kenrick, 1998; Krebs & Denton, 1997). Ijtimoiy psixologlar ham davom etayotgan asoslash va cognitive jarayonlari, shuningdek, haqida oʻylab va organizm-muhit oʻzaro taʼsirlar oʻrganish foydali yoʻllarini tushunish uchun foydali usullarini ishlab chiqilgan.²⁹

Nutq bilan tafakkur aynan bir narsa emasligini koʻrsatadigan juda koʻp faktlar bor.

Masalan, maʼlumki, boshqa birovning nutqini tushunib olishda baʼzan birmuncha qiynalamiz. Odatda, biz, boshqa birovning nutqini

²⁹ David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers. 390- 392 pages. mazmun mohiyati olingan

eshitayotganimizda yoki yozma nutqni ichimizda o'qiyotganimizda, shuningdek, boshqa birovning nutqini baland ovoz bilan takrorlayotganimizda, bu nutqlarda ifodalangan fikrlarni ayni shu vaqtda tushunib ololmaymiz. Ko'pincha, hamma nutq organlari to'la-to'kis harakat qiladi (to'g'ri talaffuz qiladi), lekin bunda ham nutqdagi fikrni ayni shu vaqtda darrov tushunib bo'lmaydi. Ba'zan nutqni tushunmoq ya'ni uning ma'nosini bilib olmoq uchun aniq, ta'riflarni (og'zaki yoki yozma) bir necha marta takrorlashga to'g'ri keladi.³⁰

Bolaning to'g'ri nutqiy rivojlanishi ko'p jihatdan tashqi olamdagi predmet va hodisalarni faol hamda doimiy bilish va ularning nomlarini atrofda odamlar bilan til muloqoti jarayonida o'zlashtirish bilan bedgilanadi. Lisoniy ifodalarni o'zlashtirish uchun me'yorl eshitish idroki zarur, so'z ma'nolari asosida yotadigan predmetli tasavvurlarning to'laqonli rivojlanishi uchun, eng avvalo, ko'rish analizatorining ishtiroki zarur. Analizatorlar funksiyalari yoki fikrlash analitik-sintetik jarayonlari buzilganda nutqiy rivojlanishda turli og'ishlar kuzatiladi.

Noverbal kommunikatsiyaga belgilarning optik-kinetik tizimi kirib, ularga jestlar (qo'l harakatlari), mimika (yuz harakatlari) va pantomimika (qo'l, oyoq, tana harakatlari) kiradi.

Jestlar – insonning qo'l harakatlari bo'lib, u orqali insonning ichki holati, biror bir obyektga munosabati va tashqi olamga yo'nalganligi ifodalanadi. U yoki bu xalqlarda jestlar turlicha qabul qilinadi. Italyan va fransuzlar o'z muloqotlarini jestlarsiz tasavvur eta olmaydilar. O'zbek xalqida nutqda jestlardan foydalanish yaxshi odat sifatida qabul qilinmaydi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, noverbal kommunikatsiya og'zaki nutqda aytilmay qolgan fikrlarni ifoda etish imkonini beradi.

Mimika – inson yuz harakatlarining bir qismi bo'lib, u orqali insonning o'ylari, hatti-harakatlari, tasavvurlari, xotirlashi, taajjubi va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Pantomimika – inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kunda-

³⁰ John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008. 168-170 peges. mazmun mohiyati olingan

lik muloqot jarayonida soʻzlar 7% ni, tovushlar va intonatsiya 38% ni, nutqsiz muloqot esa 55% ni, tashkil qiladi.

Koʻzi ojiz bolalar nutqi, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev va b. taʼkidlaganidek, yoshga oid rivojlanishning umumiy qoidalariga boy-sunadi va yetakchi faoliyat (oʻyin, oʻqish) bilan belgilanadi, biroq uning shakllanishi meʼyori koʻradigan bolalarnikidan murakkabroq sharoitda kechadi. Koʻrish qobiliyati ogʻir nuqsoni sharoitida atrof makonni ham-da predmetlarni distant va bir paytda koʻrib chiqish, ularni yaxlit idrok etish va koʻrgazmali qiyoslash imkoniyati keskin cheklangan boʻladi.

Qator mualliflarning maʼlumotlariga koʻra, koʻzi ojiz va zaif koʻruvchi bolalarning nutqi tiklanishi muloqot jarayonida xuddi koʻradiganlaridagi kabi u yoki bu qonuniyatlar asosida amalga oshadi (A.I.Kaplan, N.S.Kostyuchek, N.A.Krilova). Ayrim tadqiqotchilar mak-tabgacha yosh davrida koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalarda nutqning rivojlanish surʼatlari pasayishini taʼkidlaydi. Boshqa tadqiqotchilar fik-riча, rivojlanish surʼatlari koʻradigan bolalarniki bilan taxminan bir xil (L.I.Colntseva). Shu bilan birga koʻzi ojiz bolalarda meʼyori koʻradigan bolalardan boy lugʻat kuzatilgan hollar ham maʼlum (N.S.Kostyuchek). Biroq bunga qaramay, tadqiqotchilarning koʻpchiligi koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalar nutqining konkret mazmun bilan yetarlicha boyitil-maganligi toʻgʻrisida bir xil xulosaga kelgan.

Yori tomonidan takliq etilgan nutqiy **determinizm** tamoyiliga koʻra, nutq tafakkurning rivojlanishini bevosia belgilab beradi, bolalar nutqining nutqining rivojlanganlik holati tafakkur operatsiyalarining shakllanishini amalga oshishini taʼminlaydi. Agar bola ikki yoki undan ortiq tilga bilim olish imkoniyatiga ega boʻlsa, uning dunyoqarashi bir imkoniyatga ega boʻlmagan tengdaoshlaridan ancha keng boʻladi. Soʻz obrazlariga tayanilgan tafakkur sifatli rivojlanadi.³¹

Nutqning semantik va leksik tomonlari oʻrganilganda maʼlum boʻlishicha, meʼyori koʻradigan bolalar koʻrishda nuqsoni boʻlgan tengdoshlaridan ustunlikka ega.


Koʻrishda nuqsoni boʻlgan 7 yoshli bolalarning bilish mustaqilligini oʻrganib, T.P.Sviridyuk ularning predmetli axborotdan foydalana ol-

³¹ David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers. 436page

masligi, kuzatish qobiliyati yetarlicha rivojlanmaganligini aniqlagan. Bular idrok va og'zaki nutq jarayonlari rivojlanishiga bevosita bog'liq.

N.G.Morozovaning tadqiqotlari hissiy bilish sohasining torayishi ko'zi o'z va zaif ko'ruvchi bolalarning predmetlar, ularning belgilari bilan, harakatlar bilan mustaqil tanishishiga to'sqinlik qiladi, bu o'z navbatida, zarur tasavvurlarning to'planishi sekinlashishiga olib keladi.

Qator tadqiqotlarda aytilishicha, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bog'lanishi nutqi yetarlicha rivojlanmaganligi hissiy va predmetli-amaliy tajribaning cheklanganligi, ularni o'qitish va tarbiyalash metod hamda usullari takomillashmaganligi bilan belgilangan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishiga bag'ishlangan ish-larning soni ko'pligiga qaramay, nutqning hamma tomonlari yetarli-cha yoritilmagan. Maxsus adabiyotlar tahlili ko'rsatdiki, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqining rivojlanish masalalari yetarlicha o'rganilmagan va juda umumiy tarzdagina aks ettirilgan.



Ruhiiy qo'llab-quvvatlash butun ruhiy yordam davomida olib bo-riladi va verbal qamda noverbal bosqichlarda mutaxassisni ko'zi o'z bolalarga nisbatan intonatsiyasini ifodalanishi bilan namoyon bo'ladi.

Imzosiz darajaga bevosaita so'zlar, so'z birikmalari, metaforalardan ko'zi o'z bolalar o'z nutqida foydalanishi, hamda qamdardligi va tush-unishni yaqqol ko'rinishlari kiradi.

Noverbal (imzosiz bo'lmagan) darajaga:

1. "tana tili" (holati, imo-ishora, mimika)
2. psixofiziologik reaksiyalar (teri qoplamalari rangini, nafas olish chuqurligi va tezligini, ter ajralish darajasini o'zgarishi)
3. tovushlari xarakteristikasi (ohang, temo, tempo, intonatsiya)

Imzosiz bo'lmagan ma'lumotlar asosida qilingan tahminlar haqiqiyligini ko'zi ojiz bolalar bilan birga qayta tekshirib talab qilinadi. Bu imzosiz bo'lmagan ma'lumotlarni bir qator omillar yordamida aniqlanishi bilan asoslanadi.³² Masalan, voqealar konteksti, ko'zi ojiz bolalarni shaxsiy xususiyatlari, yaqin odamlari bilan o'zaro munosabatlar xususiyatlari. Mutaxassis ularning ko'pchiligi haqida bilmasligi mumkin, bu esa u olayotgan ma'lumotlarga noto'qri ma'no berishi va natijada muammoni mohiyati va uning yechimi haqida noto'qri tasavvurga ega bo'lishiga olib keladi.

Muammoni yechish yo'llarini izlaganda, ushbu muammoni paydo bo'lishiga olib keluvchi his-tuyg'u, kechinmalar, maqsad, talablar-qarakatlari boshqalar reaksiyasi, sabablar zanjirini ajratib olish zarur.

Ko'rishning yo'qligi yoki uning og'ir nuqsoni sensor defitsit hosil qiladi, bu hissiy idrok va bilishning rivojlanish darajasini pasayishiga olib keladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi ko'zi ojiz bolalarning tasavvurlari, jumladan, jonsiz tabiat obyektlari haqidagi tasavvurlar ham, o'z-o'zidan shakllanishida ko'rish obrazlarining to'liq yoki qisman tushirib qoldirilishi va redutsiylanishi hisobiga toraygan bo'ladi. Ular fragmentar, sxematik, umumlashganlik darajasi past bo'ladi.

Ko'zi ojiz bolalar atrof olamdagi predmetlar bilan tanishish jarayonida his qiladigan qiyinchiliklar bolalarning idrok etishning zarur usullarini yetarlicha egallamagani bilangina emas, balki ko'p jihatdan nutqiy rivojlanishning xususiyatlari bilan ham belgilanadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini psixologik o'rganish metodikalaridan namunalar keltiramiz:

³² John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception.Taylor & Francis Group, LLC 2008. 360-362
peges. mazmun mohiyati olingan

“Tushunchalarni ta’riflash” metodikasi

Ushbu metodikani o’tkazish uchun bolaga quyidagi so’zlar to’plami beriladi:

1. Velosiped, mix, gazeta, soyabon, mo’yna, qahramon, uchmoq, birlashtirmoq, tishlamoq.

2. Samolyot, tugma, kitob, ilon, do’st, harakatlanmoq, tutashtirmoq, urmoq, axmoq.

3. Avtomobil, havo, jurnal, etik, tanga, qo’rqmoq, qochmoq, bog’lamoq, pichirlamoq, tikanli.

4. Avtobus, qistirgich, xat, shlyapa, par, chaqimchi, aylanmoq, yig’lamoq, joylamoq, turtmoq.

5. Mototsikl, qisqich, e’lon, botinka, teri, dushman, qoqilmoq, yig’moq, urmoq, dag’al.

Ko’rishda nuqsoni bo’lgan bolaga quyidagicha ko’rsatma beriladi:

“Oldinda har xil so’zlar to’plami turibdi. Tasavvur qil, sen ushbu so’zlarning birortasini har qanday ma’noni anglatishini bilmaydigan kishi bilan uchrashib qolding. Sen bu kishiga har qaysi so’z nimani anglatishini tushuntirishing lozim, masalan “velosiped” so’zini olaylik.

Sen shu so’zni qanday izohlar eding ?

Shu tarzda ko’rishda nuqsoni bo’lgan bolaga quyidagi misoldagi 5 ta to’plamdan olingan so’zlarga ketma-ketlikda aniqlik kiritishi aytiladi.

Masalan: avtomobil, mix, gazeta, tanga, qahramon, bog’lanmok, aylanmoq.

Har bir berilgan to’g’ri javob uchun bola 1 balidan qo’lga kiritadi. Har bir so’zni ta’riflash uchun 30 sekunddan vaqt beriladi. Agar bu vaqt ichida bola berilgan so’zni ta’riflay olsa, tadqiqotchi bu so’zni qoldirib, tartib bilan yana yangi so’zni o’qib beradi.

Eslatma:

1. Agar ko’rishda nuqsoni bo’lgan bola o’qishni bilsa va bu unga qiyin-chilik tug’dirmasa so’zlarni o’zi o’qib izohlashi mumkin (Brayl yozuvi asosida). Boshqa hollarda tadqiqotchi so’zlarni bolaga o’zi o’qib beradi.

2. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola har bir so'zni izohlashdan avval u shu so'zning nima ekanligi va ma'nosiga tushunadimi-yo'qmi ishonch hosil qilishi lozim. Buni quyidagi savollarni berish orqali aniqlash mumkin: Bu so'zni bilasanmi yoki Sen bu so'zning ma'nosiga tushunasanmi va boshqalar. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola tomonidan tasdiq javob olingandagina tadqiqotchi bolaga so'zni mustaqil ravishda ma'nosini izohlashni taklif qiladi va o'zi vaqtni belgilab beradi.

3. Agar bola tomonidan berilgan javobda so'zlarni izohi to'liq bo'lmasa, unda bolaga o'rtacha 0,5 ball, umuman to'g'ri izohlay olmasa- 0 ball qo'yiladi.

Natijalarni baholash

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola topshiriqni bajarishda qo'lga kiritilgan ballar yig'indisining eng yuqorisi - 10 ballga, quyisi - 0 ballga teng bo'ladi.

Tajriba so'nggida jami ballar hisoblanadi. Shu bolani qayta psixodiagnostika qilish zarur bo'lsa, yangi so'zlar to'plamidan foydalanish tavsiya qilinadi.

Ravojlanish darajasi haqida xulosa:

10 ball -juda yuqori

8-9 ball - yuqori

4-7 ball -o'rta

2-3 ball- quyi

0-1 ball- juda past

“Passiv so'z boyligini aniqlash” metodikasi

Bu metodika ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga qo'zg'atuvchi material sifatida yuqoridagi metodikadagi kabi har bir 10 ta so'zdan iborat 5 ta to'plam tavsiya qilinadi.

Mazkur metodika quyidagi tarzda olib boriladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga birinchi to'plamdan birinchi so'zni, ya'ni vertolyot so'zini o'qib eshittiriladi va qolgan to'plamlardan bir guruhga mansub ma'no jihatidan mos keluvchi so'zni topishni so'raladi. Qolgan to'plamlardagi so'zlarning har birini 1 sekund vaqt oralig'ida sekin-

astalik bilan o'qib beriladi. O'qib eshittirilayotgan vaqt davomida bola ma'no jixatidan mos keluvchi so'zni to'plamdagi qatorlardan topib ko'rsatishi lozim.

Masalan: agar oldinroq "velosiped" so'zini eshitgan bo'lsa, keyingi to'plamdan "transport" turiga kiruvchi, ikkinchi so'z "samolyot" so'zini topishi kerak.

Mashg'ulot shu tarzda davom etib, bola keyingi to'plamlardan "avtomobil", "avtobus", "motosikl" so'zlarini topishi lozim.

Agarda bola to'plamdagi so'zlarni bir bor o'qib eshittirganda topa olmasa, tezlik bilan so'zlarni yana bir bora o'qib eshittiriladi.

Agar birinchi o'qilganda bola so'zni topsa-yu, bu noto'g'ri bo'lsa, tadqiqotchi xatoni belgilab qo'yadi xamda keyingi qatorni o'qiydi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga kerakli so'zni topishi uchun 4 ta qatordagi barcha so'zlarni o'qib eshittirgach, tadqiqotchi to'plamdagi 2-so'zni o'qishni boshlaydi va bu ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola birinchi to'plamdagi so'zlarni barcha qolgan to'plamlardan to'g'ri topgunga qadar davom ettiriladi.

Eslatma: tadqiqotchi ikkinchi va qolgan qatordagi so'zlarni o'qib eshittirishdan oldin, bolaga har bir topilgan so'zning ma'nosini esdan chiqarib qo'ymasligi uchun uni eslatib turishi lozim.

Masalan: Agar bola birinchi to'plamdagi "velosiped" so'ziga mos keluvchi "samolyot" va "avtomobil" so'zlarini, 2 va 3-qatordan topib ulgurgan tadqiqotchi 4-qatorni o'qib berishdan oldin unga quyidagi so'zlarni aytishi kerak: "Demak, biz sen bilan bir guruhga ma'no jihatidan kiruvchi "velosiped", "samolyot", "avtomobil" so'zlarini topishga ulgurdik. Sen buni yodingda saqlab tur, men quyidagi qatordagi so'zlarni o'qiganimda, yuqoridagi so'zlarga mos keluvchi so'zni eshiting bilan menga aytasan".

Natijalarni baholash

10 ball agar ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola 40-50 tagacha so'zning ma'nosini to'g'ri topsa

8-9 ball ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola 30-40 tagacha so'zlarning ma'nosini tushuntira olsa

6-7 ball agar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bola 20-30 tagacha bir guruhga kiruvchi so‘zlarni to‘g‘ri topsa

4-5 ball agar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bola 10-20 tagacha so‘zlarning ma‘nosini to‘g‘ri topsa

-3 ball agar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bola tomonidan 10 tadan oz so‘z ma‘no jihatidan birlashtirishga erishilsa

Rivojlanish darajasi haqida xulosa

10 ball- juda yuqori

8-9 ball- yuqori

4-7 ball-o‘rtacha

0-3 -past

“Faol so‘z boyligini aniqlash” metodikasi

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaga insonlar va har xil predmetlar tasvirlangan rasm ko‘rsatiladi. 5 minut davomida bola ana shu rasmda nima tasvirlanganini iloji boricha batafsil so‘zlab berishi kerak.

Bolaning nutqi alohida bayonnomada qayd etiladi va tahlil qilinadi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning faol so‘z boyligi ko‘rsatkichlarini aniqlash metodikasi bayonnomasi

№ qayd etilayotgan nutq belgilari

So‘zlardan foydalanish tezligi

1. Ot

2. Fe’l

3. Sifat

4. Sifatdosh

5. Sifatlarning boshlang‘ich shakli

6. Sifatlarning nisbiy darajasi

7. Sifatlarning orttirma darajasi

8. Bog‘lovchi gap

9. Old qo‘shimcha

10. Yuklamalar

11. Gapning bosh bo‘laklari

12. Chunki, lekin, ya‘ni va boshqa ko‘rinishdagi bog‘lovchili qo‘shimchalar

13. Chunki, shuning uchun ko‘rinishidagi qo‘shma gaplar

14. “Birinchidan”, “menimcha”, “menga shunday tuyuladi” kabi turli so‘zlar

Bu bayonnomada bolada so‘zlardan foydalanishning tezligi belgilanadi. Nutqining rivojlanishi darajasi aniqlanadi. Psixodiagnostik sinovdagi mana shu barcha belgilar bayonnomaning o‘ng tomonida aks etadi.

Natijani baholash

10-ball bolaning nutqida yuqoridagi belgilardan kamida 10 tasi uchrashi lozim

8-9 ball kamida 8-9 tasi uchrashi lozim

6-7 ball kamida 6-7 tasi uchrashi lozim

4-5 ball kamida 4-5 tasi uchrashi lozim

2-3 ball kamida 2-3 tasi uchrashi lozim

0 ball ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bola so‘zlab bera olmadi, yoki 2 ta belgilar mavjud.

Rivojlanish darajasi haqida xulosalar:

10 ball- juda yuqori

8-9 ball- yuqori

4-7 ball-o‘rtacha

2-3 ball - quyi

0-1 ball - juda past

“Hikoyada tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘ldirish” metodikasi



Bu metodika H.Ebinghaus tomonidan taklif etilgan bo‘lib, nutq rivojlanish xususiyatlarini 10 yoshdan katta ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda assosiativ jarayonlarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Sinalayotgan ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar yaxshi o‘qiy olishlari va o‘qitilgan matnning maz-

muniga tushunadigan bo‘lishlari kerak. Ushbu metodikani ko‘zi ojiz

bolalar bilan brayl yozuvi asosida tayyorlangan matn yordamida o'tkazish mumkin. Ko'zi ojiz bolalar brayl yozuvidagi matnni ko'rsatkich barmoq yordamida o'qib, metodika shartlarini bimalol bajarishlari mumkin.³³

Tajriba o'tkazish uchun unchalik murakkab bo'lmagan hikoyalar-ning bir necha variantini tayyorlab olish kerak. Bu hikoyalarda ixtiyor-iy tartibda ba'zi so'zlar tushirilib qoldirilgan bo'ladi. Hikoyalar alohida qog'ozlarga yozilgan holda beriladi. Zaif ko'ruvchi bolalarda so'z va ko'rilayotgan predmetlar o'rtasidagi munosabatning o'ziga xosligini inobatga olib, ularning lug'atini boyitish, so'z va predmet o'rtasida o'zaro to'g'ri munosabatni, umumlashtiruvchi tushunchalarni shakllan-tirish, nutqning grammatik tuzimi va bog'langan nutqni takomillashti-rishga alohida e'tibor beriladi.

Ko'rsatma: "qo'yidagi hikoyada umumiy mazmundan kelib chiqib, tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'ying" (ko'rish o'tkirligi 0.05 gacha bo'lgan bolalarga matn brayl alifbosi asosida beriladi)

1-variant

Derazamni oldida bir tup _____ o'sgan. U oq o'rik. Judayam _____. Har yili erta _____ oppoq bo'lib _____, birinchi bo'lib gullaydi. Shu _____ gullaganda _____ jonimni xovuchlab tura-man: "Ox, _____ yog'masaydi, _____ bo'lmasaydi, tezroq tugib olsaydi...". Lekin bari bir _____ boshlanib ketadi, ba'zan _____ aylanib ketadi. Mana yana qor aralash yomg'ir _____. o'rik bechora _____, issiq gullarni qaerga yashirinishi bilmay munkayib turibdi.

Ba'zi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar birinchi gapni o'qiganlaridan so'ng, hikoyani umumiy mazmunini tushunmasdan topshiriqni bajar-ishga kirishadilar.

Shuning uchun ham ko'pincha ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola har bir gapni alohida- alohida idrok etish, javoblar /o'rniga qo'yilgan so'zlar ham mantiqiy aloqani aks ettirmaydi. Ishni baholashda asso-

³³ John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception.Taylor & Francis Group, LLC 2008. 31 pege. mazmun mohiyati olingan

siativ aloqalarning hosil bo'lish tezligi, matnning murakkab joylaridagi qiyinchiliklar hisobga olinadi. To'g'rilanganligiga, grammatik xatolariga e'tibor beriladi.

2.4. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslar muloqotining o'ziga xosligi, jamiyatga integratsiyalash muammolari

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni – jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi.

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zlashtirish va o'z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o'zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muammoga atroflicha baho bergan polshalik psixolog Ye.Melibruda quyidagilarni ta'kidlaydi: *«Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir»*.

Muloqot o'ta murakkab jarayon bo'lganligi sababli unga yagona to'g'ri ta'rifni berish juda mushkul. Shuning uchun odatda muloqot tushunchasining mazmuni uning ayrim tomonlariga urg'u berish orqali ta'riflanadi.

A) **muloqot** – hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqazolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni .

B) **muloqot** – subyektlarning belgilar tizimi orqali o'zaro ta'sirlanishuvi.

Muloqot tushunchasini kommunikatsiya tushunchasidan farqlash lozim. **Kommunikatsiya**–tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi, bularning barchasi kommunikatsiyaga misol bo'ladi. Muloqot faqat insonlar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin. Muloqotning inson hayotidagi ahamiyati beqiyosdir. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda, munosa-

batda bo'lish jarayonida shaxsga aylanib boradi. Muloqot orqali inson ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Yangi tug'ilgan inson boshqalar bilan muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, u hech qachon shaxsga aylana olmaydi, ya'ni u o'z psixik taraqqiyoti bo'yicha orqada qolib ketadi. Zero, inson psixik taraqqiyoti muloqotdan boshlanadi.

Muloqotsiz insoniyat jamiyati bo'lishi mumkin emas. Aynan muloqot hamkorlikda faoliyat yurituvchi individlar jamoasini shakllantiradi. Hamkorlikdagi faoliyat rejasini tuzish va uni ruyobga chiqarish uchun individlar o'rtasida muloqot amalga oshirilishi shart. Muloqot vositasida hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtda faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, muloqot va faoliyat o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Muloqot jarayonida muloqot funksiyalari ham muhim rol o'ynaydi. Muloqot funksiyalari deganda muloqotning inson hayotida bajaradigan funksiyalari tushuniladi. **Muloqot funksiyalari** xilma-xil bo'lib, eng keng tarqalgan tasnifga ko'ra, ya'ni B.F.Lomov tomonidan taklif qilingan bo'lib, u quyidagilardan iborat.

➤ **Informatsion** – kommunikativ funksiya – axborot almashinuvini ta'minlash vazifasi. Axborot almashinuvi turli belgilar tizimlari orqali amalga oshiriladi. Odatda verbal va noverbal kommunikatsiya farqlanadi.

➤ **Regulyatsion** – kommunikativ funksiyasi ko'zi o'jiz bolalar xulq-atvorining regulyatsiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Individlar muloqot jarayonida verbal yo'llar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazishi, biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga stimullash-tiruvchi va korrektsionalovchi tarzida ta'sir ko'rsatishi mumkin.

➤ **Affektiv** – kommunikativ funksiya inson emotsional sohasining regulyatsiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Muloqot ko'zi o'jiz bolalar emotsional holatlarining eng muhim determinatsiyasidir. Chunki turli tuman emotsional holatlar muloqot jarayonida paydo bo'ladi va o'zgaradi.

L.A.Karpenko taklif etgan tasnifga ko'ra, muloqotning quyidagi vazifalari ajratib ko'rsatiladi.

- Aloqa o'rnatish vazifasi – suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash;

- Informatsion vazifa – suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikrlar va rejalarni almashish;

- Faoliyatga undash – suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullashtirish;

- Koordinatsion vazifa – suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishda harakatlarni muvofiqlashtirish;

- Tushunishni ta'minlash vazifasi – suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish;

- Amotiv vazifasi – suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg'otish hamda ularni o'zgartirish;

- Munosabat o'rnatish – munosabatlar tizimidagi shaxsiy o'rmini, mavqeini aniqlash;

- Ta'sir ko'rsatish – suhbatdoshning xulq-atvori shaxsiy xususiyatlari maqsadlari va ustanovkalarini o'zgartirish.

Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida D.H.Ashmed, muloqotga quyidagilarni kiritadi:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;

- b) individlar o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi;

- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;

- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish;

- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;

- e) shaxslarning bir-birlarini tushunish jarayoni .

Shuning uchun muloqotning ko'zi ojiz bolalar taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro bir - birini tushunishlarini ta'minlashdir. Uning ikkinchi muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi.

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasida affektiv baho-lovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir.

Pedagogik muloqot – pedagogik ta'sirning ajralmas sifatidir. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonida professional muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. G.M.Andreeva muloqotning quyidagi psixologik tuzilishini taklif etadi:

1. Muloqotning kommunikativ tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi jarayoni).

2. Muloqotning interfaol tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning xulq-atvorlariga ta'sir jarayoni).

3. Muloqotning perseptiv tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'lik bo'lgan murakkab psixologik jarayon).

Bu strukturaning har bir tomonini batafsil ko'rib chiqamiz. Taniqli rus olimi B.F.Lomov uning funksiyalariga quyidagilarni kiritadi:

- a) ma'lumotlar almashinuvi funksiyasi;
- b) xulq-atvorni boshqaruv funksiyasi;
- v) hissiyotlar almashinuvi.

Bu funksiyalar aslida G.M.Andreeva ajratgan muloqot qismlariga ham mos keladi, ya'ni har bir muloqot jarayonida B.F.Lomov qayd etgan vazifalarni topish mumkin.

Muloqotning kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib til xizmat qiladi. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan 2 turi farqlanadi: yozma nutq hamda og'zaki nutq. Og'zaki nutqning o'zi dialogik va monologik turlarga bo'linadi. Dialogik nutqning mazmuni, uning xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga, qiziqishlariga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga, maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Monologik nutq esa bir kishining boshqa kishiga yoki kishilar guruhiga nisbatan murojaati bo'lib, uning psixologik tuzilishi, fikrlarning

mantiqan tugal bo'lishi, gapirayotgan paytda grammatik qonun-qoidalariga rioya qilish kerakligi kabi shartlari mavjud.

L. Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko'z qarashlari turi borligini kuzatgan. G. M. Andreevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarning 2000 ga yaqin ko'rinishlari bor.

Muloqotning interfaol tomoni. Muloqotning bu xususiyati kishilarning muloqot jarayonida birgalikdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan bevosita ta'sir etishlarinn ta'minlaydi³⁴.


Psixologik ta'sir – bu turli vositalar yordamida ko'zi ojiz bolalarning fikrlari, hissiyotlari va hatti - harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan quyidagi farqlanadi.

1. **Verbal ta'sir** – bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so'zlardir.

2. **Noverbal ta'sirning** ma'nosi «nutqsiz»dir. Bunga ko'zi ojiz bolalarning fazoda bir – birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, o'zoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir – birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi.

3. **Paralingvistik ta'sir** – bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar.



Ta'sirning tashabbuskori – bu shunday sheriki, unda ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydaladi. Ta'sir-ning adresati - ta'sir yo'naltirilgan shaxs.

Muloqot jarayonidagi psixologik ta'sir ko'zi ojiz bolalarning o'ziga o'zi

³⁴ David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers. 446 pege. mazmun mohiyati olindi.

bergan bahosiga, shuningdek, atrofidagi odamlarning unga bo'lgan munosabati bilan ham belgilanadi. Yuqoridagi jadvalga ko'ra, ma'lum shaxs rahbar, guruh, qo'l ostidagilar xodimlar, mijoz, o'zi tomonidan baholanishi mumkin.³⁵ Masalan, defektologning ish faoliyati muassasa rahbari, hamkasblari (ta'lim muassasasi ishchi-xodimlari), o'quvchilar, o'quvchilarning ota-onalari va o'zi tomonidan baholanishi mumkin.

Bu boradagi fanning o'z uslubi bo'lib, uning nomi ijtimoiy psixologik trening (IPT) deb ataladi. IPT – muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni shakllantirishdir³⁶.

Birgalikdagi faoliyatning uch xil modeli mavjud.

– Har bir ko'zi ojiz bolalar boshqalardan mustaqil ravishda isbning o'ziga tegishli qismini bajarishi (masalan, shanbalikdagi ish);

– Umumiy vazifani bosqichma-bosqich har bir ko'zi ojiz bolalar tomonidan bajarilishi (masalan, konveyerdagi ish);

– Har bir bola boshqalar bilan birgalikda bir vaqtning o'zida umumiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi (masalan, futbol jamoasidagi ish).

• *Odatda muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sirning ikki xil turi ajratiladi.*

a) *kooperasiyaga asoslangan o'zaro ta'sir* – kommunikativ jarayon ko'zi ojiz bolalarning umumiy maqsad yo'lida o'z kuchlarini birlashtirishdan iborat. Kooperatsiyalarning bir necha turi farqlanadi.

➤ *avtomatik* (instinktiv- biologik darajada mavjud bo'ladi),

➤ *avtomatik* (tarkib topgan ijtimoiy me'yorlar bilan an'ana va urf-odatlar bilantaqozolangan bo'ladi),

➤ *spontan* (do'stlik, muhabbat va shu kabi munosabatlar bilan taqozolangan bo'ladi),

➤ *direktiv* (majburiy hamkorlik hukm suruvchi joylarda mavjud bo'ladi),

³⁵ David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers. 520 pege. mazmun mohiyati olindi.

³⁶ John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008.185-187 pegesmazmun mohiyati olindi.

➤ *shartnomaviy* (rasmiy kelishuvlar bilan taqozolangan bo'ladi),

➤ *kooperasiya*-birgalikdagi faoliyatning zaruriy elementi.

b) Raqobatga asoslangan o'zaro ta'sir – kommunikativ jarayon ishtirokchilarining shaxsiy yoki guruhiiy maqsadlarga erishish uchun o'zaro kurash sharoitida bir-biriga ta'sir ko'rsatishdan iborat.


Bunday o'zaro ta'sirda tomonlarning shaxsiy faolligi odatda yuqori bo'ladi. Shunday bo'lsa-da u kooperatsiya bilan ma'lum darajada bog'liqdir. Chunki raqobat davomida ham muayyan qoidalar o'rnatilishi talab etiladi.

Integratsiyalashgan ta'lim muhitida har bir bola ta'lim jarayoniga qaratilgan salohiyati o'qituvchilar tomonidan muntazam kuzatuv ostidadir. Bu bilan birga har bir o'quvchi ta'lim jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri jalb etiladi. Bu jarayon sinfda kelib chiqish imkon darajasidan qat'iy nazar jamoa sifatida o'quvchilarning ta'limga bo'lgan ma'suliyatini oshiradi. Har bir o'quvchi o'qituvchi ijtimoiy, ilmiy, madaniy ta'lim jarayonlarini osonlashtirilgan tarzda bilimlarni qabul qiladi. Shuning uchun baholash mezonlari ham jamoa ta'lim jarayoni ko'nikmalariga asolangandir. O'quvchilarga bir-biriga ko'maklashishni o'rgatish va boshqa adaptive o'qitish yondashuvlari kooperativ ta'lim strategiyalarini o'rgatish muhimdir. O'qitish uchun baholash mahorati yoki ijtimoiy o'quv ko'nikmalar o'qituvchilar integratsiya auditoriyalardan foydalanishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.³⁷

Ko'zi ojiz bolalarni ijtimoiy rehabilitatsiyalash ijtimoiy yordamning murakkab zamonaviy va muqim tizimlaridan biridir.

Nogiron bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy qayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan istalgan shaxs.

³⁷ 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan, Solveig Sjostedt. 2008, Hungary Finland. 99-102 peges mazmun mohiyati olindi.



Ijtimoiy reabilitatsiya jarayonida 3 ta vazifalar qal qilinadi:

- Shaxs adaptatsiyasi
- Shaxs avtomizatsiyasi
- Shaxs faolligi

Ijtimoiy adaptatsiya individning ijtimoiy muqit sharoitlariga faol moslashuvini, ijtimoiy avtomizatsiya esa o'ziga bo'lgan ustanovkalarni realizatsiyasini nazarda tutadi.

Maxsus ta'lim tizimida integratsiyalashgan yondashuv orqali o'quvchilarda ta'lim dasturi asosida atrof-muhit o'zgarishlari, jarayonlar, muayyan o'quv strategiyalari va maxsus uskunalar, materiallar asosida o'rganish kerak.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ dastur va darsliklardan foydalanmoqdalar. Zamon talabiga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarning ish tajribalariga tayanib, aniq va tabiiy fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosini hal etish zarur deb hisobladik. Ushbu muammoni hal etish muhim iqtisodiy va pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi. Muammoni ijobiy hal etilishi o'quvchilarni ortiqcha yuklamadan ozod etadi, olamni yaxlit holda anglashga, undagi voqea va hodisalar mohiyatini kompleks o'rganishga, bir butun mukammal bilimlar tizimini tarkib toptirishga, barkamol shaxsning shakllanishiga imkon yaratadi. «Integratsiya»-

lotincha «integratio» soʻzidan olingan boʻlib, «integr» toʻliq, yaxlit, bir butun degan maʼnolarni anglatadi.

Integratsiya – oʻzaro bogʻlangan holda rivojlantirish, «integriruvat»- bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir .

Integratsiya – tabiat haqidagi bir butun bilimlar majmuasi. Integratsiya olamning yaxlitligi (bir butunligi)ni ifodalaydi. Integratsiya-turli fanlarga oid bilimlarni yagona maqsadni hal etishga yoʻnaltirishdir. Integrativ taʼlim-oʻquvchiga tabiat, unda sodir boʻladigan hodisa, qonun, jarayonlar haqida umumlashgan holda (yagona, butun, yaxlit) taʼlim berishdan iborat. Integratsion taʼlim- fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integrativ materiallar quyidagi talablarga javob berishi kerak: qiziqarli;

- ilmiy;
- oʻquvchilar yosh xususiyati;
- psixofiziologiyasiga mos boʻlishi kerak;
- integrativ materiallar-oddiy, sodda tilda yozilgan, tushunarli tarzda bayon etilishi zarur. Integrativ material-tarixiy, milliy, umuminsoniy xarakterga ega boʻlishi lozim.

Integratsiyalashgan yondashuv orqali rivojlanish:

- Har bir odam oʻziga qulaylikni berishi;
- Oʻquvchilar bir-biriga yordam berishi;
- mutahassislarning bir-biri bilan hamkorligi;
- Oʻquvchilar va pedagoglar orasidagi hurmat;
- Ota-onalar va pedagoglar orasidagi hamkorlik.

Integratsiyalashgan taʼlimni ahamiyatga ega asoslari

- Oʻquvchilarga boʻlgan yuqori darajadagi ishonch;
- Ota-onalar va oʻquvchilar bilan psixologik ish olib borish;
- Maktabda oʻquvchilar orasida diskriminatsiyani yoʻqotish.³⁸

³⁸ 200 Years of Experience and Challenges of Today.READER. Learning and Visual Impairment.Emmy Csocsan, SolveigSjostedt. 2008,Hungary Finland.

Savol va topshiriqlar

1. Muloqot nima, uning vazifalari qanday?
2. Muloqot tushunchasining mohiyatini izohlang.
3. Muloqot turlarining ta'rif bering.
4. Muloqot vazifalari nimalardan iboratligining ko'rsating.
5. Muloqotning verbal vositalariganimalarkiradi?
6. Muloqotning noverbal vositalariga nimalar kiradi?
7. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning muloqotining o'ziga xosligini yoritng.
8. Ijtimoiy rehabilitatsiya vazifalari haqida tushuncha bering.
9. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni jamiyatga integratsiyalash muammolari nimalardan iborat.

2.5. Ko'rish nuqsoniga ega shaxslarning tafakkur jarayonlarining o'ziga xosligi

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Insonda tafakkur bo'lganligi va tafakkur bilan chambarchas nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson o'z atrofidagi olamda bo'lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi.

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi sodda va bir muncha shartli klassifikatsiyasi tarqalgandir: ko'rgazmali harakat; ko'rgazmali-obrazli; mavhum, nazariy tafakkur. Ko'rgazmali harakat tafakkuri tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turgan maqsadlarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazardan yechganlar, keyinchalik undan nazariy faoliyat ajralib chiqqan. Amaliy va nazariy faoliyat chambarchas bog'langandir. Sof nazariy faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o'zi birlamchidir. Yana faoliyatning taraqqiyoti davomida unda nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajralib chiqqan. Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyotida emas, balki shu bilan birga har biri psixik taraqqiyoti jarayonida ham dastavval asos bo'lib emas balki amaliy faoliyatdir. Go'yo bu faoliyat ichida avval bola tafakkuri rivojlanadi. O'yinchoqlarni buzib ko'rish va boshqalar.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur. Ko'rgazmali-obrazli sodda formada ko'pincha bog'cha yoshida bolalarda, ya'ni 7 yoshli bolalarda paydo bo'ladi. Bu yoshdagi tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi to'g'ri va bevosita bo'lmaydi. Bola bo'layotgani tufayli tafakkurni aniqlik idrok qilishi va tasavvur qilishi lozim. Bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va uncha tushunchaga ega bo'lmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda tushunchalarning yuqligi, defektolog J.Plajening quyidagi tajribasida mavjud yaqqol namoyon bo'ladi.

Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, tevarakatdagi olam va turmush to'g'risidagi o'z bilimlarini kengaytirishiga va chuqurlashtirishga intilish sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkuri-obyektni anglashi, bilishi tafakkur jarayonining xarakterli xususiyatidir. Odam o'zi idrok qilayotgan narsalar to'g'risida fikr qiladi. Shuning uchun tushunchalar narsalarning butun bir sinfi, turkumi to'g'risida fikr qiladi, ya'ni bular tafakkurning obyekti bo'ladi. Bir narsaga tayanmagan quruqdan quruq tafakkur bo'lishi mumkin emas.

Analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash va umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir.

Professor E.G'.G'ozievning "Umumiy defektologiya" darsligida tafakkur turlari quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

| Tafakkur turlari | |
|---------------------------------------|--|
| Shakliga ko'ra | Ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, |
| Topshiriq xarakteriga ko'ra | Nazariy, amaliy, ixtiyorsiz, ixtiyoriy |
| Fikr yoyiqligiga ko'ra | Konkret, abstrakt, realistik, autistik intuitiv, diskursiv |
| Fikrning originallik darajasiga ko'ra | Reproduktiv, produktiv, ijodiy, vizual, fazoviy |

Qator mualliflar (T.P.Golovina, L.P.Grigoreva, M.I.Zemtsova, V.G.Ermakov, A.L.Zamulin, G.M.Milaeva, L.I.Plaksina, L.V.Rudakova,

L.I.Solntseva va b.) ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar me'yorda ko'radiganlar kabi fikrlash operatsiyalarini amalga oshiradi. Shu bilan birga, holalarda ko'rish qobiliyati buzilganda bolalarda tahlil qilish idroki sekin, fragmentar, ko'p bosqichli tarzda kechadi. Bu zaif ko'ruvchilarning obrazli tafakkuri rivojlanishinii qiyinlashtiradi. Predmet va hodisalarni xayolan bo'laklashda, keyinroq ularni sintezlashda turli belgilar obrazlarining yaxlitlik vabir paytllilik kabi sifatleri zarar ko'radi.

Me'yorda ko'radiganlar muhitida yashayotgan va ishlayotgan ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shunday hayoti vaziyatlarda bo'ladiki, u butun vaziyatni yaxlit idrok etolmaydi va vaziyatni o'z idroki uchun qulay bo'lgan alohida elementlar asosida tahlil qilishiga to'g'ri keladi. Bunday hollarda vaziyatni qayta yaratish va baholash uning alohida belgilari tahlili va sintezi, ularni anglab yetish va mavjud bilim hamda tasavvurlar tizimiga, hayot va ta'lim jarayonida yaratilgan umumiy kontseptsiyaga kiritish asosiga quriladi. Bu ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar hayoti va faoliyatida tafakkurning katta ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Tiflopsixologiyada tafakkur ko'rish nuqsonini psixologik kompensatsiyalash va atrof olamni bilish usullarini shakllantirish jarayonining eng muhim omillaridan biri sanalishi haqida fikr anchadan beri mavjud. Biroq tafakkur jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan aniq eksperimental tadqiqotlar ko'p emas.. A.G.Litvak va A.F.Samoylovlar ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar tafakkuri rivojlanishining uchta konsepsiyasini ta'kidlaydi: ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar tafakkurining tezlashgan rivojlanish nazariyasi; ko'rish nuqsonining tafakkur rivojlanishiga salbiy ta'siri nazariyasi va tafakkur rivojlanish darajasining ko'rish nuqsonlariga bog'liq emasligi kontsepsiyasi.

Har uchala konsepsiya konkret faktlarga tayanadiki, ular o'z g'oyalarini ta'kidlash uchun huquq beradi. Biroq ularning hech biri yo xayoliy obrazlar, yo tafakkurning shakllanish jarayonidagi o'ziga xoslikning mavjudligini inkor etmaydi.

Birinchi konsepsiya ko'zi ojizlarning nutqiy-mantiqiy tafakkuri nisbatan yuqori rivojlanganligi fakti haqidagi kuzatishlar, talqinlar

va fikrlarga asoslanadi (S.F.Struve; A.M.Shcherbina; A.R.Krogus; K.Bryuklen; B.I.Kovalenko). Ikkinchi kontsepsiya ko'zi ojizlar va ayniqsa, zaif ko'ruvchilar bilan olib borilgan hissiy bilishdagi kamchiliklar tafakkurda va noaniq umumlashmalar hamda ularning formal tushunchalari hosil bo'lishida aks etishini aniqlab bergan tadqiqotlarga tayanadi (M.I.Zemtsova, F.N.Shemyakin). Uchinchi kontsepsiya ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarning fikrlash faoliyati rivojlanish darajasini uni shakllantirish jarayonini boshqarish va dasturlashtirish sifati bilan bog'laydi (A.I.Zotov va uning izdoshlari).

Ko'rish nuqsoni bo'lganlarda tafakkurni eksperimental tadqiq qilish asosan genetik jihatdan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda me'yorda ko'radiganlar uchun ishlab chiqilgan metodikalardan foydalanib olib borilgan. Natijalarni ko'radigan bolalarda olingan natijalar bilan solishtirganda ko'p jihatdan metodikalarni ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar foydalanishi uchun o'gartirishlar kiritish va tajribalarni o'tkazish sharoitlariga bog'liq bo'lib chiqqan. Maktabgacha va maktab yoshidagi ko'zi ojiz bolalar tafakkur darajasini o'rganishga oid tadqiqotlar J.Piaje metodikalari boyicha olib borilgan.

J.Piaje olib borgan me'yorda ko'radigan bolalarning intellektual rivojlanishini o'rganishga oid tadqiqotlar unga rivojlanish bosqichlarini ajratish va hal qilinishi maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri xarakterli xususiyatlarini ochib beradigan va bolalarning o'z ilmiy tafakkuriga o'tishini belgilash imkonini beradigan qator vazifalarni ishlab chiqish imkonini berdi. «**Piaje topshiriqlari**» va «**Piaje fenomeni**» - P.Y.Gal'perin va D.B.El'konin bolalar obyekt xossalariidan biri o'zgarganda modda miqdori saqlanishi qonunini tushunadigan fikrlash vazifalarini taqdim etishdan iborat metodikalarni shunday nomlagan. J.Piaje tadqiqotlari natijalariga ko'ra, 7-8 yoshli bolalar miqdorining saqlanishi qonunini tushunishga qodir, bu ularda ilmiy tafakkurning yuzaga kelganidan dalolat beradi³⁹.

Angliya, Fransiya, AQSH, Avstraliyada J.Piaje vazifalaridan foydalanib, ko'zi ojiz bolalar tafakkurini o'rganish boyicha tadqiqotlar olib borilgan (M. Canning, J. Hatwell, S.K. Milleg, B. Stephens, M. Tobin,

³⁹ David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers. 368 - 370 peges. mazmun mohiyati olindi.

R. Crome, M. Gottesman va b.), tadqiqotchilar ikki guruh natijalarga erishgan, ularga ko'ra ko'zi ojiz bolalar saqlanish qonunini tushunishda ko'radigan bolalardan 4-8 yilga orqada qoladi (B.Stepens va b.), qachonki M.Tobin, M.Gottesman va b. ta'kidlashicha, ko'zi ojizlarda to'g'ri va noto'g'ri yechim amplitudasi ko'radigan bolalarnikidan qancha katta bo'lsa-da, ko'zi ojizlarning eng yaxshilarini ko'radiganlarning eng yaxshilari bilan tenglash mumkin.

M.Gottesman tadqiqotlari unga ko'zi ojiz bolalar tafakkur rivojlanishida albatta anomal emas va intillektning rivojlanishida hech bir kechikishga ega emas degan xulosaga kelish uchun asos berdiki, u idrok etiladigan axborotni integratsiyalay olmaslikdan dalolat berishi kerak edi. Tadqiqotchi ko'rsatib berdiki, ko'zi ojiz bolalar tafakkur rivojlanishida aynan o'sha bosqichiarni taxminan o'sha yosh davrida o'tadi va Piaje vazifalarini ko'rish idrokiga tayanmasdan yecha oladi.

Ko'rish qobiliyati buzilganda o'xshashlik va tafovutning ko'plab belgilari ilg'ab olinmaydi. Qiyoslash tafakkur operatsiyalari ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalar tomonidan belglarning cheklangan miqdori boyicha bajariladi, bu umumlashtirishni qiyinlashtiradi. Zaif ko'ruvchi bolalarda eng ko'p qiyinchilik predmetlar o'rtasidagi makon aloqalari va munosabatlarini baholashda yuzaga keladi.

Tasavvurning rivojlanishi, tafakkurning shakllanayotgan jarayoni bilan tavsiflanadi, bu shakllanish bolaning xayoliy tasavvurlarining ixtiyoriy ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir. Bunday imkoniyat 5-6 yoshli bolalarda yanada yuqoriroq bo'ladi, chunki, bola yangi aqliy harakat usullarini juda tez o'zlashtirib oladi. Aqliy faoliyatda yangi usullarning shakllanib borishi, tashqi predmetlarning harakatini o'zlashtirib olishdagi bola harakati, ta'lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning obrazli tafakkurini rivojlanishi uchun eng maqbul imkoniyat davridir.⁴⁰

Ko'ruv nuqsonida tashqi olamni sezish, his etish nuqsonning darajasiga qarab ozmi-ko'pmi buziladi. Bu o'z navbatida tashqi olamni aniq chuqur va farqlangan holda sezish va idrok etishni susaytiradi.

⁴⁰ David H. Warren/ Blindness and children : an individual differences approach / © Cambridge University Press, 2009. 257-260 pages. mazmun mohiyati olingan

Bu ham o'z navbatida bilish jarayoniga, aqliy rivojlanishga salbiy ta'sir etadi. Ko'ruv nuqsoni natijasida idrok etish jarayoni qiyinlashadi. Ayniqsa, obrazlarning yaxlit holda shakllanishidagi kamchiliklar, narsalar va hodisalarni farqlashdagi kamchiliklar, ularning muhim qismlarini ajratishdagi yetishmovchiliklar tafakkurning eng muhim jarayoni bo'lgan umumlashtirishni qiyinlashtiradi. Aynan shuning uchun ham, ko'zi ojizlar idrokining sxematikligini chizgi shakldaligini, fragmentarligini va hissiy sezishning boshqa kamchiliklarini yengib o'tish uchun ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi. Ko'zi ojizlarda ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlarni kompensatsiya qilishda, o'rmini qoplashda, sensor sezish sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etishda tafakkurning xizmati shundaki, har xil turdagi xulosa, hukmlar chiqarish bilan mavhum fikrlashni amalga oshiradi. Ko'r bola idrok eta olmagan yoki idrok etish imkoniyati bo'lmagan narsalar va hodisalarning mohiyatini ochishga tafakkur jarayonlari yordam beradi va yordam berishi zarur.

Odamlarning ehtiyojlari, hayotiy qiziqishlari va faoliyatlari juda xilma-xildir. Shu sababli, odamning tafakkuri ham turli hollarda har xil turda namoyon bo'ladi. Bilish uchun kerak bo'lgan vazifalarni va har xil amaliy vazifalarni hal etishga to'g'ri kelib qolinganda, shuningdek, boshqa odamlarning fikrlarini nutq orqali va amaliy muomalada bilib olishga, tushunib olishga to'g'ri kelinganda odam o'z fikrini ishlata-di. Mana shundan ijodiy tafakkur va tushunish deb ataladigan tafakkur kelib chiqadi. Tafakkurning faolligi qay turda bo'lishiga qarab, u ixtiyoriy va ixtiyorsiz tafakkurga bo'linadi, tafakkurning umumiy-
lashganlik darajasiga qarab, u konkret va abstrakt tafakkurga, yo'nalishiga qarab, u nazariy va amaliy tafakkurga bo'linadi.⁴¹

Ba'zi bir g'arb olimlari ko'zi ojizlardagi ko'ruv nuqsoni, ularda mantiqiy tafakkurlarining sog'lomlarga nisbatan yuqoriroq rivojlanishga sabab bo'ladi deb da'vo qiladilar. Bu fikrga ular asos qilib: ko'r shaxs fikrini chalg'itadigan narsa va hodislarni ko'rmaganliklari uchun ichki fikrlash imkoniyati katta bo'ladi, ular chuqur fikrlash qobiliyatiga ega deb hisoblaydilar. Lekin, bunday fikrlar uzoq kuzatuvlar va tajribalar

⁴¹ John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008. 374-378
peges. mazmun mohiyati olingan

natijasining yakuni bo'lmisidan balki, empirik jihatdan qilingan, tasdiqlanmagan farazlardir xolos, yuqorida aytganimizdek, ko'zi ojizlarda sezgi, idrokda kamchiliklar ularning narsa va hodisalarning muhim qismlarini farqlash va taqqoslash yetarli kechmaydi.

Ayniqsa, notanish narsalarni taqqoslash va umumlashtirish ularning tasodifiy belgilari yordamida va tahminiy amalga oshgani uchun ham ko'zi ojizlardagi bilishlarda verbalistik ustunlik qiladi. Tahlil va tasnif jarayonining amalga oshishi asosan taqqoslash bilan, taqqoslash jarayoni esa tahlil va tasnif bilan bog'liqligi uchun ko'ruv nuqsonida narsalarni farqlash va solishtirishdagi nozik va murakkab jarayonni amalga oshirish qiyinlashadi.

Taqqoslash jarayonining qiyinligiga sabab esa, tahlil va tasnif jarayonining yetarli amalga oshmasligidir. Ko'zi ojizlarda tahlil va tasnif jarayonining qiyinligiga sabab: bir tomondan narsa va obyektlarning belgi va mohiyatlarini sezish – idrok etishning qiyinligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, idrok etilayotgan narsa va obyektlarning qisman – suksessiv, fragmentar idrok etilishidir. Narsalarni har tomonlama, chuqur tahlil qilishning imkoniyati chegaralanganligi natijasida, narsalarni yuzaki bilish, muhim qismlarni sezmasdan qolish yuz beradi.

Ko'zi ojizlar narsalarning muhim qismlarini ajratishga qiynalishlari yoki faqat umumiy belgilarnigina farqlashlari natijasida narsalarni bir tizimga solishda, guruhlashda qiyinchilik kelib chiqadi. Shunday qilib, Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning sensor sohasidagi kamchiliklari hissiy bilishni qiyinlashtiradi va kambag'allashtiradi.

Bu o'z navbatida tafakkurning rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Fikrlash jarayonida tushunchalarning to'g'ri shakllanishi katta ahamiyatga ega. Tushunchalar asosan tasavvur yordamida, uning obrazlaridan hosil bo'ladi. Masalan: sog'lom bola «dars» so'zini ko'p marta eshitadi, lekin dars haqidagi haqiqiy tushuncha uni ko'rgandan so'ng paydo bo'ladi. Ko'zi ojizlarda tushuncha va uning haqiqiy obrazi – o'rtasida ajralish (divergentsiya) yuzaga keladi. Tushunchalarning mantiqiy va hissiy ajralishi ko'pincha noto'g'ri yoki formal, yuzaki, soxta xulosa chiqarishiga sabab bo'ladi. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarda ba'zan hayotdan – reallikdan ajralib qolgan tushunchalar yuzaga keladi.

Idrokni rejali ravishda tashkil etish bilan, tasavvurlar doirasini kengaytirib borish bilan tushunchalar shakllantiriladi. Bu bilan o'qituvchi ko'zi oqizlarda fikrlash jarayonlarida tafakkurni izchil tarzda rivojlantirib borishi mumkin. Ko'zi oqizlar ko'pgina narsa va hodisalar haqida so'z yordamida ma'lumot oladilar. Lekin, bu bilimlar shaxsiy tajribada sensor malaka va ko'nikmalar yordamida mustahkamlanmaganligi uchun ham bu bilimlar yuzaki, hayotdan uzoq bo'ladi. Bu kamchiliklar tushunchalarning mazmunini ham buzadi. Bu kamchiliklarni bo'rtma ko'rgazmali qurollar yordamida narsa va obyektlarning natural shakli bilan tanishtirish yordamida bartaraf etiladi. Ayniqsa, o'qituvchilar ko'zi oqizlarda tushunchalarni shakllantirish ustida iloji boricha psixologik-pedagogik korreksiya ishlarini erta boshlashlari va izchil ish yuritishiari ijobiy natijalar beradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola faqat o'zi idrok qilgan va o'zi tasavvur qilishi mumkin bo'lgan narsalar to'g'risidagina tushunchaga ega bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada hali konkret tushunchalar bo'lmaydi, masalan, u yaxshi buvi to'g'risida, chiroylik gul to'g'risida, bir-biriga teng kubiklar yoki cho'plar to'g'risida fikr qilishi mumkin, lekin u yaxshilik to'g'risida, go'zallik to'g'risida, tenglik to'g'risida fikr qila olmaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola konkret narsalar to'g'risida fikr qiladi.

Umuman, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola tevarak-atrofdagi narsalarga ko'proq qiziqadi va ularni ko'proq, bilishga intiladi, bu esa uning tafakkurini faollashtiradi. U yangi narsalarni tomosha qilish va ushlab ko'rishni yaxshi ko'radi, o'zi tushunadigan narsalar to'g'risida aytib berilgan yoki o'qilgan hikoyalarni tinglashni yaxshi ko'radi.

To'g'ri tarbiya qilingan taqdirda bola yetti yoshga yetganida mantiqiy tafakkurning elementar formalarini hukm va xulosa chiqarishning asosiy turlarini o'zlashtirib oladi. Endi u maktabda o'qishi mumkin.

Maktabda ta'lim jarayonida tafakkurning o'sishi. Bolalarga beriladigan va asosan maktabda amalga oshiriladigan ta'lim bolalar tafakkurining o'sishi uchun g'oyat katta ahamiyatga egadir. Ta'lim va maktabda beriladigan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, kuzatuvchanlik, xotira va xayol o'sib borishi bilan maktab yoshidagi bolalar tafakkuriga

material bo'ladigan narsalar doirasi kengaya boradi, bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o'sib boradi. Ta'lim jarayonida tafakkur katta o'sish yo'lini – konkret tafakkurdan abstrakt– nazariy tafakkurga o'tish yo'lini o'tadi.

Maktab yoshidagi kichik bolalarning tafakkuri hali ham amaliy, konkret tafakkur bo'ladi, lekin ta'lim jarayonida bunday bolalarning konkret tafakkuri, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning konkret tafakkuriga qaraganda, murakkabroq va mazmunliroq bo'lib qoladi, ulardagi fikrlash jarayonlarining hammasi takomillasha boradi. Maktabda o'quvchi bola tobora murakkabroq narsalarni va o'zi idrok qilayotgan narsalarni hamda hodisalarnigina emas, balki, shu bilan birga, tasavvur qilayotgan narsalar va hodisalarni ham bir-biriga taqqoslashni, analiz qilishni va sintez qilishni o'rganib oladi.

Bolani maktabda o'qitish jarayonida unda abstraktlash qobiliyati o'sa boshlaydi. Arifmetika o'qitish vaqtida, amaliy, konkret sanashdan abstrakt hissoblashga o'tilgan vaqtda shuningdek, ona tili darslarini o'qish davrida bu qobiliyat, sezilarli sur'atda o'sadi so'ngra maktabdagi hamma fanlarni o'qitish davrida bu qobiliyat yanada o'sadi. O'quvchi bola analiz qilish, abstraktlash va taqqoslashni, mashq qilish yo'li bilan narsalarning muhim belgilari bilan ahamiyatsiz belgilarini bir-biridan farq qilishni va muhim belgilarga qarab to'g'ri xulosalar chiqarishni o'rganadi.⁴²

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarning bilish jarayonlari bir qator umumiy xususiyatlarga ega:

- barcha bilish jarayonlarning tez toliqishi, aqliy mehnat qilish qobiliyatining sustligi, diqqatning buzilganligi. Ba'zida ruhiy toliqish va charchashning yuqori darajadali bolaning shaxs xususiyatlarining patologik rivojlanishiga olib keladi: qo'rqish, befarqlik, kayfiyatning pastligi kelib chiqadi;

- faol ixtiyoriy diqqatning buzilishi barcha bilish jarayonlarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sababi birgina diqqatning buzilishi idrok, xotira, tafakkurning buzilishiga olib keladi;

⁴² 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan, Solveig Sjostedt. 2008, Hungary Finland. pages. mazmun mohiyati olingan

- barcha bilish jarayonlarning inertligi va sekinlashganligi bir faoliyatdan boshqa bir faoliyatga o'tishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Qator tadqiqot natijalariga ko'ra, zaif ko'ruvchi bolalar diqqatlarini uzoq vaqt bir joyga jamlab tura olmaydilar, tez chalg'iydilar. Shuningdek, ko'pgina zaif ko'ruvchi bolalarning verbal xotirasi ko'ruv va taktil xotiralaridan ustun turar ekan. Zaif ko'ruvchi bolalarning ko'p qismi atrof-olam haqidagi tasavvurlari tor va noaniq tarzda shakllanganligi kuzatildi. Zaif ko'ruvchi bolalarning mantiqiy xotiraları nisbatan yaxshi rivojlanganligi kuzatildi.

“Obyektlarni o'xshashligi va farqini aniqlash, sababini tushuntirish, tushunchalarni ta'riflash” metodikasi

Tushunchani ta'riflash, sabablarini izohlash, predmetlarning o'xshashlik va farqini aniqlash kabi tafakkur jarayonlarini baholash orqali biz bolaning aqliy rivojlanish darajasini o'rganishimiz mumkin.

Bu tafakkur jarayonlari bolaning quyidagi savollarga to'g'ri javob berishiga qarab aniqlanadi.

1. Bu hayvonlarni qaysi biri katta Otmi yoki itmi?
2. Ertalab odamlar nonushta qiladi. Kunduzi va kechqurun ovqatlan-gandachi? (To'g'ri javob: Tushlik va kechki ovqat)
3. Kunduzi ko'chada yorug', kechqurunchi? (To'g'ri javob - qorong'i).
4. Osmon ko'm-ko'k, o'tlarchi (To'g'ri javob: yashil rangda).
5. Gilos, nok, olxo'ri va olma - bu (To'g'ri davom ettirish - mevalar).
6. Poezd o'tayogganda nega shlagbaumni tushiriladi?
7. Toshkent, Xiva, Samarqand - nima? (To'g'ri javob -sha-harlar).
8. Soat necha bo'ldi? (Bolaga soatni ko'rsatib vaqtni aytib berish so'raladi) (To'g'ri javob soat millari ko'rsatgan vaqt).
9. Sigirning kichigini buzoq deyiladi. Kichik it va qo'yni nima dey-iladi? (To'g'ri javob: kuchuk va qo'zi).
10. It ko'proq nimaga o'xshaydi Mushukkami yoki tovuqqami Javob ber va tushuntirib ber, nima uchun shunday deb o'ylaysan?

11. Avtomobilga tormoz nima uchun kerak? (kerak bo'lganda avtomobil tezligini pasaytirishni ko'rsatuvchi biror - bir javob to'g'ri deb topiladi).

12. Bolta va arra bir-biriga qay jixatdan o'xshash? (Bajariladigan ishlarni ko'rsatuvchi javob to'g'ri).

13. Olmaxon bilan mushuk orasida qanday o'xshashlik bor? (Kami-da ikkita o'xshash belgilarni to'g'ri ko'rsatilgan javob to'g'ri. Masalan, bular - hayvonlar, daraxtga chiqa oladilar, qalin yung bilan qoplanganligi, dumi va to'rta oyog'i borligidir).

14. Mix, vint, shurup bir-biridan nimasi bilan farq qiladi? (To'g'ri javob - mixning yuzasi tekis, vint va shurup burama keratikli; mix-bolg'a bilan uriladi, vint va shurup buraladi; shurup konus shaklida, vint va mix yumoloqdir).

15. Futbol, uzunlikka va balandlikka sakrash, tennis, suzish nima? (To'g'ri javob - bular sport turlari, jismoniy mashqlari turi).

16. Transportning qanday turlarini bilasiz?

(transport vositasining - kamida ikki turini aytishi kerak).

17. Yosh odam katta odamdan qanday farqlanadi? (Javobda keksalar bilan yoshlar o'rtasidagi kamida ikkita farq sanaladi).

18. Nima uchun odamlar jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadi? (quyidagi javoblar to'g'ri deb topilishi mumkin - o'zining salomatligini saqlab turish, kuchli bo'lish, qaddi-qomati kelishgan bo'lishi, chiroyli bo'lish, sportda muvaffaqiyat qozonish va musobaqalarda yutish uchun).

19. Nima uchun ishlamaslik yomon deyiladi? (To'g'ri javob variantlari - chunki hamma odamlar ishlashlari kerak, negaki yaxshi yashab bo'lmaydi; chunki bu odam o'rniga boshqalar ishlashi kerak bo'ladi; ishlamasa kerakli narsalarni sotib ololmaydi; oziq-ovqat, turar joy va boshqalar)

20. Nima uchun konvertga marka yopishtiriladi? (To'g'ri javob pochta orqali jo'natilayotgan xabarlar uchun to'lanadigan haq)

Natijalarni qayta ishlash

Har bir to'g'ri javob uchun 0,5 ball beriladi, bolaning to'plashi mumkin bo'lgan yuqori ballar 10 ga teng bo'ladi.

Izoh. Bolaning mustaqil fikr yuritib savolning mohiyatiga mos keladigan javobi ko'rsatilgan javobda bo'lmasa ham to'g'ri hisoblanadi.

Yuqoridagi metodika maktabga kirayotgan bolaning so'z-mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini psixologik tashxis qilish uchun qo'llaniladi. Bu metodika yuqorida aytilgan aqliy, xulosa chiqara olish qobiliyatidan tashqari bolaning aqliy fikrlay olish faoliyati to'g'risida ham ozmi-ko'pmi xulosa qilish imkonini beradi.

Tekshiruvchida bola javobining to'g'riligiga ishonch yoki noto'g'ri deb xulosa chiqarish uchun asos bo'lmasa, u holda bunday javobga 0,5 ball beriladi.

Bolaning javobini to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholashdan avval bola savolmi to'g'ri tushunganligiga ishonch hosil qilmoq kerak.

Masalan: hamma bolalar ham shlagbaum nimaligini bilavermaydi va 19 savolning ma'nosini anglab yeta olmaydilar.

Ba'zan "ishlamoq" so'zi ham qo'shimcha tushuntirish talab qiladi, chunki maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hammasi ham buni bila olmaydilar.

Rivojlanish darajasi haqida xulosa:

10 ball - juda yuqori

8-9 ball - yuqori

4-7 ball - o'rtacha

2-3 ball - quyi

0-1 ball - juda past

"Aqlida hisoblay olish" metodikasi

Ushbu metodika yordami bilan bolaning arifmetik amallarni va turli xil kasr sonlar ya'ni, oddiy, o'nli, butun kasrlarni tezlikda aqlida ishlay olish qobiliyatini psixodiagnostika qilish mumkin.

Agar bolaga sanoqni maktab yoshiga qadar o'rgatilgan bo'lsa, unda berilgan metodikani maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab qo'llash

mumkin. Asosan, bu metodika maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning qobiliyatlarini baholashga xizmat qiladi.

Jadvalda berilgan misollar namunasini bolaga tartib bilan oddiydan murakkabga qarab o'qib eshittiriladi. Bola tezlik bilan o'qilgan misollarni miyasida ishlab, og'zaki javob berishi lozim. Jadvalning o'ng va chap tomoniga to'g'ri ishlangan arifmetik misolning ballari keltirilgan.

Jadvaldagi namunada ballar miqdoriga mos keluvchi baholar bir-biridan gorizontaal yo'nalishdagi chiziqlar bilan ajratilgan. Ular orasida bolaning berilgan misollarga to'g'ri javobi uchun oladigan ballari joylashgan. Topshiriqni to'la bajarishga ketgan umumiy vaqt 5 minutga teng.

Topshiriq mohiyati bola shu vaqt ichida qancha ko'p misol ishlashi bilan belgilanadi. Namunada berilgan to'g'ri javoblar faqatgina tadqiqotchiga ma'lum bo'lishi kerak, bu unga bolaning javoblarini tekshirib borishda qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Bola tomonidan 5 minut vaqt ichida to'plagan ballarning yig'indisi keyinchalik 10 ballik shkala asosida standartlashtirilgan ballarga o'tkaziladi.

Rivojlanish darajasi haqida xulosa:

7,7 ball va undan ko'p: juda yuqori 5,7-7,6 ball - yuqori; 2,5-5,6 ball - o'rtacha; 0,9 -2,4 ball - past; 0,8 balidan kam: juda past.

Bunda 7,7 -10.0 gacha oraliqdagi ballar yig'indisi juda yaxshi natijani ko'rsatib, bolaning matematik qobiliyati kuchli ekanligidan dalolatdir.

5,7-7,6 gacha oraliqdagi ballar ko'rsatkichi yaxshi natijani bildirib, bolaning matematik qobiliyati o'rtacha ekanligini ko'rsatadi.

2,5-5,6 gacha oraliqdagi ballar bolaning matematik qobiliyatlarini kuchsiz ekanligini ko'rsatadi.

0,9-2,4 gacha oraliqdagi ballar natijasi bolaning matematikani o'zlashtirish uchun qobiliyatsizligidan dalolat beradi.

Klassifikatsiya

Guruhlar bo'yicha klassifikatsiya qilish metodikasi birinchi marta K.Goldstein tomonidan taklif etilgan bo'lib, keyinchalik L.S.Vigotskiy

va B.G.Zeygarniklar tomonidan o'zgartirilgan. Metodika umumlashtirish va mavhumlashtirish jarayonlari darajasini o'rganish uchun qo'llaniladi.

Shu bilan tajriba vaziyatida topshiriqni bajarayotganda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola xulq-atvor xususiyatlari, uning xatolarga munosabati hamda yordam berilganda, ularni kuzatish qobiliyatlari ko'rinadi.

Tajriba o'tkazish uchun har xil predmetlarning, o'simliklarning, hayvonlarning rasmlari tasvirlangan kartinkalar kerak bo'ladi.

Bunda rasmlarda B.V.Zeygarnik taklif etgan rangli bezash, turli umumlashtirish darajalari aks etgan bo'lishi kerak. Bog'cha bolalarini tekshirishda (S.Ya.Rubinshteyn) kartochkalarning ba'zilaridan (o'lchash asboblari, o'quv qurollari) foydalanmaslik kerak, chunki bolalar ular haqida hech qanday tasavvurga ega emaslar. Bu metodikalarining boshqa variantida predmetlarning, o'simliklarning, hayvonlarning nomlari kartochkalarga yozilgan bo'lishi mumkin. Bu (og'zaki) varianti kattaroq bolalarni (3-4 sinf o'quvchilarini) tekshirishda qo'llash mumkin.

Shunday qilib, metodikaning birinchi varianti predmetli klassifikatsiya, ikkinchi varianti - og'zaki klassifikatsiyadir, ikkala variant ham bolalarning umumlashtirish, yangi tushunchalarni shakllantirish qobiliyatini aniqlaydi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga quyidagi qo'llanma beriladi: "Hozir siz turli predmetlar, o'simliklar, hayvonlar, tevarak atrofdagi barcha narsalar tasvirlangan kartochkalar to'plamini olasiz. Siz ularni qaysi narsa nimaga kirishiga qarab guruhlariga ajratasiz". Keyin tadqiqotchi bir kartochkani olib ko'rishda nuqsoni bo'lgan boladan unda nima tasvirlanganini so'raydi. To'g'ri javob olgach, uni bir tomonga qo'yib qo'yadi. Keyin navbatdagi kartochkani olib, unda nima tasvirlanganini ham aniqlaydi. Bu tasvirlar bir-biriga qanchalik o'xshashligi va farq qilishi ularni bir guruhga kiritish mumkinligini aniqlaydi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola ko'rsatmani tushunib kartochkalarni mustaqil guruhlariga ajrata boshlaganidan so'ng, tadqiqotchi tomonidan ko'rsatiladigan yordam to'xtatiladi. Klassifikatsiya metodida og'zaki metodni qo'llashda ham yuqoridagi kabi ko'rsatma beriladi. Bunda

tadqiqotchi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga predmetlarning belgilari va xususiyatlarini ko'rsatib, bir guruhga kiritish kerakligi haqida yo'l-yo'riq bermasligi kerak. Predmetli klassifikatsiya bo'yicha tajribalar 3 guruhda bajariladi. Birinchi bosqichda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola kartochkalarni ko'rsatma bo'yicha ajratadi. "Tadqiqotchi tadqiqot qarorida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola harakatlarini, ajratish xususiyatlari (masalan, "shkaf", "palto" yoki "velosiped" va "sportchi" kartochkalarini qaysi guruhga kiritganligi)ni yozib boradi. Barcha kartochkalar guruhga ajratilib bo'linganidan so'ng ikkinchi bosqichga o'tiladi.

Bir turdagi belgilariga ko'ra kartochkalarni kattaroq guruhlarga birlashtirish haqida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga qo'llanma beriladi. Ikkinchi bosqich ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola o'z harakatlarni to'g'rilashga kirishganidan boshlanadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola ko'rsatilgan yordamni qanday qabul qilishiga, o'xshash xatolarni to'g'rilay olishiga e'tibor qaratiladi. Bu bosqich eng uzoq davom etadi, chunki bu bosqichda topshiriqni bajarish davomida nima uchun har bir kartochka u yoki bu guruhga kiritilganligi aniqlanib, barcha harakatlar batafsil yozib boriladi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola u yoki bu kartochkani bir guruhga kiritilganligiga emas, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaning tushunchalarini umumlashtirish qobiliyati ham aniqlanadi ("mebel", "uy hayvonlari", "transport" va boshqalar). Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola uchinchi bosqichda rasmlar guruhini birlashtirib, yanada kamroq guruhlar qolishi kerak va ularni qandaydir tushuncha bilan umumlashtirish kerak. Ba'zan qo'llanmada "o'simliklar", "hayvonlar", "jonsiz predmetlar", "odamlar" deb guruhlar soni aniq ko'rsatiladi. Klassifikatsiya metodikasidagi og'zaki usul qo'llanganda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola aniq tushunchalar, so'zlarni guruhlarga ajratishi kerak. Bu yerda rasmning ta'siri yo'q bo'lib, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola so'zlarning mazmunini yaxshi tushunadi, atrofdagi predmet va hodisalar haqida ma'lum bilimlarga ega bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda klassifikasiyaning bu usulida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola predmetlarni o'ziga ma'lum guruhiarga ajratish qobiliyati osonlik bilan aniqlanadi. Tadqiqotchi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola bilan birga tadqiqot natijalarini muhokama qilganda uning tafakkur jarayonlari xususiyatlari haqida

qo'shimcha ma'lumot oladi. Yuqorida qayd etilgan usullardan tashqari umumlashtirish geometrik figuralarni klassifikatsiya qilish metodikasi ham qo'llanishi mumkin. Tajriba o'tkazish uchun 3 belgisiga: rangiga, shakliga, kattaligiga ko'ra farqlanadigan geometrik figuralar tasvirlangan 2ta to'plam (har birida 24 tadan kartochka bor) kerak bo'ladi. Geometrik figuralarning birinchi to'plami erkin jadval sifatida bo'lishi mumkin. Ikkinchi to'plamda xuddi u intellekt figuralar tasvirlangan alohida kartochkalar bo'lib, bolaga belgilari bo'yicha guruhlash uchun beriladi.

Tajriba boshida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga namuna 30 soniya ko'rsatiladi va unga berilgan alohida kartochkalarni o'xshash belgisiga ko'ra 2 guruhga ajratish kerakligi aytiladi.

Tadqiqot qarorida ajratishga ketgan vaqt, xatolar harakteri qayd etiladi. Tajriba jarayonida umumlashtirish qobiliyatini shakllantirish bo'yicha o'rgatuvchi dars elementlaridan foydalanish mumkin.

Aqlni o'lchashning Veksler shkalasi (WISC)

Intellektni tekshirishning eng keng tarqalgan metodlaridan biri amerikalik psixolog va psixiatr D.Wechsler tomonidan ishlab chiqilgan bolalar intellektini o'lchash shkalasidan /Wechsler Intelligence Scale for children WISC/. Bu metodikaga 5 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni tekshirish uchun o'zgartirishlar kiritildi. /WPPSI/ Rossiyada birinchi bo'lib Veksler shkalasi V.M.Bexterev nomli Leningrad psixonevrologik ilmiy tadqiqot institutida moslashtirgan.

Metodika B.G.Anan'ev maktabi psixologlari tomonidan intellekt taraqqiyotini uzoq yillar o'rganishda, jumladan, bolalarda psixik taraqqiyotdan chetga chiqishlar va orqada qolishlarni differensial-diagnostika qilishda keng qo'llanilgan.

WISC moslashtirilgan variantining subtestlarini keltiramiz. Tadqiqot o'tkazishda maxsus qarordan foydalanish zarur.

Vebral shkala

1. Umumiy bilimdonlik subtesti. Nisbatan sodda ma'lumotlar va bilimlardan xabardorlikni tekshiradi. 30 ta savol beriladi, har bir to'g'ri javob 1 bali bilan baholanadi.

Masalan: haftada kecha kun bor... Yilning to'rt faslini ayting... Oshqozon nima uchun kerak...

2. Umumiy ziyraklik subtesti. Iboralarning mazmunini to'liq tushunishni, fikrlash qobiliyatini, ijtimoiy me'yordaarni tushunishni baholaydi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan boladan tasvirlangan vaziyatda mumkin bo'lgan yechimlar haqida javob berish talab qilinadi. 14 ta savol beriladi, javobning aniqligiga qarab baho qo'yiladi: 0, 1, 2.

Masalan, Barmog'ingizni kesib olsangiz nima qilasiz? ... Do'konga non olish uchun kelsangiz, u yerda non yo'q ekan, siz nima qilasiz ... Nima uchun jinoyatchilarni qamoqqa qamaydilar

3. Arifmetik subtest. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola diqqatining to'planishini, sonli ifodalarni tez yechishini tekshiradi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan boladan arifmetik masalalar seriyasini og'zaki echish talab qilinadi. Javobning aniqligiga, ketgan vaqtga bog'liq ravishda baho qo'yiladi.

Masalan: Sizda 8 ta koptok bor edi, yana 6 ta sotib olib berishdi, koptoklar sizda nechta bo'ldi

4. O'xshashlikni topish subtesti. Tushunchalarning shakllanganligi, klassifikatsiya, taqqoslash, mavhumlashtirish qobiliyatlari tekshiriladi. 16 juft tushunchalar beriladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan boladan tushunchalar jufti o'rtasidagi umumiylikni topish talab etiladi. Umumlashtirish darajasiga bog'liq ravishda 0 dan 2 balgacha baho qo'yiladi.

Masalan: "Kuchuk-mushuk" tushunchalari o'rtasidagi umumiylikni topishda javoblar quyidagicha baholanishi mumkin: Tez chopishda, chaqqon /0 ball/; 4 ta oyog'i, juni, quloqlari bor / 1 ball/; Hayvonlar, tirik mavjudot, sut emizuvchilar /2 ball/.

5. So'zlar subtesti. Og'zaki tajribani o'rganishga mo'ljallangan / so'zning ma'nosini aniqlash va tushunish/. 40 ta so'z ma'nosini tushuntirish uchun beriladi. 0 dan 2 ballgacha baho qo'yiladi:

6. Sonlar qatorini takrorlash subtesti. Qisqa muddatli xotira va diqqatni o'rganishga mo'ljallangan, ikki qismdan iborat:

Sonlarni to'g'ri va teskari tartibda eslab qolish va takrorlashdan iborat. o'ng va teskari takrorlashlarni baholash qatordagi to'g'ri esga tushirilgan raqamlar soniga teng. Subtestning umumiy bahosi o'ng va teskari takrorlashning umumiy bahosiga teng.

Noverbal shkala

Noverbal shkalaning qo'zg'atuvchi materiali 12- ilovada keltiriladi.

1. Etishmaydigan qismni topish subtesti. Ko'rish idroki xususiyatlarini, kuzatuvchanlikni, muhim qismlarni farqlay olish qobiliyatini o'rganishga mo'ljallangan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga 20 ta rasm ko'rsatiladi, ularning har birida yetishmaydigan qismni yoki mos emaslikni topish zarur.

To'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi /15 soniyadan kam vaqtda/.

2. Rasmlar ketma-ketligi subtesti. Parchalarni mantiqiy bir butun qilib birlashtirish, vaziyatni tushunish hodisalarni oldindan bilish qobiliyatlarini tekshirishga mo'ljallangan. Rasmlarning II seriyasi beriladi. Har bir seriyada rasmlar syujet bilan birlashtirilgan bo'lib, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola syujetga mos ravishda ularni ma'lum ketma-ketlikda joylashtirish kerak. Topshiriq vaqtga va to'g'ri bajarilishiga bog'liq ravishda baholanadi.

3. Koss kubiklari testi. Metod qismlardan butunni birlashtirish qobiliyatini, sensomotor koordinatsiyani tekshirishga qaratilgan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola berilgan namunaga qarab har xil rangli kubiklardan shunday figuralar yasashlari kerak. 10 figura beriladi. Har bir topshiriq bo'yicha vaqt chegaralangan bo'ladi. Baholar aniqlikka va ketgan vaqtga bog'liq bo'ladi.

4. Figuralar yasash subtesti. Yo'nalishiga ko'ra 9 subtestga o'xshaydi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga ma'lum ketma-ketlikda 4 ta figuraning qismlari beriladi. /"maneken", "ot", "odam boshi", "mashina"/. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga bu qismlardan nima yasash kerakligi aytilmaydi. Topshiriqni to'g'ri bajarish va ketgan vaqtga bog'liq holda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga baho qo'yiladi.

5. Raqamlarni shifrlash subtesti. Ko'rish-harakat malakalarini o'zlashtirganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan.

Topshiriq har bir raqamning tagida katakchaga ularga mos belgini yozishdan iborat. Bajarish vaqti 120 soniya. To'g'ri shifrlangan raqamlar soni - ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaning bahosiga teng bo'ladi. Dastlab "A" shakl, so'ngra "V" shakl ko'rsatiladi.

6. Labirintlar subtesti. Bu yo'nalishiga ko'ra II subtestga o'xshaydi. 9 ta labirintni o'z ichiga oladi, "chiqish" vaqti hisobga olinadi.

WISC metodikasida qo'shimcha subtestlar /"raqamalarni eslab qolish" va "labirintlar"/ topshiriqning asosiy guruhlar bilan birga o'tkazilishi mumkin. Bu holda intellekt koeffitsienti /IQ/ni aniqlashda ularning ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

Test natijalarini qayta ishlashda verbal va noverbal subtestlarning har biri bo'yicha olingan ballar yig'indisi topiladi. "Olingan" ballni shkala ballariga aylantirish jadvaliga muvofiq har bir alohida subtestlarni bajarish natijalarining standart baholarini olish mumkin "Olingan" ballar yig'indisi bo'yicha /testning alohida verbal va noverbal qismlari bo'yicha/ va jadvaldagi natijalar bo'yicha IQ-verbal shkala baholari, IQ-noverbal shkala baholari va umumiy IQ ko'rsatkichlari aniqlanadi. Veksler testi bo'yicha IQ ko'rsatkichlari talqini yosh me'yordaarini hisobga olgan holda o'tkaziladi. 1963-yilda 4-6,5 yoshli bolalarning intellektini tekshirish uchun shkala ishlab chiqildi. /Wechsler Preschool and Primary Scale of intelligence, WPPSI/. Intellekt shkalasining bu varianti, bizning mamlakatimizga moslashtirilmagan.

WPPSI shkalasi subtestlarining tarkibi quyidagicha:

Verbal subtestlar:

1. Bilimdonlik
3. So'z boyligi
5. Arifmetika
7. o'xshashini topish
9. Tushunish
11. Gaplar (o'xshash)

Noverbal subtestlar

2. Hayvon uyi
4. Rasmlarni tugatish
6. Labirintlar
8. Geometrik sxemalar
10. Koss kubiklari

"Hayvon uyi" subtesti raqamlarni shifrlash subtestiga o'xshaydi. Bu topshiriqni bajarishda bolaga kuchuk, jo'ja, baliq va mushuk tasvirlangan karta ko'rsatiladi.

Kartaning yuqori qismida turli rangdagi silindr rasmcha - kalit / hayvon uyi/ joylashtiriladi. Bola rasmlarga mos hayvon uylarini qo'yib chiqishi kerak. Bolaga topshiriqni to'g'ri bajarganiga va ketgan vaqtga bog'liq ravishda baho qo'yiladi.

“Geometrik sxemalar” subtestida rangli qalamlar yordamida 10 ta sodda tasvirni chizish kerak.

“Gaplar” subtesti sonlar qatorini takrorlash subtestiga o‘xshaydi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bola eksperimentatorning orqasidan aytilgan gaplarni takrorlashi kerak.

WISC, WPPSI shkalasi subtestlari birgalikda intellekt funksiyalari xususiyatlari haqida, turli omillar ta‘sirida ularning rivojlanish xususiyatlari haqida bilib olish imkonini beradi.

Ayzenk verbal testi

Ko‘rsatma: “Topshipiqni bajarish uchun sizga 30 daqiqa vaqt beriladi: bir topshipiq ustida yzoq o‘ylanmang. Topshipiqni yecha olmasangiz, yaxshisi keyingisiga o‘ting.

Lekin darrov taslim bo‘lmang, ozpoq urinib ko‘rsangiz, ko‘pchilik topshiriqlarni yechishingiz mumkin. Topshipiq haqida o‘ylash yoki urinishdan voz kechib, keyingisiga o‘tishni o‘zingiz hal qiling. Esingizda tutingki, topshiriqlarning keyingi seriyalari umuman qiyinlashib boradi. Har bir odam berilgan topshiriqlarning bir qismini echishi mumkin. Lekin 30 daqiqada hech kim hammasini yecha olmaydi.

Topshiriqlarning javobi bir son, harf yoki so‘z bo‘lishi mumkin. Ba‘zan bo‘lishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlardan tanlashga to‘g‘ri keladi, ba‘zan javobni o‘zingiz o‘ylab topishingiz kerak. Javobni ko‘rsatilgan joyga yozing. Agar siz topshipiqni yecha olmasangiz, uni tavakkal qilib yozmang.

Sizda biror fikr tug‘ilib, to‘g‘riligiga ishonmasangiz javobni yozib ko‘ring. Testda chigal topshiriqlar yo‘q, lekin har gal bir necha javoblarni qapab chiqishra to‘g‘ri keladi. Topshipiqni yechishga kirishishdan oldin, sizdan nima talab qilayotganligini tushunib oling. Siz topshipiqni to‘g‘ri tushunmasdan uni yechishga kirishsangiz, vaqtingizni bekorga o‘tkazgan bo‘lasiz”.

III BOB. KO'RISH NUQSONIGA EGA BOLALARNI SHAXS XUSUSIYATLARI


3.1. Ko'rish nuqsonlarida shaxs va shaxslararo munosabat

Shaxs tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmaganlar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Homo sapiens» — «aqli zot» tushunchasini o'zida ifoda eguvchi jonzotnish paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildai oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darvin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Individ sifatida dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatining mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aql-hushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi, qo'llarining shakli shamoyili mehnat qurollaridan foydalanish istiqbollarining mavjudligini ko'rsatadi. Yuqorida aytilganlarning barchasida chaqaloqning inson zotiga mansubligini ta'kidlanadi va bu fakt individ tushunchasida qayd etiladi. Buni quyidagi sxema asosida tushuntirish lozim.⁴³

⁴³ F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. -T., 2009



Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri – bu uning individualligidir. **Individuallik** deganda insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik kishining oʻziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yigʻindisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslasi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Individuallik individning boshqalardan farqlaydigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining oʻziga xosligi hamda uning qaytarilmasligidir. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini oʻzida mujassamlashtirgan odam yoʻq, inson shaxsi oʻz individualligi jihatidan betakrordir.

“Shaxs” va “individ” tushunchalari haqida B.G.Ananaev, A.N.Leontev, B.F.Lomov, S.YA.Rubinshteyn kabilar oʻz tadqiqotlarida alohida toʻxtalganlar. A.N.Leontev shaxsan individ tomonidan egalab olingan alohida fazilat, inson munosabatlari toʻlqinidagi sistemali “gʻayrihisiiy” fazilatlar egasi ekanligini taʼkidlagan. Shaxs sifatida kamolga erishmagan individ boʻladi. Bunga hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalarni misol qilishimiz mumkin. Ammo individni shaxsga

aylanishida qanday omillar mavjud. Rus defektologi S.L.Rubinshteyn: odam o'zidagi takrorlanmas xususiyatlariga ko'ra individualdir. Uni o'z atrofidaqlariga, borliqqa bo'lgan ongli munosabati, biror faol Individ bo'lib tug'ilgan insonni shaxsga aylanishi uchun nimalar zarur?


1. Ijtimoiylilik;

2. Ongga ega bo'lish;

3. Faollik;

4. Insonni falollikga undovchi narsa ehtiyojdir.

Shaxsning tuzilishi, shakllanishi, tarkib topishda u yashayotgan muhitning kishilik jamiyatining roli juda kattadir. Tashqi muhit inson shaxsining tarkib topishda muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi. Ikkinchidan, tashqi ijtimoiy muhim ta'sirining chuqurroq va mustahkamroq bo'lishiga odamning o'zi yordam beradi.



David G. Myers: "Tarixiy-evolyutsion yo'nalishi targ'ibotchisi sifatida shaxs rivojlanishida 2 ta omil; a) nasliy; b) ijtimoiy omillar muhim hisoblanishi ta'kidlangan. Shuningdek, shaxsni hayotdagi maqsadi - yashash uchun hayotdagi me'yoriy tenglikni saqlash bo'lib, uning individual xususiyatlari bir butunlikda shaxs tuzilishini tashkil etadi. Shaxsni tuzilishini va uni yuzaga kelishini bilmasdan turib usib kelayotgan inson shaxsini proektlashtirish va diagnostika qilish, shakllanishi uchun eng maqbul sharoit, samarali yo'llarini aniqlab olish qiyin masaladir. Inson shaxsi yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, o'zini o'rab turgan narsalar va ijtimoiy muhit bilan faol munosabat jarayonida tarkib topadi. Odamning ontogenetik tarraqqiyoti va shaxsning tarkib bo'lishida biologik va ijtimoiy omillar o'zaro munosabatga kirishib, tashqi ta'sir effektini ta'minlovchi kuchli ichki sharoitni yuzaga keltiradilar.

Shaxs yo'nalganligi – bu barqaror motivlar yig'indisi bo'lib, shaxs faoliyatini belgilaydi. Shaxs yo'nalganligi qiziqishlar, dunyoqarash, e'tiqod, intilish va idealda xarakterlanadi.

Qiziqish – bilish ehtiyojini namoyon formasi bo'lib, u yangi faktlar bilan tanishishga, hamda borliqni aniq, chuqur va aniq aks etishiga yordam beradi.

Dunyoqarash – insonning qarashlari tizimi bo'lib, unda insonni atrof-dagi dunyoga munosabati va bu dunyoda o'zining o'rnini anglash, kishilarga bo'lgan munosabati hayotiy pozitsiyasi, ideal-lari, qadriyat-lari, e'tiqodlari va prinsiplari namoyon bo'ladi.

E'tiqod – insonni anglangan ehtiyoji bo'lib, u faoliyatga undaydi.

Ideal – bu namuna, intilishlarning eng yuqori chiqqisi.

Intilish – birlamchi qiziqish, ehtiyojni hissiy kechirilishi, obyektga intilishidir.

Inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun atrof-muhit, tabiat, kishilar bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Ularni o'zgaradi, o'z faoliyatini yo'naltiradi. Ijtimoiy qonun-qoidalar, muhit, jamiyat talablariga rioya qilgan tarzda o'z - o'zini yo'altiradi, o'z oldiga maqsad qo'yadi, maqsadga intilish yo'lida uchraydigan qiyinchilik va to'siqlarni engib o'tishga harakat qiladi. Maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyatini amalga oshirishda moddiy, ma'naviy olam bilan faol tarzda muloqotga kirishadi. Ehtiyojlar asosida odamda faoliyatning motivlari, muayyan ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq ichki turtki kuchlar paydo bo'ladi. Motiv odamni faoliyatiga, faolikka yo'naltiruvchi sababdir. Shaxs inson aniq maqsad sari intiladi, muayyan ishni bajaradi, uni natijasiga ega bo'lishga, uni qo'lga kiritishga o'z-o'zini yo'naltiradi.

Shaxsning faolligining yo'nalishi turli ehtiyojlar: kelib chiqishi, predmetiga ko'ra a) tabiat - inson o'zini, avlodini saqlab qolishdagi faolli-gi; b) madaniy-odamning insoniyat madaniyati mahsuliga bog'liq bo'lgan faoliyati; predmetiga ko'ra: v) moddiy – ovqatlanish kiyinish, uy-joy, maishiy turmush ash-yolari; g) ma'naviy - ma'naviy madaniyatni o'zlashtirib olish, yaratish, o'qish, ilm, san'at, musiqa, kinofil'm, teatr va boshqalar asosida boshqariladi, amalga oshiriladi.⁴⁴

⁴⁴ 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Enmy Csocsan, Solveig Sjostedt. 2008, Hungary Finland. 88-

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda yuqoridagi holatlar qanday, qay tarzda kechadi? Shu narsa ma'lumki, ko'zi ojiz bolalardagi o'zlarini baholash xususiyatlarini bir muncha kechroq yuzaga kelar ekan.

Lekin yuqori sinflarga kelib, ko'zi ojiz bolalarda o'zlariga tanqidiy qarash holatlari yuzaga kela boshlar ekan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ustida qilingan tadqiqotlarning ko'rsatishicha bu toifa bolalarda quyidagicha kechar ekan.

➤ yillar o'tishi bilan me'yorl bolalarda ham, ko'rish nuqsoniga ega bolalarda ham o'ziga-o'zi baho berishlari obyektiv holat kasb etib borar ekan;

➤ ko'rish nuqsoniga ega bolalarda o'z-o'zlariga baho berishlari barcha o'rganilgan yosh davrlarda o'zining adekvat emasligi bilan me'yorl bolalardan farq qiladi;

Shu narsa aniq bo'ldiki, bu toifa bolalarda ham boshqa toifa nogironlar singari o'ziga-o'zi baho berishlari adekvat mos emas ekan. Ya'ni ko'pchiligi o'z imkoniyatlariga ortiq, kam baho berar ekanlar.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'z vaqtida faoliyatga kiritish ularni jamiyatimizning teng huquqli a'zolari sifatida o'zlariga va Vatanga xizmat qilishlarini ta'minlaydi. Ko'zi ojizlar va zaif ko'ruvchilar faoliyat yordamida atrofda narsalar va voqe'lik bilan bevosita munosabatda bo'ladilar. Mehnat jarayonida bilim, tajriba va malakalar shakllanadi. Atrof-muhit va odamlar bilan munosabatda bo'ladilar. Ularda aqliy va jismoniy faoliyat yordamida axloqiy shaxsiy sifatлари: mehnat-sevarlik, iroda, mustaqillik, hamjihatlik, tartib-intizom, javobgarlik paydo bo'ladi, ya'ni shaxs sifatida shakllanadi. Eng muhimi mehnat jarayonida, ayniqsa jamoadagi mehnatda yuqoridagi sifatlar yanada mustahkamlanadi.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarni mehnat faoliyatiga kiritish va moslashishlari uchun quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish ijobiy natijalar beradi:

1. Ko'rish nuqsoni va uning jismoniy va ruhiy asoratlari to'liq hisobga olish mehnat turi va kasb turini tanlashda ota-ona va kasb tanlashga yordam beruvchi mutaxassislarning diqqat markazida bo'lishi zarur.

2. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaning mehnat faoliyatiga faol ravishda kirishi uchun mehnat faoliyatining dastlabki bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘ziga, hayotga, mehnat faoliyatiga ishonchsizlikni, salbiy munosabatni yengish. Bu ruhiy to‘siq depressiya yoki frustratsiya tarzida paydo bo‘lishi mumkin. Bu bosqichda ko‘r shaxs «men endi ishga yaroqsizman, qo‘limdan hech ish kelmaydi», kabi salbiy fikrlar tarzida namoyon bo‘lishi mumkin.

Ko‘rish nuqsoniga ega kishilarda yuqorida keltirilgan salbiy shas sifatlarini bartaraf etish uchun ular bilan qator defektologo-pedagogik tarbiyaiy tadbirlar va treninglar o‘tkaziladi.

3. Ko‘zi ojizlar iloji boricha kichik yoshlardan boshlab oldiy mehnat malaka va ko‘nikmalariga o‘rgatib boriladi. Umuman mehnat tarbiyasi va kasb tanlash ishlari qancha erta boshlansa shuncha, ijobiy samara beradi. Buning uchun maxsus maktab-internatlarda kasb tanlash ishlari bilan shug‘ullanish ishlari darajasini yuqori ko‘tarish shu kunning dolzarb vazifasidir.

4. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan boshlang‘ich sinflardan boshlab, har bir dars va darsdan tashqari jarayonlarda ijtimoiy mehnatga qiziqish uyg‘otish har bir o‘qituvchining burchidir.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda «O‘z-o‘ziga nisbat baho» turli sifatlar va shaxsning o‘rtgirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi mumkin. Ya‘ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta‘sirida — aksincha, pastlab ketishi mumkin. Masalan, maktabda bir fan o‘qituvchisining ko‘zi ojiz bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o‘z-o‘ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o‘qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya‘ni, bu baho ko‘proq bolaning o‘ziga bog‘liq bo‘lib, u subyektiv xarakterga egadir. O‘z-o‘ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to‘g‘ri bo‘ladi, balki u o‘ta past yoki yuqori ham bo‘lishi mumkin.

O‘z-o‘ziga bahoning past bo‘lishi ko‘pincha atrofdegilarning ko‘zi ojiz bolaga nisbatan qo‘yayotgan talablarining o‘ta ortiqqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e‘tirozlarning doimiy tarzda biddirilishi, ishda, o‘qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida

hosil bo'lishi mumkin. Hattoki, bunday holat suitsidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiya-sini ham keltirib chiqarishi mumkin)

O'z-o'ziga baho o'ta yuqori ham ko'zi ojiz bola xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham bolaning yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik holat «noadekvatlik effekti», deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, uyquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o'zgalarda, deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham (masalan, «halaqit berdi-da», «falonchi bo'lmaganida» kabi bahonalar ko'payadi). Ya'ni, nimaiki bo'lmasin, aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit aybdor.⁴⁵ Demak, o'z-o'ziga baho realistik, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak.

Realistik baho ko'zi ojiz bolani o'rab turganlar — ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning o'rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi — referent guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-ona, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, hayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi mumkin. Shuning uchun ko'zi ojiz bolalar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini hosil qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

⁴⁵ 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan, Solveig Sjostedt. 2008, Hungary Finland. 38-39 pages. mazmun mohiyati olingan

Shunday qilib, o'z-o'ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati ko'zi ojiz bolalarni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi.

Ko'zi ojiz bolalarda **o'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga** quyidagilar kiradi:

- o'z-o'zi bilan muloqot;
- o'z-o'zini ishontrish;
- o'z-o'ziga buyruq berish (zarur holatlarda o'zini qo'lga olish va boshqalar olish sifati);
- o'z-o'ziga ta'sir yoki augosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o'zida ma'qul ustanovkalarni shakllantirish);
- ichki intizom – o'z-o'zini boshqarishning muhim mezon, har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

Demak, shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarining obyektivligiga bog'liq tarzda o'z-o'zi bilan mu-loqatga kirishib, jadvaldagiga muvofiq shaxs o'zini nazorat qila oladi. Shuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydi-ki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham, o'ziga holis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan xatolik uchun o'z «ich-etini yeb tashlaydi». Bu o'sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

Maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqson bo'lgan bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni 3 bosqichga ajratish mumkin:

- birinchi davr - 3- 4 yosh oralig'ida bo'lib, emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir;
- ikkinchi davr - 4-5 yoshni tashkil qilib, axloqiy o'z-o'zini boshqarish shakllanadi;
- uchinchi davr esa, shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi

mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqat, kutish, taqlid qilish jarayonida, kattalarning maqtov va tanqidlari ta'sirida o'tadi hamda mustahkamlanadi. Bu baho va maqtovlari ko'zi ojiz bolaning muvaffaqiyatga erishishiga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqson bo'lgan bolalarda muloqatning yangi motivlari yuzaga keladi, bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqat motivlari – bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolar bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivi esa, u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga astasekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq o'qish motivlari kiradi.

Maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqson bo'lgan bolalar shaxsini tadqiq qilish juda murakkab jarayondir, chunki ko'pgina shaxs metodlari, katta yoshli odamlarga mo'ljallangan va bolani o'z-o'zini tahlil qilish imkoniyatlariga asoslanmagan. Bundan tashqari psixodiagnostika yordamida o'rganaladigan shaxs sifatleri maktabgacha tarbiya yoshida to'liq shakllanmagan va beqarordir.

Ko'zi ojiz bolalar psixodiagnostikasi ixtiyorida faqat maxsus projektiv metodlar, ya'ni bolani yutuqqa erishish motivlari va xavotirlanish holatlarini o'rganish metodlari mavjuddir yoki shaxs sifatlarini baholashda ekspert metodlaridan foydalanish mumkin. Bunda ekspert sifatida bolani yaxshi biladigan kattalar, tarbiyachilar, ota-onalar maydonga chiqadilar. Faqat ana shunday tarzda bolani shaxs sifatlariga baho bera olish imkoniyatlariga ega bo'lamiz.

Masalan, quyidagi metodikamiz ko'zi ojiz bolalardagi yutuqqa erishish motivining taraqqiyot darajasini baholashga mo'ljallangan. Bunda maktabgacha tarbiya yoshidagi ko'zi ojiz bolalarning har xil vaziyatlardagi faoliyatida muvaffaqiyatga faol intilishlari tashxislanadi. Yutuqqa erishish motivi shaxsga tug'ma holatda berilmaydi. Balki maktabgacha tarbiya yoshida shakllanib borib, bola maktabga qabul qilinayotgan davrga kelib, bolaning beqaror shaxs sifatiga aylanishi mumkin. 6-7 yoshli bolalarda, ushbu ehtiyoj ularning individual sifatlarida bir-biridan juda katta farqlanadi. Bunda yutuqqa erishish motivi kuchli bo'lgan bolalar asosan hayotida juda katta muvaffaqiyatlarga

erishadilar, agar ushbu ehtiyoj sust rivojlangan bo'lsa, u holda omadsizliklardan qochish motivi bolalarda yuqori o'rinda turadi.

Shaxslararo munosabatlarni o'rganish metodlari. "Bola atrofidagi odamlar bilan qanday munosabatda" metodikasi. Ushbu metodik savolnoma bolaning kommunikativ sifatlarini baholashga mo'ljallangan. Ushbu metodik savolnoma yordamida bolaning atrofidagi odamlar bilan kommunikativ qobiliyatlari tashxislanadi va bu quyidagi mezonlarga asoslanadi (Mehribonlik, odamlarga e'tiborliligi, rosto'yiligi, mu'loyimligi, muloqatchanligi, saxiyligi, hamisha birovlariga yordam berishga tayyorligi, haqiqatgo'yiligi, hayotiy quvnoqligi, mas'uliyatligi).

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bola shaxsi va shaxslararo munosabatlarini tashxis qilish

Maqsad: Pedagog psixologlarni maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning shaxsi va shaxslararo munosabatlarni tashxis qilishga o'rgatish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni 3 bosqichga ajratish mumkin:

- birinchi davr - 3- 4 yosh oralig'ida bo'lib, emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir;

- ikkinchi davr - 4- 5 yoshni tashkil qilib, axloqiy o'z-o'zini boshqara olish bilan bog'liq;

- uchinchi davr esa, shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatlarini shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, taqlid qilish, jarayonida, kattalarning maqtov va tanqidlari ta'sirida o'tadi hamda mustahkamlanadi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishiga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Bog'cha yoshidagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi, bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari – bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolar bilan

bog'liq, ishbilarmonlik motivi esa, u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq o'qish motivlari quyidagi: 3-3,5 yoshlar oralig'ida o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradi va bu munosabat, asosan o'zlariga beradigan baholar asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa, o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek, o'zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. O'z-o'zini anglashi layoqati katta bog'cha yoshida rivojlanib, avval u qanday bo'lgani va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab ko'rishga harakat qiladilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini tadqiq qilish juda murakkab jarayondir, chunki ko'pgina shaxsni tadqiq qilish metodlari. katta yoshli odamlarga mo'ljallangan va bolani o'z-o'zini tahlil qilish imkoniyatlariga asoslanmagan. Bundan tashqari psixodiagnostika yordamida o'rganaladigan shaxs sifatleri maktabgacha tarbiya yoshida to'liq shakllanmagan va beqarordir.

Bolalar psixodiagnostikasi ixtiyorida faqat maxsus proektiv metodlar ya'ni bolani yutuqqa erishish motivlari va xavotirlanish holatlarini o'rganish metodlari mavjuddir yoki shaxs sifatlarini baholashda ekspert metodlaridan foydalanish mumkin. Bunda ekspert sifatida bolani yaxshi biladigan kattalar, tarbiyachilar, ota-onalar maydonga chiqadilar. Faqat ana shunday tarzda bolani shaxs sifatlariga baho bera olish imkoniyatlariga ega bo'lamiz.

Birinchi metodikamiz bolalardagi yutuqqa erishish motivining taraqqiyot darajasini baholashga mo'ljallangan. Bunda maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning har-xil vaziyatlardagi faoliyatida muvaffaqiyatga faol intilishlari tadqiq qilinadi. Yutuqqa erishish motivi shaxsga tug'ma holatda berilmaydi. Balki maktabgacha tarbiya yoshida shakllanib borib, bola maktabga qabul qilinayotgan davrga kelib, bola beqaror shaxs sifatiga aylanishi mumkin. 5-6 yoshli bolalarda, ushbu ehtiyoj ularning individual sifatlarida bir-biridan juda katta farqlanadi. Bunda yutuqqa erishish motivi kuchli bo'lgan bolalar asosan hayotida juda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Agar ushbu ehtiyoj sust

rivojlangan bo'lsa, u holda omadsizliklardan qochish motivi bolalarda yuqori o'rinda turadi.


“Harakatdagi tanlov” metodikasi

Ushbu metodikaning maqsadi – maktabgacha tarbiya yoshdagi ko'zi ojiz bolalarning shaxslararo munosabatini guruhlarda o'rganish va baholashdan iborat. Ushbu metodika bolalar uchun mo'ljallangan sotsiometrik metodlardan biri hisoblanadi. Guruhdagi har bir bolaga uni qiziqtiradigan va o'zida bo'lishni xohlaydigan predmetlar beriladi. Bu har xil o'yinchoqlar, rasmlar hamda shirinliklar bo'lishi mumkin. Bola quyidagicha ko'rsatma oladi: senga berilgan 3 ta predmetning o'zingga yoqadiganini eng yaqin o'rtoq, deb hisoblagan odamingning shkafiga qo'y, keyingi predmetni esa o'rta o'rtoq'ing shkafiga, oxirgisini esa o'zing bilan unchalik o'rtoq bo'lmagan odamning shkafiga qo'y.

Har bir bola ushbu predmetlarni tarqatib bo'lgandan so'ng, tadqiqotchi har bir bolada qancha predmet yig'ilgani haqida xulosa chiqaradi va bolaning guruhdagi sotsiometrik o'rni aniqlanadi. Bu quyidagi formula bilan ishlab chiqiladi: bunda S - bolaning o'rtoqlari bilan shaxslararo munosabatdagi o'rni, K - esa bolaning o'rtoqlaridan olgan predmetlar miqdori, n - guruhda testda qatnashgan bolalar soni.

Psixogeometrik test

Yo'riqnoma. Testda mavjud bo'lgan 5ta shaklga nazar soling (paypaslash yo'li bilan ham aniqlash mumkin). Ushbu shakldan qay biri sizga yaqinroq? Tanlang! Ya'ni, hech qanday matematik tahlillarsiz, o'zingiz yoqtirgan shaklni tanlang. Shakl tanlash qiyinchilik tug'dirsa unda 5 ta shakllar ichida ilk bora nazar solganda qay biri e'tiboringizni birinchi bo'lib tortgan bo'lsa, ushbu shaklga №1 tartib raqamini qo'ying.



| Shakl | Psixologik ta'rif | |
|-------|--|---|
| 1 | <p>Ijobiy Uyushgan, tashkilotchi Detallarga e'tibori kuchli Mehnatsevar Ratsional Zukko Idrokli Tirishqoq, qat'iy Qaror qabul qilishda qat'iy Sabrli Tejamkor</p> | <p>Salbiy Sinchkov, mayda gap Mehnatsevar Sovuq O'ta ehtiyotkor Tasavvuri boy emas Qaysar Konservativ Qarshilik ko'rsatuvchi Qaror qabul qilishda ikkilanuvchi Ziqna</p> |
| 2 | <p>Ijobiy Yetakchi qobiliyatiga ega Mas'uliyatni o'z zimmasiga yuklay oladigan Mard, ikkilanmaydigan Maqsad sari olg'a intiluvchan Ishning ko'zini biladigan Kurashchan, g'alabaga intiluvchan O'ziga ishonchi kuchli Jo'shqin Shuhratparast</p> | <p>Salbiy Xudbin O'zini o'ylaydigan E'tirozlarni qabul qila olmaydigan Sabrsiz, boshqalarni gapini bo'ladigan Ayyor, makkor O'ziga ishongan Mavqeparast, amalparast Shiddatli</p> |
| 3 | <p>Ijobiy Aktiv, extirosli Izlanuvchan Qiziquvchan Yangiliklarni tez qabul qila oladigan Ta'sirchan Uddabshron Manmanlikga berilmagan</p> | <p>Salbiy Qizg'in Sarosimaga tushib qoluvchi Bemantiq O'zgaruvchan Ishonuvchan Ta'sir o'tkazsa bo'ladigan Emotsional chidmasiz O'zini qadrini bilmaydigan bemulohaza</p> |

| | | |
|---|--|--|
| 4 | Ijobiy Do'stona Hayrixoh Mehribon Muloyim, xushfe'l Qo'llab-quvvatlovchi Vafodor Rahmdil Sahiy, muruvvatli Boshqalarni ishontira oladigan Ishonuvchan Bexavotir Mojarosiz | Salbiy Talabsiiz, yon beradigan Beg'am, xiraxandon Ko'p gapiradigan, g'iybatni xush ko'radigan O'zini o'zi qoralaydigan Isrofgar Boshqalarni his tuyg'usini boshqara oldaigan Ishyoqmas Maqsad sari intilmaydigan «Nimjon» siyosatchi Qat'iyatsizlik |
| 5 | Ijobiy Xayotga ijodiy yondashadi Hayolparast, kelajakka intiluvchan Sezuvchan Ongli, zukko Ekspressiv To'g'riso'z Yangiliklarga intiluvchan Hayotdan xursand | Salbiy Uyushmagan Tejamsiz Mantiqsiz Rejasiz Ajibparast Yenglitak Kayfiyati, xulqi va muomalasi tez tez almashib turadigan Ishonuvchan |

Tayanch so'zlar va tushunchalar

1. O'z-o'ziga baho berish – shaxsning o'z-o'ziga baho berishi tushuniladi.

2. Shaxsning yo'nalganligi – shaxsning faoliyatini yo'naltirib turadigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan bog'liq bo'lmagan barqaror motivlar majmui tushuniladi.

3. Shaxsning qiziqishlari – qiziqish biron-bir sohada to'g'ri mo'ljal olishga, yangi faktlar bilan tanishishga, voqelikni ancha to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivlardir.

Nazorat savollari

1. Shaxs tushunchaning mohiyatini izohlang.
2. Individ, shaxs, individuallik tushunchalarining mazmunini asoslang.
3. Shaxs faolligi tushunchalarining mohiyatiga nimalardan iborat?
4. Shaxs shakllanishiga tasir etuvchi omillarni aniqlang.
5. Shaxsning psixologik tuzilish modellari tahlilini izohlang.
6. Ko'rish nuqsonlarida shaxs va shaxslararo munosabatlar qanday namoyon bo'ladi?
7. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning shaxsiy xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
8. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni shaxslararo munosabatga kirishish xususiyatlarini o'rganish boyicha qanday ma'lumotga egasiz?

3.2 Ko'ruv nuqsonida faoliyat

Odam tabiati jihatidan faol mavjudotdir. U ma'lum faoliyatda bo'lmasdan yashay olmaydi. Inson faoliyatining turi juda ko'p bo'lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish mehnatdir. Odam har doim jamoada bo'lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o'zlashtiradi. har bir tirik organizmning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishiga qaratilgan bo'ladi. Anglab bo'lmaydigan va anglab bo'ladigan tabiiy yoki, madaniy, yoki ma'naviy, shaxsiy yoki ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar odamda har turli faollik tug'diradi. Ma'lumki, inson faoliyati jarayonida ma'lum bir mahsulotni yaratadi va undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanadi. Aynan faoliyatda erishilayotgan muvaffaqiyatini ta'minlovchi bir qator omillar mavjud. Shular jumlasiga obyektiv va subyektiv omillarni kiritish mumkin va u quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan "Psixologiya" qisqacha izohli lug'atida: Faollik - tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Psixik faollik bu o'zaro ta'sir shu asosda faollik ko'rsatish bilan tavsiflanadi"-deya ta'riflangan.

Faoliyat – insoniyatga xos ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli, paydo bo‘ladigan va tashqi olam bilan kishining o‘z-o‘zini bilishga, uni qayta qurishga yo‘naltirilgan faolligidir.

Harakat – maqsadga muvofiq yo‘naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig‘indisi. Harakat ongli faoliyatlarning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Q.Turg‘unovning “Psixologiya” terminlarining qisqacha ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘atida: Faollik – shaxsning ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o‘zlashtirishga qaratilgan muhim qobiliyatidir. Faollik ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo‘lib, kishining faoliyati mehnat, o‘qish, o‘yin, ijtimoiy hayot, sport, ijod kabilarda yaqqol namoyon bo‘ladi”- deb ko‘rsatiladi.

Faoliyat - inson hayotining uning voqelikka nisbatan faol munosabatining ro‘yobga chiqish shakli. harakat - maqsadga muvofiq yo‘naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig‘indisi ongli faoliyat tarkibiy qismlari va motivlaridan iborat.

V.M.Karimovanning “Psixologiya” o‘quv qo‘llanmasida quyidagicha ta’riflar uchraydi: **Faollik - shaxsning hayotdagi barcha hatti-harakatlarini namoyon etishni tushuntiruvchi kategoriyadir.** Faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir.

Mazkur ta’riflardan ko‘rinadiki, faoliyat tushunchasi o‘z tarkibiga shaxsning u yoki bu darajadagi faollik ko‘rsata olish darajalarini qamrab oladi va unga umumiy tarzda quyidagicha ta’rif berish mumkin: Faoliyat-anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) harakatlar yig‘indisiga aytiladi.

Adabiyotlarda faollik va harakat tushunchalari o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgani bilan ular o‘rtasidagi ayrim farqli belgilar kuzatiladi. Jumladan, faoliyatning mazmuni to‘la-to‘kis uni yuzaga keltirgan tabiiy-biologik va ma’naviy ehtiyojlar bilan shartlashmaganligi tufayli uning psixologik mexanizmi ham o‘zgacha negizda qurilishi mumkin.

Ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash uchun psixik narsa va hodisalarning xususiyat obyektiv xossalarni aks ettirishi, qo'yilgan maqsadga erishish yo'l-yo'riqlarini aniqlab berish lozim.

Uchinchidan, faoliyat shaxsning xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ruyobga chiqarish, yuzaga kelgan ehtiyojlarni va yordamga muhtojligi, faollikning imkonini beradigan boshqarishni uddalash lozim. Shuning uchun faoliyatni bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo'r berishsiz amalga oshirish juda mushkul. Aynan ikkala omil o'zaro uzviy aloqaga kirgandagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi.

Inson faolligining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, faoliyatning mazmuni ana shu faoliyatni yuzaga keltirgan ehtiyojning bir o'zi bilan belgilanmaydi. Agar ehtiyoj faoliyatga motiv sifatida madad berib, uni rag'batlantirib tursa faoliyatning shakli va mazmuni ijtimoiy sharoitlar, ijtimoiy talablar hamda tajribalar bilan belgilanadi.⁴⁶

Faoliyatning muhim xususiyatlari:


- Bilishga va muloqatga bo'lgan ehtiyojlar bilan yo'naltirilgan
- Kishilik jamiyati hamkorligidagi faoliyat asosida tashkil topgan, har bir harakat inson uchun
- Hamkorlikdagi faoliyatidagi o'rni ga ko'ra ahamiyatlidir
- Predmet va hodisalarni mavhumlashtirish, ular o'rtasidagi sababiy boqlanish va munosabatlarni
- Aniqlash mumkin.
- Tajribani berish va o'zlashtirish muloqotning ijtimoiy vositalari (til va boshqa belgilar tizimi) yoki moddiy madaniyat mahsulotlari orqali amalga oshiriladi.
- Mehnat qurollari yasab, uni keyingi avlodlariga ham qoldirishi mumkin. Turli predmet va qurollardan foydalanib, yangi qurol va vositalar yarata oladi.
- O'z ehtiyojlariga muvofiq tarzda tashqi dunyoni o'zgartiradi.

Inson faoliyati juda xilma-xildir. Unga mehnat, pedagogik, badiiy-ijod, ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini kiritish mumkin. Inson faoliyati tarkibini tahlil qilish, shuni ko'rsatadiki, faoliyat tashqi dunyoni

⁴⁶ 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan. Solveig Sjostedt. 2008, Hungary Finland. 118-119 pages. mazmun mohiyati olingan

ongli psixik aks ettirilishida namoyon bo'ladi. John n J. Rieser, Daniel H.Ashmedlarning (2008) ta'kidlashicha, har qanday faoliyatda inson o'z hatti-harakatlarini maqsadini anglaydi, kutilayotgan natijani tasavvur qiladi, sharoitni idrok qiladi va baholaydi, bajariladigan harakat tarkibini o'ylaydi, irodaviy zo'r beradi, faoliyatning borishini kuzatadi, muvaffaqiyat va maqlubiyatini o'ylaydi.

Quyidagi harakatning muhim tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.⁴⁷



Faoliyat bir tomondan, shaxsning rivojlanishi va sifatlarining namoyon bo'lish sharoiti, ikkinchidan, shu faoliyat subyekti bo'lgan shaxsning taraqqiyot darajasiga bog'liqdir. Barcha faoliyat turlari tarkibida uchta tarkibiy qismni: maqsad-motiv-harakatni ajratish mumkindir.

Maqsad - inson faoliyati so'nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo'ladi va ehtiyojlarini amalga oshirilishidir.

Motiv - kishini faoliyatga undaydi va unga mazmun baxsh etadi.

Ish-harakat galdagi bitta oddiy vazifani bajarishga qaratilgan, nisbatan tugallangan faoliyatning tarkibi. Faoliyatga qaratilgan maqsad ozmi-ko'pmi uzoq yoki yaqin bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu maqsadga erishish odam tomonidan ana shu maqsad sari harakat qilish davomida uning oldida tug'iladigan qator juz'iy maqsadlarni izchillik bilan hosil qilishdan iborat bo'ladi. Quyidagi harakatning muhim tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.

⁴⁷ F.I.Xaydarov. N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. -T., 2009. 69 bet.

Inson faoliyati narsalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan sari - harakatlardan tashqari: a) tananing fazoviy holati, b) qiyofaning saqlanishi (tik turish, o'tirish), v) joy almashish (yurish-yugurish), g) aloqa vositalari sa'i-harakatlari qatnashadi. Odatda aloqa vositalari tarkibiga; a) ifodali sa'i- harakat (imo-ishora, pantomimika), b) ma'noli ishora, v) nutqiy sa'i- harakatlarni kiritadi. Sa'i-harakatlarning ushbu turlarida ta'kidlab o'tilganidan tashqari mushaklar, hiqildoq, tovush paychalari, nafas olish a'zolari ishtirok etadi. Demak, narsalarni o'zlashtirishga qaratilgan harakatning ishga tushishi muayyan sa'i- harakatlar tizimining amalga oshirilishini anglatadi. Bu hodisa ko'p jihatdan harakatning amalga oshishi, shart-sharoitlarga bog'liq. Jumladan: a) kitobni olish qalamni olishdan boshqacharoq tarzidagi sa'i-harakatni taqazo etadi, b) avtomobilni haydash velosepedda uchishga qaraganda o'zgacha sa'i-harakat talab qiladi, v) ellik kilogramm shtangani ko'tarishda bir pudlik toshga qaraganda ko'proq quvvat sarflanadi, g) kartonga katta shaklni joylashtirish, qiyin kechadi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni John n J. Rieser, Daniel H. Ashmed tomonidan rivojlantirilgan yetakchi faoliyat nazariyasi asosida tahlil qilinganda uning faoliyat obyektlari kabi uning subyektlarining obrazlari qiyin shakllanishi bilan bog'liq o'ziga xosligi aniqlanganki, bu yetakchi faoliyat ichida yangi tuzilmalarning yuzaga kelishida kechikish va ularning yoshga oid rivojlanish davrlari cho'zilishi, uzayishida o'z ifodasini topgan.⁴⁸

Shunday, tashqi olam obyektlaridan atrofda kishilarni va o'zini kech ajratish yetakchi faoliyatning ilk shakli – muloqotning tiklanishiga ta'sir o'tkazgan, predmetli va o'yin faoliyatida aks etgan.

Faoliyatning psixologik xususiyatlarini tavsiflar ekan, A.A. Krilov «Faoliyatning tashqi vositalari moslashuvi» nomli ishida⁴⁹ faoliyatning muvaffaqiyatlilik va natijaliligiga ko'maklashadigan uchta tashqi vositasi haqida so'z yuritadi: insonning ko'rish, eshitish yoki boshqa sensor

⁴⁸ John n J. Rieser, Daniel H. Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008. 23-26 pages. mazmun mohiyati olingan

⁴⁹ Крылов А.А. Адаптация внешних средств деятельности//Дефектология. - М.: Проспект, 1998. ,б.467

kanal orqali axborot olishini ta'minlaydigan vositalar; o'zining harakat qobiliyatlari yoki ovozi vositasida axborot kiritishni ta'minlaydigan vositalar; nihoyat, faoliyatning u yoki bu turini tanlashni ta'minlaydigan vositalar.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarda axborot olish nafaqat tashqi, balki to'liq axborotni ta'minlamaydigan ichki biologik sabablar, shuningdek, rivojlanish va harakat sohasini egallashning qiyinligi bilan bog'liq. Bu ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda faoliyatning turli shakllari kechishining o'ziga xosligi va ularning umumiy psixik rivojlanishga ta'siri haqida fikr kiritishga imkon beradi. Biroq, birinchi navbatda, faoliyatning turli shakllarining ularning rivojlanishidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishdagi katta rivojlantiruvchi va kompensatsiyalovchi rolini ta'kidlash kerak.

Faoliyatning ko'rish nuqsonlarini kompensatsiyalashdagi rolli hozirda deyarli har bir tiflopsixologik tadqiqotda e'tirof etiladi. L.S.Vigotskiy buni madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida ko'rsatib berdi. John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed turli faoliyat shakllarini tashkil etish jarayonida ko'zi ojizlarni rivojlantirish, kompensatsiyalash va reabilitatsiyalash masalalari tashkil etadi. Ko'zi ojiz bolalarning ilk va maktabgacha yosh davrini genetik tadqiq qilish ko'zi ojiz maktabgacha yoshdagi bolalarning kompensator jarayonlari shakllanishi hamda ularning umumiy psixologik rivojlanishida predmetli-amaliy, o'yin va o'quv faoliyatining rolini yoritib berdi.⁵⁰

Faoliyatda yangi psixik tuzilmalar hosil bo'ladi va u bolaning eng yaqin rivojlanish zonasini yaratadi. Ko'rishda chuqur (og'ir) nuqsoni bo'lgan bolalar uchun faoliyatning turli shakllari sekin shakllanishi xos. Ularning hammasi faoliyat elementlari, ayniqsa, uning ijrochilik qismiga maxsus yo'naltirilgan o'qitishga muhtoj, zero ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarning harakat sohasi nuqsonga tobora yaqin va uning harakat sohasiga ta'siri eng kuchli bo'ladi. Shu sababli yetakchi faoliyatning faol va rivojlantiruvchi roli ko'p vaqtga cho'ziladi. Masalan, maktabgacha yoshda ko'zi ojizlarda yetakchi faoliyatning o'zaro almashinadigan

⁵⁰ John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception. Taylor & Francis Group, LLC 2008. 29-32 pages, mazmun mohiyati olingan

shakllari predmetli va o'yin sanaladi (L.I. Solntseva), kichik maktab yoshida esa – o'yin va o'qish (D.M. Mallaev). Uch yoshgacha davrda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishda sezilarli orqada qolishi kuzatiladi, bunga sabab atrof olam haqidagi noaniq tasavvurlarda, predmetli faoliyatning terlicha rivojlanmaganligi, sekin rivojlanadigan amaliy muloqot, makonda orientirlanish (mo'ljal olish) va mobillikdagi nuqsonlarda namoyon bo'ladigan ikkilamchi buzilishlar sanaladi.

A.M. Vitkovskaya shuningdek, predmetli harakatlar shakllanishi sur'ati sekinlashgani, ularni mustaqil faoliyatga ko'chirishning qiyinligini ta'kidlaydi. Maktabgacha yosh davrida predmetli faoliyatning tiklanishiga uning motivatsiyasi va predmetlarning funksional vazifalarini tushunishni ta'minlaydigan nutq faol kirishadi.

Tobora qiyin komponent ko'zi o'jizlarning manual qobiliyatlariga asoslangan ijrochilik funksiyasi bo'lib qolaveradi, bu predmetli harakatlarning takomillashmagani natijasidir. Predmetning funksional vazifasini tushunish va predmet bilan muayyan harakatni amalga oshirish imkoniyati o'rtasida katta tafovut kuzatiladi.

Bu yoshda predmetli harakatni egallash ko'p jihatdan ko'zi o'jiz bola va katta yoshli kishining hamkorlikdagi harakatiga asoslanadi, bunda katta yoshli kishining hamkorlik elementi yetakchi sanaladi. Biroq ko'plab ko'zi o'jiz bolalarning mustaqil xulqida N.A. Bernshteyn juda primitiv va bir xildagi harakatlar bilan makon maydoni bosqichi deb sifatida tavsiflagan harakatlar kuzatiladi. Ko'rib taqlid qilishning yo'qligi passif harakatlarni o'zlashtirish va takrorlash, ya'ni passiv harakatni propriotseptiv sezgirlik va harakatni bajarishni nazorat yordamida tahlil qilishni o'z ichiga olgan nisbatan murakkab akt sanaladigan harakatga taqlid hisobiga kompensatsiyalanadi. U anchagina rivojlangan o'z harakatlari va o'rgatuvchi harakatlarini tahlil va nazorat qilish malakasiga tayanadi.

Kichik yoshdagi ko'zi o'jiz bolalarning jismoniy va psixik rivojlanishi o'zaro bog'liqligini kuzatar ekan, E.Meier ko'rsatadiki, ko'zi o'jizlarning jismonan chaqqonligi cheklanganligi ularning psixik rivojlanish va aqliy qobiliyatlari darajasiga ta'sir etadi. Shu bilan bog'liq

holda ko'zi o'jizga imanipulyativ qobiliyatlarni rivojlantirishda yordam hamma vaqt ham ko'nikmalarga oddiy o'rgatishdan ko'ra ko'prog'ini anglatadi. Shu tufayli kichik yoshdashi ko'zi o'jizlarni va ko'zi o'jizkarlarni predmetli harakatlarga o'rgatish amaliyotida qo'llanadigan hamkorlikdagi va bo'lingan harakat metodi turldi operatsiyalarni va harakatlarni ajratish, yagona harakatni uni tashkil etadigan harakatlarga bo'lish va ularning ketma-ketligini o'zlashtirish jarayoni sanaladi.

Predmetli harakatlarga o'zini o'zi o'rgatish ilk va maktabgacha yoshda, odatda, o'yinchoqlardan foydalanish bilan bog'liq. Ular bilan oynash o'yinchoqlarning vazifalari bilan tanishishni talab etadi va o'yinchoqning o'zida harakat faolligi namunasi mujassamdir. Predmetli harakatlarni o'zlashtirishning qiyinligi shunga olib keladiki, hatto ko'pchilik katta yoshdagi bolalarning spontan xulqi predmetli-amaliy faoliyat darajasida qoladi.

A.N.Leontevning faoliyat psixologik nazariyasida predmetlilik yoki



predmet subyekt harakati qaratilgan obyekt sanalgan yadro sifatida ajratiladi. Ko'zi o'jizlarning predmetli harakatlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari faoliyatning barcha turlari, jumladan, o'yinning ham tiklanishiga ta'sir o'tkazadi.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi ko'zi o'jiz va

zaif ko'ruvchi bolalar uchun xuddi ko'radiganlari kabi tobora mustaqil faoliyat o'yin sanaladi. Rivojlanishi anomaliali bolalar hayotining senzitiv davrlarini qamrab olib, o'yin ularning reabilitatsiya imkoniyatlarini oshiradi, ko'zi o'jizligi bilan bog'liq nuqsonlarni korreksiyalar va kompensatsiyalashga ko'maklashadi. Bolaning eng rivojlanish eng yaqin zonasi kabi o'yin tiflopsixologiyada atrof olamni billsh usullarini har tomonlama rivojlantirish, shaxsda ijobiy sifatlarini tarbiyalash vositasi sifatida qoraladi. Ammo ko'rish analizatorining chuqur nuqsoni yoki funksiyasi cheklanishi o'yin faoliyatining barcha strukturaviy

komponentlarini egallashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi: bolalarda o'yin syujeti, mazmunining qashshoqligi, o'yin va amaliy harakatlar sxematizmi kuzatiladi.

Ko'rish nuqsonlari ishchan erkin muloqotni jiddiy tarzda murakkablashtiradi va qiyinlashtiradi. Ular uchun atrofdagilar bilan muloqotdan qochish, o'zining ichki olamiga orientirlanish, «izolyatsiya» pozitsiyasini yaratish xos.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati tiflopsixologik tadqiqotlarda turdi jihatlardan o'rganiladi: uning kompensator jarayonlarni rivojlantirishda (L.I.Solntseva), ma'naviy sifatlarni shakllantirish va o'smirlarning sinfdan tashqari ishlarda ijtimoiy faoliyatini rag'atlantirishda (E.M.Sternina, I.P.Chigrinova), predmetli va o'yin harakatlarini shakllantirishda (S.M.Xorosh), ko'rish idrokini rivojlantirishda (L.I.Plaksina), jismoniy rivojlanish va makonda orientirlanishda (V.A.Kruchinin, R.N.Azaryan, V.P.Nikitin), muloqot vositalarini korreksiyalash va rivojlantirishdagi (M.Zaorska) ijobiy rivojlantiruvchi roli ko'rsatib berilgan.

O'yinda bolalarning ijtimoiy xulqi turli tiplari namoyon bo'ladi. D.M.Mallaev o'yin faoliyatini amalga oshirishda ko'rishda nuqsoni bo'lgan uchun xarakterli bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning to'rt darajasini ko'rsatib beradi.

O'yinda ijtimoiy xulq darajalari bolalarning o'yin faoliyatini egalaganlik karakteri, o'yin harakatlarini egallaganlik darajasi va syujet boyicha o'yin g'oyasining mavjudligi bilan nisbatlanadi. Bolalar o'yin rivojlanishida bir necha bosqichni o'tadi: o'yin syujeti mavjud bo'lmagani o'yinchoqlar bilan holda nospetsifik harakatlar; o'yin syujetisiz o'yinchoqlar bilan elementar harakatlarning yuzaga kelishi; o'yin harakatlarining paydo bo'lishi va o'yin g'oyasining beqarorligi; o'yin harakatlarini o'yin g'oyasi bilan nisbatlash va g'oyaga muvofiq harakatlanish ko'nikmalarining shakllanishi.

O'yin jarayonida nizoli vaziyatlarning paydo bo'lishi ko'rish nuqsonlari bo'lganda ko'p jihatdan hamkorlikdagi o'yinni tashkil etish, o'rtoqlari harakatlarini nazorat qilish, o'ziga olingan rolni bajarishda funksional munosabatlarni tushunishning qiyinligi, o'yin

vaziyatini tushunishga ko'maklashadigan maxsus aksessuarlarning mavjud emasligi bilan bog'liq.

Faoliyat har doim shaxsning o'ziga-o'zi yashayotgan muhitga va bировga faol ravishda ta'sir etish, subyekt va obyektни o'zgartirishga yo'naltirilgan harakati tushuniladi. Faoliyat ko'pincha ehtiyoj bilan bog'liq bo'lib, shaxs o'zining qandaydir ehtiyojlarini qondirish uchun harakatga, izlanishga yoki faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ladi. Motivlarsiz faoliyat bo'lmaydi. Tashqaridan motivsiz ko'ringan faoliyatni ham ong osti sohasida yillar davomida shakllangan motivlarning ta'siri natijasida yuz beradi. Masalan, ko'zi ojiz o'quvchi maktabni bitirgandan so'ng ota-onasi va boshqalarning noroziligiga qaramasdan tibbiyot bilim yurtiga kirishga urinadi. Nogiron o'spirin bu istagi motivini asoslab bera olmaydi. Chuqurroq tekshirishlarda esa, oila a'zolarining tez-tez kasal bo'lishi, o'zining nogironligidan, nochor ahvoli uni shu hatti-harakatga yo'naltirganligi aniqlandi.

Shaxs faqat faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Insoniyat hayotini faoliyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi, u ongli, maqsadga yo'naltirilgan bilan hayvondan farq qiladi. Psixologik adabiyotlarda ko'pincha uchta yetakchi faoliyat turi farqlanadi.

Bu maktabgacha yoshda o'yin faoliyati, maktab yoshida o'quv faoliyati va maktabdan keyingi hayotdagi mehnat faoliyatidir. Ammo, ma'lum bir yosh bosqichlarida biron-bir faoliyat turining shaxsning shakllanishida yetakchi ekanligi tajribalarda tasdiqlanmagan. Shaxsning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib o'sishi uchun har bir yosh bosqichida biron-bir faoliyat turi yetakchi bo'lishi mumkin emas. «Yetakchi faoliyat» tushunchasi pedagogika va defektologiya fanida ma'lum bir yosh bosqichlaridagi faoliyat turini yaxshiroq tasavvur etish uchun qabul qilingan. Maktabgacha yoshdagi Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarning hatti-harakatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, bu yoshdagi bolalar o'yin bilan birgalikda atrof-olam haqidagi, ijtimoiy hayot haqidagi, bilim va tajribalarni faol ravishda o'rganadilar. Nogiron bolalarni ayniqsa, shu yoshda mehnatga o'rgatmasa keyingi yosh bosqichlarida bu faoliyat turining malaka va ko'nikmalarini, eng muhimi mehnatsevarlik his-tuyg'usini shakllantirish qiyin kechadi. Ko'rish

nuqsonining kompensatsiyasida faoliyatning o'zni katta bo'lib, ayniqsa, maktabgacha yoshda rejali, ongli va maqsadga yo'naltirilgan tarbiya va ta'lim jarayoni katta samara beradi. Jismoniy va ruhiy nuqsonlarni kompensatsiyalashda faoliyatning ahamiyati haqida ko'pchilik tadqiqotchilar, ayniqsa, L.S.Vigotskiy tomonidan nazariy va amaliy fikrlar bildirilgan. Bu ilmiy-tadqiqotlar orasida M.I.Zemtsovaning «Ko'zi ojizlikni kompensatsiyalash yo'llari» monografiyasi alohida o'rin tutadi.

Tadqiqotda erta va kech ko'zi ojizligi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ruhiy kamchiliklarning oldini olishda ruhiy rivojlanishni ta'minlovchi har xil faoliyat turlarining o'rnini hech narsa bosa olmasligi tajribalar bilan isbotlangan. Ko'rish a'zolaridagi nuqson bolaning psixomotor sohasiga: o'z vaqtida turib yurishini, harakatlanishini kechiktiradi. Bola qancha kech yura boshlasa, O'rnidan tursa, atrofidagi narsa va hodisalar haqida kam ma'lumotga ega bo'ladi.

Natijada Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bola narsa va obyektlarning joylashuvi, tomonlari, tashqi ko'rinishi, umumiy mohiyati haqida kam ma'lumotga ega bo'ladi. Lekin, Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar maktabgacha yoshda faqat narsalar haqida emas, balki shu yoshda «etakchi» faoliyat turi-o'yin faoliyatiga ham yetarli kirisha olmaydi. Ayniqsa, harakatli va sherikli o'yinlarga teng huquqli a'zo sifatida qatnashishga qiynaladilar.

Chunki, tengdoshlari bilan oynash uchun bola o'yinning mazmunini, qoidasini, o'zining o'yindagi vazifasi va rolini yaxshi bila olishi zarur bo'ladi. 4-7 yoshdagi bolalarda ko'pgina o'yinlar harakatlanish (yugurish, yashirinish va hokazolar) bilan bog'liq bo'ladi. Ko'rish nuqsonida bolaning harakatlanish doirasi torligi uchun u tengdoshlari bilan oynay olmaydi. Shuningdek, ko'zi ojizligi rejalashtirish, bajarish jarayonini nazorat qilish kabi faoliyat bosqichlarining kechishiga salbiy ta'sir etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni o'yin, o'quv va mehnat faoliyatiga kiritish, elementar va ko'nikmalarni shakllantirishdagi roli juda katta.

Ayniqsa, tug'ma va erta ko'zi ojiz bo'lganlarni maktabgacha yoshda har xil faoliyatga kiritish ularning kompensator moslashuviga ijobiy ta'sir etadi. Kech ko'zi ojiz bo'lganlar bilan o'tkaziladigan reabilitat-

siya ishlari asosan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Kech ko'zi ojiz bo'lgan shaxs o'zi uchun yangi sharoitga moslashishi uchun hatti-harakatini o'zgartirishi, u ko'proq faoliyatda faol va mustaqil bo'lishi talab qilinadi.

Reabilitatsiya – ko'zi ojiz shaxsni o'z imkoniyatlari doirasida me'yori hayotga va mehnatga qaytarish tushuniladi. Ko'zi ojizlarda fazoviy tasavvurlarni va yo'nalishlarni topish malakasi qanchalik erta boshlansa va u mustaqil izlanish bilan bog'liq bo'lsa samarador kechadi. Doimo yonida hamroh bilan yurgan ko'zi ojizlarda fazoviy yo'nalishlarni topish va mustaqil yo'l topib yurish malakasi paydo bo'lmas ekan.

M.I.Zemtsova erta ko'zi ojiz bo'lganlarni iloji boricha ertaroq har xil faoliyatga kiritish ularni hayot to'siqlarini yengishga, tushkunlik kayfiyatidan saqlashga, parokandalik va markaziy asab tizimini degenerativ o'zgarishlardan saqlashi mumkinligini tajribalar yordamida tasdiqladi.

Ko'zi ojizlar faol faoliyatga kirgandan so'ng, ularda kayfiyatning keskin yaxshilanishi, ko'tarinkilik kuzatiladi.

O'yin, keyinroq, **o'quv** va **mehnat** faoliyati bolalarning ruhiy va asab tizimiga ijobiy ta'sir etib, analizatorlar ishini ham jonlantiradi. Markaziy asab tizimida qo'zg'alish va tormozlanish izga tushadi, boshqarish va nazorat etish vazifasi mustahkamlanadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim va tarbiya jarayonida kamchiliklarni kompensatsiyalash va korreksiyalashni yengillashtiradi. Maktabda o'quv faoliyati bilan yaqindan bog'liq bo'lgani uchun ham o'zaro bilish va tajribalar almashinish yuz beradi. Shuning uchun ham birinchi sinfda o'quv yilining



boshlarida ba'zi o'quvchilarda kuzatiladigan muloqotdan qochish, kayfiyatning tez-tez o'zgarib turishi, affektiv holatlar asta-sekin yo'qolib, o'quvchilarda o'z imkoniyatlarini boshqalar bilan taqqoslash, boshqalarga yetib olish, muloqotga intilish paydo bo'ladi.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarda - boshlang'ich sinflardagi mutelik, qiziqishlar va intilishlarning pastligi, faqat buyurilgan topshiriqni ba-

jarish bilan chegaralanish, oʻrta va yuqori sinflarda faoliyatda mustaqillik, faollik, hatto oʻzi qiziqqan muammoga ijodiy yondoshish bilan almashadi. Chunki, nuqsonli bolaning yoshi oʻsishi bilan faoliyat motivlari (ijtimoiy, axloqiy, bilim va boshqalar) ham oʻsib boradi. Koʻzi ojiz va zaif koʻruvchi oʻquvchilarda boshlangʻich sinflardan yuqori sinflarga qarab faollikning oʻsib borishiga sabab: yuqorida aytganimizdek, «Men boshqalardan kammanmi?» deb oʻquvchining oʻzini faqat nogiron tengdoshlari bilan emas, balki sogʻlom tengdoshlari bilan oʻzini doimo taqqoslashi natijasida har tomonlama, oʻsish, rivojlanish yuz beradi. Yaʼni oʻz-oʻziga taʼsir, oʻz faoliyatini boshqarish va oʻzini-oʻzi nazorat qilish paydo boʻladi.

Albatta, faoliyatning shakllanishida tarbiyachi va oʻqituvchilarning yoʻnaltiruvchi, tashkillashtiruvchi va korreksion ishlari katta ahamiyatga ega.

A.T.Litvak fikricha, agar Koʻzi ojiz va zaif koʻruvchi bolalar bilan kichik yoshlardan bir tizim asosida ish olib borilmasa, koʻpincha bolalarda kompensator moslashish toʻsatdan va stixiyali boshlanadi. V.M.Koganning koʻrsatishicha, stixiyali mustahkamlangan kompensator moslashish nuqsonli bolalarda umumlashtirish va tajriba oʻsishini rivojlantirmas ekan. Shuningdek, toʻsatdan, rejasiz boshlangan va tartibsiz kechgan kompensator moslashish soxta kompensator moslashishni keltirib chiqaradi. Koʻzi ojizlarning boshini orqaga tashlab yurishi (peshonalarini toʻsiqqa urib olishdan qoʻrqishadi), koʻzi ojizlarning egilib-boshlarini doimo egiltirib yurishlari (ular oyoq ostlarini yaxshilab koʻrish uchun shunday qilishadi) soxta kompensator moslashuvga misol boʻla oladi. Baʼzi bir koʻzi ojizlarning gavda aʼzolarini har xil tutishi, beoʻxshov qiliqlari ham shu sabablardan kelib chiqadi. Natijada gavdani toʻgʻri ushlab, toʻgʻri yurish, nozik harakatlar shakllanmasdan qoladi. Sogʻlom kishilarda oʻz faoliyati va qoʻl harakatini ikki tomonlama nazorat qiladi. Harakatni koʻz va muskul-harakat, taktil sezgilari bilan nazorat qilinishi uchun ham koʻpgina harakatlar avtomatlashgan tarzda kechadi. Biz paxta terish, stanokda ishlash uchun har doim ham qoʻl va barmoqlar harakatini koʻz bilan nazorat qilmaymiz, bu harakatlarda dinamik stereotip tarzda, avtomatik shaklda bajariladi. Koʻzi ojizlik

nuqsoni faoliyatni qisman chegaralaydi va unga o'ziga xos o'zgarishlar kiritadi. Ya'ni butunlay ko'zi ojizlarda qo'l ham mehnat vositasi, ham nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Ko'zi ojizlar faoliyatida ko'z nazorati bo'lmaganligi uchun ularning mehnat faoliyat doirasi ham torayib, ular tez harakatlanadigan, aylanadigan mexanizmlar bilan ishlashlari hayotlari uchun havflidir. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarga mehnat turlari kasb tanlashda ularning bu xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo qiladi.

Bajariladigan harakatning ma'lum tomonlari dastavval to'la anglab boshqarishni talab qilinadi, undan keyin ishning bajarilishi ongning ishtirokini borgan sari kamroq talab qiladi. Bunday hollarda ishning bajarilishi avtomatlashadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola maqsadga muvofiq harakatlarning amalga oshirilishi va avtomatlashuvi malaka deb aytiladi. Ishning tuzilishi shunday qisman avtomatlashuvi tufayli o'zgarish imkoniyati quyidagidan iborat:

1. Harakatlarni ijro qilish usullarining o'zgarishi. Bundan avval har biri alohida-alohida bajarilgan ayrim harakatlar bir butun harakat tarkibidagi oddiy harakatlar o'rtasida hech qanday "to'xtab qolish" va tanaffuslar bo'lmaydigan bitta yaxlit aktga aylanadi. Masalan, kotibaning o'rganayotgan haydovchi, yozishni o'rganayotgan bola harakatini ko'rish mumkin.

2. Ishni bajarishda sensor, ya'ni hissiy nazorat usullarining o'zgarishi. Ishni bajarish ustidan qilinadigan ko'rish nazorati ko'p jihatdan muskul nazorat bilan almashinadi. Masalan, mashimistkaning xat yozishdagi, haydovchi motor ovoqidagi, po'lat quyuvchi metal rangining o'zgarishini farq qiladi.

3. Ish-harakat markaziy boshqaruvchi usullarining o'zgarishi. Diqqat ish-harakatining usullarini idrok qilishdan ozod bo'ladi va asosan ish-amalning hamda natijalarni idrok qilishga qaratiladi. Ayrim hisoblash, qarorga kelish va boshqa intellektual operatsiyalar tez va birlashgan holda "intuitiv" bajarila boshlaydi.

Malaka faoliyat tarkibida o'ziga xos o'rin tutadi. **Malaka** deb mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullariga aytiladi. Malaka ish unumdorligining ortishiga, vaqtni tejashga,

aqliy faoliyatni bir muncha muhimroq narsalarga safarbar qilishga imkon beradi. Malaka quyidagicha hosil qilinadi:

a) mehnat harakatlari, ularni egallab olishning zarur ekanligi va ahamiyatini anglash;

b) harakat namunasini esda olib qolish;

v) malaka namunalari ko'p marta bajarish, mashq qilish;

g) izchillik bilan olib boriladigan mashq natijasida harakatlar tezlashadi, xatolar kamayadi;

d) malaka harakatlarni avtomatlashtirish bilan shakllanadi. Ayrim ortiqcha harakat elementlari tushib qoladi.

Biror faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud bilimlardan va malakalardan foydalana olish **ko'nikma** deyiladi.

Malaka turli yo'llar bilan ko'rsatish, tushuntirish, ko'rsatish va tushuntirishni qo'shib olib borish orqali hosil qilinishi mumkin.

Har bir ko'nikma va malaka odamning o'z tajribasida avval egalab olgan malakalari asosida yuzaga keladi va amal qiladi. Malaka, ko'nikmalarning ayrimlari kishining ko'nikma hosil qilishiga va malakali ishlashiga yordam beradi, boshqa birlari halaqit beradi, uchinчилari, yangi ko'nikmalarni o'zgartirib boradi. Bu hodisa defektologiyada malakalarning o'zaro ta'siri deyiladi.

Tayanch so'zlar va tushunchalar

Maqsad – inson faoliyati so'nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo'ladi va ehtiyojlarini amalga oshirilishidir.

Motivatsiya – inson hulk - atvori, uning bog'lanishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi.

Motiv – shaxsdagi u yoki bu xulq - atvorga nisbatan turgan moyillik.

Faoliyat – insonning vog'eilikni, o'zini o'zi ijodiy o'zgartirish, takomillashtirish, mukammallashtirishga yo'naltirilgan faolliги. Psixologik jihatdan ichki ehtiyojni qondirish deya talqin etiladi.

Hatti-harakat – insonning axlog'iy o'z-o'zini ko'rsatish momenti bo'lib, bunda u boshg'a kishiga nisbatan munosabati, o'z-o'ziga, guruh yoki jamiyatga, umuman tabiatga nisbatan shaxs sifatida o'zini namoyon qiladi. Hatti-harakat faoliyat yoki faoliyatsizlik; so'zlarda bildiril-

gan pozitsiya; imo-ishora ko'rinishida, qarash, nutq ohangi, matnning ma'nosi shaklidagi biron narsaga nisbatan munosabatda jismoniy to'siqlarni yengib o'tish va haqiqatni izlash tomon yo'naltirilgan harakatda kabilarda ifodalanadi.

Ehtiyojlar - inson yoki hayvonning normal yashashi uchun zarur bo'lgan yetishmovchilikni aks ettiruvchi psixik yoki fiziologik keskinlik holatidir. Ehtiyojlar holat sifatida subyektning hayotiy faolligining shu ma'noda manbai hisoblanadiki, yuz bergan keskinlikni yo'qotishga qartilgan sezilarli ta'sir kuchiga ega.

Qobiliyatlar - u yoki bu sermahsul faoliyatni egallash mahorati bilan bog'liq bo'ladigan insonning individual - psixologik xususiyatlari bo'lib, uning yordamida inson teng bo'lgan boshqa sharoitlarda ushbu faoliyatni tez va puxta, oson va mustahkam ravishda tashkil qilish va amalga oshirish yo'llarini o'zlashtirib oladi.

Nazorat savollari

1. Faoliyat tushunchasining mohiyatini izohlang.
2. Faoliyatning tuzilishi xususida nimalarni bilasiz?
3. Faoliyatning o'zlashtirilishi va malakalarni egallashni mohiyati nimalar bilan belgilanadi?
4. Faoliyatning asosiy turlarini ko'rsating.
5. Faoliyat turlari va uni rivojlantirish ahamiyati.
6. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida faoliyat turlari.
7. Total ko'zi ojizlarning oyin, o'qish, mehnat faoliyatlarida o'ziga xos xususiyatlari.

3.3 Ko'rish nuqsoniga ega bolalarning psixik rivojlanishida korreksiya va kompensatsiya

Tiflopsixologiya fani ko'rish nuqsonli bolalarni faqat o'rganish bilan emas, balki bilish sohasida, ruhiy-hissiy iroda, psixosensor sohasidagi har xil kamchiliklarni korrektsiyalash, to'g'rilash yo'nalishlarini ham belgilab berishi va amalga oshirishi zarur.

Ko'zi ojiz bolalarning psixik rivojlanish dinamikasini kuzatgan olimlarning birinchi guruhi (T. Katsfors, Gomulitskiy, Maksfeld, V. Uilyams, M. Tobin, Emmy Csocsan, Solveig Sjostedt) ishonch hosil qildiki, ko'zi ojiz va ko'radigan bolalarning ilk yoshdagi umumiy psixik maqomi o'rtasidagi sezilarli tafovutlar ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi yaxshilanishi natijasida asta-sekin barham topadi.⁵¹ Solveig Sjostedt, masalan, har bir yosh guruhida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eng yaxshisi o'zining psixik rivojlanishida ko'radigan bolalardan o'zib ketishi mumkinligini ko'rsatib o'tgan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan va ko'radigan bolalarning rivojlanishini yaqinlashtirish pozitsiyasi bugungi kunga kelib mustahkamlandi, bunga ko'rish nuqsonini kompensatsiyalash va korreksiyalash nazariyasi va amaliyoti ko'maklashdi.

Bolada murakkab nuqsonning borligi uning rivojlanishi yo'nalishini tormozlaydi, nuqsonlarni korreksiyalash imkoniyatini kamaytiradi, o'quv - tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishni sezilarli qiyinlashtiradi. Bunday bolalar bilan muvaffaqiyatli ish olib borish e'tibor va keng bilim doirasiga ega bo'lishni talab qiladi.

Ko'rish nuqsonli bolalar alohida muammoni yuzaga keltiradilar. Ular maxsus o'rganilishi kerak. Lekin bu turdagi tadqiqotlar hali juda kam.

Korreksiya – to'g'irlash, yumshatish, hayotga moslashtirish, hayotda o'z o'rinlarini topishga ko'maklashish.

Ko'rish nuqsonini korreksiyalash – turli asbob-uskunalar yordamida qoldiq ko'rish imkonlarini ko'paytirish, kuchaytirish.

Adaptatsiya – tashqi sharoitlarga moslashish bo'lib, buning o'zi analizatorlarning o'zgarishlarni sezish bilan bog'liq fiziologik adaptatsiya va yangi guruhlardagi yangi faoliyat turiga moslashishdagi psixologik adaptatsiyalarga ajratiladi.

Kompensatsiya – zararlangan, ishdan chiqqan bir a'zo funksiyasini boshqa a'zoning qisman boshqarishi, to'ldirish tushuniladi.

Bunday bolalar bilan o'tkaziladigan korreksion ish, birinchi navbatda hissiyot va irodalarni shakllantirish, atrofdagilarga ijobiy xulqli munosabatni rivojlantirishga qaratiladi.

⁵¹ 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan. Solveig Sjostedt. 2008, Hungary Finland. 108 page. mazmun mohiyati olingan

Ko'rish nuqsonli bolalar bilan korreksion ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bola diqqatining fiziologik mexanizmlarini bilish talab etiladi.

Ko'rish nuqsonli bolalardagi ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan pastdir. Buning sababi, ichki tormozlanishning zaifligi va tashqi tormozlanishning yaqqol ko'zga tashlanishidir. Qiyin boshqariladigan tashqi tormozlanish ko'rish nuqsonli bolalarda diqqatning turg'un-sizligiga olib keladi. Ko'rish nuqsonli bolalardagi diqqatning taqsimlanishi, o'tishining qiyinligi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining mo'rtligi asosida yuz beradi. Ko'rish nuqsonli bolalar diqqatini tarbiyalab borishda ularning oliy asab faoliyatining tiplarini e'tiborga olish darkor.

Integratsiya atamasi maktablarda nafaqat birlashtirish balki o'quvchilarni ijtimoiy va noreal ta'sirlardan asrashga ham qaratilgan-dir. Bu jarayon bolalarda g'oyani rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, inklyuziv maktab va sinflarda ma'lum darajada har bir bolaga tarbiyaviy yondashish uchun majburiyatlarga emas balki ularga ham jismonan ilmiy-ijtimoiy integratsiya jihatdan yondashuv joriy etilgan. Bu ta'lim jarayoni bolalarni qo'llab-quvatlashni ham o'z ichiga oladi (1978-yildan Wornock qo'mitasi muddatli samarali integratsiya jarayoni yolg'a qo'yilgan. Bu jarayon 3turni o'z ichiga oladi. Guruhlar bolalar uchun integratsiya, mintaqaviy integratsiya, funksional integratsiya eng faol shakli). Qo'shimcha o'quv faoliyatida bolalar tengdoshlari bilan ijtimoiy integratsiyalashadi va ular imkon darajasidan qati nazar har bir faoliyati iqtisodiy maxsus ehtiyojlar bir hilda amalga oshiriladi. Inklyuziv ta'lim jarayonida barcha o'quvchilar integratsion muhitda birgalikda bilm olishadi. Shu nuqtai nazardan maktab bir butun bo'lib aks etadi.⁵²

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion tadbirlar rivojlanishdagi og'ishlarni to'g'rilashga yo'naltirilgan.

Korreksion maqsadlarni qo'yish sohasida uchta asosiy yo'nalish farqlanadi:

⁵² 200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment. Emmy Csocsan, Solveig Sjostedt. 2008, Hungary Finland. 98 pege. mazmun mohiyati olingan

1. Rivojlanishning ijtimoiy holatini optimallashtirish.
2. Bolaning yetakchi faoliyat turlarini rivojlantirish.
3. Ishga doir psixologik hosilalarni shakllantirish.

**Korreksion
maqsadlarining asosiy
yo'nalishlari**

Rivojlanishning
ijtimoiy holatini
optimallashtirish

Bolaning etakchi
faoliyat turlarini
rivojlantirish

Ishga doir psixologik
hosilalarni
shakllantirish

Chet el psixologiyasida bola rivojlanishidagi qiyinchiliklar shaxsning ichki strukturasi buzilganda (Z.Freyd, M.Klayn va q.k.) yoki muhit buzilganligida, yoki ikkala sabab birlashganda yuzaga keladi, deb hisoblashadi. Korreksion ishning texnikasi va usullarining tanlanishi uning maqsadlari bilan belgilanadi. Maqsadlarni konkretlashtirishda quyidagi qoidalarni qisobga olish lozim:

1. Korreksiya maqsadlari ijobiy shaklda tuzilishi kerak. Maqsadlar inkor so'zlari bilan tuzilmasligi shart, ularning ta'qiqlovchi harakterga ega bo'lishi ko'zi ojiz bolalarning rivojlanish imkoniyatlarini tashabbuslarini chegaralab qo'yishi mumkin.

Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan **psixologik korreksiya dasturlarini** tuzishda quyidagi **asosiy tamoyillarga** tayanish zarur:

1. Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi masalalar tizimlilik tamoyili.

2. Korreksiya va psixologik diagnostikaning birligi tamoyili.

3. Kauzal ko'rinishdagi korreksiyaning ustuvorligi tamoyili.

4. Korreksiyaning faoliyatga doirligi tamoyili.

5. Ko'zi ojiz bolalarning yoshga doir psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyili.

6. Psixologik ta'sir ko'rsatish metodlarining komplekslilik tamoyili.

7. Korreksiyaga ko'zi ojiz bolalarning ijtimoiy muqitidagi yaqin kishilarni jalb etish tamoyili.

8. Psixik jarayonlar tuzilmasining turli darajalariga tayanish tamoyili.
9. Dasturlashtirilgan ta'lim berish tamoyili.
10. Murakkablikka tadrijiy o'tish tamoyili.
11. Berilayotgan materialning qajmi va murakkablik darajasini hisobga olish tamoyili.

12. Materialning emosional murakkabligi inobatga olish tamoyili.

Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi masalalar tizimligi tamoyili har qanday korreksion ishda 3 ko'rinishdagi masala mavjudligini ta'kidlaydi, ya'ni 1) korreksion, 2) profilaktik va 3) rivojlantiruvchi. Bunda bola shaxsining har tomonlama rivojlanishidagi boqliqlik va notekislik borligini anglatadi. Tushunarliroq aytadigan bo'lsak, har qaysi bola rivojlanishning turli bosqichlarida bo'ladi, ya'ni: juda yuqori pog'ona - rivojlanish me'yorda, past pog'ona - rivojlanishda psixik qiyinchiliklar borligini anglatadi. Bunda notekis rivojlanish qonuniyati kelib chiqadi. Shaxsga doir taraqqiyotning ayrim jihatlarini sustlashuvi ko'zi ojiz bola intellekti rivojini ortda qolishi yoki boshqa qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan: bilish va o'qish motivlarining sust rivojlanganligini pirovard natijasida boladagi mantiqiy operatsional intellekt ortda qoladi. Shuning uchun korreksion rivojlantiruvchi dasturlar masala va maqsadini aniqlaganda hozirgi kundagi dolzarb muammolar bilan cheklanmay rivojlanishning yaqin prognozlaridan ham foydalanish kerak.

Ko'zi ojiz bola bilan o'tkaziladigan har qanday psixologik ta'sir faqatgina ortda qolgan bosqichni korreksiya qilishgagina qaratilgan bo'lmay, ortda qolishni oldini olishga, uyg'un rivojlanishga yo'l ochishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, korreksion rivojlantiruvchi dastur 3 ta vazifani bajarishi lozim:

Korreksion buzilish va ortda qolishni tuzatish.

Profilaktik - buzilish va ortda qolishni oldindan aniqlash.

Rivojlantiruvchi - taraqqiyot mazmunini boyitish, optimallashtirishga qaratilganlik. Shu 3 ta dasturlarning birgalikda olib borilishi kutilgan natijalarni berishi mumkin.

Korreksiya va psixologik diagnostikaning birligi tamoyili amaliy

defektolog ishi sifatidagi ko'zi ojiz bolalarni rivojlantirish va unga psixologik yordam berish alohida, yaxlit jarayon ekanini aks ettiradi.

Kauzal ko'rinishdagi korreksiyaning ustuvorligi tamoyili korreksiyaning ikki toifasi farqlanadi: simptomatik va kauzal. Simptomatik korreksiya mazkur taraqqiyot qiyinchiliklarining tashqi alomatlarini bartaraf etishga qaratilsa, kauzal toifadagi korreksiya mazkur muammolarni vujudga keltirayotgan sabablarni yo'q qilishga qaratiladi. Ikkinchi toifadagi korreksiya o'z ustivorligini yo'qotmasligi lozim.

Korreksiyaning faoliyatga doirligi tamoyili ning nazariy asoslari A.N.Leontev, D.B.Elkonin asarlarida ishlab chiqilgan. Uning diqqat markazida bolaning psixik taraqqiyotida faoliyatning alohida o'rni mavjudligi turadi.

Ko'zi ojiz bolalarning psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyilini ko'zi ojiz bolalarning psixik va shaxs rivojlanishining me'yortiv taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ko'zi ojiz bolalar xususiyatlarini hisobga olish, uni o'z yo'lini o'zi belgilashiga yo'l ochadi.

Psixologik ta'sir ko'rsatish metodlarining kompleksligi tamoyili korreksion ta'sir ko'rsatish dasturlarini tuzishda defektolog turli metodlar va texnikalardan foydalanishi lozimligini e'tirof etadi. Ko'pgina chet el defektologlari tomonidan tadbiq etilgan metodlar psixoanaliz, bixeviorizm, gumanistik defektologiya, geshtaltdefektologiya kabi ilmiy maktablarning nazariy negizlarini ochib beradi. Lekin hech qaysi metodika va texnika bittagina nazariyaga bog'langan emas.

Korreksiyaga ko'zi ojiz bolalarning ijtimoiy muhitidagi yaqin kishilarni jalb etish tamoyili ko'zi ojiz bolalarning psixik taraqqiyoti uning atrofidagilarning roli bilan belgilanishi mumkinligini e'tirof etadi. Bola o'z yonidagi kattalar bilan aloqador holda, birgalikdagi faoliyati orqali baholanadi. Zotan bola tevarak-atrofdagilardan ajralgan qolda emas, balki ular bilan birgalikda rivojlanadi.

Ko'zi ojiz bolalar to'g'ri tashkil etilgan korreksiya ishlari natijasida jamiyatga integratsiya muhitida har bir bola ta'lim jarayoniga qaratilgan salohiyati o'qituvchilar tomonidan muntazam kuzatuv ostidadir. Bu bilan birga har bir o'quvchi ta'lim jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri jalb

etiladi. Bu jarayon sinfda kelib chiqish imkon darajasidan qat'i nazar jamoa sifatida o'quvchilarning ta'limga bo'lgan ma'suliyatini oshiradi. Har bir o'quvchi o'qituvchi ijtimoiy, ilmiy, madaniy ta'lim jarayonlarini osonlashtirilgan tarzda bilimlarni qabul qiladi. Shuning uchun baholash mezonlari ham jamoa ta'lim jarayoni ko'nikmalariga asoslangandir. Emmy Csoesan, Solveig Sjostedtning fikricha, o'quvchilarga bir-biriga ko'maklashishni o'rgatish va boshqa adaptive o'qitish yondashuvlari kooperativ ta'lim strategiyalarini o'rgatish muhimdir. O'qitish uchun baholash mahorati yoki ijtimoiy o'quv ko'nikmalar o'qituvchilar integratsiya auditoriyalardan foydalanishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixik jarayonlar tuzilmasining turli darajalariga tayanish tamoyiliga ko'ra, korreksion dasturlarni tuzishda yaxshi taraqqiy etgan psixik prosesslarga suyanish va ularni faollashtiruvchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Dasturlashtirilgan ta'lim berish tamoyiliga ko'ra, avval defektolog bilan birgalikda, keyinchalik mustaqil ravishda bajarish orqali zaruriy malakalarni shakllantiruvchi bir qator izchil muolajalardan iborat dasturlar yaxshi samara beradi.

Murakkablikka tadrijiy o'tish tamoyilida korreksion ishlar tadrijiyligi nazarda tutilgan. Mazkur tamoyil ko'zi o'jiz bolalarning o'zi bajarayotgan ishidan zavqlana olishiga va korreksion ishga uning qiziqishini orttirishga yordam beradi.

Berilayotgan materialning qajmi va murakkablik darajasini hisobga olish tamoyilida korreksion dasturni amalga oshirishda ya'ni materialning yangi qajmini berishdan oldin u yoki bu ko'nikma va malakalarni nisbatan shakllanganligiga e'tibor berish lozim.

Materialning emosional murakkabligi inobatga olish tamoyiliga ko'ra o'tkazilayotgan o'yinlar, mashqulotlar, taklif etilayotgan material yaxshi emotsional fonni vujudga kelishiga yordam berishi kerak. Korreksion mashqlar ijobiy emotsional fon bilan yakun topishi maqsadga muvofiqdir.

Ko'zi o'jiz bolalarga korreksion ta'sir etishdan avval aniq korreksion ta'sir etish modelini tuzish lozim. Ular quyidagilar: umumiy, tipik(odatiy), individual.

Korreksiyaning umumiy modeli – bu har bir shaxs taraqqiyoti bir butun olingan shartlar tarmog‘idir. U insonning tevarak-atrof, uni o‘rab turuvchi dunyo qaqidagi farazlarini chuqurroq, haqqoniy, kengroq bo‘lishiga, insonlar qaqida, ular orasidagi munosabat, jamiyatdagi o‘zgarishlar, ularning faoliyatlarini analiz qila olish, kuzata olishiga sharoit yaratadi. Korreksiyaning bu modelida ko‘zi ojiz bolalarning sog‘liqi, mashg‘ulotning vaqti aniq belgilab olinadi.


Korreksiyaning tipik (odatly) modeli - amaliy qarakatlarni uyushtirishning turli negizlariga asoslanadi; qarakatlarning turli komponentlarini o‘zlashtirishga va turli qarakatlarni tadrijiy ravishda shakllantirishga qaratilgan.

Korreksiyaning individual formasi o‘z ichiga ko‘zi ojiz bolalarning o‘ziga xos bo‘lgan individual tomonlarini hisobga oladi - uning qiziqishlari, psixik taraqqiyoti, o‘rgana olish qobiliyatlari kabi.

Ko‘zi ojiz bolalar bilan korreksion ishlarni olib borishda standartlashtirilgan va erkin korreksion dasturlardan foydalanish mumkin:

1) **Standartlashtirilgan dasturda** korreksiyaning qar bir bosqichida materiallar, qatnashchilarga qo‘yiladigan talablar aniq belgilangan bo‘ladi.. Korreksion ishni boshlashdan avval defektolog material berilishida ko‘zi ojiz bolalarning kuchi va idrokini hisobga olgan bo‘lishi kerak.

2) **Erkin dastur** - bunda defektolog dasturni o‘zi tuzadi.



Maqsad va vazifalarining bosqichlarini, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishini o'zi belgilaydi. Markazlashtirilgan ta'sir kompleks psixokorreksion bloklardan iborat. Har bir blok aniq metod va usullardan tashkil topgan.

Bular:

1. Diagnostik blok. Maqsadi: shaxs rivojlanishining differensial diagnostikasi, xavfli faktorlarni aniqlash, psixokorreksion dasturlarning umumiy shakli.

2. Belgilovchi blok. Maqsad: o'ziga bo'lgan ishonchni, mulohazaga kirishishga ishtiyoqni uyg'otish, qo'rquvni kamaytirish va o'z qayotiga o'zgarishlar kiritishga xoqish uyqotish.

3. Korreksion blok. Maqsad: ko'zi ojiz bolalar taraqqiyotini optimallashtirish va garmonizatsiyalash, salbiy taraqqiyot fazasidan ijobiysiga o'tish, o'zi va dunyo bilan qanoqang faoliyat o'rnatish olishga o'rganish.

4. Korreksion ta'sirning effektivligini baholovchi blok. Maqsad: reaksiyalarning dinamikasi va psixologik mazmuniga baho bera olish o'z-o'ziga bergan bahoni barqarorlashtirish.

Psixokorreksion dasturlarni tuzishda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur:

- Korreksion ishning aniq maqsadini belgilash.
- Korreksion ishning maqsadini konkretlashtirishga yordam beradigan vazifalarni aniqlash.
- Ishni o'tkazish taktika va strategiyasini tanlash (individual, guruh yoki aralash)
 - Metodika va texnikani ishlab chiqish.
 - Korreksion ishga ketadigan umumiy vaqtni aniqlash.
 - Uchrashuv kunlarini belgilab olish.
 - Vaqtini aniqlash (boshida 10-15 minut, oxirida 1,5-2 soat)
 - Korreksion dasturni ishlab chiqish va mazmun mohiyatini belgilab olish.
- Korreksion ishda yaqin qarindoshlar qatnashuvini ta'minlash.
- Korreksion dasturni boshlashda dinamika va o'zgartirishlar bo'lishi yoki bo'lmasligini belgilash.

Korreksion tadbir so'ngida korreksion dasturning samaraliligi, maqsad va vazifalarining bajarilganligiga baho beruvchi xulosa hisobot tayyorlanadi.

Psixokorreksion tadbirlarning samaraliligini baholash quyidagi mezon bo'yicha aniqlanadi:

A) rivojlanishdagi qiyinchilikning yechilishi, barqam topishi.

B) maqsad va vazifalarning belgilanishi, korreksion effektivligi uzoq muddatdan so'ng, ish oxirida aniqlanadi.

Korreksion dastur muammoning butunlay qal bo'lishini oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, balki samarali ish olib borishda muammolarning yo'qolishi va yechilishiga qar tomondan baho berilayotganiga qam qaraladi.

Masalan: ko'zi ojiz bolalar uchun dasturda ishtirok etayotgan vaqtda uning emotsional holatining yaxshilanishi, ijobiy qis qilishi bilan belgilanadi.

Defektolog uchun korreksion dastur tashkil etilishi, majburiyatni his etishi oldiga qo'yilgan vazifani bajarilishi bilan aniqlanadi.

Ko'zi ojiz bolalarning yaqinlari uchun esa, ko'zi ojiz bolalarda paydo bo'lgan muammoning qay tarzda ijobiy hal etilganligi bilan aniqlanadi. Korreksion dasturlarning ijobiy ta'sir doirasi uning intensivligidir.

Korreksion mashqulotlar 1-1,5 soatdan oshmasligi, olib borilayotgan o'yinning ma'no jihatdan o'ylanganligi bilan ham bog'liq. Mashqulotlar tugagandan keyin qam iloji boricha ko'zi ojiz bolalarning taraqqiy etishi bilan qiziqib borish muloqotni yo'qotmaslik 1,2 oyda 1 marotaba uchrashi lozim.

Korreksion dasturlar qancha erta aniqlanib ish boshlansa, shuncha tez samara beradi.

Psixokorreksion yordamning samaraliligiga baho berish borgan sari dolzarblashmoqda. Bu defektologning ta'sir eta olishi va korreksion ishning sifatliiligidandir.

➤ Ishning samaralliligini baholashda aniq metodni belgilab olish zarur. Korreksion ishda ma'lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki ish faoliyatida defektologlar turli metodlardan foydalanadilar.

- Hatto bir metod har xil mutaxassisda turlicha natija beradi.
- Ishning bahosini bu metoddan xabari bo'lmagan ekspert berishi zarur.
- Defektologning tarbiyaviy-ta'limiy sifatini hisobga olish kerak.
- Defektologning kasbiga bo'lgan qiziqishini hisobga olish zarur.
- Guruhiy korreksion ishda defektologning professional bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Psixokorreksion ishlarda ko'zi ojiz bolalar psixologik ta'siridan so'ng quyidagilarga qarab baholanadi:

- Ichki kechinmalarning subyektiv mohiyatining o'zgarganligi.
- Ta'sir etgandan so'ng ko'zi ojiz bolalarning ijobiy tomonga o'zgarishi.

➤ Psixologik ta'sir samarasini belgilashda psixofiziologik metodlardan foydalanish mumkin. Ular insonning vegetativ-somatik fiziologik va psixik funksiyalarini baholaydi.

E. Csocsan, S. Sjostedt (2008) ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nuqsonlarini korreksiyalash va kompensatsiyalash natijasida quyidagi jihatlariga erishi mumkin:

- Har bir o'quvchi o'zini qulay his etishi;
- O'quvchilarni bir - biriga yordam berishi;
- Xodimlarning bir - biri bilan hamkorligi;
- O'quvchilar va hodimlar orasidagi hurmat;
- Xodimlar va ota-onalar orasidagi o'zaro hurmat.

Ko'rish nuqsonli bolaning xususiyati shundaki, uning psixikasi qoidaga bo'ysunmaydigan sharoitlarda, anomal taraqqiy topish jarayonida shakllanadi. Ko'rish nuqsonli bola sog'lom tengdoshlaridan shu bilan farqlanadiki, uning ilgari tajribasi va rivojlanishida bundan keyingi psixik kamol topish uchun zarur shart-sharoitlarni tashkil etuvchi mexanizmlar hamda psixik jarayonlar shakllanmagan bo'ladi. Shunday qilib, ko'rish nuqsonli bolaning umumiy psixik taraqqiyot darajasi odatdagi sharoitlarda uning maktab bilimlari, ko'nikma va malakalarni ongli suratda egallashini ta'minlay olmaydi. Bolaning psixik kamol topishiga uni ommaviy maktabda o'qitib ko'rish zarar yetkazadi. U maktab yoshiga yetarkan, o'qish uchun yetarli tayyorlanmagan holda bo'ladi, o'quv

topshiriqlarining maqsadiga diqqatini to'play olmaydi, qiyinchiliklarni yengib o'ta olmaydi. Maktabdagi tartib qoidalarga bo'ysunolmaydi. Bularning hammasi o'zlashtirmaslikka olib keladi. Shuning uchun yordamchi maktabning muhim vazifalaridan biri o'quvchini umumiy taraqqiy topishida ilgari siljitish uchun pedagogik jarayonga korreksion momentlarni singdirishdan iborat. Yetakchi faoliyat uning psixik jarayonlari va shaxsiy xususiyatlarida eng bosh o'zgarishlarni taqozo etibgina qolmay, balki uning o'sib borishida yaxshi ko'rsatkich hamdir.

Integratsiyallashgan ko'plab mamlakatlar maktablarida o'quvchilar va resurs markazlari uchun maxsus boshqaruvchi tendensiya ishlab chiqilgan. Bu maxsus maktablarning roli oquvchilar uchun ahamiyati katta bu muassasalar ahamiyati alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar hayotida ijobiy natijalarga olib keladi. Lekin bir muammo shunchaki yordamga muhtoj bo'lgan uchun tegishli materiallarning yetishmasligidir. E. Csocsan, S. Sjostedt (2008) fikricha, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bollar uchun esa maxsus maktablar shuningdek, resurs markazlari faoliyat yuritmoqda. Quyidagi bir qator muamolarni yechish uchun boshqaruv tendensiyasida muhitda ta'lim jarayonini boshqarish uchun Brayl alifbosi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bollar uchun muhim ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Maxsus muassasalarda ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ularning ota onalari, o'qituvchilar, assistentlar, bolalar ta'limi yoki reblitatsiya jarayonida ishtirok etgan xodimlar uchun maxsus kurslar mavjud. Bu jarayondagi maxsus o'qituvchilarning vazifasi shundan iboratki ular zaif koruvchi o'quvchilarga ko'rishida nuqsoni bo'lgan sinfdoshlariga sinf ichida harakatlanishiga yordam berishi kerakligini tushuntirish.

Pedagog psixokorreksion ish jarayonida tor soha mutaxassislari bilan hamkorligini quyidagi shakllarda amalga oshiradi:

- bolarni har tomonlama tekshirish;
- korreksion ishlarni tor soha mutaxassislarining tavsiyalarini e'tiborga olgan holda tashkil etish;
- individual korreksiya dasturlarini rejalashtirish va amalga oshirish;
- TPPK (tibbiy pedagogik psixologik komissiya) doirasida mutaxassislar hamkorligi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ota-onalarini qo'llab quvvatlash, rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar bilan o'zaro munosabatini yaxshilash, bu usullarni to'g'ri anglash va boshqa bir qator masalalarni ham hal etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oilalarda boladagi ko'rish nuqsoni mavjudligini erta aniqlash, oldini olish, ularni korreksion ta'limga jalb etish, har tomonlama rivojlantirish, o'qitish, hayotga tayyorlash va ijtimoiy jamiyatga moslashtirish ham amaldagi muhim vazifalardan biridir. Ota – onalar bilan ishlashda o'ziga xos tamoyillar nazarda tutilishi shart:

- ota-onalarning hamkorlik uchun tayyorgarligi hisobga olgan holda ishlar shaklini tanlashda ularining qiziqishini inobatga olgan holda yondoshish;

- ota-onalarning korreksiya (tuzatish) ishlarida faol ishtirokini ta'minlash;

- ota-onalarning o'z bolalariga bo'lgan salbiy munosabatini o'zgartirib, ularni tarbiyaviy usullar bilan qurollantirish;

- ota-onalar qobiliyatini bolalari tarbiyasiga qaratishga undash maqsadida ularga defektologik amaliyotining oddiy ko'rinishlarini o'rgatish.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar quyidagi shaklda olib borish maqsadga muvofiq

- yakka, guruhli maslahatlar, ota-onalar uchun qo'llanmalar;
- ota-onalarni pedagogik mashg'ulotlarda ishtirok etishi;
- ota-onalarni pedagogik mashg'ulotlarda berilgan uy vazifalarni farzanlari bilan birga bajarishlari (Pedagogik daftar).

Ota-onalarning faol va muntazam shug'illanishi tufayli ko'zi ojiz bolalarning nutqi, idrok qilishi, tafakkuri rivojlanib boradi. Ota-onalarning asosiy vazifalaridan biri ko'zi ojiz bolada saqlanib qolgan barcha imkoniyatlarni rivojlantirish, tarbiyalash va jamiyatga moslashtirishga intilishdir. Oilada to'g'ri tashkil qilingan rivojlantiruvchi muhit bolalarda ma'naviy va axloqiy hislatlarini, ularning ijobiy tushunchalarini, dunyoqarashlarini shakllantiradi, mehnat va hayotga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga sabab bo'ladi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berishda shu toifa bolalarni xususiyatlari hisobga olgan holda audio-video, komp’yuter-multimediya vositalari, masofada turib o‘qitish, maxsus kitoblardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday vositalar korreksion-rivojlantiruvchi ishlarining samaradorligining oshiribgina qolmay, shuningdek, ta‘lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishni, tafakkurning izchil va samarali shakllanishiga yordam beradi. Ushbu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning shu so‘zlarini eslash o‘rinlidir: “o‘zbek millatining, o‘zbek farzandlarining qobiliyati, zehn-zakovati, tirishqoqlik borasida boshqa hech bir millat yoki xalqdan qolishadigan joyi yo‘q. Faqat mavjud intellektual imkoniyatlarimizni to‘liq ishga solishimiz, ulardan mukammal tarzda foydalana bilishimiz zarur”.

Tayanch so‘zlar va tushunchalar

Adaptatsiya – tashqi sharoitlarga moslashish bo‘lib, buning o‘zi analizatorlarning o‘zgarishlarni sezish bilan bog‘liq fiziologik adaptatsiya va yangi guruhlardagi yangi faoliyat turiga moslashishdagi psixologik adaptatsiyalarga ajratiladi.

Kompensatsiya – zararlangan, ishdan chiqqan bir a‘zo funksiyasini boshqa a‘zoning qisman boshqarishi, to‘ldirish tushuniladi.

Korreksiya – to‘g‘irlash, yumshatish, hayotga moslashtirish, hayotda o‘z o‘rinlarini topishga ko‘maklashish.

Psixodiagnostika (grekcha psyche - ruhiy va diagnostikos - bilishga qodir) - psixologik fan sohasi bo‘lib, shaxsning individual - psixik xususiyatlarini o‘lchash va aniqlash usullarini ishlab chiqadi.

Psixoterapiya (grekcha therapeia - parvarish qilish, davolash) - ko‘plab psixik, asabiy va psixosomatik xafagarchiliklarda inson hissiyoti, fikrlari, o‘z-o‘zini anglashiga kompleks davolovchi ta’sirdir (asosan nutq yordamida, biroq faqat uning yordamida emas). Shartli ravishda asosan mavjud alomatlarini yo‘qotish yoki yumshatishga qaratilgan klinik maqsadli psixoterapiya va insonga uning sotsial muhiti va o‘z shaxsiga nisbatan munosabatini o‘zgartirishga yordam berishni vazifa qilib olgan shaxsiy maqsadli psixoterapiya mavjudligi e’tirof qilinadi.

Nazorat savollari

1. Korreksion mashg'ulotining maqsadini ayting.
2. Korreksion yo'naltirish mashg'ulotining vazifalarini izohlang.
3. Korreksion mashg'ulotida qanday ish usullari va vositalaridan foydalaniladi?
6. "Kompensatsiya" so'zining lug'oviy ma'nosi nima?
7. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab internatida tasavvurlarni korrektsiyalash ishlar tizimi qanday tashkil etiladi?
8. Maktab internatda kuzatilgan darsda tasavvurni qanday korreksion vazifalar orqali shakllantirildi?

Mavzu yuzasidan amaliy topshiriqlar

Analizatorlarning tuzilishi nafaqat atrofdan kelayotgan taassurotlarni qabul qilish, balki ularni tahlil qilish faoliyatni nazorat qilish ham izdan chiqadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktab internati bilan umumta'lim maktablarining o'xshash va farqli tomonlarini aniqlang. Boshlang'ich sinflarda bolalar soni, ularning kasalliklariga oid ma'lumotlarni to'plang va quyidagi topshiriqlarini bajaring:

1. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan ruhiy rivojlanishdagi korreksion ishlarni aniqlash.
2. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishdagi kamchiliklarni aniqlash.
3. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning kompensatsiya ishlarni aniqlash.
4. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning korreksiya va kompensatsiya ishlarni aniqlab, ish tizimini to'g'ri tashkil qilish.

GLOSSARIY

| Atamalar | Atamaning ingliz tilida nomlanishi | Atamaning o'zbek tilidagi ma'nosi |
|--------------------|---|--|
| Maxsus psixologiya | Special psychology | Maxsus psixologiya ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bo'lgan bolalar ruhiy rivojlanish nazariyasi va amaliyoti, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish masalalarini qamrab oladi. |
| Maxsus maktab | special school | Rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus ta'lim muassasalari |
| Himoyaga muhtoj | Vulnerable | O'z-o'ziga xizmat qilish, harakatlanish, uyushtirish, o'z axloqi ni nazorat qilish, ta'lim, mehnat faoliyatiga imkoniyatning buzilishi oqibatida ijtimoiy moslashmaganlikka olib keluvchi hayotiy faoliyatning ahamiyatli cheklanganligidir. |
| Ijtimoiy moslashuv | Social adaptation | Bolalar uchun oddiy hayot tarzini va ochiq jamiyatni oddiy shartlarini hayoti davomida qo'llay olishga o'rgatish |

| | | |
|-----------------------|------------------------|---|
| Imkoniyati cheklangan | Possibility be limited | Kar-soqov (surdopedagogika), ko'r (tiflopedagogika), aqliy jihatdan rivojlanishda ortda qolgan (oligofrenopedagogika) bolalar |
| Erta tashhis | Early diagnosis | Rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va imkoniyatlari cheklangan bolalarga erta tashhis qo'yish ularning kelgusi rivojlanishida samarali natijalarga erishiladi. |
| Nogironlik | Disability | Bu jamiyatdagi mavjud shart-sharoitlar tufayli yuzaga kelgan, natijada odamlarning faol hayot kechirishiga imkon bermaydigan jismoniy, aqliy, sensor va psixik buzilishlari bo'lgan shaxsning faoliyatiga to'siq yoki cheklashdir |
| Integratsiya | Integration | Imkoniyati cheklangan, alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarga ta'lim berish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini amalga oshirish maqsadida umumta'lim muassasalarida inklyuziv sinf va guruhlar tashkil etish |
| Inklyuziv ta'lim | Education inclusive | Bu maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirish va sharoitga qarab o'zgaruvchan, g'amxo'rlik bilan yondasha oladigan ta'lim tizimidir. |

| | | |
|-----------------------|---------------------------|--|
| Ijtimoiy hamkorlik | Special cooperation | Imkoniyati cheklangan, alohida yordamga muhtoj bolalar imkon qadar o'ziga tengdosh nogiron bo'lmaganlar bilan munosabatda bo'lib, ijtimoiy tasavvurlarga ega bo'lishlari hamda ijtimoiy hamkorlik o'rnatishlari |
| Korreksiya | Correction | <p>Korreksiya (yunoncha "correctio" – tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.</p> <p>Aqliy yoki jismoniy, nutqiy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning ruhiy yoki jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini pedagogik usul va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay bartaraf etish.</p> |
| Korreksion pedagogika | Correction of pedagogical | Maxsus pedagogikaning har bir yo'nalishi uchun ta'lim qonuniyatlarini tadqiq qiladi. |
| Anamnez | Anamnez | Anamnez (yunoncha – anamnesis - eslash) – bemorning hayot sharoiti va kasallik tarixi haqida so'rab to'planadigan ma'ulumotlardir. |

| | | |
|--------------------|---------------------|---|
| Kompleks hamkorlik | Complex cooperation | Pedagoglar jamoasining muayyan sotsial muhitda o' sayotgan har bir bola qobiliyatlarining rivojlanish darajasi va hayot tajribasidan qat'iy nazar uning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy psixologik shart-sharoit yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat tizimi. |
| Kompensatsiya | Compensation | Kompensatsiya (yunoncha "compensatio" – o'rnini to'ldirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish, qayta qurishdir. |
| Differensial | Differentiate | Maxsus maktablarning turli xillari – karlar uchun, zaif eshituvchilar va kech kar bo'lib qolganlar uchun maktab bo'limlari va maktablarning barcha turlarida ikki yoqlama nuqsonli bolalar uchun maxsus sinflar tashkil qilinishidir. |
| Integratsiya | Integration | <p>Integratsiya (lotincha integratio – tiklash, to'ldirish).</p> <p>1. Tizim yoki organizmning alohida qismlari va funksiyalarining o'zaro bir butun bog'langan holatini ifodalovchi tushuncha, shuning dek, mana sha holatga olib keladigan jarayoni.</p> <p>2. Fanlarning o'zaro yaqinlashish va bog'lanish jarayoni, differensatsiya jarayoni bilan birga kechadi.</p> |

| | | |
|-------------------------|---------------------|--|
| Ijtimoiy Reabilitatsiya | Social rehabilitate | Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha "rehabilitas" – qobiliyatni tiklash) anomal bolalarning psixofiziologik imkoniyatlariga ko'ra ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, ularni ijtimoiy hayot va mehnatga jalb etish ma'nosini anglatadi. |
| Ijtimoiy adaptatsiya | Social adaptation | Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha "adapto" – moslashish) anomal bolalarning individual, guruhli xulqlarini ijtimoiy qoidalar, qadriyatlarga mos kelishini ta'minlash deganidir. |
| Tiflopsixologiya | Tyflo psychology | Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni bilish jarayonlari, shaxsi xususiyatlari, hissiy-iroda sohasining rivojlantirishni va psixokorreksiya yo'llarini o'rganadi. |
| Ko'rish analizatori | Watch analyzer | Ko'rish sezgilarini hosil qiluvchi nerv mexanizmlari. Ko'rish analizatorining po'stloq uchi ensada joylashgan bo'lib, u yerda ko'rish sezgilari shakllanadi. Ko'rish analizatorining o'tkazuvchi yo'llari ko'rish nervlaridir. |
| Qisman ko'ruvchi | Partially regulated | Ko'rish o'tkirligi O dan O,004 gacha. Bu bolalar umuman ko'rmaydilar, ko'rish imkoniyati kam saqlangan. Mashg'ulotlarda ular asosan o'quv materialini sezish, eshitish idroki asosida o'zlashtiradilar. Brayl tizimi bo'yicha o'qiydi va yozadilar. Ba'zi bir bolalar saqlangan ko'rish imkoniyatidan o'qish va yozishda foydalanishlari mumkin. |

| | | |
|-------------------------|----------------------------|---|
| Total ko'zi ojizligi | Carped profoundness | Ko'zi ojiz bolalarning ko'rish qobiliyati keskin kamaygan yoki korreksiya qo'llanilganda ya'ni ko'zoynak tutilganda ham ko'rish o'tkirligi 0,04 gacha pasaygan bo'lsa, bunday bolalar amalda ko'r bo'ladi. |
| Brail tizimi | Braille system | Ko'zi ojiz shaxslar tomonidan qo'llanuvchi yozma nutq shakli bo'lib, bunda harf, so'z va raqamlar grifel bilan relefli-nuqtali belgilar ko'rinishida maxsus moslama yordamida aks ettiriladi. 1829 yilda fransuz pedagogi Lui Brail tomonidan yaratilgan. |
| Oftalmolog | Ophthalmologist | Shifokor, bolani tekshiri, kerak bo'lsa unga korreksiya qiladigan ko'zoynak taqib yurishni tavsiya etadi va bola qaerda ta'lim olish kerakligini aniqlaydi. |
| Ko'rish qobiliyati | The ability to view the | Bolaning tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarni ko'zini harakatlantirmagan holatda buyumlarni ko'ra olishi |
| Uzoqdan ko'rish | Myopia | Ko'zdan yiroqda ko'radi, ko'zga yaqin buyumlarni idrok etishda qiynaladi. Bunday bolalar mayda obektlarni ko'rib o'rganishga mo'ljallangan darslarda juda qiynaladilar va o'qish, yozish hamda tarqatma material bilan ishlashda qiyinchilikka uchraydilar. Uzoqdan ko'rish maxsus korreksiya ko'zoynaklari bilan to'g'rilanishi mumkin. Ularga jismoniy vazifalarni bajarish taqiqlanmaydi. Yaqin obektlar bilan uzoq ishlash taqiqlanadi. |

| | | |
|-----------------|----------------------|---|
| Katarakta | Cataracts | Ko'z gavharining loyqalanishi (pomutnenie). Bunda gavharni jarroxlik yo'li bilan olib tashlash va yangisini qo'yish mumkin. |
| Albinizm | Albinism | To'r pardada pigment yetishmasligi. Natijada kishining ko'zi qizil, sochi va tanasi oq bo'lishi mumkin. Ularga yorug'likto'suvchi ko'zoynaktaqish, quyosh nurlaridan saqlanish tavsiya etiladi. |
| Glaukoma | Glaucoma | Ko'z ichki bosimining ko'tarilishi. |
| Mikroftalm | Microphthalm | Ko'z olmasining kichrayishi. |
| Eshitish a'zosi | Auris | Uch qism (tashqi, o'rta va ichki quloq) dan tuzilgan. Muvozanatni saqlash a'zosi esa ichki quloq (labirint)ning bir qismi (dahliz va yarim halqasimon kanallar)dir. |
| Uzluksiz ta'lim | Continuing education | Umumta'lim va mahsus kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydigan davlat va ta'lim muassasalari tizimida shahsning rivojlanish jaroyani va natijasi;tashhislash kompensatsiyalash adaptatsion ,bilim olish madaniy ehtiyojlarinig qondirilishini ta'minlaydi |
| Maxsus mashqlar | Special exercises | Bu o'rinda biz nafas olishni rivojlantirish bo'yicha u yoki bu ko'rinishdagi, logopediya amaliyotida tez-tez qo'llaniladigan maxsus mashqlarni bajarishni (paxtani puflash, rezina o'yinchoqlarni puflab shishirish) shart emas deb hisoblaymiz, chunki bunday nafas olishning barcha turlari nutqqa aloqador emas. |

| | | |
|-----------------|----------------|---|
| Nutq faoliyati | Speech | Murakkab ruhiy faoliyat. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga kata ta'sir ko'rsatadi. |
| Nutq sistemasi | Speech system | Nutq sistemasining tuzilish komponenti (tovush tomoni, grammatik tuzilishi, lug'at zonasi), nutqning funksional jihatlari, nutqiy faoliyat turlarining (og'zaki va yozma) o'zaro aloqadorligi hisobga olinadi. |
| Duduqlanish | Stammering | <p>Duduqlanish – bu nutq apparati muskullarining tortishish natijasida nutqning sur'at-ohangining buzilishidir.</p> <p>Duduqlanish muammosini nutq buzilishiari haqidagi ta'limotning rivojlanishi tarixida eng qadimiylaridan biri deb hisoblash mumkin. Uning mohiyatini turlicha talqin qilish fanning rivojlanishi va mualliflarning bunday nutq buzilishlariga qanday nuqtai nazardan yondashganliklari va yondashayotganligi darajasi bilan bog'liqdir.</p> |
| Nutq nuqsonlari | Speech defects | Bu adabiy tilda qabul qilingan nutq normasidan biroz bo'lsa ham chetga chiqish. |

| | | |
|-------------------------------|------------------------|--|
| Kompleks yondashuv | An integrated approach | Pedagoglar jamoasining muayyan sotsial muhitda o'sayotgan har bir bola qobiliyatlarining rivojlanish darajasi va hayot tajribasidan qat'iy nazar uning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va rivojlanishi uchun ijtimoiy psixologik shart-sharoit yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat tizimidir. |
| Kinestetik (harakat) sezgilar | Kinesthetic feeling | Gavdaning fazodagi holatini ayrim organlarning harakatlarini aks ettiruvchi sezgi turlari. Ular ko'rish analizatorlarining ishida va nutq organlarining faoliyatida muhim rol o'ynaydi. |
| Harakatni idrok etish | Reflex movements | Obyektlarning yoki kuzatuvchining o'zining fazodagi o'zgarishlarining vaqtida aks etishi, bu turli analizatorlarning o'zaro munosabati tufayli ta'minlanadi. |
| Harakat buzilishi | Impaired movement | Avval ishlab chiqilgan reaksiyalar yoki ularning alohida komponentlarini bartaraf etuvchi tormozlanish; bunda ular o'zining moslashuvchanlik xususiyatini yo'qotadi va muhitning o'zgargan shart-sharoitlariga javob bermay qo'yadi. |

| | | |
|---------------------|--------------------|--|
| Serebral falajlik | Cerebral paralysis | Hali yetilmagan shakllanib bo'lmagan miyaning kasalligidir. Onaning homiladorlik davrida ma'lum kasalliklar bilan kasallanishi ,tug'ilish vaqtidagi patologik o'zgarishlar ,tug'lgandan to bir yoshgacha davr ichida kasallanishi natijasida bosh miyaning harakat zonalari shikastlanadi, uning natijasida miyaning yahlit yetilishi kechikadi va buziladi. |
| Muvozanatni saqlash | Balancing | Alohida tana qismlarining holatini o'zgartirib turish evaziga uning muvozanatini saqlash. Muvozanat saqlashda barcha analizatorlarning o'zaro aloqada ishlashi talab qilinadi, shuning uchun u ilk va kichik maktab yoshidagi bolalarning harakatlanish faolligini tashkil etishning murakkab shakli hisoblanadi. |
| Murakkab buzilish | Complex problems | Ikki va undan muammolarning birgalikda kelishi (mas, eshitish-ko'rish, ko'rish-eshitish-aqliy, ko'rish-aqliy, eshitish-tayanch-harakat a'zolari faoliyatidagi me'yordan chetga chiqish). Bunday buzilishlar bolaning ruhiy rivojlanishiga o'ziga xos ravishda ta'sir etib, maxsus korreksion ta'sirni talab etadi. Kompleks buzilishlari bo'lgan bolalarning o'sishi, mavjud kamchiliklariga qarab, o'ziga xos ravishda kechadi. |

| | | |
|------------------------|--------------------|--|
| Ixtiyoriy harakatlar | Willing movement | Ijobiy yakuniy natijaga erishishga yoki hatti-harakat akseptorini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat |
| Harakatlanish faolligi | Moving activity | Organizmning harakatlanishga bo'lgan ehtiyojining qondirilishi. Harakatlanish faolligi bola normal rivojlanishining eng muhim shartidiri. |
| Bilish jarayoni | Learning process | Nazariya va amaliyotga bo'linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har xil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, qonun, formula, grafik raqam va boshqalar. Nazariyada g'oya shakllanadi. |
| Ruhiy rivojlanish | Mental development | Inson hayotining turli bosqichlarida bilish faoliyati va shaxsiy xislatlari shakllanishi va takomillashuvi. |

| | | |
|------------------------------------|---------------------------------------|--|
| Ruhiy rivojlanishning sustlashishi | Psychic impairment | Umuman psixikaning yoki uning ayrim funksiyalarining rivojlanishida vaqtinchalik orqada qolishi; me'yordagi ruhiy rivojlanish sur'atining buzilishi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning maktab sharoitiga ko'nikmalari, o'quv faoliyati kirishishlari qiyinlashadi, ular topshiriqlarni bajarishda ham qiynaladilar. |
| Yengil nuqson | Missing light | Bular maxsus sharoitda 1- 3 yil ta'lim- tarbiya olganlaridan keyin o'qishni ommaviy maktabning tegishli sinfida davom ettirishi mumkin. |
| Infantilizm | infantilism | Ya'ni bola o'sib-unmagan, go'dak taxlit bo'lib qolaveradi. Bunda bola psixikasida nevrozga o'xshash holatlardan o'z kuchiga ishonmaslik, qo'rqqoqlik, injiqlik, erkalik, qiziqishning pastligi va boshqalar kuzatiladi. |
| Pedagogik qarovsiz bolalar | Pedagogical neglected of the children | Psixikasi normal bo'lib, ular noto'g'ri tarbiyalanganligi natijasida ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga o'tib qoladilar. Xolbuki, ruhan sust rivojlangan bolalarda shaxsiyatning har tomonlama noto'g'ri rivojlanishi markaziy nerv sistemasidagi yengil darajadagi organik jarohatlanish bilan bog'liq. |

| | | |
|------------------------|----------------------|--|
| Serebrastenik holatlar | Cerebrastenic states | <p>Bular ham tez-tez uchrab turadi. Markaziy nerv sistemasi tez charchaydi, neyrodinamik o'zgarishlar kuzatiladi. Natijada aqliy qobiliyati susayib, xotira pasayadi, diqqati tarqoq bo'lib qoladi, tez ta'sirlanish, qiz bolalarda yig'loqilik, o'g'il bolalarda haddan tashqari qo'zg'aluvchanlik kuzatiladi, bola ish qobiliyati past, arzimagan narsaga tez charchaydigan bo'lib qoladi.</p> |
| Aqli zaiflik | mentally retarded | <p>Bosh miyaning organik jihatdan jarohatlanishi natijasida psixik, birinchi navbatda intellektual rivojlanishning turg'un pasayishi tushuniladi. Birinchi marta psixiatr <i>F. Platter</i> (1537–1614) ruhiy kasalliklar orasidan aqli zaif bolalarni ajratib berdi. Aqli zaif bolalarni tasniflash, ularga klinik tavsifnoma berish ishlari <i>F. Pinel</i> (1775-1838), <i>J. Eskirol</i> (1772-1840) tomonidan bajarildi. J. Eskirol birinchi marta «aqli zaiflik» atamasini fanga kiritadi.</p> |

| | | |
|-----------------------------|---------------------------|--|
| Aqliy rivojlanish | Mental developing | Bolaning yoshi va hayotiy tajribasining ortishi hamda tarbiyaviy ta'sirlar bilan bog'liq holda uning fikrlash faoliyatida sodir bo'ladigan sifat va miqdor o'zgarishlari |
| Aqli zaiflikning darajalari | Kind of mentally retarded | Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BSST) tomonidan aqli zaiflikning to'rt darajasi ajratib ko'rsatilgan. Ya'ni: 1) yengil (kam); 2) o'rta; 3) og'ir; 4) chuqur. |
| Ijtimoiy mashqlar | social exercise | Bolalarda jamiyatda o'zini tutish ko'nikmalarni tarbiyalashga, muloqot darajasi va faolligini oshirishga yo'naltirilgan. Bolalar yo'l harakati qoidalarini o'rganishadi, jamiyatda o'zini tutish bo'yicha mashq qilishadi, shaharda joylashgan muassasalar bilan tanishishadi. Pedagog bilan do'konlar, dorixonalar, kiosklar bilan tanishishadi, kichik xaridlar qilib ularni to'lashni o'rganishadi. |

| | | |
|--|---|---|
| Aqliy va jismoniy rivojlanish muammosi bo'lgan bolalar | In physical and intellectual development defect of children | Tug'ma irsiy ega bo'lingan kasalliklar yoki belgilangan tartibda tadiqlangan jarohatlar asoratlari oqibatida hayotiy faoliyati cheklangan jismoniy va psixik kamchilikka ega bo'lgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar |
| Aqliy harakatlar | Mental attempt | Insonning biron bir tashqi vositalarga, shu jumladan, ovozli nutqqa tayanmagan holda ichki ongda bajariladigan turli-tuman harakatlar |

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» / Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008.
3. Андреева Г.М. Социальная психология. - М., 1998-376 с.
4. Бадмаев Б.С. Психология: как ее изучить и усвоить. - М., 1997.-256 с.
5. Бадмаев Б.С. Психология и методика ускоренного обучения. - М., 1998.
6. Бадмаев А. Методика преподавания психологии. М., 2001.
7. Введение в психологию. /Под общ.ред.А.В.Петровского. -М., 1996.
8. Виленская А.М. Некоторые особенности личности учащихся старших классов школ для слепых детей // X-науч. сессия по дефектол. - М., 1990. -Ч. 1.
9. Возрастная и педагогическая психология. /Под ред. М.В.Гомезо и др. -М., 1984. Воспитание и обучение слепого дошкольника / Под ред. Л.И. Солнцевой, Е.Н. Подколзиной.– М., 2005.
10. Выготский Л.С. Основы дефектологии.— СПб., 2003.
11. Галперин П.Я. Психология как объективная наука. Избранные психологические труды. - М.: Воронеж, 1998.
12. Галперин П.Я., Талызина Н.Ф. Формирование знаний и умений на основе теории поэтапного усвоения умственных действий. - М.: 1998.
13. Гиппенрейтер Ю.Б. Введение в общую психологию. - М.: 1996.
14. Гилилов Е.И., Никулина Г.В. Обучение и воспитание слепых и слабовидящих: Ретроспективный анализ, состояние, тенденции:– СПб., 2001.

15. Григорьева Л.П., Рейнгольд Г.С. Зрительное восприятие и мнемические процессы // Современные исследования по проблемам учебной и трудовой деятельности аномальных детей: Тез. докл. X науч. сессии по дефект. 18-20 апреля 1990 г. - М., 1990. Гудонис В.П. Социальные и психолого-педагогические основы интеграция детей с нарушением зрения. - Автореф. докт. дисс. - М., 1995

16. Давлетшин М.Г. Ҳозирги замон мактабининг ўқитувчиси психологияси. -Т.: «Ўзбекистон», 1999.

17. Давлетшин М.Г., Жалилова С.Х. Олий мактабда таълим жараёни самарадорлигининг психологик томонлари. -Т.: 2001.

18. Davletshin M.G, Umumiy psixologiya, T., 2002 y.

19. Давидов В.В. Виды обобщения в обучении. -М.: 1972. - 424 с.

20. Джемс В. Психология.- М., 1991

21. Дружинин В. Н. Психология общих способностей. — 2-е изд. — СПб.: Питер, 1999.

22. Ермков В.Р, Якунин Г.А. Основы тифлопедагогтики. М.: Владос, 2000.

23. Заорска М. Коррекция и развитие средств общения у слепых и слабовидящих детей младшего школьного возраста в условиях специальной школы-интерната.- Автореф. канд. дисс. - Л., 1991

24. Зимняя И.А. Педагогическая .-Ростов-н/Д.: 1997. Илясов И.И. Обучение студентов деятельности учения //Формирование учебной деятельности студентов. - М.: 1989.

25. Каримова В.М. Психология, Т., 2002.

26. Кириллова Л.И. Причины нарушения зрения у детей // Кн. для род. «Слепой ребенок в семье». — М.,1994

27. Климов Е.А. Психология. -М.: 1997.

28. Колесникова Г.И. и др. Специальная психология и педагогика.- М., 2007

29. Креативная игра-драматизация.— М., 2004.

30. Крилов А.А. Адаптация внешних средств деятельности // Дефектология. - М.: Проспект, 1998.

31. Лебединская К.С. Нарушения эмоционального развития, как клинико-дефектологическая проблемы. Автореф. докт. дисс. - М., 1993

32. Литвак А.Г. Общие проблемы реабилитации инвалидов по зрению // Проблемы социальной реабилитации слепых. - М.: ВОС, 1990.

33. Литвак А.Г. Психология слепых слабовидящих .- Спб – М., 2006.

34. Литвак А.Г. Тифлопсихология. - М.: Просвещение, 1985.

35. Ляудис В.Я. Методика преподавания психологии. -М.: 1989.- 77 с

36. Ляудис В.Я. (ред). Формирование учебной деятельности студентов. -М.,1989.

37. Mavlonova R. To'raev O. va boshqalar. Pedagogika. - T.: «O'qituvchi», 2002.

38. Маклаков А.Г. Общая психология М.: “Питер” 2003

39. Мамайчук И.И . Психология дизонтогенеза и основы психокоррекции. С-П.; 2000.

40. Mamedov K. K. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. T.:“O'qituvchi”, 1994.

41. Munavvarov A.K. “Oila pedagogikasi”. – T.: “O'qituvchi”, 1994.

42. Mo'minova L, N.Abidova va boshqalar. Maxsus psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013.

43. Никулина Г.В. Оценка коммуникативного потенциала инвалидов по зрению в условиях реабилитационного процесса.– СПб., 2003.

44. Никулина Г.В. Формирование коммуникативной культуры лиц с нарушениями зрения в условиях образовательного и реабилитационного процесса. – СПб., 2003.

45. Никулина Г.В., Фомичева Л.Ф. Охраняем и развиваем зрение.– СПб., 2003.

46. Никулина Г.В., Фомичева Л.Ф., Замашнюк Е.В. Развитие зрительного восприятия. / Подред. Г.В. Никулиной.– СПб., 2003.

47. Немов Р.С. Психология. Книга 1. Общие основы психологии. -М.,1998.
48. Немов Р.С. Психология. Книга 2. Психология образования. -М.,1998. -608 с.
49. Нишонова З.Т. Олий мактаб психологияси. -Т.: 2003.
50. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. Т.: "Istiqlol", 2003.
51. Обучение письму и чтению по рельефно-точечной системе Л. Брайля/ Под ред. Г.В. Никулиной. – СПб., 2006.
52. Обухова Л.Ф. Детская психология: теория, факты, проблемы. - М.: "Тривола", 1995. - С. 199.
53. Общая психология: Курс лекций / Сост. Е.И.Рогов. - М.: "Владос", 1995.
54. Ольхина Е.А. Психология эмоционально-личностного развития подростков с нарушенным зрением.-М.: ИПТК «Логос» ВОС, 2007.
55. Особенности психологической помощи детям с нарушениями зрения в дошкольном учреждении / Подред. Л.И. Солнцевой.- М., 2001.
56. Плаксина Л.И. Теоретические основы коррекционной помощи детям с амблиопией и косоглазием в условиях дошкольного образовательного учреждения. - Автореф. докт. дисс. - М., 1998.
57. Психолого-педагогическая диагностика. 2-е издания / под ред. И.Ю.Левченко, С.Д.Забрамной. М.; 2003.
58. Психология қисқача изоҳли луғат Т-1998.
59. Pulatova P.M. Maxsus pedagogika. – Т.: "Fan va texnologiya", 2014.
60. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. — СПб.: Питер, 1999.
61. Руппонен Т. Психологическая реабилитация //Проблемы социальной реабилитации. - М.: ВОС, 1990.
62. Рухиева А.Х. Психологические особенности самоуправления учебной деятельностью студентов. Автореферат. Дис. Т.: 1993.

63. Самойлов А.Ф. Проблема мышления в тифлопсихологии // Психологические особенности слепых и слабовидящих школьников. - Л.: ЛГПИ, 1981. - С.39-69.

64. Специальная психология / под научной ред. Шипицыной. - СПб., 2004.

65. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. -М.: 1984.

66. Талызина Н.Ф. Педагогическая психология. -М.: 1998. -288 с.

67. Теплов Б. М. Избранные труды: в 2-х т. Т. 1. — М.: Педагогика, 1985.

68. Тупоногов Б.К. Тифлопедагогические основы коррекционно-развивающего обучения. - Дисс. на соиск. уч. ст., докт. пед. наук. - М., 1996.

69. Ульяновская У.В., Лебедева О.В. Организация и содержание специальной психологической помощи детям с проблемами в развитии. - М.: "Академия", 2005.

70. Умумий психология /А.В.Петровский тахрири остида. — Т.: "Ўқитувчи", 1992.

71. Усанова О. Специальная психология. - М., 1991.

72. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. - Т., 2009.

73. Хрестоматия по курсу «Коррекционная педагогика и специальная психология» / Сост. Н.Д. Соколова, Л.В. Калининова.— М., 2001.

74. Эльконин Д.Б. Психическое развитие в детских возрастах. -М.: Воронеж. 1995. -416 с.

75. Эсаулов А.Ф. Активизация учебно-познавательной деятельности студентов. -М.: 1982.

76. Qushchonov M.K. Ruscha o'zbekcha lug'at. -Т., 1983.

77. Ғозиев Э.Ғ. Олий мактаб психологияси. - Т. : "Ўқитувчи", 1997.

78. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. 1-2 китоб, - Т., 2002.

79. Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children

with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Paris, France.

80. Emmy Csocsan, Solveig Sjostedt .200 Years of Experience and Challenges of Today. READER. Learning and Visual Impairment.. 2008, Hungary Finland.

81. David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers.

82. David H. Warren/ Blindness and children : an individual differences approach / © Cambridge University Press, 2009.

83. John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed. Blindness and Brain Plasticity in Navigation and Object Perception Taylor & Francis Group, LLC 2008.

84. Heather Mason. Visual Impairment: Access to Education for Children and Young People. Routledge, 2013.

85. Peiser, Untersuchungen zur Psychologie der Blindnes: Untersuchungen zur Psychologie, Philosophic und PSdagogik - 1992. diss. Konigsberg.

MUNDARIJA

| | |
|---|------------|
| I bob. Tiflopsixologiya fanining umumiy masalalari | 4 |
| 1. 1. Tiflopsixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari..... | 4 |
| 1. 2. Ko'rish nuqsoniga ega bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomasi | 21 |
| II bob. Ko'rish nuqsoniga ega bolalarning bilish faoliyati | 41 |
| 2.1. Ko'rish nuqsoniga ega bolalarni sezgi va idrokining o'ziga xosligi | 41 |
| 2.2. Ko'rish nuqsoniga ega bolalar xotirasining o'ziga xosligi | 65 |
| 2.3. Ko'rish nuqsoniga ega shaxslar nutqi va muloqotining nutqiy bo'lmagan vositalarini rivojlanishi | 80 |
| 2.4. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslar muloqotining o'ziga xosligi, jamiyatga integratsiyalash muammolari | 95 |
| 2.5. Ko'rish nuqsoniga ega shaxslarning tafakkur jarayonlarining o'ziga xosligi..... | 104 |
| III bob. Ko'rish nuqsoniga ega bolalarni shaxs xususiyatlari ... | 124 |
| 3.1. Ko'rish nuqsonlarida shaxs va shaxslararo munosabat | 124 |
| 3.2. Ko'ruv nuqsonida faoliyat | 138 |
| 3.3. Ko'rish nuqsoniga ega bolalarning psixik rivojlanishida korreksiya va kompensatsiya | 153 |
| Glossariy | 168 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 183 |

СОДЕРЖАНИЕ

| | |
|--|------------|
| I Глава. Теоретические основы тифлопсихологии | 4 |
| 1. 1. Предмет, цель и задачи тифлопсихологии | 4 |
| 1.2. Психолого-педагогическая характеристика детей с нарушением зрения | 21 |
| II Глава. Познавательная деятельность детей с нарушением зрения | 41 |
| 2.1. Особенности ощущения и восприятия детей с нарушением зрения | 41 |
| 2.2. Особенности памяти детей с нарушением зрения | 65 |
| 2.3. Развитие речевых и неречевых средств общения лиц с нарушением зрения..... | 80 |
| 2.4. Особенности общения лиц с нарушением зрения и проблемы интеграции их в общество | 95 |
| 2.5. Особенности процессов мышления лиц с нарушением зрения | 104 |
| III Глава. Особенности личности детей с нарушением зрения..... | 124 |
| 3.1. Личность и межличностные отношения при нарушениях зрения | 124 |
| 3.2. Деятельность при нарушении зрения | 138 |
| 3.3. Коррекция и компенсация психического развития детей с нарушением зрения..... | 153 |
| Glossariy | 168 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 183 |

CONTENT

| | |
|---|-----|
| Chapter I. Theoretical Foundations of Tiflopsihology | 4 |
| 1. 1. The subject, purpose and objectives of typhlopsychology | 4 |
| 1. 2. Psychological and pedagogical characteristics of children with visual impairment..... | 21 |
| Chapter II. Cognitive activity of children with visual impairment | 41 |
| 2.1. Features of sensation and perception of children with visual impairment | 41 |
| 2.2. Features of memory of children with visual impairment..... | 65 |
| 2.3. Development of speech and non-verbal means of communication of persons with visual impairment..... | 80 |
| 2.4. Features of communication of persons with visual impairment and problems of their integration into society | 95 |
| 2.5. Features of the processes of thinking of persons with visual impairment | 104 |
| Chapter III. Features of the personality of children with visual impairment | 124 |
| 3.1. Personality and interpersonal relationships in cases of visual impairment..... | 124 |
| 3.2. Activity in case of visual impairment | 138 |
| 3.3. Correction and compensation of mental development of children with visual impairment. | 153 |
| Glossariy | 168 |
| Used Books | 183 |

Н.З.Абидова

Maxsus psixologiya

(Tiflopsixologiya)

Darslik

Toshkent -- «Barkamol fayz media» – 2017

Muharrir: Sh. Kuserbaeva

Tex.muhammad: F. Tishaboyev

Musahhih: N. Xasanova

Kompyuterda

sahifalovchi A.Kuchkarov

E-mail: Barkamol Fayz@mail.ru

Nashr.lits. AI № 284, 12.02.16. Bosishga ruxsat etildi 18.12.2017.

Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturasi. Ofset bosma usulida
bosildi. Shartli bosma tabogʻi 12 Nashriyot bosma tabogʻi 12,25.

Tiraji 200. Buyurtma №5.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor koʻchasi 171-uy.